

NAIM KARIMOV, UMARALI NORMATOV

ADABIYOT

**5- sinf uchun
o'quv qo'llanma**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan



TOSHKENT
«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi
BOSH TAHRIRIYATI
2004

Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar!

Bu yil sizning qo'lingizga 5- sinf uchun nashr qilingan «Adabiyot» darsligi bilan birga o'quv qo'llanmasi ham yetib boradi.

Darslik Osiyo Rivojlanish Banki kredit manbalari hisobidan Darsliklar Aylanma Jamg'armasi (DAJ) uchun chop etilganligi sababli nashriyot va mualliflar oldiga belgilangan hajmdan chetga chiqmaslik sharti qo'yilgan edi. Shuning uchun ham nashriyot va mualliflar darslikdan o'rin olgan talaygina asarlarni siz, aziz o'quvchilarga qisqartirilgan holda taqdim etishga majbur bo'lgan edilar.

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi va «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi darslikdan o'rin olgan aksar asarlarning lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvidagi nashrlari hozircha yo'qligini e'tiborga olib, 5- sinf uchun «Adabiyot» o'quv qo'llanmasini ham nashr etishni lozim deb hisobladi.

O'quv qo'llanmasini tayyorlashda mualliflar, birinchidan, darslikda berilgan asarlar yoki ulardan olingan parchalarni aynan takrorlamaslikka harakat qildilar. Ikkinchidan, darslikdan o'rin olgan mualliflarning yangi asarlarini yoki darslikda parchasi berilgan asarlarning davomini ushbu o'quv qo'llanmasiga kiritishni ma'qul, deb topdilar. Bu asarlar yoki asarlardan olingan parchalarni tanlashda ularning darslikdagi «Hikmat durdonalari» yoki «Ertaklarning sehrli olami» singari ruknlar ruhi va mazmuniga mos kelishini ta'minladilar. Uchinchidan, har bir rukndan keyin shu rukn ruhi va mazmuniga mos boshqa yozuvchining yangi asari siz, o'quvchilarning e'tiboringizga havola etildi. To'rtinchidan, darslikka kiritilgan har bir yozuvchi bo'yicha kengaytirilgan ma'lumotnomalar, har bir asar bo'yicha esa savol va topshiriqlar berildi.

O'quv qo'llanmasi, darslikdan farqli o'laroq, maktab kutubxonalarining jamg'arma fondlari uchun tayyorlandi. O'ylaymizki, siz bu fondagi boshqa kitoblar qatori, ushbu o'quv qo'llanmasidan ham samarali foydalanasiz va u sizning bilim doirangizni oshirib, fikringizning yana ham teranlashishiga xizmat qiladi.


«Sharq» kompaniyasi sizga a'lo va yaxshi baholar bilan o'qib, Vatanimiz ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatuvchi bilimdon va madaniyatli kishilar bo'lib ulg'ayishingizni astoydil tilab qoladi.

Karimov N., Normatov U.

Adabiyot: 5- sinf uchun o'quv qo'llanma. — T.: «Sharq» 2004. — 208 bet.

BBK.833 O'z—922

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2004.





YOZUVCHILAR ADABIYOT TO'G'RISIDA

* * *

Adabiyot soʻzini tuzukkina anglatmoq uchun boshlab *sanʼat* ham *goʻzal sanʼatlar* degan soʻzni taʼrif qilib oʻtish lozimdir...

Goʻzal *sanʼatlarda* tovar (material) tovush ohang boʻlsa, goʻzal *sanʼat musiqiy* boʻladir; boʻyovlar, chiziqlar boʻlsa, *rasm* boʻladir; tosh yo boshqa turli maʼdan esa *haykalchilik* boʻladir; tosh, yogʻoch, kirpich, ganch turnoq (tuproq, loy) boʻlsa, *meʼmorlik* boʻladir; tan, mugʻa (qoʻl, qosh, koʻz) harakatlari esa *oʻyin (tans)* boʻladir; gap, soʻz esa *adabiyot* boʻladir...

Goʻzal *sanʼatlarning* mana shu olti turlari bir-biriga yaqinlashmoq eʼtibori bilan ikki turkumga ayriladi. Adabiyot, musiqa, oʻyin (tans) — bir turkum; rasm, haykalchilik, meʼmorlik bir turkum boʻladir.

FITRAT

* * *

Adabiyot — fikr, tuygʻularimizdagi toʻlqinlarni soʻzlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu toʻlqinlarni yaratmoqdir. Bu taʼrif adabiyotning toʻgʻri taʼrifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladi.

FITRAT

* * *

Adabiyot har bir millatning hisli koʻngil tarixining eng qorongʻu xonalarida maishat (tirikchilik) har xil tusda va rangda bitishgan, fayzli til birga taqdir etula olmaydirgʻon bir guldur. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida oning toʻlquni odamning har xil maishatiga qarab oʻzgaradur...

... Adabiyot chin maʼnosi ila oʻlgan, soʻngan, qoralangan,

o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralagan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirdg'on buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir...

CHO'L PON

* * *

Adabiyot — fikr ommasi, qalb hislari bilan doimo sayqalanadigan, to'xtashni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha...

... Adabiyot turmushni aks ettiradi, turmushdagi voqealar, hodisalar, fikr va tuyg'ularni umumiyLashtirib, obrazlar bilan turmushni, dunyoni anglashga tirishadi...

... Adabiyotimizning tasvir obyekti — xalqimiz turmushi. U o'z taraqqiyotida xalq hayotini, kurashini, orzu-armonlarini, his-tuyg'ularini, fikr-xayollarini yangi jamiyat qurish yo'lidagi faoliyatini badiiy aks ettirib rivojlandi, benihoya yutuqlarni qo'lga kiritdi...

OYBEK

* * *

Adabiy asarlar turmushni jonli ko'rsatib, odamlarning fikr va tuyg'ulariga kuchli ta'sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to'la adabiy asarlar o'quvchini uzoq vaqt bog'lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt (mavhum) tushuntirmay, konkret (aniq) badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi.

Adabiy asarlar ila ma'lum bir yo'nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko'rsatish mumkin. Davrni to'liqlantirgan ulug' ideyalar, vazifalar, millionlarning hayotida ko'rilgan o'zgarishlar san'at asarlarida tajassumlanishi kerak.

Adabiyot xalqning jon-tani bo'lgan bir ishdir, shuning uchun bizning bu sohadagi har bir muvaffaqiyatimizni, maydonga chiqqan har bir qimmatli asarni xalq o'z g'alabasi, deb biladi.

OYBEK

* * *

Adabiyot — ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi — meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi...



... Quyosh, havo, yer, suv barcha jonvor va ko'katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste'dodli, uning qalam tutgan qo'li qanchalik tajribali bo'lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minatdor bo'ladi, uning ijodini, umuman, Adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi.

Abdulla QAHHOR

* * *

San'at asari chaqmoq, mushak, kamalak singari lahzani obod qiladigan umri qisqa, mag'zi puch go'zallik emas, balki adabiyotni bezaydigan, umri boqiy va mag'zi to'q go'zallikdir...

... O'qishli kitob go'zallikdir, lekin go'zallikda ham go'zallik bor. Qorong'i kechada otilgan mushak ham go'zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go'zal. Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar go'zalligi qamashtirsa ham puch go'zallik, shuning uchun bebahodir. Gulning go'zalligi esa to'q go'zallik, chunki uning bag'rida hayot bor, shuning uchun abadiy go'zallikdir. G'uncha guldan ham go'zalroq, chunki uning bag'rida ikki hayot — o'z hayoti va yana gul hayoti bor.

Abdulla QAHHOR

* * *

Lirika — inson qalbini, zamondoshimiz qalbini kashf etish, uning orzu va intilishlarini, muqarrar dramalarini idrok etish demakdir. Kishilarning ruhiy olami nechog'lik chuqur payqab va ilg'ab olinsa, she'riyat shu qadar boy va ta'sirchan bo'ladi. Lekin kashf etish fikr qilish, o'ylash demakdir. Hozirgi zamon she'riyatining mohiyati, rivojlanishining asosiy yo'nalishi ham ana shundadir...

... Mening hayotimda o'ta baxtli kunlar ham, musibatli onlar ham ko'p bo'ldi. Biroq hatto og'ir, mushkul daqiqalarda ham o'zimning dard-u hasratlarimni she'rga tushirarkanman, meni muhabbatimning g'olib qudrati hech qachon tark etmadi. Mening shaxsiy hayotim — xalq hayotining bir zarrasi. Men xuddi shunda ham grajdanlikning ifodasini ko'raman.

ZULFIYA

* * *

Qatrada quyosh aks etganidek, lirikaning eng kichik janrida ham katta hayotiy mazmun va olijanob tuyg'ular ifoda eti-

ladi. Shuning uchun ham u qiyin, shuning uchun ham u san'at asari, deb yuksak qadrlanadi... Ammo ba'zi bir shoirlarimizda kichik janrlarga nisbatan o'ta mas'uliyatsizlik bilan yondoshilayotganligi sezilib qolmoqda. O'zbek poeziyasining quyoshi deb ataganimiz Alisher Navoiyning ham umr bo'yi yozgan ruboiylari barmoq bilan sanarlidir. Biroq bu ruboiylarning har birida bir jahon mazmun bor.

ZULFIYA

* * *

She'r — tuyg'ular, hayotdan olingan taassurot va tafakkurlar mevasi!..

... Tuyg'ular! She'r — tuyg'ular farzandi. Chuqur fikrlar, yoniq, samimiy hislar farzandi bo'ladi she'r...

ZULFIYA

* * *

Fransuz faylasufi Gelvetsiy: «She'r yo yuksak cho'qqilarda, yoki g'orlarda yaratiladi», deydi. Darhaqiqat, she'r inson ruhining birmuncha g'ayritabiiy, ayricha holatidan tug'iladiki, zukko faylasuf buni obrazli qilib ifoda etgan. O'sha cheksiz ufqlar, sirli miltiragan sonsiz yulduzlar kimda ham his-tuyg'ular uyg'otmaydi, deysiz! Albatta, hammada ham. Faqat ijod dardiga chalingan odamda bu tuyg'u cheksiz armonga, go'zal iztirobga, qondirilishi nihoyatda zarur bo'lgan ehtiyojga aylanadi.

Abdulla ORIPOV

* * *

She'r shoir qalbida tug'ilgan hayotiy tuyg'ularni ifoda qiladi va shu bilan o'quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o'zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo'lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she'riy jimjimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo'q.

Erkin VOHIDOV

* * *

Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She'riyat yurak sadosi bo'lganidan ana shu murakkab tuyg'ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she'rni o'qib quvonsak, ko'ksimiz

g'urur va iftixor tuyg'ulariga to'lsa, ikkinchi bir she'rni o'qib, hayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo'lamiz.

Shoirlik o'sha tuyg'ularning tabiiyligi va haqqoniyligiga she'rxonni ishontira olishdir.

Ishontira olish — iste'dodning ibtidosi.

Erkin VOHIDOV

* * *

Aziz va yosh do'stlarim!.. She'riyat quyoshi, musiqasining sehrlı kuylari, bahor shabadasi kabi, sizning qalbingizga eng go'zal inson husnini beradi, eng nafis zavq bag'ishlaydi. She'r va muzika dunyosida xulqingiz nozik go'zallik, chuqur hissiyot kashf etadi.

OYBEK



Maqollar — xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va avlod-dan-avlodga o‘tib keluvchi turi. Yozma va og‘zaki adabiyot-ning boshqa biror turi yoki, u maqoldek ixcham, ammo katta mazmuni ifodalay olsin. Shuning uchun ham maqollar kishi-lar nutqini qanday bezab kelsa, badiiy asarga ham shunchalik joziba bag‘ishlaydi.

MAQOLLAR

Aqlli do‘st — rohat,
Aqlsiz do‘st — ofat.

Do‘st dilidan bilinar,
Dushman — tilidan.

Do‘sting bilan sirdosh bo‘l,
Qilgan ishiga qo‘ldosh bo‘l.

Do‘stsiz boshim — tuzsiz oshim.

Surma ketar, ko‘z qolar,
Dushman o‘tar, do‘st qolar.

Qarindoshing o‘lsa-o‘lsin,
Qadrning o‘lmasin.

Aql ko‘pga yetkazar,
Hunar — ko‘kka.

Aqlning qayrog‘i — bilim.

Bilagi zo'r birni yiqar,
Bilimi zo'r — mingni.

Bilgan bilganin ishlar,
Bilmagan barmog'in tishlar.

Yoshlikda bilgani — toshga yozgani,
Qarilikda bilgani — muzga yozgani.

Yoshlikda o'rgangan hunar
O'zingga o'ljaga qolar.

Zamon seni o'qitar,
Tayoq bilan so'qitar.
Sabog'ingni bilmasang,
Do'konda bo'z to'qitar.

Olim bo'lsang — olam seniki.

Usta ko'rmagan shogird
Har maqomga yo'rg'alar.

O'qish boshqa, uqish boshqa.

Hunar bo'lsa qo'lingda
Non topilar yo'lingda.

Aql — Hasan, odob — Husan.

Aqli kalta pand yeydi.
Aqli teran qand yeydi.

Insoniyat o'zining taraqqiyoti davomida ko'plab ajabtovur voqealarni boshidan kechirgan. Shunday voqealar xalq xotirasida afsonalar, ertaklar va ibratli hikoyatlar tarzida yashaydi. Har bir avlodning shakllanishida o'tmishdan bizga yetib kelgan ibratli hikoyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mard yigit

Bir kecha Misr jome masjidiga o't tushib, yonib ketdi. Musulmonlar buni xristianlardan gumon qilib, ularning uylariga o't qo'yib kuydirdilar.

Misr sultoni o't qo'yishda ayblanganlarni qo'lga tushirdi. Uning buyrug'i bilan qancha odam qo'lga olingan bo'lsa, shuncha kichik qog'ozchalar tayyorladilar. Har bir qog'ozchada bir kishining ismi va unga qanday jazo berish kerakligi yozilgan edi. Shu qog'ozchalarni har kimga bittadan ulashdilar. Kimga qanday jazo chiqqan bo'lsa, o'sha bilan jazolanardi.

Bir yigitga o'lim jazosi chiqdi, u yigit afsuslanib:

— Men o'limdan qo'rqmayman, ammo onamga achinaman, uning mendan boshqa hech kimi yo'q, mendan keyin qanday holga tushishini o'ylab qayg'uraman, — dedi. Uning yonida turgan bir yigitga darra urish jazosi yozilgan qog'ozcha tushgan edi. U o'z qog'ozchasini o'lim jazosi yozilgan qog'oz olgan yigitga berdi va unikini o'zi olib, jazo hukmlarini ijro qiluvchilarga:

— Mening onam yo'q, yolg'iz o'zimman, bu yigitga beriladigan o'lim jazosini menga bering, mening hissamga tushgan qamchi urish jazosi bilan uni jazolang, — dedi. Uning tilagicha ish qildilar.

Siy-m-u zar sochish bilan mardlik ko'rsatish mumkin, ammo jonni tikmoq a'lo mardlikdir.

Matlub meros

Misr hukmdori Rum hukmdori bilan kelishib, oralaridagi adovatni bartaraf qildilar. Do'stlik ahdini tuzdilar. Do'stliklarini kuchaytirib abadiylashtirish uchun Misr hukmdori o'z qizini Rum hukmdorining o'g'liga berdi. Rum hukmdori ham

o'z qizini uning o'g'liga nikohladi. Shunday qilib har ikki hukmdor bir-birlariga qarshi quda bo'ldilar. Bu oshnolik tufayli har ikki tomondan elchi va maktub bot-bot borib-kelib turdi, har ikkisi bir-biri bilan maslahatlashib ish olib bordilar.

Bir kuni Misr hukmdori qudasi Rum hukmdoriga shu mazmunda xat yozib yubordi:

— Ko'zlarimizning nurlari bo'lgan farzandlarimizning vafotimizdan keyin ham rohat va farog'atda yashashlari uchun shu topdan boshlab chora ko'rishimiz kerak. Men o'g'lim uchun juda ko'p mol-dunyo jamladim. Chiroyli bog' va imorat vujudga keltirdim. Siz ham kuyovim bo'lgan o'g'lingiz uchun shunday qilgan bo'lsangiz kerak.

Rum hukmdori qudasi Misr hukmdorining xatini o'qib, tabassum qildi va shu mazmunda maktub bitdi:

— Men sizdan ko'ra boshqacharoq yo'l tutdim. Vafosiz mol-dunyo, matolarga iltifot etmayman. Shuning uchun men o'g'limga mol-u dunyo to'plamay, uni ilm-hunarli, odob-axloqli qilib o'stirdim, adab jilosi bilan uni bezadim, yaxshi xislatlarni o'g'lim uchun meros etib qo'ydim. Mol-dunyoga zavol yetadi, ammo odobga zavol yetmaydi.

Misr hukmdori qudasining xatini o'qigach, uning so'zini ma'qullab;

— Qudam to'g'ri aytadi, odob, axloq — oltindan ham qimmatli, — dedi.

Ustodning hiylasi

Bir kishi kurash tushish san'atini a'lo darajada egallagan atoqli pahlavon edi. Kurashning 360 usulini mukammal suratda bilardi va har kuni shu usullarni ishlatib, kurash tushardi. U o'z shogirdlaridan biriga kurashning 359 usulini o'rgatdi, faqat bir usulini sir saqladi, uni shogirdiga o'rgatmadi.

Shogird kuch-quvvatda, kurash san'atida a'lo darajada yetishdi. Hech kim u bilan kurash tushishga toqat qilolmasdi. Bir kuni u g'ururlanib podshoga:

— Yoshi katta bo'lgani va meni tarbiya qilgani uchun ustodim mendan afzaldir, bo'lmasa men kuch-quvvatda undan kam emasman! — deb maqtandi.

Uning maqtanishi podshohga xush kelmadi. Bir katta kurash maydonida ustoz bilan shogirdning kurash tushishlarini buyurdi. Kurash maydoniga podshoh, uning vazirlari, amaldorlari va yer yuzidagi mashhur pahlavonlar hozir bo'ldilar.

Kurash boshlandi. Shogird ustodiga mast bo'lgan fildek ro'baro' bo'ldi. Agar tog' cho'yandan bo'lsa ham uni joyidan ko'chirib yuborishni gumon qilardi. Ustod shogirdining kuch-quvvatda o'zidan yuqori ekanini angladi. Darhol shogirdiga o'rgatmay, sir saqlab qolgan usulini ishlatdi. Shogird bu usulni bilmasdi, qarshi turishdan ojiz bo'ldi. Ustod shogirdni boshdan yuqori ko'tarib, aylantirib yerga urdi. Tomoshabinlardan tahsin-ofarin tovushlari ko'tarildi. Podshoh ustodga xil'at va ne'mat ehson qildi, shogirdga: «O'zingni ustodingdan ham yuqori qo'ymoqchi bo'lding», deb ta'na va malomat qildi.

Shogird aytdi:

—Ustodim kuch-quvvatda men bilan teng emasdi, faqat kurash usullaridan menga o'rgatmay, sir saqlaganini ishlatib g'olib keldi.

Ustod aytdi:

— Mana shunday kunlar uchun kurash usullaridan birini unga o'rgatmay, sir saqladim. Donishmandlar: «Do'stingga juda ishonib, unga ortiqcha quvvat berma, mabodo bir kun dushman bo'lib qolsa, bergan quvvating bilan g'olib keladi», deganlar.

Odil Anushervon

Qadimgi Eron shohlaridan Anushervon har yili navro'z kunida bir ziyofat tashkil qilib, xalqni da'vat qilardi. Bir yil navro'z kunida tashkil qilgan ziyofatga kelganlar orasida turmushdan juda qiynalgan kambag'al bir kishi ham bor edi. U o'z-o'ziga:

— Shu yerdagi idishlardan birini olib ketib sotsam, muhtojlikdan ancha qutulaman. Mening chorasizlikdan qilgan bu gunohimni, shoyad kechirar, — deb qimmatbaho idishlardan birini kiyimi orasiga o'rab oldi.

Anushervon uning qilib turgan ishini ko'rib turgan bo'lsa ham, indamadi. Ziyofat tamom bo'lib, xalq tarqalishga hozirlandi. Idish-tovoqlarni saqlaydigan xizmatchi idishlarni sanab, qimmatbaho bir idishning yo'qligini bildi. Darhol bu haqda Anushervonga arz qilib, hammani tekshirib chiqarish kerakligini aytdi. Anushervon unga:

— Tekshirib hech kimni uyaltirma, u idishni muhtojlikdan ezilgan bir kishi olgan bo'ladi. Uning olganini ko'rgan kishi ham chaqimchilik qilmaydi, — dedi.

Idishni olgan kishi uni sotib, turmushiga yaratdi, o'ziga

yangi kiyimlar tikirdi. Keyingi yil bo'lgan ziyofatga yasanib-tusanib, yangi kiyimlarni kiyib keldi. Ziyofatdan keyin Anushervon uni imlab yoniga chaqirdi. Xoli yerga olib borib:

— Bu yangi kiyim o'sha idish puliga kelgan emasmi? — deb kulib so'radi. U kishi qizarib:

— Sizning soyangizda shu kiyimlarga ega bo'ldim. Muhtojlik meni shu gunoh ishga majbur qildi, meni kechiring. Shu qilgan aybimdan vijdonan azob tortaman, — deb kechirim so'radi. Anushervon unga tasalli berib:

— Bundan so'ng egasidan so'ramasdan birovning narsasiga qo'l tegizmay, ehtiyojningni menga kelib ayt, yordam qilaman, — deb in'om-ehson qilib, uni shodlantirdi.

Do'stlik

Bir kishi biroz pulga muhtoj bo'lib qoldi, do'stidan yordam olish maqsadida uning uyiga borib, eshigini taqillatdi. Do'sti chiqib, u bilan ko'rishdi, uyga taklif qilsa ham u kishi qabul qilmay:

— Do'stim, meni kechir, uyga qilgan taklifingni hozircha qabul etmayman, vaqtim ziq. Bir kishidan yuz so'm qarzdor edim, bugun kelib, pulini qistadi. Qo'limda pul yo'q edi. Shuning uchun sening huzuringga keldim, yordam etarsan, deb umid qilaman, — dedi.

Uy egasi darhol ichkaridan yuz so'm olib chiqib, do'stining qo'liga berdi.

— Do'stim, biror narsaga muhtoj bo'lib qolsang, mendan yashirma, qo'limdan kelganicha yordam berishga tayyorman, — deb do'stining ko'nglini ko'tardi.

Do'sti xursand bo'lib, u bilan xayrlashib, uyga qaytdi.

Uy egasi do'sti qaytib ketgandan keyin yig'lab uyiga kirdi. Xotini «Erim ko'p pul berib yuborganiga pushaymon qilib yig'layotgan bo'lsa kerak» — deb, eriga:

— Biror narsani bahona qilib, pul bermasdan qaytarib yuborsangiz bo'lmasmidi? — degan edi, eri shunday javob berdi:

— Yo'q, sen o'ylaganicha emas, do'stim pulga muhtoj bo'lib qolganini bilmaganman. U kelib so'ramasdan oldin o'zim borib, «Do'stim, biror narsaga muhtojmasmisan, tortinma, ayt», — deb so'rashim kerak edi, g'aflatda qolganimga achinib yig'layapman.



IMOM AL-BUXORIY

(810—871)



Hadislar Qur'ondan keyin musulmonlarning ruhiy va ma'naviy hayotiga eng katta ta'sir o'tkazgan hikmat durdonalaridir.

Imom al-Buxoriyga mansub 600 ming hadis orasida shundaylari borki, ular bizning vijdon bilan yashashimiz va pokiza hayot kechirishimizda qiblanoma bo'lib xizmat etadi.

Imom Buxoriy butun umrini hadis ilmiga baxsh etdi. U yoshligidanoq o'zining o'tkir zehni, beqiyos iqtidori bilan tengdoshlari orasida ajralib turgan. Rivoyatlarda aytilishicha, bu yigit biror kitobni o'qisa unda yozilganlarning barchasi yodida qolar ekan. Dars vaqtida ustozlardan olgan saboqlarni ham ipidan-ignasigacha xotirasida saqlab qolarkan. Bir kuni birga o'qigan talaba do'stlari: «O'n olti kun burun olgan darsimizni Buxoriydan bir so'rab ko'raylik-chi, esida bormikan?» deya uni imtihon qilishibdi. Do'stlari daftarlariga qarab turishibdi. Buxoriy o'n olti kun ilgari o'tilgan darsni biror kalima qoldirmay yoddan aytib bergandan keyin, uning xotira va iqtidoriga qoyil qolib, ayni chog'da o'zlari yozib olgan darslardagi kamchiliklarni ham tuzatib olishibdi.

Imom Buxoriyga mansub hadislar sahih — ishonchli deb atalishi bejiz emas. Imom Buxoriyning shogirdlaridan biri «Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma'lum bo'lmagan hadis albatta ishonchli emasdir» deb yozganida to'la haq.

HADISLAR

Shirinso‘z odam haqida

Abu Xurayra raziyallohu anhu: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Shirinso‘z — sadaqadir!? — deganlar», — deydilar.

Adiy ibn Hotim rivoyat qiladilar: «Nabiy sollallohu alayhi va sallam do‘zax haqida eslar ekanlar, yuzlarini o‘tdan pana qilgandek harakat qilib: «A‘uzzu billohi» — deb qo‘ydilar. So‘ng, yana do‘zax haqida gapirib yuzlarini o‘tdan pana qilgandek harakat qildilar-da: «A‘uzzu billohi», dedilar (Shu‘ba: «Ikki marta shunday qilganlariga shubham yo‘qdir», — dedilar.) Keyin: «Yarimta xurmo sadaqa qilib bo‘lsa ham o‘zingizni do‘zax otashidan saqlangiz, agar shuni ham topolmasangiz, odamlarga shirinso‘z aytingiz!» — dedilar.

Mo‘minlarning bir-birlariga ko‘maklashmoqlari (lozimligi) haqida

Abu Muso (al-Ash‘ariy) rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Mo‘min mo‘min uchun bir-birini suyab turgan ikki bino yanglig‘ (bo‘lmog‘i lozim)!» — deb barmoqlarini chalishtirib (ko‘rsatdilar)».

Nabiy sollallohi alayhi va sallam (uyda) o‘ltirgan edilar, bir kishi kirib kelib, nimanidir so‘rab iltimos qildi. Janob Rasululloh bizga o‘girilib qaradilar-da: «Ko‘mak qilingiz, savobga qolgaysiz! Olloh taolo o‘z rasulining tilidan uning istagan narsasini aytirib, hojatini chiqarg‘aydir!» — dedilar».

* * *

Olloh taolo: «Yaxshilikka ko‘mak bergan kishi yaxshi nasiba olg‘usidir, yomonlikka ko‘mak bergan kishi yomon nasiba olg‘usidir! Olloh hamma narsaga qodirdir!» — deydi.

Abu Muso rivoyat qiladilar: «Nabiy sollallohi alayhi va sallam, agar biror gado yokim hojatmand kishi huzurlariga kirib kelsa: «Ko‘mak qilingiz, savob topg‘aysiz! Olloh taolo o‘z rasulining tilidan uning istagan narsasini aytirib, hojatini chiqarg‘aydir!» — dedilar.

Gap tashimoq makruh ekanligi xususida

Oллоh taolo: «Gap tashib yurg'uvchilarning kishilar qalbiga nashtar uruvchi, ularni tahqirlovchi va badnom qiluvchi har bir tuhmat, bo'hton va mazahlari uchun hollar voy bo'lg'ay!» — deydi.

Hammon raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: — Huzayfa birlan birga erdik, unga: «Falonchi Usmonga gap tashiydi», — deyishdi. Huzayfa: «Men Nabiy sollallohu alayhi va sallamning «G'iybatchi jannatga kirmag'aydir!» deb aytganlarini eshitganman», — dedi».

Bir-biriga hasad qilmoq va bir-biridan arazlamoq man qilingani haqida

Oллоh taolo: «... va min sharri hosidin izo hasada» («... hasadchi hasad qilganda yomonlig'idan asra, degil!») — deydi.

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Badgumon bo'lmanglar, badgumonlik — eng yolg'on so'zdir (ya'ni, badgumonlik birlan aytilgan so'z — eng yolg'on so'zdir.) Tirnoq ostidan kir qidirmanglar, gap poylamanglar, bir-biringizga hasad qilmanglar, bir-biringizdan arazlamanglar va nafratlanmanglar. Aka-uka tutinib, Oллоhning (solih) bandalari bo'linglar!.. Musulmon odam o'z (dindosh) birodari birlan uch kundan ortiq arazlashmasin!» — dedilar».

Tabassum va kulgi haqida

Muhammad ibn Sa'd otalaridan naql qiladilar: «Umar ibn al-Xattob Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kirmoqqa ruxsat so'radilar, shunda ichkarida Quraysh qabilasiga mansub bir to'da xotinlar ovozlari boricha qo'yib Janob Rasulullohga ezmalanib savollar bermoqda erdilar, ul zotning tovushlari ersa arang quloqqa chalinar erdi. Hazrat Umar ruxsat so'raganlarida ular shosha-pisha yopinchiqlariga o'ranib olishdi. Keyin, Janob Rasululloh ruxsat berib erdilar, Hazrat Umar ichkariga kirdilar. Shunda ul zotning kulib turganlarini ko'rib: «Yo Rasululloh, ota-onam sizga fido bo'lsin, Oллоh taolo sizni umr bo'yi kuldirsin!» — dedilar. Janob Rasululloh: «Men manavi huzurimdagi ayollardan taajjublandim, sening ovozingni eshitib, ular shosha-pisha yopinchiqlarini yopinib olishdi» dedilar. Hazrat Umar: «Siz ayollarning

izzat-ikrom qilmoqlariga hammadan ham haqliroqsiz!» — dedilar. So‘ng, ayollarga o‘g‘irilib: «Ey o‘ziga-o‘zi dushmanlar, nechun meni hurmat qilasizlar-u, Janob Rasulullohni mensimaysizlar?» — deb aytdilar. Ayollar: «Siz Janob Rasulullohga nisbatan qo‘polroq va dag‘alroqsiz!» — deyishdi. Janob Rasululloh: «Eh, Ibn al-Xattob! Jonim qo‘lida bo‘lgan zot haqqi, agar sening yo‘lingdan hatto shayton chiqib qolsa, (dag‘alligingdan qochib) boshqa yo‘lga burilib ketgay!» dedilar.

Odam ota-onasini haqorat qilmaydi!

Abdulloh ibn Amr rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: «Odam qiladigan gunohi azimlardan biri — ota-onasini haqorat qilmoqdir!» — dedilar. Shunda: «Vo Rasululloh, odam o‘z ota-onasini qanday qilib haqorat qil-mog‘i mumkin?!» — deyishdi. Janob Rasululloh: «Birovning ota-onasini so‘kkan odam o‘z ota-onasini haqorat qilgan bo‘lur», — deb javob qildilar».

Ota-onasiga itoat qilgan odamning duosi mustajob* bo‘lmog‘i xususida

Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam bunday deb erdilar: «Uch kishi yo‘lda ketmoqda erdi, yomg‘ir yog‘ib qolib, tog‘dagi bir g‘orga qochib kirdi. Nogahon, tog‘dan bir katta tosh dumalab tushib, g‘orning og‘zini to‘sib qo‘ydi. Ular bir-biriga: «Olloh taolo yo‘lida biror amali solih qilgan bo‘lsangiz, o‘shani o‘rtaga qo‘yib Ollohga iltijo qilingiz, zora u g‘orning og‘zini ochsa!» — deyishdi. Ulardan biri: «Ey parvardigoro, mening qari-qartang ota-onam hamda bir nechta go‘dak bolalarim bo‘lib, ularni boqmoq uchun qo‘ychibonlik qilar edim. Ularning huzuriga qaytgach, qo‘ylarni sog‘ib, sutini bolalarimdan avval ota-onamga berar edim. (Kunlardan bir kun) qo‘ylarni uzoqroq yaylovga haydab ketgan edim, qayt-gunimcha ota-onam uxlab qolishibdi. Odatdagidek, qo‘ylarni sog‘ib, sutini ota-onamning huzurlariga olib bordim-u, uyg‘otishga botina olmay boshlarida turib qoldim. Bolalarim esa (sut so‘rab) oyoqlarim ostida talpinib yig‘lashar edi. Shu ahvolda bolalarim birlan tong ottirdik. Ey parvardigoro, agar bilsang, bu ishni seni yuz-xotir qilib qilgan edim, bizga

* Mustajob — qabul qilingan.

g'orning og'zini biroz ochgil, toki biz u orqali osmonni ko'raylik!» — deb iltijo qildi. Shunda Oллоh taolo g'orning og'zini biroz ochdi, ular osmonni ko'rdilar. Ularning ikkinchisi: «Ey parvardigoro, amakimning bir qizi bo'lib, uni men ayollarni yaxshi ko'radigan erkaklardan ham ortiqroq yaxshi ko'rar erdim. Unga sovchi qo'yganimda yuz dinor bermagunimcha tegishga rozi bo'lmadi. Bir amallab yuz dinor to'pladim-da, uning oldiga bordim... Qizga tegajog'lik qila boshladim. Shunda u menga: «Ey Abdulloh, Oллоhdan qo'rqgil» — deb erdi, men o'rnimdan turib undan nari ketdim. Ey parvardigoro, agar bilsang, men bu ishni seni yuz-xotir qilib qilgan erdim, (g'orning) og'zini bizga (kattaroq) ochib bergil!» — dedi. Oллоh taolo (g'orning) og'zini (kattaroq qilib) ochdi. Ularning uchinchisi: «Ey parvardigoro, bir kishini bir farq (16 ratl, 1 ratl — 449,28 gr) sholiga yo'llab erdim, ish tugagach «Haqimni ber!» — dedi. Men haqini berib erdim, olmay tashlab ketdi. Keyin, men o'sha sholini ekib, hosilini sotdim-da, puliga bir sigir va boqish uchun xizmatkor xarid qildim. (Bir kuni) u oldimga kelib: «Oллоh taolodan qo'rqgil, menga zulm qilmag'il, mening (o'shal) haqimni bergil!» dedi. Men unga: «Bor, anavi sigir birlan uning boquvchisini ham ola qolgil!» — dedim. U menga: «Oллоhdan qo'rqgil, meni mazax qilmagil!» — dedi. Men unga: «Men seni mazax qilayotganim yo'q, anavi sigir birlan uning boquvchisini ham olg'il» — dedim. Shundan so'ng u aytganlarimni olib chiqib ketdi. Ey parvardigoro, agar bilsang, men bu ishni seni yuz-xotir qilib qilgan erdim, g'orning og'zini butunlay ochgil!» — deb iltijo qildi. Oллоh taolo g'orning og'zini butunlay ochdi».

Tavoze haqida

Anas ibn Molik rivoyat qiladilar: «Nabiy sollallohu alayhi va sallamning Al-Azbo' degan tuyalari bo'lib, biror marta ham poygada yengilmagan edi. Bir arabiy yosh tuya minib kelib, undan o'zib ketdi. Bundan ranjigan musulmonlar: «Al-Azbo' yutqazib qo'ydi!» deyishibdi. Janob Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «Bu dunyodagi biror narsani obro'sizlantirmoqqa faqat Oллоh taoloning o'zigina haqlidir!» — dedilar.



Savol va topshiriqlar

1. Odamlarga shirinsoʻz aytish fazilati hadisda qay tarzda ulugʻlangan?
2. Gap tashimoq, bir-biriga hasad qilmoq va dagʻallikning nojoiz illat ekani nimada deb bilasiz?
3. «Birovning ota-onasini soʻkkan odam oʻz ota-onasini haqorat qilgan boʻlur» degan hadis maʼnosini tushuntirib bering.
4. «Ota-onasiga itoat qilgan odamning duosi mustajob boʻlmogʻi xususida» hadisida keltirilgan voqeani hikoya qilib bering. Shu voqea boʻyicha uyda insho yozing.
5. Hadislardagi yoʻl-yoʻriqlarga amal qiladigan tanish odamlardan kimlarni bilasiz?



KONFUTSIY HIKMATLARI



Xitoydagi ilm-fan taraqqiyotida Konfutsiy va uning maktabi alohida ahamiyatga ega. Uning Xitoy falsafasi tarixida tutgan o'rnini Suqrotning yunon falsafasi tarixidagi o'rnigagina qiyoslash mumkin, xolos.

Konfutsiy miloddan ilgari taxminan 551—471-yillarda yashagan. Uning butun dunyoda mashhur bo'lgan nomi «kun» va «futszi» so'zlari asosida yasalgan «Kun» hozirgi vaqtda familiyani anglatuvchi so'z bo'lsa, «fu» faylasuf, «szi» o'qituvchi ma'nolarini ifodalovchi so'zlardir. Ya'ni Konfutsiy «falsafa o'qituvchisi» degan so'zlarning familiya maqomini olgan shaklidir.

Konfutsiy yashagan davrdan «To'rt asos» va «Besh asos» degan ulkan yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. «Besh asos» Konfutsiyga qadar yaratilgan «Qo'shiqlar kitobi», «Taomillar kitobi» («Marosimlar kitobi»), «Rivoyatlar kitobi» va «Folbinlik kitobi» («O'zgarishlar kitobi») singari qismlardan iborat bo'lgan. Lekin bu kitoblarning barchasi konfutsiylik ta'limoti asosida qayta ishlangan va Konfutsiy ta'limotining mohiyatini ochishga xizmat qilib kelgan. «To'rt asos» esa Konfutsiy «Hikmatlar»idan tashqari, «Menszi» («Menmuallim»), «Buyuk ta'limot» va «Oraliq haqidagi ta'limot» singari Konfutsiy shogirdlarining hikmatli so'zlaridan tashkil topgan.

Konfutsiy ta'limoti markazida «muruvvatli zot» turadi. U hukmron tabaqaning ideal vakili bo'lib, Konfutsiy ta'limoti yordamida o'zida jamiyat farovonligini ta'minlay va ma'naviy asoslarini ifodalay oladigan olijanob fazilatlarni shakllantirgan. Konfutsiy «Hikmatlar»i «muruvvatli zot»ning shunday yuksak insoniy fazilatlarini aks ettiradi.

Aniqroq aytsak, bu zot oliy hukmdorga nisbatan chuqur ehtiromli, xalqqa esa muruvvatli bo'luvchi, butun kuch va qobiliyatini jamiyat oldidagi burchini oqlashga, milliy urf-odat va an'analarning to'la-to'kis bajarilishini ta'minlashga sarf etuvchi kishidir. Shuning uchun ham uning o'gitlari, pand-u nasihatlari Xitoyda hanuzga qadar e'zozlanib va qadrlanib keladi.

KONFUTSIY hikmatlari

Men Sun ustozdan farzandlik burchi nima, deb so'radi. Ustoz javob berdi:

— Tuzukdan chiqmaslik.

Fan Chi ot aravani haydab borardi, shunda Ustoz aytdi:

— Men Sun mendan farzandlik burchi nima, deb so'radi.

Men unga: tuzukni buzmaslikdir, deb aytdim.

— Buning ma'nosi nima? — deb so'radi Fan Chi.

Shunda Ustoz javob berdi:

— Ota-ona tirikligida ularga yaxshi xizmat qilmoqdir.

Qazo qilsalar — ko'mib kelmoq va zarur rasm-rusumlarni ado etmoqlikdir.

* * *

Ustoz aytardi:

— Agar o'qisang-u o'ylamasang — chalkashib qolasan.

Agar o'ylasang-u o'qimasang — shubha-gumonlar tagida qolib ketasan.

* * *

Ustoz aytardi:

— Ota-onangizning xizmatini ado etayotganda, ularga ohista so'ylang. Agar ular sizning aytganlaringizni qilishni istamayotganliklarini ko'rsangiz, bari bir tavozeda turavering va odob qoidalarini buzmay. Hatto qon yutib turgan bo'lsangiz ham, koyinganingizni bildirmang.

* * *

Ustoz aytardi:

— Ota-onangiz tirik ekan, ulardan uzoq ketmang. Agar

borish zarur bo‘lib qolsa, qayerga borishingizni ularga ma‘lum qilib keting.

* * *

Ustoz aytardi:

— Qadimlarda kam so‘ylashardi, o‘z so‘zlarining ortidan yetolmay qolishdan qo‘rqishardi.

* * *

Ustoz aytardi:

— Ehtiyotkor odamlar kamdan-kam xato qiladilar.

* * *

Ustoz aytardi:

— Munosib xulqli kishi so‘zlarni shoshilmasdan so‘ylagani ma‘qul va ishlarni jadal ado etmog‘i afzal.

* * *

Yan Yuan haqiqiy odamiylik nima, deb so‘radi.

— Odam o‘zini tuta bilishi va adab taomillariga rioya etishi kerak, — deb javob berdi Ustoz, — mana shu chinakam odamiylik bo‘ladi. Bir safar o‘zingni tutishga o‘rgansang va adabga rioya qilgan holda harakat qilsang, shunda butun Osmon seni odamiy ekan, deb ataydi. Odamiy bo‘lish yoki bo‘lmaslik faqat kishining o‘zigagina bog‘liq, — axir bu narsa boshqalarga bog‘liq bo‘lishi sira aqlga to‘g‘ri keladimi?

— Marhamat qilib ayting-chi, bunga qanday erishsa bo‘ladi?

Ustoz aytdi:

— Adabga zid narsalarga qaramang. Adabga zid narsalarni eshitmang. Adabga xilof narsalarni gapirmang. Adabga xilof narsalarni qilmang.



Savol va topshiriqlar

1. Konfutsiy aytganidan tashqari farzandlik burchi yana nimalardan iborat deb bilasiz?
2. Hikmatda aytilgan o‘qish va uqish ma‘nosini tushuntiring.
3. Hikmatdagi ota-ona hurmatini ado etish qoidalariga Siz qanday qarayasiz?
4. «Ehtiyotkor odamlar kamdan-kam xato qiladi» degan hikmat fazilatini amalda sinab ko‘rganmisiz?
5. «Odamiylik nima» degan fazilatlarni daftaringizga ko‘chirib oling. Hayotda ularga rioya qilishga harakat qiling.

PAULO KOELO

(1947)



Paulo Koelo bugungi jahon adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan. U Braziliyada yashaydi, portugal tilida ijod qiladi. Uning romanlari jahonning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan. XX asrning 90-yillarida yaratilgan «Alximik» va «Beshinchi togʻ» romanlari, ayniqsa, katta shuhrat qozondi.

«Alximik»ni ajoyib ibratli ertak, deb ham atashadi. Adibning oʻzi yozganidek, romanda hikoya qilingan yosh choʻpon yigit Santyagoning sayohati bilan bogʻliq voqealar asosida yotgan tub maʼno-mazmun — bu «Oʻz Taqdiring» tushunchasidir. «Oʻz Taqdiring» nima degani? Bu Alloh tomonidan bizga buyurilgan, umrimiz mobaynida ado etishimiz lozim boʻlgan oliy majburiyat, har qaysimizning bosib oʻtadigan oʻz yoʻlimizdir. Biz har safar biron bir amalni quvonch va hafsala bilan bajarganimizda Oʻz Taqdirimizga mos tarzda ish tutgan boʻlamiz. Biroq ulugʻ orzu-niyatlarga peshvoz chiqishday baxtga erishmoq uchun bu yoʻldan matonat bilan oʻtish darkor.

Asar qahramoni Santyago oʻz orzu-niyati yoʻlida vatani Andaluziya (Ispaniya)dan Misrga safarga otlanar ekan, bu yoʻlda turli-tuman sarguzashtlarni boshidan kechiradi, xilma-xil odamlarga duch keladi, ulardan gʻaroyib pand-nasihatlar, rivoyatlar eshitadi.

«Baxt kaliti» ana shunday rivoyatlardan biridir.

BAXT KALITI

(«*Abximik*» romanidan)

Bir savdogar o'g'lini eng katta donishmandning huzuriga baxtning kaliti — sirini bilib kelish uchun jo'natipti. Yigit sahroda qirq kun yo'l yuripti va nihoyat, ulkan tog'ning tepasida haddan ziyod muhtasham bir qasrni ko'riпти. U qidirgan Donishmand shu qasrda yashar ekan.

Kutganiga zid o'laroq qasr avliyo odamning xilvat go'shasiga o'xshamasdi. Uning ichi odamga to'la edi: savdogarlar mollarini maqtab har tomon yugurishar, burchak-burchaklarda odamlar to'p-to'p bo'lib gurunglashar, sozandalarining kichik bir dastasi qandaydir nafis kuyni ijro etar, zalning o'rtasida esa kattakon stol, uning ustiga dasturxon tuzalgan, dasturxon esa bu yurtning eng noyob va tansiқ taomlari, bag'oyat xushta'm noz-ne'matlariga to'la edi.

Donishmand shoshmasdan mehmonlar bilan birma-bir ko'rishib chiqdi. Yigit navbati kelishini ikki soatcha kutib qoldi.

Nihoyat, Donishmand yigitning nima maqsadda kelganini bildi, lekin hozir unga baxtning kaliti — siri nimada ekanini tushuntirib berishga vaqti yo'q ekanini aytdi. Donishmand yigitga chiqib qasrni tomosha qilishni va ikki soatlardan keyin bu yerga — zalga qaytib kelishni buyurdi.

«Sendan yana bir iltimosim bor, — dedi u yigitga ichiga ikki tomchi yog' solingan choy qoshig'ini uzatib. — Bu qoshiqni o'zing bilan olib yur, faqat ehtiyot bo'l, ichidagi yog'i to'kilib ketmasin».

Yigit qoshiqdan ko'zini uzmagani holda qasrni aylandi, uning zinalaridan tepaga ko'tarildi, pastga tushdi va, nihoyat, ikki soat o'tgach, Donishmandning ro'parasida yana namoyon bo'ldi.

«Xo'sh, qalay, — deb so'z qotdi Donishmand. — Koshonadagi fors gilamlari senga manzur bo'ldimi? Benihoya mirishkor bog'bonlar o'n yildan beri ko'zining oq-u qorasidek avaylab parvarish qilayotgan bog'dagi gullar va daraxtlar yoqdimi? Kutubxonadagi qadimiy kitoblar va nodir qo'lyozmalar-chi?»

Xijolatdan qizarib ketgan yigit bularning hech qaysisini ko'rmaganini tan oldi, negaki, uning butun diqqat-e'tibori Donishmand unga ishonib topshirgan ikki tomchi yog'da bo'lgan ekan.

«Bor, orqangga qayt, mening uyimdagi hamma mo'jizalarni ko'rib kel, — deпти Donishmand. — Odam qayerda va qanday yashashini bilmay turib, unga ishonib bo'lmaydi».

Qo'lida qoshiqcha bilan yigit yana zallar va yo'laklar bo'ylab aylana boshlapti. Bu gal u o'zini ancha erkin his qilibdi va xonalarni bezab turgan hamma noyob va g'aroyib narsalarni ko'ripti. U bog'larni va qasr tevaragidagi tog'larni tomosha qilibdi, gullar jozibasidan va mohirlik bilan joylashtirilgan haykallar-u rasmlardan bahra olipti. Donishmandning huzuriga qaytib kelib, ko'rgan narsalarining hammasini birma-bir sanab beribdi.

«Men senga qoshiqchada olib borib, to'kmay qaytarib olib kel, deb bergan yog' qani?» — deb so'rabdi Donishmand.

Shu choq yigit qarasa-ki, yog' to'kilib ketgan ekan.

«Senga berishim mumkin bo'lgan birdan-bir maslahatim ham shu, — deпти donolar donosi. — Baxtning kaliti — siri ana shunda: bu dunyoni bezab turgan, unga joziba, ajiblik ato etib turgan nimaiki bo'lsa, hammasini ko'ra bilmoq kerak va ayni choqda o'sha choy qoshiqdagi ikki tomchi yog'ni ham zinhor-bazinhor unutmazlik zarur».



Savol va topshiriqlar

1. «Alximik» romani nimalar haqida bahs etadi?
2. «Alximik» romanidan olingan «Baxt kaliti» ertak-rivoyatini sinchiklab o'qing va unda tasvir etilgan manzaralar, voqealarni yaxshilab eslab qoling.
3. Savdogarning o'g'li nima maqsadda Donishmand huzuriga keldi?
4. O'g'lon Donishmand yashaydigan qasrda qanday manzarani ko'rdi?
5. Donishmand o'g'longa qanday topshiriq berdi? Nega o'g'lonning choy qoshiqdagi ikki tomchi yog'ni to'kmay olib kelishi Donishmandni qanoatlantirmadi?
6. Donishmand nega o'g'lonning ikkinchi topshiriq ijrosidan ham qanoat hosil qilmadi?
7. Donishmandning baxt kaliti — siri haqidagi o'giti nimadan iborat?
8. Kimni baxtli odam deb bilasiz?



Shoir Hamid Olimjon «Oygul bilan Baxtiyor» asarida bolalik yillarini eslab shunday yozadi:

*Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.
Esimda o'sha damlar:
O'zi uchar gilamlar...
Ot bog'lagan qanotlar,
Beqanot uchgan otlar...
So'ylaguvchi devollar,
Bola bo'p qolgan chollar...
Buvimning har qissasi
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi...*

Aziz bolajonlar! Ehtimol, Sizlar ham shoir kabi tunlari buvingiz yoki onangizdan ertaklar eshitgandirsiz. Har kuni radio orqali beriladigan oqshom ertaklarini tinglab borarsiz. Teleekran qarshisida o'tirib ertaklar asosida yaratilgan multfilmlarni, qo'g'irchoq teatri ertak-spektakllarini tomosha qilarsiz.

Xo'sh, ertak degani nima o'zi?

Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ommaviy janrlaridan biridir. Hayot haqiqatiga asoslangan, xayoliy voqealar bilan boyitilgan, odamlarga ibrat, ma'naviy oziq beruvchi og'zaki hikoyalar ertak deb ataladi.

Ertaklar adabiyotshunos olimlar tomonidan yozib olinib, kitoblar holida nashr etilgan.

Yozma adabiyotning shakllanishida ertaklarning o'rni katta. Ko'plab ulug' adiblar ertaklar asosida ajoyib asarlar yozgan va o'zlari ham yangi ertaklar yaratgan.

PODSHOH VA TO'TI

(«Uch og'a-ini botirlar» ertagidagi hikoyat)

Bir zamonda bir podshoh bor ekan, uning yaxshi ko'rgan bir to'tisi bor ekan. Podshoh to'tisini shunday yaxshi ko'rar ekanki, bir soat ko'rmasa turolmas ekan. To'ti ham podshohga juda mehribon bo'lib, har turli shirin so'zlar aytib, xursand qilar ekan. Bir kuni to'ti podshodan so'rabdi:

— Mening Hindiston degan yurtda ota-onam, aka-ukam, opa-singillarim bor, falakning gardishi bilan sizning dargohingizga kelib qolgan edim. Shukurlar bo'lsin, aqlim, idrokim, yaxshi xulqim, shirin so'zim orqasida sizningday podshohga hamnishin bo'ldim. Endi so'raymanki, meni qafasdan bir bo'shatib, yigirma kun javob bersangiz, olti kun borishim, olti kun kelishimga ketsa, bir hafta ota-onam, ukalarimni ko'rib to'ymog'im uchun ketar.

Podshoh:

— Yo'q, senga javob bersam, yana kelmay qolsang, men sog'inaman, juda xafa bo'laman, — debdi.

To'ti:

— Yo'q, podshohim, sizning menga ko'rsatgan iltifotingiz meni noma'qul yo'lga yubormaydi, qanday bo'lsa ham va'da degan ulug' narsa bor, buzish yaramaydi. Va'dani buzmoq — yomon narsa. So'z beraman, so'zimda turaman, — debdi.

— Xo'p bo'lmasa, agar tezda kelsang, ikki haftaga ruxsat beraman, — debdi podshoh.

— Xayr, endi qanday bo'lsa ham chiqay, — deb to'ti o'n besh kunga ruxsat olibdi. Devorga qo'nib turib xayrlashibdi. Janub tomonga qarab uchib ketibdi. Podshoh orqasidan qarab qolibdi. Podshoh to'tining qaytib kelishiga ishonmas ekan.

To'ti olti kun deganda Hindiston degan mamlakatga borib, ota-onalarining oldiga yetibdi. Bechora to'ti juda xursand bo'lib, tog'dan tog'ga, bog'dan bog'ga, daraxtdan daraxtga, shoxdan shoxga sakrab, uchib, o'ynab-kulib, ota-onasining diydoriga to'ydi, qarindosh-urug'iga mehmon bo'lib, uch kunni qanday o'tkazganini bilmay qoldi. Ertasi yana qafas tomonga, tutqunlikka uchmog'i kerak ekan. Ota-onalari, aka-ukalaridan ajramoq juda og'ir bo'libdi. Bir tarafda va'da bor, va'daga vafosizlik xavfi turadi. Bechora to'tining quvonchi tugabdi. Shodligi g'amga almashibdi. Qanotlari so'libdi. Ikkini qaytib kelish yo bor, yo yo'q. Qarindosh-urug' bir joyga to'planibdilar. Hammasining ko'zi g'amli to'tida ekan.

Qanday bo'lsa ham qaytmaslik maslahatini berishibdi. To'ti aytibdi:

— Yo'q, yana qaytmoq uchun va'da berganman, va'daga vafo qilmasam bo'ladimi?!

Bir to'ti aytibdi:

— Va'da bergan podshohingda insof bo'lsa, seni uch yil qamoqda saqlab, faqat ikki haftaga javob berarmidi? Seni sevar ekan, seviklisini qafasda tutmoq yarashadimi? Dunyoga qafasda turmoq uchun keldingmi? Bir kishining xushvaqtligi uchun erkinlikni qo'ldan berma! Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiqdir, podshoh bilan sherga yaqin bo'lmoq hikmatdan emasdir.

Podshohning to'tisi aytibdi:

— Menga bir yo'l ko'rsating, men ham erkinlikka chiqay, ham va'da yolg'on bo'lmasin.

Ona to'ti aytibdi:

— Shunday bo'lsa, men bir maslahat beraman. Bizning joyda bir daraxtning mevasi bor, har kim bir donasini yesa, qari chol bo'lsa, yigitlik holiga qaytur. Kampir yesa, qiz kabi yosh holiga kelur. Podshohga shundan uch donasini olib borgan, bu bebaho mevani berib, o'zingning butunlay ozod etilishingni so'ra, shoyad insofga kelib, butunlay ozod etsa, — debdi. Bu gap ma'qul tushibdi. Shu choqda uch dona meva olib kelibdilar. To'ti uni changalida mahkam ushlab xayrlashib, shimol tomonga qarab uchibdi. Zo'r umid bilan orqasidan qarab qolibdilar.

To'ti olti kun deganda podshohning saroyiga yetib kelibdi. Podshoh bilan ko'rishib, olib kelgan tortiqni unga beribdi, xosiyatlarini bir-bir aytibdi. Podshoh juda xursand bo'libdi. Ozod qilmoqqa va'da beribdi. Bir donasini xotiniga berib, ikki donasini vaziriga ko'rsatmoq uchun bir piyolaga solib qo'yibdi. Ertasiga, vazirga ko'rsatib xosiyatlarini aytibdi. Vazirning bunga hasadi kelibdi. Ichida xafa bo'libdi. Ishni boshqacha yo'lga burmoqni ixtiyor qilibdi:

— Siz bu parrandaning olib kelgan narsasini yemay turing, oldin bir tajriba qilib ko'raylik, durust bo'lsa yemoq qochmaydi, — debdi. Bu gap podshohga ma'qul tushibdi, vazir vaqtini topib, piyoladagi ikki dona yoshartiruv mevasiga o'tkir zahar aralastirib qo'yibdi. Bir kundan keyin vazir aytibdi:

— Endi yoshartiruv mevasini bir tajriba qilaylik.

Buning uchun qamoqxonadan ikki nafar odamni olib chiqib yediribdilar. Bu ikki odam shu choq'dayoq o'libdi.

Vazir aytibdi:

— Agar siz yesangiz nima bo‘lar edingiz?

— Men ham o‘lar edim, — debdi podshoh. Bechora to‘tini qafasdan sudrab olib chiqib, kallasini tanasidan uzib tashlabdi-lar.

Bir kuni, bir odamni podshoh g‘azab qilib, uni o‘ldirmoqchi bo‘libdi. Bu kishi kekxa ekan. Qolgan bir dona mevani yemoqqa buyuribdi. Bu odam yegan ekan, oqargan sochlari tushib ketibdi, tishlari butunlanib, ko‘zlarining nuri ortib, yigirma yashar yigit holiga kelib qolibdi. Podshoh vazirdan shubhalanib, piyolani olib kelib qaragan ekan, zahar qo‘shilganligi bilinibdi. Podshoh vazirni ham o‘ldirib yuboribdi. Bechora to‘tining begunoh o‘lganiga podshoh qayg‘uribdi, lekin bo‘lar ish bo‘lgan ekan. To‘ti podshohga yaqin bo‘lganining «mukofoti»nigina ko‘ribdi...



Savol va topshiriqlar

1. Podshoh va to‘ti tabiatiga xos xususiyatlarni aniqlang.
2. To‘ti fojiasining sababi nimada deb bilasiz? Bunda bosh aybdor kim?
3. Podshoh, sizningcha, aslida qanday odam? Uning xatosi nimada?
4. «Uch og‘a-ini botirlar» ertagi ichida keltirilgan bu ertakdan chiqadigan ma‘no — xulosaning uch og‘a-ini botirlar hayotiga aloqador jihatlari nimada deb o‘ylasiz?

HUSNIYABONU

Gardanshohning bir qizi bor ekan, uning oti Nodirai davron ekan. Otasi bu qizni Xo‘ja bazzoz degan savdogarga beribdi. Nodirai davron qiz tug‘ibdi, otini Husniyabonu qo‘yishibdi. U chiroyli, tengsiz ekan. Qiz sakkiz-to‘qqiz yoshga borganda onasi o‘libdi. Qiz o‘n olti-o‘n yetti yoshga borganda otasi savdoga boradigan bo‘lib qolibdi. Podshoga maslahat qilib:

— Qizim yosh, sizga qoldirib ketsam, — debdi.

Otasi qizni podshoga topshirib, savdoga ketibdi. Qiz o‘n yetti-o‘n sakkiz yoshga yetibdi. Bir kuni ko‘chadan kelayotgan odamlarning shovqinini eshitib, ko‘chaga qarabdi, ko‘chadan ketayotgan odamlarning hammasini qo‘lida tilladan g‘isht emish. Bir kishi otliq, qolgan to‘rt yuz kishi u mingan otning oyog‘i tagiga tilla g‘ishtni qo‘yib ketayotgan emish. Qiz bobosidan bu kishining kimligini so‘rabdi:

Podsho:

— U kishi — mening eshonim, ko'p buzruk kishi, — debdi.

— Unchalik bo'lsa, eshoningizni men uyga chaqirib mehmon qilsam-u duosini olsam, — deb qiz podshodan iltimos qilibdi. Podsho xursand bo'lib ijozat beribdi. Qiz mehmondorchilikka eshonni ayttiribdi.

Eshon:

— Xo'p, mayli, ertadan keyin boraman, — deb javob beribdi. Ikki kundan keyin eshon boshliq mehmonlar kelishibdi. Mehmonlarni uch kungacha ziyofat qilishibdi. Husniyabonu eshonga va uning yonidagi to'rt yuz muridga in'omlar berib jo'natibdi. Oradan uch kun o'tgandan keyin qizning uyiga qaroqchilar kelibdi. Bir qancha xizmatkorlarni o'ldirib, bor narsalarni olib ketibdi. Qiz bir pana joyda o'tirib o'g'riboshini ko'rib qolibdi. Tuzukroq tikilib qarasa, o'g'riboshi o'sha eshon ekan. Dod-faryodning vaqti o'tdi, deb erta bilan podshoga voqeani xabar qilibdi. Podsho:

— O'g'rilardan birortasini taniyolmadingmi? — deb so'rabdi.

Qiz:

— O'g'riboshini o'z ko'zim bilan ko'rdim, u eshoningiz ekan, — debdi.

Podsho eshonning nomini eshitib, «senga eshondan boshqa bo'hton qiladigan kishi yo'qmi», deb g'azablanib, Husniyabonuni dorga buyuribdi. Jallodlar kelib, dorga osamiz, deb turgan bir vaqtda shohning bir vaziri o'rnidan turib:

— Hech bir podsho ayollarnig qonini to'kmagan. Agar qabul qilsangiz, har ikkala ojizani dasht-u biyobonga chiqarib tashlasak, qurt-qumursqalar yeb ketsa, — debdi.

Podshoga bu gap ma'qul kelib, rozilik beribdi. Vazir qiz bilan doyasini ozgina ovqat bilan bir biyobonga oborib tashlab kelibdi.

Ular biyobonda bir necha kun yurishibdi. Uzoqdan bir daraxt ko'ribdilar, uning tagiga yetib borishibdi. Daraxt tagida bir chashma-buloq bor ekan. Shu daraxt tagini makon qilib, shu yerda kun kechirib yurishibdi. Kechasi tunni ikkiga bo'lib, yarim kechagacha doyasi, keyin qiz poylab o'tkazishar ekan. Bir kuni kechasi doya uxlab qiz navbatchilik qilib turganda daraxtga ikkita qush kelib qo'nibdi va biri ikkinchisidan so'rabdi:

— Ey jo'rayi qobil, bu daraxtning tagiga shu paytgacha

odamzodning qadami yetmagandi. Bular bu yerga qandoq kelib qoldiykin?

Ikkinchisi:

— Men bir vaqt ulamolarimizdan eshitgandim. Qayumars vaqtida shu yerdan bir podsho askari bilan o'tgan ekan. Shu vaqtda shu chashma yonida dam olishgan ekan. Shu joyning havosi podshoga yoqib, ko'p o'tirishda maqtabdi. Shunda vazirlardan biri aytibdiki, «Siz shu joyni shunchalik maqtaysiz, agar rozilik bersangiz, shu yerga ilm-u hikmat bilan bir narsani qoldirib ketsak». Podsho so'rabdi: «U nima deganing?» Vazir aytibdiki, «Shu yerga bir tilsim qilib ketsak, birmuncha vaqt o'tgandan keyin keladigan odamlar siz bilan bizni gapirib eslab yurishsa». Podshoga bu gap ma'qul bo'lib, podshohligidagi xazinalarini ikkiga taqsim qilib, bir taqsimini shu yerga tilsim qilishga buyruq beribdi. Haligi joyni kavlatib, hammom taxlit qilib, xazinani berkitibdilar. Xazinalarni bir qizning nomiga atashibdiki, u qiz ismining bosh harfi «H» bo'lishi kerak.

Birinchi qush:

— Agar shu kelganlarning biri podshozoda, biri enagasi bo'lsa ehtimol. Agarki malikada aql-u xush, farosat bo'lsa, shu daraxtni orqaga olib, yigirma bir qadam yurib, o'sha yerni kavlasa, haligi xazinaning yo'li ochiladi. Bizning qilgan mehribonchiligimiz shu bo'ladi, — debdi.

Qushlar tong otganda uchib ketishibdi. Qiz enagasini uyg'otibdi va enagasiga:

— Enajon, men bir sir eshitdim, ikkita parranda shu daraxtda odam zamonida gapirishib, shu so'zlarni aytib uchib ketdi, biz endi sinash uchun shu yerni kavlashimiz kerak, — debdi.

Ikkalasi qushlar aytgan joyni kavlashibdi. Oxiri gumbazning yo'li ochilibdi. Gumbazning ichida sayrtomosha qilib, aylanib, ulamolarning qoldirib ketgan nomasini olib tashqariga chiqishibdi. Nomaning mazmunidan bilishibdiki, shu tilsimlar Husniyabonuning nomiga atalgan ekan. Borliq narsa shu qizning qo'lidan o'tishi kerak ekan. Qiz enasiga aytibdiki:

— Enajon, siz ham kirib tomosha qilib chiqing, — debdi. Enasi eshik oldiga borsa, unga sher va ajdaho hujum qilibdi. Qiz borsa, hech narsa yo'q emish. Malika doyasi bilan maslahatlashib: «Siz maxfiy borib ikkala o'g'lingizni olib keling» deb, uni o'z qishlog'iga yuboribdi.

Doyasi kechasi borib, ikkala o'g'lini olib kelibdi. Ular xa-

zining tepasiga bir ayritomga o'xshatib kapacha qilib berishibdi. O'g'illardan bittasining qo'liga bir qancha pul berib:

— Sen borib ot-arava, yog'och, usta olib kel, — debdi qiz. To'rt yuzta usta yig'ilibdi. Ustalar maslahatlashib, ishni bo'lib olishibdi. Ustalar tez kunda katta bir shaharni bunyodga keltirishibdi. Tul xotin, yetim bolalar bu yerning ovozasini eshitib kelaveribdi. Kelganlarni qiz uy, ish bilan ta'minlayveribdi. Oradan ko'p o'tmay, shahar aholiga liq to'libdi.

Shunday kunlardan birida malika odamlari bilan ovga chiqibdi. Bulardan tashqari yana ikkita odam ov qilib yurgan ekan. Malika zehn solib qarasa, ular podsho bobosining merganlari ekan. Ularga o'zini tanitmabdi-yu, merganlarni uyiga taklif qilibdi, mehmondorchilikni o'rniga qo'yibdi. Erta bilan jo'nash vaqtida ularga bosh-oyoq sarpo berib jo'natibdi. Merganlar podshoga navkar bo'lganlaridan beri bunaqa sarponi ko'rmagan ekanlar. Merganlar nihoyatda xursand bo'lib, qizni maqtashib, o'z shahriga yetganini bilmay qolishibdi. Merganlar kelayotganida podsho taxtda o'tirib ularni ko'rib turgan ekan. Haligilar o'zi bilan o'zi bo'lib, podshoga salom bermay o'tib ketishibdi. Darvozaga borib hayron bo'lib qolishibdi. Chunki ular podshoga salom bermaganliklarini endi payqashibdi. Podsho g'azablanib, ularni oldiga chaqiribdi. Merganlar qo'rqa-pisa podshoning oldiga borishibdi. Podsho bu kiyimlarni qayoqdan olganlarini so'rabdi. Merganlar:

— Ey, shohi olam, biz ovga boruvdik. Falon sarchashmaning bo'yida ajoyib shahar bino bo'libdi. Shaharni bir shahzoda quribdi. Bizga sarpolarni o'sha berdi, — deyishibdi.

Podsho bu gapni eshitiboq, ko'nglida: «Men ham o'sha yerga bir borsam», deb niyat qilib qo'yibdi. Ertasiga podsho odamlarini olib, ovga chiqib ketibdi. Ular ov qilib yurganda, oldingi ikki mergan Gardanshohning ovga chiqqanini Husniyabonuga xabar qilishibdi. Malika dabdaba bilan turli in'omlarni podsho huzuriga yuboribdi. Orqasidan shahzoda suratida o'zi ham jo'nabdi. Dasturxon kelgandan keyin, orqasidan «shahzoda kelyapti» deb podshoga xabar kelibdi. Podsho kirishga ijozat beribdi. Shahzoda odob bilan kirib, shohning qatoriga o'tiribdi. Shu kuni podsho bilan hamsuhbat bo'lib, ketish vaqtida «Biz tomonga ham bir borsalar» deb podshoni mehmonga taklif qilibdi. Ertasiga kechqurun podsho odamlari bilan mehmon bo'lib kelibdi. Malika atrofidagi odamlarning hammasiga ish bo'lib beribdi. Shohni uch kechayu uch kunduz ziyofat qilishibdi. Ular jo'nash oldida, kattakichik ulamolar huzurida ota-bola tutinishibdi. Malika kelgan-

larning hammasini sovg'a-salomlar bilan jo'natibdi. Ketish oldida shoh malikani o'zinikiga taklif qilibdi. Malika rozi bo'libdi.

Oradan o'n besh kun chamasi o'tibdi. Shundan keyin malika bir qancha kishilari bilan otasining yurtiga jo'nabdi. Shahar ko'chalaridan o'tayotib qarasa, ilgari o'zi turgan uyning darvozasiga qulf solingan emish. Malika buni ko'rib, ichidan xo'rsinibdi. Podshoga o'g'lining kelganini xabar qilishibdi. Podsho uning yo'lga chiqib, arkoni davlati bilan kutib olibdi va o'z taxtiga o'tqazibdi. Uch-to'rt kun turgandan keyin podsho bir kuni:

— O'g'lim, agar mayling bo'lsa, seni shu yerdan uylantirib qo'ysam, — debdi.

Shunda malika o'rnidan turib, qulluq qilib:

— Men u uyni uch-to'rt marta ko'rdim, eshigiga qulf solingan, qum sepilgan «gunohkor uy»ni menga bersangiz, — debdi.

Shunda podsho g'azablanibdi.

— Ey nuri diydam, bu hovli to'g'risida sendan boshqa odam gapirganida tilini komidan sug'urib olardim. Bo'pti, shu uy senga bo'lsin, — debdi.

Malika odamlari u uyni tozalab, ilgarigidan ham ziyoda qilib yasatishibdi. Bir kuni malika otasidan iltimos qilib:

— Sizning pirizabon eshoningizni bir mehmon qilsam, — debdi.

Podsho rozilik beribdi. Malika uyni rosa yasatibdi. Eshonga odam yuborib:

— Bugun biznikiga mehmonga kelsalar, — deb taklif qilibdi. Eshon ilgarigi safargiday to'rt yuz muridi bilan birga kelibdi. Podsho ham kelibdi. Malika ularga uch kecha-yu uch kunduz shohona ziyofat beribdi. Uchinchi kuni eshon ketibdi. Eshon ketishi bilanoq malika shahar qo'rboshisini aytiribdi. Malika qo'rboshidan:

— Shaharda nima gap? — deb so'rabdi.

— Shahzoda, gap ko'p-u gapirishga o'jizman, — debdi qo'rboshi.

Shahzoda undan to'rt yuz kishi bilan kechqurun maxfiy suratda shu yerda hozir bo'lishini iltimos qilibdi. Ular malika aytganiday uyga kelib yashirinib olishibdi. Qo'rboshi kelib malikaga «tayyormiz» debdi. Malika qo'rboshiga:

— O'g'rilar hamma narsani o'g'irlab ko'targuncha, tegilmasin! — deb tayinlabdi.

Yarim kechada o'g'rilar kelishibdi. O'g'rilar yuklarni yel-

kalariga ko'targan vaqtda qo'rboshi odamlarining har bittasi bittadan o'g'rini ushlab bog'lashibdi. Ertalabgacha o'g'rilarni qamab qo'yishibdi. Erta bilan malika shoh oldiga salomga boribdi va shohga ta'zim qilib:

— Otajon, bugun o'g'rilar kirib, bizning hovlini talab ketdi. Lekin o'g'rilarni qo'lga tushirdik, — debdi.

Podsho o'g'rilarni olib kelishni buyuribdi. Bir vaqt eshon boshliq o'g'rilarning hammasini podsho huzuriga olib kelishibdi. Podsho g'azablanib, qizi Husniyabonuni begunoh jazolaganiga endi ishonibdi, o'g'rilarni osishga buyuribdi.

O'tirganlar:

— Eshondan kelgan oqibat shumi? — deb turganda, malika o'zini tutolmay, boshidan toj-zarini olib tashlabdi, sochlari beliga tushibdi, otasi uning oyog'iga o'zini tashlabdi. Otasi hayron bo'lib, «tushimmi, o'ngimmi» deb o'ylab turganida qizi «tushingiz emas, o'ngingiz» deb, yana o'zini tanishtiribdi. So'ng bir hafta Husniyaobodda, bir hafta otasining shahrida turadigan bo'lib, malika jo'nab ketibdi. Shu bilan ular murad-u maqsadlariga yetibdi.



Savol va topshiriqlar

1. Ertak voqealarini qismlarga ajrating, ularga sarlavhalar qo'ying.
2. Ertakda ishtirok etuvchi personajlar nomlarini yozib chiqing, har biriga xos xususiyatlarni aniqlang.
3. Podshoning xatosi va oliyanobligi nimada deb bilasiz?
4. Eshonning kirdikorlarini so'zlab bering.
5. Husniyabonuning baxti, omadi sabablari nimada deb o'ylaysiz?
6. Husniyabonuning ibrat bo'larli fazilatlarini ta'riflab bering.
7. Ertak voqealaridan chiqadigan asosiy xulosa — saboq nimalardan iborat?

HAMID OLIMJON

(1909—1944)



Hamid og'zaki adabiyot boyligimizga teran tushunib, chinakam vatanparvar, xalqchil bir ziyoli darajasidan yondoshganlardan va og'zaki adabiyot qadriga yetganlardan biridir. U folklorimizdan ijodiy o'rganganlarning ham birinchilaridandir.

MIRTEMIR

Hamid Olimjon, eng avvalo, lirik shoirdir. Uning eng yaxshi she'rlari chinni piyoladek latif jarang berib turadi. Shoir ba'zi bir she'rlarida tabiat manzaralarini tasvirlaydi. Uning ba'zi bir she'rlarida esa his-tuyg'u va ruhiy kechinmalari ifodalangan. Ammo biz shoirning bu har ikki guruhdagi she'rlarini o'qiganimizda ulardan olam-olam zavq olamiz. Hamid Olimjon o'z she'rlari bilan bizni go'zallik olamiga yetaklaydi.

Hamid Olimjon bolalik paytida xalq ertaklari va afsonalarini, ayniqsa, sevgan. Uning onasi Komila aya xalq ertaklari va cho'pchaklarini yaxshi bilganligi uchun uzun qish kechalarida farzandiga shu ertak va cho'pchaklarni shavq bilan aytib bergan. Shuning uchun ham shoir «Oygul va Baxtiyor» dostonida: «Buvimning har qissasi, Har bir qilgan hissasi Fikrimni tortar edi, Havasim ortar edi», deb yozgan edi.

Komila aya farzandining bolalik yillarini eslab, bunday degan:

«Abdulhamid (ya'ni Hamid Olimjon — mualliflar) to'rt

yoshga to'lar-to'lmas dadasidan ayrildi. Olim aka (Hamid Olimjonning otasi — *mualliflar*) ning farzandga bo'lgan binolari zo'r edi. Abdulhamidning o'tkir odam bo'lishiga u kishining ko'zlari yetardi. «Bo'ladigan bola boshidan ma'lum», deb shuni aysalar kerak-da! Har holda, kim biladi, u kishining «yozuvchi bo'lasan», degan ishonchlari qattiq ekanmi, bolagim yoshligidan boshlab cho'pchaklarni, ertaklarni tinglagani-tinglagan, o'zi ham erta-yu kech nimalarnidir yozgani-yozgan edi. Uning qistovi bilan men kechalari ertak aytganim-aytgan edi. U men aytgan ertaklarga miriqmay turib uxlay olmasdi. Xalqning g'aroyib ertaklaridan juda qoyil qolar, unga alohida manzur bo'lgan ertaklarning gashti bilan necha kunlar lol bo'lib yurar edi».

Hamid Olimjon onasidan eshitgan shunday g'aroyib ertaklar ta'sirida keyinchalik «Oygul va Baxtiyor» hamda «Semurg' yoki Parizod va Bunyod» dostonlarini yozgan.

SEMURG'

yoki

PARIZOD VA BUNYOD

I

Sarvqomat Parizod
 O'sdi g'amlardan ozod.
 Bahor yanglig' ochildi,
 Gullar kabi sochildi.
 Chiroyidan ovoza
 Elga tarqaldi toza.
 Har yerga doston bo'ldi,
 Dostonga bo'ston bo'ldi.
 Ko'rmaganlar ko'rishni,
 Ko'rganlar o'ttirishni
 Qilar bo'ldilar orzu.
 Barcha tosh-u tarozu
 Shu gapni o'lchar bo'ldi,
 So'zlar oltin-zar bo'ldi.
 Shaydolar ko'p beqaror,
 Yigitlar bo'ldilar zor.
 Tun keldi-yu shom ketdi,
 Uyqudan orom ketdi.
 Hamma bo'lib xaridor,

Qizidi katta bozor.
 Elchilar yog'ildilar,
 Katta g'avg'o qildilar.
 Lekin u odam sevmas,
 Doim o'zi bilan mast.
 Eldagi navqironlar,
 Navqiron pahlavonlar
 Unga aslo yoqmaydi,
 Oshiq'larga boqmaydi.
 Yuragida sevgi yo'q,
 Qalbi marmarday sovuq.
 U odamlik qarzini,
 Sevguvchining arzini
 Olib orqaga tashlar,
 Shuncha-shuncha otashlar
 Eshigida so'nadi,
 Otashdan kul unadi.
 Bahri ochilmaydi hech,
 Chehrasi kulmaydi hech.

Elchi bo'lib kelganlar,
Qizning sirin bilganlar
Noumid qaytadilar,
Mardumga aytadilar.
Xalq ichida Parizod
Chiqaradi yomon ot.

O'z qizidan pushaymon
Bo'lib shuning uchun xon
Kecha-kunduz o'ylaydi,
Yoz bilan kuz o'ylaydi:
«El rasmini qilmagan,
Sevgi nima bilmagan,
Qari qizni netayin?
Chiqib qayga ketayin?
Qaylarga urayin bosh?
Buncha sovuq, bag'ri tosh
Qizni qaydan yaratdim?
O'zimni o'tga otdim.
Men nimaga yarayman,
Yurtga qanday qarayman.
Boshimga bu Parizod
Balolar keltirdi bot».

Qizini chaqirib xon,
Shunday boshladi fig'on:
«Eshit, qizim Parizod,
Chiqaribsan yomon ot.
Sening bag'ring tosh emish,
Ko'zlaring beyosh emish,
Aslo sevmas emishsan,
Erga chiqmam, demishsan.
Men malomatga qoldim,
Zo'r qiyomatga qoldim.
Sening yomon dostoning
Meni tuproq bilan teng —
Qilib uyatga qo'ydi,
Meni bepichoq so'ydi.
Qizim, men ham qaridim,
Go'rga tomon daridim.
Yoshim yetmishga bordi,
Soqol-sochim oqardi.
Yurak bag'rimni o'yding,

Meni nomusga qo'yding.
Otangga berma azob,
Azobga qolmagan tob.
Tosh yuraging yumshasin,
Eshitsin qalblar sasin.
Otang hurmati uchun
Ko'rsat mardlikning kuchin.
Kel, birovga ko'ngil ber,
Bir yigitga deb gul ber.
Bir oz andishaga bor,
Meni g'avg'odan qutqor!»

II

Parizod o'ylab qoldi,
Ko'p uzoq begap qoldi.
«Mayli, — dedi u xonga,
Bir umid solib jonga, —
Yolg'iz bir shart qo'yaman,
Bajarganni suyaman.
Hovlida bor zo'r chinor,
Chinor emas, u bir dor.
Biladi juda ko'p sir,
Yashar yuz yil — bir asr.
Yoshi ko'pga ketadi,
Boshi ko'kka yetadi.
O'lkaga jar solaman,
Erlarga zar solaman.
Shartim shuki, ot bilan,
Go'yoki qanot bilan
Shu chinorga chiqqanga,
Chiqib uni yiqqanga
So'zsiz xotin bo'laman,
Go'zal otin bo'laman.
Barcha qarshimdan o'tsin,
Mard o'zini tanitsin.
Agar shunda ham qalbim
Yumshamasdan qolsa jim
Uzib olib otarman,
Qassoblarga sotarman».
Shunday degach Parizod,
Xon bo'ldi poyonsiz shod.

Jarchilarni chorlatdi,
Har biriga soʻz qotdi:
«Yurtga xabar beringiz,
Aytinig har biringiz,
Xon qiziga xaridor,
Parizod husniga zor
Boʻlganlarga baxt kuldi,
Birgalashib taxt kuldi.
Qoʻrqmasdan kela bersin,
Baxtini bila bersin.
Sharti shulkim, ot bilan,
Goʻyoki qanot bilan
Zoʻr chinorga chiqqanga,
Chiqib uni yiqqanga,
Parizod xotin boʻlur,
Bir goʻzal otin boʻlur.
Ayting, har bir mard kelsin,
Har bir mard bedard kelsin.
Sinasin oʻz baxtini,
Baxti qoʻllasin uni.
Koʻrganlar olsin darmon,
Koʻrmagan qilsin armon».

III

Har yoqqa xabarchilar —
Tili uzun jarchilar
Chopa-chopa ketdilar,
Bozorlarga yetdilar.
Karnay, surnay choldirib,
Suyunchilar oldirib,
Qildilar katta eʻlon,
Xabarlar ketdi har yon.
Xonning xabarin olib,
Hamma birdan qoʻzgʻolib,
Zoʻr shov-shuv boʻlib qoldi,
Yurtga gap toʻlib qoldi.

IV

Ertasiga barcha el,
Kela berdi bogʻlab bel.
Chavandoz, pahlavonlar,

Barcha sohibqironlar
Otlarni gijinglatib,
Qamchilarni oʻynatib,
Kela berdilar bari,
Kattakon chinor sari.
Baxmal jabduqlar urib,
Suluv qizlarday yurib,
Argʻumoqlar chopdilar,
Yer va koʻkni yopdilar.
Soʻliqlarni tishlashib,
Mast boʻlishib kishnashib,
Dunyo-dunyo chang-toʻzon
Ichida qolib osmon,
Kela berdilar bari
Kattakon chinor sari.
Chumoliday chuvashib,
Qir va togʻlardan oshib,
Suv boʻylarida yotib,
Yurganda oʻqlar otib,
Oshiqlar poda-poda
Boʻlib choʻl-u sahroda,
Kela berdilar bari
Kattakon chinor sari.
Xon qizin olmoq uchun,
Elga sinalmoq uchun,
Baxtim bormi ekan, deb,
Menga yormi ekan, deb,
Kela berdilar bari
Kattakon chinor sari.

V

Yetti kecha, yetti kun,
Yetti kunduz, yetti tun
Zoʻr chinorga chiqmoqqa,
Chiqib uni yiqmoqqa
Hamma xezlab koʻrdilar,
Oʻzni oʻqday urdilar.
Necha manman deganlar,
Ilon poʻstin yeganlar
Yiqila berdi bir-bir,
Makon boʻla berdi yer.
Chinor hech silkinmadi,

Bir shoxi ham sinmadi.
 Qushday uchib kelganlar,
 Shamol kabi yelganlar
 Yarim yo'lda tindilar,
 Yana otga mindilar.
 Yana xezlab ko'rdilar,
 O'zni o'qday urdilar.
 Murod hosil bo'lmadi,
 Ko'ngillari to'lmadi.
 Ilonday chirmashganlar,
 Chirmashib tirmashganlar
 Yana qaytdilar ketga,
 Chiqa berdilar chetga.
 Qancha suluv arg'umoaq
 Yiqilib bo'ldi cho'loq.
 Qancha-qancha chavandoz
 Bo'ldi tuproq bilan soz.
 Ko'plarning beli sindi,
 Ko'plarning umri tindi.
 Kunlar o'tdi va ammo
 Hal bo'lmadi muammo.
 Zo'r chinorga chiqmoqqa,
 Chiqib uni yiqmoqqa
 Hech kim erisholmadi,
 Jumboqni yecholmadi.
 Kelganlar bo'lib hayron,
 Ko'plar bo'lib pushaymon,
 Bir-bir tarqab ketdilar
 Manzillarga yetdilar.

VI

Bu hollarni ko'rib xon,
 Yutdi laxta-laxta qon.
 Parizod xunob bo'ldi,
 Xunob-u betob bo'ldi.
 Qiz berganni qarg'ishlab,
 Peshonasiga mushtlab,
 Yana axtarib chora,
 Xon o'rtandi tobora.
 Odamlarni chaqirdi,
 O't ichida baqirdi;
 «Bu maydonga kirmagan,

Bizning shartni bilmagan
 Ayting, yana kim qoldi?»
 Hamma odam jim qoldi.
 Og'ir o'yga botdilar,
 Oxir shuni aytdilar:
 «Yolg'iz bir Bunyod qoldi,
 O'sha bir beot qoldi.
 U bir cho'pon bechora,
 Bu ishga topmas chora.
 Parizodga teng bo'lmas,
 Kiyimiga yeng bo'lmas.
 Chinorga chiqolmas ham,
 Chiqolmas, yiqolmas ham».

Xon hech quloq solmadi,
 Pisandiga olmadi:
 «Bu gaplar bari bekor,
 Bu bilan hech bitmas kor.
 Qayda bo'lsa ham Bunyod
 Topib keltirilsin bot!
 Men otimni beraman,
 Qanotimni beraman.
 Agar chinorga chiqsa
 Va chiqib uni yiqsa
 Ahmoq, bees bo'lsa ham,
 Moxov va pes bo'lsa ham,
 Mening qizim Parizod
 Unga xotin bo'lur bot».

Bunyodni tog' tagidan,
 Daryoning etagidan
 Topib keltirdilar bot,
 Xon berdi noiloj ot.
 Zo'r chinorga qarandi,
 Ichida bir g'ash yondi.
 Tanini qurshab o'tlar,
 Chinor shoxi bulutlar
 Orasida ko'rindi,
 Bunyod fikr surindi.
 Yonidagi uchqur ot
 Chiqarib bir zo'r qanot,
 Ko'kka qarab kishnadi,
 Yolin tarab kishnadi.
 Butun atrof xaloyiq
 Bilan to'lib ketdi liq.

Hayot umri qurib, xon
Tikilar edi hayron.
Ne bo'larkin, der edi,
Zahar-zaqqum yer edi.
Talvasada Parizod,
Chekar edi fig'on, dod.
Bunyodga g'ayrat kirdi,
Yuragiga dard kirdi.
Yurib bahodirona,
Otga mindi mardona.
Qattiq bir qamchin soldi,
Yolg'on emas, chin soldi.
Ot yashinday qo'zg'aldi,
O't singari yo'l oldi.
Bulutlar orasida,
Osmonning qorasida,
Yozib borib qulochin,
Go'yo bir buyuk lochin
U chinorga o'tirdi,
Go'yoki o'qday urdi.
Chinor tomiri bilan,
Ko'kargan yeri bilan
Qo'porildi guvillab,
Shamol kabi uvillab.
Zo'r shoxlar yerga ketdi,
Tomir osmonga yetdi.
Yer uzra tushib Bunyod,
Bo'lib dunyo-dunyo shod,
Go'zal duldul otida,
Otining qanotida.
Ko'zlarida zo'r yog'du,
Kulib turar edi u.
Ko'rsatguvchiga zo'r ish,
El so'zlar edi olqish.
Yurak yorilguday xon
Xursand edi bepoyon.
Parizod bo'lib behol,
Turib qolgan edi lol.

VII

To'y bo'ladi deya el,
Bosa berdi go'yo sel.

Barcha shoshiqar edi,
To'y deb oshiqar edi.
Qotib qolgan Parizod
Oldiga keldi Bunyod.
Sekin qo'lin uzatdi,
Qalbiga zo'r tosh otdi.
Parizod bir emrandi,
Qosh-qovog'i chimrandi.
«To'g'ri, — dedi, — sen yut-
ding,
Sovuq qo'limni tutding.
Nima qilay, roziman,
O'zimdanda noroziman.
Baxtim ochilmadi hech,
Aytganim bo'lmadi hech.
Faqat, agar unasang,
Unab yo'lga jo'nasang,
Yana bir shart qo'yardim,
Yana sinab ko'rardim.
Shundan so'ngra umrbod
Senga bo'lar Parizod».
Bunyod ham rozi bo'ldi,
«Gapir, — deya bukildi, —
Gaping bo'lsa ayta ber,
Ko'ngling to'lsa ayta ber.
Har bir ishni bilarman,
Har nimani qilarman.
Ko'nglingni ololmasam,
Bir orom sololmasam,
Yo'ldosh bo'lolmasman hech,
Sen ham unday yordan
kech».
Tikka turib, Parizod —
Shartin eshitdi Bunyod.

VIII

Kun botarda bir yovuz
Dev bor emish yalmog'iz.
Odamga dushman emish,
Qon emish unga yemish.
Har musibat, har ofat,
Har bir mudhish kasofat,

Barcha jabr-u jafolar,
 Hamma dard-u balolar
 O'shandan kelar emish.
 Odamlarni yemirish
 Bilan bo'lar emish shod,
 Ko'ngli g'amlardan ozod.
 O'zi balo tog'ining
 Va ofat bulog'ining
 Boshida o'ltirarmish
 Kun-u tun-u, yoz ham qish.
 Uni ko'rgan har chaman
 Qo'yarkan tuproqqa tan.
 U taqilgan har bir gul
 To'kilar ekan butkul.
 Uni ko'rgan har bir jon
 Tez bo'lar ekan xazon.
 Daryolar qurir ekan,
 Baliqlar chirir ekan.
 Undan har kun tabiat
 Olar ekan qora xat.
 Ikki oy-u ikki yil
 Yursang mahkam bog'lab bel
 Makoniga borarsan,
 Andomiga qararsan.
 O'rtangizda jang bo'lur,
 Ikki olam tang bo'lur.
 Shuni jangda o'ldirsang,
 Hayotini so'ldirsang.
 Qo'ling bilan odamzod
 Balodan bo'lsa ozod,
 Devni o'ldirib agar,
 Qaytib kelsang bezarar,
 Shu kuni to'y boshlarmiz,
 G'am-g'ussani tashlarmiz».

IX

Parizod yerga boqdi,
 Bunyodni o'tlar yoqdi.
 Bo'lib xonning holi tang,
 Qotib qoldi hang-u mang.
 Kalavasi chuvaldi,
 Bor umidi yo'qoldi.

Taajjubda xaloyiq
 Ko'ziga yosh oldi jiq.
 Bunyod uzoqqa boqdi,
 Charvoqqa, toqqa boqdi.
 Nazari cho'lga tushdi.
 Huv deya yo'lga tushdi.
 Ko'zdan yo'qoldi shu on,
 Tarqaldi hamma hayron.
 Baland tog'lardan oshdi,
 Daralarda adashdi.
 Vodiyarga ko'z yoshi
 To'kib aylandi boshi.
 Daryolardan o'tdi ul,
 Yana uzoq ketdi ul.
 Yurti qoldi uzoqda,
 Tushunchasi tuzoqda.
 Zo'r bir ishga qo'shib bosh,
 O'ziga o'zi yo'ldosh,
 Uzoq cho'llarga yetdi,
 Qaynoq ko'llarga yetdi.
 Poyoni yo'q keng sahro
 O't purkab soldi sado.
 Oyog'i ostida qum
 Yotadi uyum-uyum.
 Biror ko'kat ko'rinmas,
 Biror jonvor urinmas.
 Yoniga tushib quyosh,
 Kuyar edi ich-u tosh.
 Boshdan ter quyar edi,
 Oyog'i kuyar edi.
 Halqumlari bo'lib qoq,
 Toqatlari bo'lib toq,
 Qimirlar edi sekin,
 Zo'rg'a olar edi tin.

X

Bir yildan so'ng banogoh
 Bir sirdan bo'ldi ogoh.
 Poyoni yo'q keng cho'lda,
 Qaynagan qumlik ko'lda
 Bir zo'r daraxt ko'rindi,
 O'shanga ko'zi to'ndi.

Ko'p toliqqan bu odam
 Shu tomon qo'ydi qadam.
 Daraxt qurigan edi,
 Qurib churigan edi.
 Edi minglar yoshida,
 Uning baland boshida —
 Qush uyasi bor edi,
 Daraxtga bir zo'r ilon
 Chirmashib, u oshiyon.
 Sari zahar sochardi
 Ham og'zini ochardi.
 Chaqalar chirqirashib,
 Faryod qilib tutashib,
 Onani kutar edi,
 Qon, zardob yutar edi.
 Bag'rini o'rtab bu dod
 Yaqinroq bordi Bunyod.
 Yordamga fahmi keldi,
 Qushlarga rahmi keldi.
 Qilichini chiqarib,
 Daraxt yoniga borib,
 O'sha yovuz ilonni,
 Xunuk va mudhish jonni
 To'g'rab tashladi shu on,
 Qumlar bo'ldi qizil qon.
 Chaqalar omon qoldi,
 Ancha omon jon qoldi.
 Chaqalarni qutqarib,
 Ilonni qonga qorib,
 Daraxtning soyasida,
 Uya himoyasida
 Uzoq uyquga ketdi,
 Joniga orom yetdi.
 Kun choshgohdan oqqanda,
 Quyosh tikka boqqanda,
 Qo'zg'algan kabi bo'ron,
 Guvillab qoldi osmon.
 Yashin uchganday bo'ldi,
 Poda ko'chganday bo'ldi.
 Ko'kni tutib qanoti,
 Butun olamning oti —
 Semurg' qush kelib qoldi.
 Bunyodni bilib qoldi.

Changalida zo'r arslon,
 Tumshug'ida botmon don,
 Ko'zi ichidagi o't
 Olamni qilib nobud,
 Uyasiga qo'nmasdan,
 Biroz bo'lsin tinmasdan
 Bunyodning boshi uzra
 Chiza berdi doira.
 Jahon buzib o'kirdi,
 Qah-qah urib bo'kirdi.
 Yemak uchun odamni,
 Torta berdi u damni.
 Chaqalari chirqirab,
 Ko'z yoshlari tirqirab,
 Yalindilar: qizg'an, deb,
 U bir gunohsiz jon, deb:
 «Qizg'an, ona, o'ksizni,
 O'sha qutqazdi bizni.
 Bo'lmasa o'lar edik,
 Ochilmay so'lar edik.
 Bizni yer edi ilon,
 Ayrilarding, onajon».

XI

Semurg' o'ylanib qoldi,
 Qalbini shafqat oldi.
 Qumning bag'riga botgan,
 Quyoshda kuyib yotgan
 Bunyodga soya soldi,
 Qanot ostiga oldi.
 Qush nomli bu buyuk zot,
 Undagi kumush qanot,
 Butun borliqni tutdi,
 Bor osmonni berkitdi.
 Bunyod salqin soyada,
 Bunday zo'r himoyada
 Yetti tunni uxladi,
 Yetti kunni uxladi.
 Uyg'ona bermagach u,
 Bosib tobora uyqu,
 Semurg' daryoga ketdi,
 Hayal o'tmasdan yetdi.

Suvni shimirdi cho'llab,
 Qanotlarini ho'llab.
 Shu zamon uchib keldi,
 Jaladay ko'chib keldi.
 To'xtab Bunyod qoshida,
 Bir silkindi boshida.
 Bunyod uyg'ondi darhol,
 Uni lol etdi bu hol.
 Birdan turib seskandi,
 Qushni ko'rib seskandi.
 Odamlarga o'xshabroq
 Semurg' boshladi so'roq:
 «Ikki ming yildan beri
 Shu keng sahroning yeri
 Bo'lmishdir menga makon.
 Mendan boshqa biror jon
 Kelolmadi bunga hech.
 Qumlar ko'chib erta-kech,
 Vatanidan ajraldi,
 Sahro giyohsiz qoldi.
 Qurtlar sarson bo'ldilar,
 Uchgan qushlar o'ldilar.
 Bunda faqat topdi jon
 Sen halok qilgan ilon.
 Hech yog'madi yomg'ir ham,
 Yer ko'rmadi zarra nam.
 Qadam bosmadi inson,
 Darimadi hech hayvon.
 Shuncha yil yolg'iz turdim,
 Yer va osmonni ko'rdim.
 So'yla menga, ey, odam,
 Boshingga tushdi ne g'am?
 Zo'r bir mardlik qilbsan,
 Lekin bekor kelibsan.
 Tilagingni ayt menga,
 Ne ko'mak beray senga?»

XII

«Meni go'zal Parizod
 Jo'natdi, — dedi Bunyod. —
 Dunyoni g'amga ko'mgan,
 Jafo-alamga ko'mgan

Devni bir ko'rmoqchiman,
 Ko'rib o'ldirmoqchiman.
 Odamlarga baxt bermoq,
 Baxtlilarga gul termoq
 Eldan shiorim bo'ldi,
 Nomus va orim bo'ldi.
 Shuni qilsam Parizod,
 Yorim bo'lib, qilur shod».
 Qush dediki: «Ey, inson,
 Bekor bo'libsan sarson.
 Parizod xo'p aldapti,
 Qo'rqinch yo'llarga sopti.
 Xonning qizi dev bilan
 Oshna edi burundan.
 Yomon ko'rganlarini,
 Dushman bilganlarini
 Yo'llar edi o'shanga,
 Do'st emas ekan senga.
 Sen bu yo'lda o'lursan,
 Aniq, qurbon bo'lursan.
 Devga bormay qo'ya qol,
 Boshqa qizni deya qol».
 Esga kelib Parizod:
 «Qaytmayman», — dedi
 Bunyod. —
 «Sher izidan qaytmaydi,
 Er so'zidan qaytmaydi.
 Uni ko'mguncha uyat
 O'lgani yaxshiroq bot.
 Shuning uchun boraman,
 Nima bo'lsa ko'raman».

XIII

Qushda mehr uyg'ondi,
 Qizg'anish bilan yondi.
 «Kel, esa ustimga chiq,
 Mening qanotimga chiq.
 Bir nafas o'ltirgin jim,
 Bir nafas ko'zingni yum.
 Men kuningga yarayin,
 Seni olib borayin.
 Dengizlardan o'tganda,

Dunyoni suv tutganda,
Ko'zlarining ochilmasin,
Xayoling sochilmasin.
O'zingni yo'qotmagil,
Yana suvga otmagil.
Seni olib borarman,
Kurashingga qararman.
O'lsang gunoh o'zingda,
Qo'rquv bilmas so'zingda.
Agar devni o'ldirsang,
Yerni qonga to'ldirsang,
Yana olib qaytarman,
Ofarinlar aytarman».
Qanotga chiqdi Bunyod,
Ko'zini chirt yumdi bot
Va Semurg' qildi parvoz,
Dunyoni tutdi ovoz.
Kun botar tomon ketdi,
Tun yotar tomon ketdi.
Semurg' ostida dunyo
Aylangan bo'ldi go'yo.
U o'qday uchib o'tdi,
Yashinday ko'chib o'tdi.
Yer-u ko'kka soldi jar,
Shovqiniga dunyo kar.
Xezlanganda yurt oldi,
O'lkalar ketda qoldi.
Qolmay o'tmagan yeri,
Ucha-ucha oxiri
O'rmonlikka yetishdi,
Shivillab pastga tushdi.
Yalmog'izning qoshidan,
Daraxtlarning boshidan
Vabo o'tganday bo'ldi,
Balo yetganday bo'ldi.
Semurg' bir silkindi bot,
Ko'zini ochdi Bunyod.
Kun botarda bir o'rmon,
Unga bo'ldi namoyon.
Daraxtlarga ko'z soldi,
Og'ir hayratda qoldi.
Tikildi suq kirgudak,
Bunda o'sgan har terak

Boshi osmonga yetgan,
Ko'kka chirmashib ketgan.
Atrofga javla qildi,
Nafaslari tiqildi.
Semurg' dedi: «Ey, botir,
Kel endi o'rningdan tur!
Borib dushmaningni top,
Qilich sol, bo'ynidan chop.
Jo'na, baxting bor bo'lsin,
O'tkir qilich yor bo'lsin.
Seni shunda kutarman,
Kelmasang qon yutarman» —
Va u ko'zdan yo'qoldi,
Bir kesak bo'lib qoldi.
Bunyod o'rmonga kirdi,
Suv kechib, qonga kirdi.
O'tkir qilich qo'lida,
Borar ekan, yo'lida
Daraxtlar qular edi,
Yirtqichlar o'lar edi.
O'rmonda harnaki bor,
Qurt-u qush-u jonivor
Qarshi olar edilar,
Nazar solar edilar.
Bu ham bo'lar, deb, qurbon,
Edilar ko'p pushaymon.
Chumchuqlar chirqirardi,
Bulbul yig'lab turardi.
Bunyod esa mardona,
Mard-u bahodirona,
O'rmonda borar edi,
Devni axtarar edi.
Oshiqardi ko'ray, deb,
Qarshisida turay, deb.
Qilar edi ko'p armon,
Topay deb dardga darmon.

XIV

Bunyod yetti kun kezdi,
Yetti qora tun kezdi,
Eng oxiri tun chog'i,
Bir hid sezdi dimog'i.

Tani jimirlab ketdi,
Qalbi qimirlab ketdi.
Bora berdi u hamon,
Guvillab qoldi har yon.
O'rmon shatirlab qoldi,
Barglar patirlab qoldi.
U yana yurdi bir oz,
Oxir dev chiqdi peshvoz.

Sekin-sekin yurardi,
Qah-qah urib turardi.
Dumidan boshigacha,
Boshdan oyog'igacha
Xursandlik olgan edi,
Shodlikda qolgan edi.
Zahar tomar tishidan,
O'lim yog'ar ishidan.
Shoxi osmonda edi,
Tirnog'i qonda edi.
Bunyodga kulib boqib,
Nafsiga yigit yoqib:
«Salom, o'g'lim, kel, —

dedi. —

Dushman emas, el, — dedi. —

Omon-eson bormisan?
Parizodga yormisan?
Go'zal qizim, omonmi?
Sho'x yulduzim, omonmi?
Tilagingni ayt menga,
Ne murod kerak senga?»
Yigit so'zga boshladi,
Gapni tizib tashladi.

«Bunyod senga el emas,
El bo'lganni dev yemas.
Sen bir ofat emishsan,
Zo'r qabohat emishsan.
Odamizodning yovi,
O'g'lonlarning go'rkovi
O'zing emishsan yolg'iz.
Parizod deganing qiz,
Qancha do'sting bo'lsa ham,
Alam yutib o'lsa ham,
Boshingga yetajakman,
O'ldirib ketajakman».

Bunyod qilich chiqardi,
O'rmon yaltirab qoldi.
Bunyodning qahri keldi,
Devning ham zahri keldi.
Ko'zlaridan o't sochdi,
O'rmonlikdan tun qochdi.
U har og'iz ochganda,
U har bir o't sochganda,
Zo'r bir yong'in ketardi,
Qancha o'rmon bitardi.
Nafasidan zo'r bo'ron
Qo'zg'alar edi har yon.
Tomirlar ko'char edi,
Daraxtlar uchar edi,
Osmonni qushlar tutib,
Hammasi ham qon yutib,
Chirqirashib turardi,
Zo'r kurashni ko'rardi.
To'kilar edi qonlar...
Barcha yirtqich hayvonlar
Kezardi besaranjom
Saqlab qolmoq uchun jon.
Bunyodni yutmoq uchun,
Bo'g'zidan tutmoq uchun
Dev hamla qilar edi,
Ba'zida kular edi.
Otashda edi ichi,
Bahodirning qilichi
Yaltirardi boshida,
Kular edi qoshida.
Bunyod qilich solganda,
Har bir sirmab olganda,
Devni uzib o'tardi,
Uzib, buzib o'tardi.
To'xtamadi qonli jang,
Bo'ldi devning holi tang.
Ikki kun-u ikki tun
Solishdi ular butun.
Tinimni bilmadilar,
Yarashga kelmadilar.
Bunyod qilichi bilan,
Zaharli uchi bilan
Devni burdalay berdi,

Qilich qon yalay berdi.
 Dev makon qurgan o'rmon
 Boshdan-oyoq bo'ldi qon.
 Qilichni har solganda,
 Har bir simrab olganda,
 Bir joyni olib o'tdi,
 Bir rahna solib o'tdi.
 Oxiri jon qolmadi,
 Jon-u darmon qolmadi.
 Qilich bo'g'zidan tutgach,
 Tog' kabi yorib o'tgach,
 Dev harsillab quladi,
 Bir qarsillab quladi.
 Dev qulab yiqilganda,
 Birdan yakson bo'lganda,
 Yerlar qimirlab ketdi,
 Zilzila gurlab ketdi.
 Cho'zala tushgan chog'i,
 Devning bosh-u oyog'i
 O'rmonni tutib ketdi,
 Sig'may chetga ham o'tdi.
 U tipirlab berdi jon
 Va jimjit qoldi o'rmon.
 Shundan so'ng botir Bunyod
 Bo'lib o'zida yo'q shod,
 Qilichni yuvib oldi,
 Bir o'pib, qinga soldi.
 Parrandalar barchasi,
 Go'zali, oy parchasi
 Botirni uzatdilar,
 Olqishlab kuzatdilar.
 Yigit Bunyod mardona,
 Mard-u bahodirona
 Yurib o'rmondan chiqdi,
 G'avg'o va qondan chiqdi.
 Botir g'oyat beqaror,
 Semurg'iga intizor
 Turar edi ko'z tutib,
 Har ko'zini yuz tutib.
 Kesak bo'lib yotgan qush
 Go'yo ko'rgan kabi tush
 Qonlar to'kilganini,

Bunyodning yengganini,
 Botirning g'ussadan pok,
 Dev bo'lganini halok —
 Bilar edi hammasin.
 Kesak bo'lib, ko'lkasini
 Yerga solib yotardi,
 Orom olib yotardi.
 Bunyod kelgan zamon ul
 Shodlikka to'ldi butkul.
 Bir aylanib qush bo'ldi,
 Bunyod ko'ngli xush bo'ldi.
 Botir izidan o'pdi,
 Ikki ko'zidan o'pdi.
 Dedi: «Kel, ustimga chiq,
 Mening qanotimga chiq!
 Endi ketga qaytaylik,
 Elga doston aytaylik.
 Botir yigit, ketdik, bo'!
 Kelgan joyga yetdik, bo'!»
 Botir qanotga chiqdi,
 Zo'r «duldul ot»ga chiqdi.
 Ko'zini yumgan zamon,
 Xayolga cho'mgan zamon
 Semurg' ko'kda yo'l oldi,
 O'rmonlar ketda qoldi.
 Bir yurt ko'chib borganday,
 Ko'chib uchib borganday
 Shovqin-suron zo'r edi
 Va beimkon zo'r edi.

XV

Go'zal qush qanotida,
 Ko'kning chopqir otida
 Uchib borarkan, Bunyod —
 Xayolida Parizod.
 Qush keng sahroga yetdi,
 Iniga qarab ketdi.
 «Ey, Bunyod, ko'zingni och,
 Jahonni ko'r, nazar soch!
 Endi yo'lni toparsan,
 Kerak bo'lsa choparsan.

Bor, yaxshilar yor bo'lsin,
Botir, baxting bor bo'lsin».
Qaytadan qo'l ushlab,
Semurg' bilan xushlashib,
Bir-birini quchoqlab,
Mehr-u muhabbat bog'lab,
Ajraldilar ikkovlon.
Bunyod jahonni javlon
Urilib yana yo'l ketdi,
Sahro bilan cho'l ketdi.

XVI

Tog'lar oshdi, qir oshdi,
Oylar bo'yi adashdi.
So'nggi qirdan o'tganda,
O'z yurtiga yetganda
Kunlarini sanadi,
Tunlarini sanadi.
Angladi, rosa uch yil
Kezganini muttasil.

XVII

Rosa uch yil o'tganda,
Olamni gul tutganda.
Yam-yashil erta bahor,
Parizodga intizor
Bunyod bo'ldi namoyon —
Ham xursand-u ham hayron.
Yuragi urib keldi,
Olamni ko'rib keldi.
Parizodni so'roqlab,
Bag'rini o'tda dog'lab,
Xonning eshigin qoqdi,
Erib suv bo'lib oqdi.
Parizodni ko'rgali,
Ahvolini so'rgali.
Jahonni urib javlon,
Semurg' bilan ikkovlon
Osmonda uchganini,
Yovuz devning tanini

Qilichda to'g'raganin,
Olganin uning jonin
So'ylagali shoshardi,
Daryo kabi toshardi.
Qalbini bir og'ir g'ash
O'rtardi misli otash.
Bir shubhasi bor edi,
Shubha do'sti zor edi.
Ne kechdi pari holi,
So'lmadimi niholi?
Uzoq uch yil muttasil
Nelar qildi ekan ul? —
Deya azob chekardi,
Zo'r iztirob chekardi.

Bunyod saroyga kirdi,
Taxt turgan joyga kirdi.
O'zini yo'qotdi xon
Botirni ko'rgan zamon.
Xonning yuziga qarab
Qalbi ichra oralab,
Bunyod bahodirona,
So'z boshladi mardona:
«Olamni ko'rib keldim,
Devni o'ldirib keldim.
Daryolarni qurutgan,
Baliqlarni chirutgan,
Insonni dard-u balo
Bilan qilgan muhtalo
Yovuzning oti o'chdi,
Ot-u hayoti uchdi.
Kerakkim, qilmay jafu,
Va'daga aylab vafo,
Parizodni bergaysan,
Ul ozodni bergaysan.
To'y boshlamoq lozimdir,
Kuy boshlamoq lozimdir».
Qovog'ini uyib xon,
Uyatiga kuyib xon,
So'zga kirishdi ojiz:
«Senga va'da qilgan qiz
So'zingga javob bersin,

Kerak bo'lsa tob bersin.
Ixtiyori o'zida,
Turgan bo'lsa so'zida,
To'y boshlarmiz shul zamon,
Bo'lisharmiz shodmon.
Qani Parizod kelsin,
O'sha hur, ozod kelsin».
Mulozimlar chopdilar,
Parizodni topdilar.
Paydo bo'lgach Parizod,
Hayratda qoldi Bunyod.
Ixtiyori yo'qoldi,
Sovuq bir terda qoldi:
Xonning qizi Parizod
G'amgin emas, juda shod,
O'g'lin oldiga solib,
Qizini qo'lga olib,
Kelar edi ul tomon,
Boqar edi ko'p yomon.
Bunyod hang-u mang qoldi,
Holi zori tang qoldi.
Unga Parizod makkor
Shularni qildi izhor:
«Cho'ponni sevolmadim,
Hech ko'ngil qo'yolmadim.
G'urbatga qorganimning,
Devga yuborganimning
Sababi shunda edi,
Ko'nglim tugunda edi.
O'lib ketar, deb edim,
Churib ketar, deb edim.
Qancha botir bo'lsang ham,
Zo'r bahodir bo'lsang ham
To'shaging xas deb bildim,
Aslingni past deb bildim.

Sevolmadim seni men,
Chunki men xon qizimen.
Men saroyning eriga,
Otamning vaziriga
Allaqachon tekkanman,
Shart qilib safarga san
Chiqib ketgan kuningda,
Yo'lda bo'lgan tuningda
To'y bo'lib o'tgan edi,
Hamma ish bitgan edi».


Yerga tikilgancha xon
Jim qoldi uzoq zamon.
Parizod yerga boqdi,
Bunyod o'tda tutoqdi.
Ne aytarin bilmasdan,
Tili so'zga kelmasdan,
G'azabda yonar edi,
Yonar, qiynalar edi.
Parizodni, xonni ham,
Ikki nomard jonni ham
Qilichdan o'tkazmoqqa,
O'linga yutqizmoqqa
Hozir edi shul zamon,
O't ichida beomon.
Shu g'azab, shu o'ch bilan,
Shu qasos, shu kuch bilan
Saroyni tashlab chiqdi,
Ko'zini yoshlab chiqdi.
Bevaf o xon qizini,
Nomard xonning o'zini,
Unutmadi hech qachon,
Qarg'ab o'tdi beomon.

1939 yil 3-aprel



Savol va topshiriqlar

1. Nega asar «Parizod va Bunyod» emas, balki «Semurgʻ yoki Parizod va Bunyod» deb atalgan?
2. Parizod qanday qizning obrazi? Nega u xalq ichida yomon ot chiqargan?
3. Xon qizi Parizoddan nimani iltimos qiladi?
4. Parizod boʻlajak kuyovlarga qanday shartlar qoʻydi?
5. Jarchi, suyunchi, sohibqiron soʻzlarining maʼnosini bilasizmi? Asar matnida tarixiy maʼnoni anglatuvchi yana qanday soʻzlar bor?
6. Parizodga uylanmoqchi boʻlganlar nega sakkiz yoki oʻn kun emas, balki, albatta, yetti kecha va yetti kunduz yurishadi? Yetti soʻzining boshqa bir maʼnosi ham bormi?
7. Bunyod qanday yigitning obrazi? Uning qanday yaxshi fazilatlari bor?
8. Nega Parizod oʻz vaʼdasida turmay, Bunyod oldiga yana bir shartni qoʻydi?
9. Nima uchun shoir Bunyodga yordam berishi mumkin boʻlgan jonvorlar orasidan Semurgʻni tanlab, uni asarga qahramon qilib kiritgan?
10. Oʻzbekiston davlatining ramziy timsollarida Semurgʻning tasviri bormi? U, sizningcha, nimaning timsoli?
11. Asarda oʻzbek xalq ertaklariga xos yana qanday obrazlar bor?
12. Asar tilida qoʻllangan qanday soʻz, ifoda va tasviriy vositalardan xalq ertaklarining «hid»i kelib turadi?
13. Asarning maʼno-maqsadi, sizningcha, nimadan iborat? Shoir bu asari bilan nima demoqchi?
14. Ushbu doston asosida ishlangan boshqa sanʼat asarini bilasizmi?
15. Asarni toʻla oʻqib chiqing va unda tasvirlangan voqealar asosida rasm ishlang.



SHUKRULLO

(1921- yilda tugʻilgan)



Shukrullo qadimiy va yuksak madaniyatga ega boʻlgan mamlakatning, qayta yashargan ona-Yerning shoiri boʻlish baxtiga muyassar boʻlgan ijodkorlardan. Uning sheʼrlari fikriy tebranligi va lirizmi, haqqoniyligi va ehtirosliigi, yengil yumorga yoʻgʻrilganligi bilan ajralib turadi.

Qaysin QULIYEV, bolqor shoiri.

Shukrullo 1931—1938- yillarda Toshkentdagi pedagogika bilim yurtida oʻqib yurgan kezarida ilk sheʼrlarini yoza boshlagan. Ammo uning «Birinchidaftar» deb nomlangan dastlabki sheʼrlar toʻplami 1949- yildagina nashr etilgan. Binobarin, 1951- yili u Shayxzoda, Shuhrat, Said Ahmad kabi qalamkash birodarlari bilan qatagʻon etilgan vaqtda yosh shoir boʻlgan.

Shukrullo Stalin oʻlimidan keyin olis Taymir yarim orolidagi lagerdan omon-esson qaytib keldi. Shundan keyin u joʻshib ijod qilib, oʻnlab sheʼriy toʻplamlarini, badiiy ijod haqidagi «Javohirlar sandigʻi» nasriy asarini, qatagʻon davri haqidagi «Kafansiz koʻmilganlar» va «Tirik ruhlar» roman-xronikalarini yaratdi. Shu davrda u taniqli shoir sifatida avar Rasul Hamzatov, qalmaq David Kugultinov, bolqor Qaysin

Quliyev, tatar Mustay Karim kabi mashhur shoirlar bilan do‘stlashdi.

Shoir do‘stlikning, ahillikning qadr-qimmatini juda yaxshi biladi.

Shukrullo «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olinib, Norilsk shahridagi zavod qurilishida ishlaganida 30- yillarda Usmon Nosir kabi ustozlari, 50- yillarda esa qator tengdoshlarininggina emas, minglab-millionlab begunoh kishilarning ham qatag‘on etilganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Xalqning ommaviy ravishda qatag‘on etilishining sabablaridan biri uning o‘zaro uyushmaganligida, mushtdek jipslashmaganida, bir tan, bir jon bo‘lib yashamaganida, yurak hovuchlab kun kechirganida edi.

U qamoqdan ozod etilib, Toshkentga kelgan kunlarini xotirlab, bunday yozgan:

«Kelganimga bir necha hafta bo‘lyapti. Hamfikir shoir, yozuvchi do‘stlarimdan hamon darak yo‘q edi. Oylar o‘tdi, ammo o‘zim borib ko‘rmasam yoki tasodifan uchrashib qolmasam, marhum shoir Mamarasul Boboyev yoki bir-ikki yozuvchilardan boshqasi «omon keldingizmi?» deb hol so‘rab, uyim ostonasiga qadam qo‘yganlari yo‘q! Buning sababi nimada? Bu qo‘rqoqlikmi? Yoki mehrsizlik, do‘stga riyomi?..»

Agar shu so‘zlarni chuqurroq o‘ylab ko‘rsangsiz, nozik paytlarda qo‘rqoqlik qilish uzoq davom etgan ola-tasir davrlarida, ayniqsa, mustamlakachilik yillarida qon-qonimizga singib ketgani ayon bo‘ladi. Ahilsizlik qilganimiz, jipslashmaganimiz, mahalliychilik girdobida yashaganimiz ma‘lum bo‘ladi.

Xalq ahil bo‘lmasa, mehr-oqibatli bo‘lmasa, bunday xalqning ahvoriga voy...

Agar ana shu fikrlardan kelib chiqqan holda Shukrulloning «Ahillik haqida» she‘riy ertagini o‘qisangiz, unda ko‘tarilgan masalaning ahamiyati yanada ravshanlashadi.

AHILLIK HAQIDA

(*Ertak*)

Bor ekan-da, yo‘q ekan,
Dono chol bo‘lgan ekan.
Yuz yildan ortiq yashab,
Ko‘p narsa ko‘rgan ekan.
Bor ekan uning bir qiz,
Uch o‘g‘il nabirasi.
Bir-biri bilan hargiz

Urisharkan barisi.
Bu ahvoldan chol boyaqish,
Juda diqqat bo‘libdi.
To‘rttovini chaqirib,
Pand-nasihat qilibdi:
— Ey, aziz farzandlarim,
Men qarib qoldim endi.

Erta-indin o'larman,
Holdan ko'p toldim endi.
Nasihatim shu sizga,
Ahil bo'ling har mahal.
Bir ish qilmoq bo'lsangiz,
Talashmang, qilmang janjal.
Ahillikda hikmat ko'p,
Ko'rsatayin bir misol.
Shunda uning kuchini
Bilib olasiz darhol.
Turib o'rinlaringdan
Keltiring to'rtta novda.
Nima bo'lajagini
Ko'ramiz biz sinovda.
Hurmat bilan bobosin
So'zin olib quloqqa,
Buyrug'in bajargali
Kirib ketdilar boqqa.
Ko'p o'tmadi oradan,
Aytganin keltirdilar.
Davra olib to'rttovi
So'z kutib o'ltirdilar.
Chol bobo novdalarni
Barchasini qilib bir,
Eng kichik nabirasi

Valiga dedi: — Sindir.
Odil, Ra'nolarga ham
Sindirmoq bo'ldi qiyin.
Sobir ham o'z kuchini
Sinab ko'rdi eng keyin.
Bularning barchasi ham,
Sindirolmay bo'ldi lol.
Oppoq soqolin silab,
Shu so'zlarni aytdi chol:
— Ey, aziz farzandlarim,
Birgalikda hikmat ko'p!
Sizni hech kim yengolmas
Bir joyga bo'lsangiz to'p.
Agar ahil bo'lsangiz,
G'olib bo'lasiz doim.
Katta obro'y topasiz,
Sizni hurmatlar har kim.
«Oltovlon ola bo'lsa,
Og'izdagin oldirar,
To'rtovlon tugal bo'lsa
Unmaganni undirar» —
Degan xalqning maqoli,
Chiqmasin yodingizdan.
Sizga vasiyatim shu,
Shuni so'rayman sizdan.



Savol va topshiriqlar

1. Ertak mazmunini aytib bering.
2. Ertakdagi chol obrazini talqin eting.
3. Dono chol ahillikning ahamiyatini tushuntirish uchun qanday misolni keltirdi?
4. «Oltovlon ola bo'lsa, Og'izdagin oldirar...» maqolini sharhlab bering.
5. Ahillik haqidagi qanday hikmatli so'zlarni bilasiz?

HANS KRISTIAN ANDERSEN

(1805—1875)



Mashhur jahon ertaknavislari orasida Hans Kristian Andersendek ko'plab ajoyib ertaklar yozgan va asarlari barcha madaniy xalqlar tomonidan sevib o'qiladigan yozuvchilar barmoq bilan sanarli. H. K. Andersen shunday sehrli qalam sohiblarining sarvaridir.

Asqad MUXTOR

Shunday yozuvchilar bo'ladiki, ular qaysi davrda, dunyoning qaysi mamlakatida yashab ijod etgan bo'lmasin, asarlari ko'plab tillarga tarjima etilgani uchun har bir avlodning sevimli yozuvchisi sifatida e'zozlanib keladi. Shunday yozuvchilardan biri, shubhasiz, Hans Kristian Andersendir.

Bundan yuz yil ilgari Daniyaning Odens degan kichkina shahrida tug'ilgan bu yozuvchining asarlari tarjima qilinmagan til, kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. Negaki, uning asarlari bugun faqat kitob shaklida emas, balki kino va teatr san'atlari asari sifatida ham dunyo bo'ylab kezib yuribdi. Uning ajoyib ertaklari asosida qanchadan qancha mamlakatlarda multfilmlar ishlanganki, ular namoyish etilmagan birorta ham milliy televideniye bo'lmasa kerak.

Andersenning ikki muhim fazilati bo'lgan. Bu fazilatlarining birinchisi — xayolparastlik, ikkinchisi esa bolajonlikdir. Bu ikki fazilat qo'shilib, bir daryoni hosil qilgan. Bu ertaklar,

ajabtovur voqealar daryosidir. Andersenning ertaklarini o'qib ado etib bo'lmaydi. Ular shu qadar ko'pdir.

Shubhasiz, Andersenning ertak va hikoyalarini o'qib, hayajonlanasiz va boshqa bir olamga — go'zal va yuksak olamga tushib qolgandek bo'lasiz. Ammo kimdir uning ertaklaridagi g'ayritabiiy voqealar, sehrli kishilar va buyumlar bilan tanishgach, «Hayotda bunday narsa bo'lmaydi», deb ularga ishonchsizlik, hatto pisandsizlik bilan qarashi mumkin. Ammo, bir tomondan, kim Yuriy Gagarinning osmonga parvoz qilishi mumkinligini oldindan ko'ripti? Kim amerikalik astronautning Oyga borib qo'nishi mumkinligini xayoliga keltiripti? Kim bugungi kompyuterlarning ixtiro etilishini bashorat qilipti?.. Ko'rdingizmi, ertak va afsonalar ham haqiqatga aylanadi. Ikkinchi tomondan, kishining mo'jizalarga ishonib yashashi, masalan, hozir o'qishingiz mumkin bo'lgan hikoyadagi sehrli chaqmoqtoshning bir kun bo'lmasa, bir kun ixtiro etilishiga umid qilishi yaxshi emasmi? Qolaversa, har bir ertak sizni yaxshilikka chaqiradi, hayotda ajoyib mo'jizalarning borligiga ishontiradi. Shunday ishonch bilan yashashning o'ziyoq kishiga zavq-shavq va kuch-quvvat beradi.

Andersen ertaklarining ma'rifiy, tarbiyaviy va estetik ahamiyati ham shundadir.

CHAQMOQTOSH

Bir askar yo'lda ketib borardi: Bir-ikki! Bir-ikki! Orqasida xaltasi-yu yonida qilichi. U, urushdan uyiga qaytmoqda edi. Yo'lda unga juda xunuk va qari bir jodugar kampir uchradi. Uning pastki labi ko'kragiga osilib tushgan edi.

— Salom, askar! — dedi jodugar kampir. — Juda katta xaltang va ajoyib qiliching bor ekan! Chindan ham azamat askar ekansan! Har tomonlama durust ekansan-u, biroq cho'ntaklaring bo'sh ekan. Istasang, senga pul beray, askar!

— Rahmat, jodugar kampir. Puldan ahmoqlargina bosh tortadilar, — dedi soldat va cho'ntagini tutdi.

— Yo'g'ey! — dedi jodugar kampir, — bir oz sabr qil. Hov anavi katta daraxtni ko'ryapsanmi? — Kampir shu yaqindagi bir daraxtni ko'rsatdi. — Uning ichi bo'sh. Daraxtga chiq, tepasida kavagi bor, shu kavakka kir-da, eng pastiga tush. Men bo'lsam sening belingga arqon bog'layman va qachon tort deb qichqirsang, tortib olaman.

— Men bu kavakka kirib nima qilaman? — deb so'radi askar.

— Pul olib chiqasan, — dedi jodugar kampir. — Bu daraxt oddiy daraxtlardan emas. Sen uning eng tagiga tushganingda, uzun yerosti yo'lni ko'rasan. U yer judayam yorug', kechakunduz yuzlab lampalar yonib turadi. Yerosti yo'li bilan to'ppa-to'g'ri ketaver. Eng oxiriga yetganingda uchta eshikka duch kelasan. Eshiklarning kaliti og'zida turadi. Burasang, eshik ochilib ketadi.

Birinchi uyga kirishing bilanoq, kattakon sandiqni, uning ustida bo'lsa bir it o'tirganini ko'rasan. Bu itning ko'zlari xuddi piyoladay keladi. Lekin sen qo'rqma! Men senga o'zimning ko'k katakli fartug'imni beraman, uni yerga yozgin, itni qo'rqmasdan ushlab ol-da, darrov uni fartug'im ustiga o'tqiz. Undan so'ng sandiqni ochgin-da, pullarni xohlaganingcha ol. Lekin bu sandiqda faqat chaqa pullar bor, xolos. Agar kumushini xohlasang, ikkinchi uyga kir. U uyda ham sandiq bor. Sandiq ustida ko'zlari xuddi tegirmon toshiday keladigan it o'tiradi. Lekin sen undan sira qo'rqma. Uni tutib ol-da, fartuqqa o'tqiz, so'ngra kumush pullarni olaber. Agar xohlasang, istaganingcha tillaga ham ega bo'la olasan. Buning uchun uchinchi uyga kirsang, bas. Uchinchi uyning o'rtasida tilla bilan liq to'la sandiq turadi. Sandiqning ustida o'tirgan it shunday kattaki, uning har bir ko'zi gum-bazday keladi. Uni mening fartug'imga o'tqaza olsang — sening baxting: it senga tegmaydi. Keyin istaganingcha tillalarni olaverasan.

— Bu-ku, yaxshiku-ya, — dedi askar, — lekin sen bular evaziga mendan nima olasan, jodugar? Axir, mendan biror narsa kerakdir senga.

— Men sendan bir chaqa ham olmayman, — dedi jodugar kampir. — Faqat sen menga buvim pastga oxirgi marta tushganida unutib qoldirgan eski chaqmoqtoshni olib chiqib bersang bo'lgani.

— Xo'p, mayli, belimga arqon bog'la! — dedi askar.

— Bo'ldi! — dedi jodugar kampir. — Ma, katakli fartug'imni ol.

Askar daraxtga chiqdi. Kavakning ichiga tushdi. Hammasi jodugarning aytganidek bo'lib chiqdi: askar ko'rsa — yo'lak kunduz kuniday yorug', unda yuzlarcha lampalar yonib turar edi.

Askar to'ppa-to'g'ri borib yo'lakning oxiriga yetdi. Undan nari yo'l yo'q edi. Askar og'izlarida kalitlari bo'lgan uch eshikni ko'rdi.

Askar birinchi eshikni ochib, ichkari kirdi. Uyning o'rtasidagi sandiqda ko'zlari piyoladay bir it o'tirar va askarga tikilar edi.

— Juda ajoyib-ku! — dedi askar, u itni ushlab olib jodugarning fartug'iga o'tqizdi. It shu choq jim bo'lib qoldi; askar sandiqni ochdi-da cho'ntaklarini chaqaga to'lg'azdi. Keyin sandiqni yopdi, itni qaytadan uning ustiga o'tqizdi, o'zi bo'lsa ikkinchi uyga qarab jo'nadi.

Jodugar kampir to'g'ri aytgan ekan — bu uydagi sandiq ustida ko'zlari tegirmon toshiday bir it o'tirardi.

— Xo'sh, nega menga bunchalik o'qrayding? Yana ola ko'zlaring qinidan chiqib ketmasin! — dedi askar va itni tutib olib, jodugar kampirning fartug'iga o'tqizdi, o'zi bo'lsa sandiqqa yopishdi.

Askar sandiqdagi kumush pullarni ko'r-di-yu, cho'ntaklaridan chaqa pullarni olib tashladi. Keyin har ikki cho'ntagini va xaltachasini kumush bilan to'lg'izdi. Nihoyat askar uchinchi uyga kirdi. Kirishi bilanoq og'zi ochilib qoldi. Butun bir mo'jiza! Uyning o'rtasida oltin sandiq turardi, sandiqning ustidagi itning ko'zlari ikki gumbazday kelar va eng tez yuradigan arava g'ildiragiday aylanardi.

— Salom alaykum! — dedi askar va go'yo generalga salom berganday oyoqlarini urib ta'zim qildi.

Lekin askar uzoq qarab turmadi. Itni birdaniga ko'tarib oldi-da, jodugar kampirning fartug'iga o'tqizdi, o'zi esa sandiqni ochdi. O'h-ho'! Bu yerda shuncha tilla bor ekanki, bu tillalarga butun bir shaharni, butun o'yinchoqlarni, barcha qalayi askarchalarni, hamma yog'och otchalarni va dunyodagi hamma shirin kulchalarni sotib olsa bo'lardi. Hammasiga yetib ortardi!

Shu yerda askar cho'ntaklaridagi va xaltachasidagi kumush pullarni olib tashladi-da, ikki qo'llab sandiqdan tillani hovuchlay boshladi. U tilla bilan cho'ntaklarini, xaltachasini, shapkasini va etik qo'njilarini to'ldirdi. Tillaning og'irligidan askar zo'r-bazo'r o'rnidan turdi. Endi u puldor bo'lgan edi!

U itni yana sandiqqa o'tqizdi, keyin eshikni yopdi-da, yuqoriga qarab:

— Hay, meni tortib ol, jodugar kampir! — deb baqirdi.

— Chaqmoq toshimni oldingmi? — deb so'radi jodugar kampir.

— Rostdan ham sal bo'lmasa chaqmoqtoshingni unuta-

yoʻzgan ekanman! — dedi soldat va orqasiga qaytib chaqmoqtoshni oldi.

— Qani, tort! Sening chaqmoqtoshingni topdim! — deb qichqirdi u jodugar kampirga.

Jodugar uni yuqoriga tortib chiqardi, askar yana katta koʻchaga chiqib oldi.

— Qani, chaqmoqtoshni ber-chi menga! — dedi jodugar kampir.

— Senga bu chaqmoqtosh nimaga kerak, jodugar kampir? — deb soʻradi askar.

— Nima ishing bor! — deb javob berdi jodugar. — Sen axir pullarni olding-ku, menga chaqmoqtoshni berda endi.

— Ha, yoqadimi, — dedi askar. — Chaqmoqtoshning senga nima keragi bor? Hozir ayt, boʻlmasa qilich bilan boshingni uzib tashlayman.

— Aytmayman! — dedi jodugar kampir.

Shunda askar qilichini chiqarib jodugar kampirning kallasini kesib tashladi, jodugar kampir yerga yiqildi-yu, shu ondayoq jon berdi. Askar boʻlsa, jodugarning katakli fartugʻiga oʻzining hamma pullarini tugdi-da, tugunini orqalab, toʻgʻri shaharga qarab yoʻl oldi.

Shahar katta va ajoyib edi. Askar eng katta musofirxonaga borib tushdi, oʻziga eng yaxshi uylarni ijaraga oldi va oʻzining eng sevgan taomlarining barchasini keltirishni buyurdi — axir u endi badavlat boʻlib qolgan edi-da!

Uning etigini tozalayotgan xizmatkor, shunday boy janobning bunday eski etik kiyganiga hayron qoldi — axir hali askar yangisini olib ulgurmagan edi-da. Lekin ertasi kuni u oʻziga eng yaxshi kiyimlar — pat suqilgan shlyapa va jaranglaydigan shpori bor etik sotib oldi.

Endi askar haqiqiy toʻra boʻlib oldi. Unga bu shaharda boʻlgan butun moʻjizalar haqida ham, qirol va uning qizi malika haqida ham soʻzlab berdilar.

— Bu malikani qanday qilib koʻrsa boʻladi? — deb soʻradi askar.

— Koʻrishning hech iloji yoʻq, — dedilar unga. — Malika baland devorlar va tosh minoralar bilan oʻralgan katta bir mis qoʻrgʻonda yashaydi. U yerga qirol boshqa hech kim na kira oladi va na chiqq oladi, negaki qirolga qizining peshonasiga oddiy bir askarning xotini boʻlishlik yozib qoʻyilgan, deb aytganlar. Qirolga esa oddiy bir askarga qaynata boʻlish, albat-

ta, yoqmaydi. Shuning uchun ham u malikani yopiq joyda saqlaydi.

Malikani ko'rish mumkin bo'lmaganligiga askar ancha achindi, shunday bo'lsa-da uzoq qayg'urmadi. U malikasiz ham juda shod kun kechirdi: teatrlarga bordi, qirol bog'ida sayr qildi va kambag'allarga pul ulashdi — axir u, cho'ntagida bir chaqasiz yurishning qanday yomon ekanini o'z boshidan kechirgan edi-da!

Demak, askar boy ekan, yaxshi yashab, yaxshi kiyinarkan, shunday bo'lgandan keyin uning og'aynilari ham ko'paydi. Hammalari uni yaxshi yigitcha, haqiqiy to'ra deb atardilar, bu esa unga juda yoqardi.

Shunday qilib askar pullarini ayamay sarf qilaverdi va bir kun qarasa cho'ntagida hammasi bo'lib ikki chaqa qolipdi, xolos. Shundan keyin askar yaxshi uydin tomning qoq tagidagi tor hujraga ko'chib chiqishga majbur bo'ldi. Kechirgan kunlarini yana esladi: etigini o'zi tozaladi va undagi yirtiqnlarni o'zi yamadi. Og'aynilaridan hech qaysisi ortiq uni kelib ko'rmaydigan bo'ldi, chunki uning oldiga chiqish uchun juda balandga ko'tarilish kerak edi.

Bir kun kechqurun askar o'z hujrasida o'tirardi. Kun qorayib ketdi, uning hatto shamga ham puli yo'q edi. Shu choq jodugar kampirning chaqmoqtoshi esiga tushib qoldi. Askar chaqmoqtoshni oldi-da, o't chiqara boshladi. U o'tchaqarga urgan edi hamki, eshik lang ochilib ketdi va xuddi ko'zlari piyoladay bo'lgan it chopib kirdi. Bu it askarning yer ostidagi birinchi uyda ko'rgan iti edi.

— Nima buyurasan, askar? — deb so'radi it.

— Iye, mana bunisi ajoyib bo'ldi-ku! — dedi askar. — Chaqmoqtoshning biror hikmati bor ko'rinadi. U meni yomon kunlardan qutqazmashkan? Qani, menga pul keltir-chi! — deb buyurdi itga va... — bir! deguncha it g'oyib bo'ldi, — ikki deyishi bilan it darhol hozir bo'ldi, uning tishida chaqa pullar to'la kattakon bir xalta bor edi.

Askar o'zidagi chaqmoqtoshning qanday ajoyib narsa ekanini endi tushundi. O'tchaqarga bir marta ursa, bas edi — chaqa pul to'la sandiqda o'tirgan — ko'zlari piyoladay it hozir bo'lar edi, ikki marta ursa-chi — ko'zlari tegirmon toshidek keladigan it, uch marta ursa — har bir ko'zi gumbazday keladigan it uning oldida hozir bo'lardi. Birinchi it unga chaqa, ikkinchisi esa kumush pullarni, uchinchisi toza tilla keltirardi.

Askar yana boyib ketdi, u eng yaxshi uylarga ko'chib chiqdi, yana olifta kiyimlar kiyib yuradigan bo'ldi. Uning hamma og'aynilari yana unikiga kela boshladilar va uni juda yaxshi ko'rib qoldilar.

Bir kun askarning boshiga bir o'y keldi: «Xo'sh, nega men malikani ko'rmayin? Hamma uni juda chiroyli deb ta'riflaydiku. Agar u o'z umrini mis qo'rg'onda, baland devorlar va minoralar ichida o'tirib o'tkazsa, bundan nima foyda? Qani, mening chaqmoqtoshim qayda?»

O'tchaqarga bir marta urgan edi, shu onning o'zidayoq ko'zlari piyoladay it hozir bo'ldi.

— Gap bunday, azizim! — dedi askar. — Endi rosti, kech bo'lib qoldi. Ammo men bir nafas bo'lsa-da malikani ko'rmoq istayman. Qani, jo'nab qol!.. — It shu ondayoq chopib ketdi va askar ko'z ochib yumguncha qaytadan hozir bo'ldi, uning ustida esa uxlaganicha malika yotardi.

Malika juda ham ajoyib va go'zal edi. Birinchi qarashdayoq uning chinakam malika ekanligi ko'rinardi, buni ko'rgan askar, uni o'pishdan o'zini sira to'xtatolmadi. Axir u boshidan tovonigacha jasoratli yigit bo'lgan chin askar edi-da!

Keyin it malikani qanday olib kelgan bo'lsa, shunday eltib qo'ydi.

Ertalabki choy vaqtida malika it bilan askar haqida juda g'alati tush ko'rganini qirol bilan qirolichaga so'zlab berdi, go'yo u itning ustida yotib borar emish va qandaydir askar uni o'pgan emish.

— Bunisi nimasi? — dedi qirolicha, bu tush unga unchalik yoqmadi.

Ertasi kun kechasi malikaning yotar joyiga qari bir kanizakni poyloqchi qilib qo'ydilar. O'sha gap haqiqatan ham tush edimi yoki boshqa bir narsa ekanini bilib olish kerak edi.

Askar esa yana go'zal malikani o'lgudek sog'inib qoldi. Shunday qilib kechasi mis qo'rg'onda kechagi it paydo bo'ldi, malikani ko'tarib olib, kuchining boricha yugurdi. Shu on qari kanizak suv o'tmaydigan etigini kiyib uning ortidan quva ketdi. It malika bilan katta bir uyga kirib ketganini ko'rib, kanizak: «Endi biz muttahamni topa olamiz», deb o'yladi va uyning darvozasiga bo'r bilan katta butning rasmini soldi, o'zi bo'lsa, bemalol uyiga uxlagani ketdi. Lekin it malikani qaytarib elta-yotganida darvozadagi butni ko'rib qoldi va shu ondayoq nima gap ekanini payqadi. U, bir bo'lak bo'r olib, shaharning bar-

cha darvozalariga but alomatini qo'yib chiqdi. Bu juda puxta o'ylangan edi: endi kanizak kerak bo'lgan darvozani hech bir kimsa topa olmas edi — axir hamma darvozaga butning rasmi chizilgan edi.

Erta azonda qirol bilan qirolicha kekxa kanizak va butun ofitserlar bilan birga malikaning kechasi itga minib qayoqqa borganini ko'rmoq uchun jo'nadilar.

— Mana bu yerga kelgan ekan! — dedi qirol birinchi eshikdagi but alomatini ko'rib.

— Yo'q, mana bu eshikka kelgan! — dedi qirolicha boshqa darvozadagi butni ko'rib.

— Anavi yerda ham but, bu yerda ham! — dedilar ofitserlar. Ular qaysi darvozaga qaramasinlar, hammasida ham bo'r bilan chizilgan but alomati bor edi. Shunday qilib, hech qanday natijaga erisha olmadilar.

Ammo qirolicha faqat aravaga tushib yuruvchigina emas, balki hamma narsaga aqli yetadigan usta bir xotin edi. U xizmatkorlariga o'zining tilla qaychisini va bir parcha shohi keltirishni buyurdi, keyin kichkinagina chiroyli xaltacha tikdi. So'ngra bu xaltachaga qora bug'doyning kepagini soldi va uni malikaning orqasiga bilintirmay bog'lab qo'ydi. Undan keyin malika askarning oldiga borayotganda yo'lma-yo'l oz-ozgina sepilsin uchun xaltachani teshib qo'ydi.

Kechasi it yana paydo bo'ldi, malikani o'zining yelkasiga mindirib askarga eltdi. Askar esa malikani shunday yaxshi ko'rib qoldiki, joni-dili bilan unga uylanishni va shahzoda bo'lishni orzu qildi.

It juda tez chopdi, u kepakning mis qo'rg'ondan tortib askarning uyiga qadar butun yo'l bo'yi to'kilib borganini hech bir sezmad.

Ertalab qirol bilan qirolicha saroydan chiqdilar, yo'lga qaradilar va darhol malikaning qayoqqa borganini bildilar. Askarni tutib, qamoqxonaga qamatib qo'ydilar.

Askar panjara orqasida uzoq o'tirdi. Qamoqxonaga juda qorong'i va ko'ngilsiz edi. Bir kun qorovul, askarga:

— Ertaga seni osadilar, — dedi.

Askar qayg'urdi. O'limdan qanday qilib qutilish yo'lini rosa o'yladi, ammo o'ylab-o'ylab hech narsa topolmadi. Axir askar o'zining ajoyib chaqmoqtoshini uyda unitib qoldirgan edi-da.

Ertasi kuni ertalab askar kichkina tuynukcha yoniga borib,

temir panjara orasidan ko'chaga qaradi. Xalq askarni qanday qilib osishlarini ko'rish uchun to'da-to'da bo'lib shahar chetiga borayotgan edi. Do'mbiralalar chalindi, lashkarlar o'tdi. Shu vaqtda qamoqxonaning yonidan teri fartuqli, yalang oyoqlariga tufli kiygan qandaydir bir yamoqchi bola chopib o'tdi. U sakrab-sakrab chopardi, birdan uning bir tuflisi chiqib ketib, to'g'ri askar yotgan qamoqxonaning panjarasiga kelib urildi.

— Hay, yigitcha, shoshilma! — deb qichqirdi askar. — Men hali bu yerdaman, mensiz u yerda hech ish qilisholmaydi! Agarda sen mening uyimga chopib borib, chaqmoqtoshni olib kelsang, men senga to'rt tanga beraman. Qani, tez bo'! Oyog'ingni qo'lingga olib yugur!

Yigitcha to'rt tangani olishdan toymasdi, chaqmoqtoshni keltirish uchun o'qday otildi, uni tezda olib keldi, askarga topshirdi va...

Bundan nima kelib chiqqanini eshiting.

Shahar chekkasida dor qurilgan. Uning atrofida askarlar va to'da-to'da xalq turardi. Qirol va qirolicha haybatli taxtda o'tirardilar. Qarshida sudyalalar va kengashchilar o'tirardi. Shu onda askarni dor zinasiga keltirdilar, jallod uning bo'yniga sirtmoqni solmoqchi edi, askar bir minut sabr qilishni so'radi...

— Men bir tamaki chekib olay, axir bu mening hayotimda eng so'nggi chekish bo'ladi-da, — dedi.

Bu mamlakatda shunday bir odat bor edi: gunohkorni jazolamasdan ilgari hamma vaqt uning qanday bo'lmasin bir arzimagan talabini bajo etardilar.

Shuning uchun qirol askarning so'zini qaytarolmadi. Askar o'zining chaqmoqtoshini chiqarib o'tchaqarga bir urdi, ikki urdi, uch urdi — birdan uning oldida uchala it paydo bo'ldi: birining ko'zi piyoladay, ikkinchisniki tegirmon toshiday, uchinchisniki — gumbazday edi.

— Qani, sirtmoqdan qutilishga yordam qiling! — dedi ularga askar.

Shu chog' har uch it sudyalarga va kengashchilarga tashlandi: unisining oyog'idan, bunisining burnidan tishlab, bir necha metr balandga otdilarki, yerga tushish bilan hammalari chil-parchin bo'lib ketdilar.

— Meni qo'ying! Men istamayman! — deb qichqirdi qirol, lekin eng katta it uni qirolicha bilan birga ushlab olib, har ikkalasini ham osmonga irg'itdi. Askarlar ham qo'rqib ketdi, xalq bo'lsa:

— Yashasin askar! Askarjon, bizning qirolimiz bo‘l, chiroyli malikani o‘zingga xotinlikka ol! — deb qichqirdi.

Askarni qirol aravasiga o‘tqizdilar, uch it bo‘lsa arava oldida o‘yin tushib, «yashasin» deb vovillashardi... Bolalar hushtak chaldilar, askarlar esa qo‘llarini ko‘tarib, ta‘zim qilardilar. Malika mis qo‘rg‘ondan chiqdi va qirolicha bo‘ldi. Albatta, u juda xursand edi.

To‘y bazmi bir haftaga cho‘zildi. Uchchala it stolda o‘tirib yedilar, ichdilar va o‘zlarining kattakon ko‘zlarini o‘ynatdilar.



Savol va topshiriqlar

1. Nega yozuvchi o‘z ertagi uchun qahramon etib askarni tanlagan?
2. Jodugar kampirning maqsadi nima bo‘lgan? Askarni boy-badavlat qilishmi? Yoki...
3. Soldat daraxt kavagidan tushgach, qanday g‘aroyibotlarga duch keldi?
4. U boy-badavlat bo‘lgach, yana nimani orzu qildi?
5. Ertakda qanday sehrli voqealar va buyumlar tasvir etilgan?
6. Ertakning ahamiyati, sizningcha, nimalarda?
7. Ertak voqealari asosida rasm ishlang.

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV

(1878—1931)



Munavvar qori Abdurashidxonov — XX asr boshlarida maydonga kelgan ma'rifatparvarlik harakatining rahbarlaridan biri. U yangi usuldagi maktablarni ochish, dastlabki o'zbek gazetalarini nashr etish va milliy teatrga asos solish singari xayrli ishlarga bosh-qosh bo'lgan. 1917- yil Oktabr to'ntarishidan keyin «Milliy ittihad» tashkilotini tuzib, Sovet davlatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi O'zbekistonning mustaqilligi uchun kurashgan.

U 1931- yil 23- aprelda Moskvada otib tashlangan.

Munavvar qorining quyida e'lon qilinayotgan she'ri o'zi tashkil etgan maktablar uchun yozilgan «Adibi soniy» kitobida chop etilgan.

HIMMATLI FAQIR

Bir zamonda chiqmish ekan saxovatli bir kishi,
Faqirlarga shafqat ekan kecha-kunduz qilmishi.

Har kun qilib bir qozon osh, muhtojlarga berardi,
Siylar edi miskinlarni, ochlarni to'ydirardi.

Qayda ko'rsa kambag'alni, yetimlarni, tullarni,
Pul berardi, qutqazardi asirlarni, qullarni.

O'z ko'nglida o'ylar edi: ko'p yaxshidir bu ishi,
Topilmaydi hech o'rinda bunday himmatli kishi.

Muhtojlarni izlab bir kun kezdi ko'cha-ko'ylarda,
Masjidlarda, mozorlarda, eski-tuski uylarda.

Bir buzuq uy: devor, tomi har tomonga yiqilgan,
Burchagida bir kambag'al o'ltiribdir siqilgan.

Qo'lga olgan tol novdani, tinmay savat to'qiydur,
Lablarini pichirlatib bir narsani o'qiydur.

Hech tomonga qaramaydir, peshonasi terlagan,
Kiyimlari yirtiq-yirtiq, yuz-qo'llari kirlagan.

Oltmish-yetmish yoshga yetgan, yaxshigina qartaygan,
Kambag'allik, ish-mehnatda rangi-ro'yi sarg'aygan.

Buni ko'rgach, ul saxiyning yuraklari ezildi,
Ko'zlaridan chiqqan yoshlar yuzlariga tizildi.

Borib aytdi: «Ey otajon, bu o'rinni qo'yingiz!
Tayin qilay bir yaxshi joy, ul yer bo'lsin uyingiz.

Rohat qiling, qartayibsiz, kiyim, taom berayin,
Qanday narsa istasangiz, uni tamom berayin!»

Bu so'zlarga quloq soldi u kambag'al ishchi chol,
Kulib dedi: «Rahmat, ammo menda bordir bir xayol:

O'zgalarning tekin nonin och qolsam ham olmasman,
O'z kuchim-la bir parcha non topib, uni tishlarman.

To tanimda jonim bordir, o'z kasbimdan qolmasman,
Hozir mening ko'zim ko'rar, qo'lim tutar, ishlarman.

Shul sababli taklifingiz manga to'g'ri kelmaydir,
Tekin nonga kim o'rgansa, himmat nadir, bilmaydir».

Eng himmatli manman degan saxiy buni tingladi,
Kambag'al chol himmatining ortig'ligin angladi.



Savol va topshiriqlar

1. She'rning g'oyaviy mazmunini tahlil qilib bering.
2. Nima uchun shoir boshqalarga mehr-shafqat ko'rsatayotgan kishini emas, balki hech kimga madad ko'rsata olmaydigan kambag'al cholni himmatli deb atagan?
3. Himmat deganda nimani tushunasiz?
4. Himmatli kishi obrazini talqin qilib bering.



MIRKARIM OSIM

(1907—1984)



Mirkarim Osimning ijodiy uslubi boshqa mualliflardan farq qiladi. Mirkarim Osim hikoya va latifalarni yirikroq badiiy asarning tarkibiga singdirib yubormaydi, balki har bir hikoya yoki latifa asosida voqeyiy hikoyalar yaratadi.

Natan MALLAYEV, adabiyotshunos olim.

Mirkarim Osim — XX asr oʻrtalarida ijod etgan yozuvchi. U boshqa qalamkash birodarlaridan tarixiy mavzuda yozilgan asarlari bilan ajralib turadi. Bunday yozuvchilarni odatda tarixnavis yozuvchilar deb ataydilar.

Mirkarim Osimning oʻzbek xalqi tarixiga katta qiziqish bilan qarashi uning oʻquvchilik yillarida boshlangan.

U 20- yillarning boshlarida Navoiy nomidagi taʼlim va tar-

biya texnikumida o'qigan. Shu vaqtda texnikumda Shohid Eson, Shahobiddin Ahmadiy, Yoqub Fayziy singari millatsevar o'qituvchilar ishlashgan. Ular xalqimiz tarixini yaxshi bilibgina qolmay, o'tmishda o'tgan ajoyib ajdodlarimiz bilan faxrlanganlar va o'quvchilarni ham shu ruhda tarbiya qilganlar. Shunday o'qituvchilardan biri — Boki muallim esa Amir Temur va uning harbiy jasoratlari to'g'risida so'zlaganida hatto qattiq hayajonlanganidan yig'lab yuborar ekan.

Mazkur texnikumda ulug' o'zbek yozuvchisi Oybek ham o'qigan va u Mirkarim Osim bilan yaqin do'st bo'lgan.

Mirkarim Osim texnikumni tugatgach, o'qishni davom ettirish uchun avval Turkiyaga bormoqchi bo'ladi. Lekin buning imkoni bo'lmagach, 1926- yilda Moskvaga borib, 2-Moskva Davlat universitetining pedagogika fakultetiga o'qishga kiradi. 1930- yilda o'qishni tugatib, ona diyoriga qaytadi. So'ngra hozir Qori Niyoziy nomi bilan atalgan Pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish institutiga ishga kiradi. Mirkarim Osimda adabiy ijodga qiziqish xuddi shu davrda boshlanadi.

Shu davrda adabiyotshunos va tarixchi olimlar ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy tavalludining 1941- yilda nishonlanajak 100 yilligiga tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Mirkarim Osim ham Navoiy yashagan tarixiy davrni va shoir hayotini o'rganib, dastlabki hikoya va qissalarini yoza boshlaydi. Bu asarlar Oybek singari qalamkash do'stlariga va kitobxonlarga manzur bo'lganini ko'rib, tarixiy mavzuda asarlar yozishda davom etadi. Ana shu tarzda u tarixnavis yozuvchi sifatida shuhrat qozonadi.

Mirkarim Osim asarlarida nafaqat Alisher Navoiy, balki Shiroq, To'maris singari o'z vatanining ozodligi uchun kurashgan qahramonlar, Beruniy, Ibn Sino, Mashrab singari ko'plab tarixiy shaxslar obrazi yaratilgan. Yozuvchi bu asarlarni yozishda xalq o'rtasida tarqalgan afsona va rivoyatlar bilan birga tarixiy manbalar (risolalar)dan ham samarali foydalangan.

Uning «Temur Malik» asari ham tarixiy manbalar bilan birga xalq o'rtasida keng tarqalgan rivoyatlarga asoslangan.

TEMUR MALIK

Xo'jandni ikki bo'lib oqqan Sirdaryoning o'rtasida, shahardan bir chaqirim quyiroadagi orolda qadimdan qolgan bir istehkom bor edi. Chet el istilochilari va ko'chmanchilarga qarshi kurashda xalqning joniga oro kirgan bu ko'hna qal'aning burjlari o'pirilib ketgan, darvozalarining ba'zi yarlari buzilib, omonat bo'lib qolgandi. Boshiga og'ir kunlar kelganda Xo'jand ahli yana shu eski qal'aga panoz izlab keldi.

Chingizxon behisob lashkarlari bilan O'troga yetib kelgach, bu shaharni qamal qilib olishni o'z o'g'illari O'ktoy bilan Chig'atoyga topshirib, Xo'jand shahri ustiga sarkardalari So'ktu bilan Uloq no'yonni yuborgan, o'zi esa katta qo'shin bilan Qizilqum orqali Buxoro tomon yo'l olgan edi.

Xo'jand viloyatining hokimi Temur Malik daryo o'rtasidagi qal'ani mustahkamlab, mo'g'ullar bilan jang qilishga jazm etdi.

Sir bo'yi ajoyib bir manzara kasb etgan: qirg'oqqa to'planagan kishilarni son-sanoqsiz qayiqlar va kemalar orolga tashimoqda, ketmon, bel, arra, andava, tesha, bolta ushlagan kishilar sabrsizlik bilan o'z navbatlarini kutmoqda edilar. Qal'a tepasidan yuzlarcha odamlar chumolidek uymalashib, devor va burchlarning shikast-rextini tuzatmoqdalar.

Hamma xasharchilar orolga o'tib olganlaridan keyin ish jadallashib ketdi. Havoga tutun kabi ko'tarilgan chang-to'zon, g'ala-g'ovur ovozlari ishning yurishib ketganidan dalolat berardi. Kuch-quvvatni ayamay, ishtiyoq bilan ishlayotgan hasharchilar orasida o'qtin-o'qtin baland bo'yli bir kishi paydo bo'lar, o'zini hurmat bilan qarshilagan hasharchilarning ishlariga kushoyish tilab, ishda mahorat ko'rsatgan ustalarga tashakkur bildirar, sust ishlayotganlarga piching otib qo'yardi. Bu kishi Temur Malik edi. U ba'zan orqasidan ergashib yurgan mulozimining yelkasidagi xurjundan bir qism tanga olib, yaxshi ishlayotgan kishilarga ulashib berardi.

Ikki hafta ichida qal'aning shikast-rexti tuzatildi. Qal'aga himoyachilar uchun bir yillik ozuqa, qurol-yarog' tashib keltirildi. Mingdan oshiq bahodir va merganlar, yuzga yaqin kemasoz ustalar istehkomga joylashtirildi. Xotin, bola-chaqalar, chollar tog'li qishloqlarga jo'natildi.

Temur Malik bola-chaqasi bilan xayrlashish uchun hovlisiga kirdi. Xizmatkori Odina aravakash bilan sandiqlarni soyabon aravalarga ortayotgan edi. Ichkarida esa xotini bir

yashar o'g'lini ko'tarib, erining kelishini sabrsizlik bilan kutib turardi. Xotini uni ko'rib yig'lab yubordi, o'g'li esa yaltiroq dubulg'a kiygan otasini tanimay, qo'rqib ketdi, yuzini teskari qilib, onasining yelkasini mahkam changallab oldi. Temur Malikning ham ko'ngli buzilib, bo'g'ziga nimadir qadalgandek bo'ldi, tomog'ini qirib, xotiniga:

— Men o'lmay turib aza ochayotirsanmi? Ko'z yoshlaringni ayab qo'y, keyin kerak bo'lib qolar, — deya o'g'lini qo'lga olib o'pmoqchi bo'lgan edi, bola chinqirib yig'lab yubordi.

— Hoy, ahmoq bola, o'z otangni tanimadingmi, a? Men senga o'yinchoq olib keldim, — deb boshidagi yaltiroq dubulg'asini olib qo'ydi-da, sopoldan qilingan qo'chqorni qo'ynidan chiqarib berdi. Bola o'yinchoqni olib, ovungach, xotiniga uqtirdi: — O'g'limni sen bilan Odinaga topshirib ketayotirman. U sog'lom, mard va rostgo'y yigit bo'lib o'ssin. Yurtimizga botir askar va askarboshilar kerak. Xayr, o'zingni ehtiyot qil!

O'g'lini betidan o'pib, onasiga qaytarib berdi-da, tezgina tashqariga chiqib, sodiq mulozimi bilan quchoqlashib xayrlashdi-da, otashin xo'rsiniq aralash chuqur-chuqur nafas olgan ko'yi vazmin odimlab ketdi.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas yigirma minglik mo'g'ul qo'shini Xo'jandga yetib keldi. Shahar bo'sag'asida Xo'jand merganlari va askarlar mo'g'ullar bilan jang qildilar, so'ng shaharga chekinib, tomlardan, darichalardan dushman ustiga o'q yog'dirib turdilar va shu bilan Temur Malik askarlarining orolga batamom o'tib olishiga yordam berdilar. Temur Malikning maqsadi — orolda turib, o'qtin-o'qtin dushmanga hujum qilish va yigirma minglik mo'g'ul qo'shinini uzoq vaqtgacha shu yerda tutib turib, Xorazmshohdan madad kelganidan keyin ularni tor-mor qilish edi.

Mo'g'ullar qattiq jangdan so'ng shaharni ishg'ol qildilar, biroq daryo o'rtasidagi istehkom ko'krak kerib, ularni jangga chorlab turardi. Manjanaqlardan otilgan tosh ham, o'q ham qirg'oqdan uzoqda bo'lgan qo'rg'onga shikast yetkazolmasdi. Ammo baland qo'rg'on tepasidan turib, qazonlardan shig'ab otilgan yumaloq toshlar mo'g'ullarga ko'p talafot yetkazardi. Qo'rg'on himoyachilari dushmanning daryo labiga kelib qazon qurishiga va katta o'q-yoylardan o'q otishiga imkon bermadilar.

Qo'rg'on burchidan, shinak orqasidan uzun bo'yli, qora

soqolli bir kishi uzoqlarga tikilgancha qarab turardi. Uning qalin qoshlari chimirilib, peshonasida chuqur bir chiziq paydo bo'ldi. Banogoh tog' tomondan kelayotgan, ustiga tosh ortilgan qator-qator aravalarga uning ko'zi tushib qolgan edi. Aravalar yonida qurolli mo'g'ul soqchilar og'ir xarsanglarni ko'tarib olgan kishilarni tayoq bilan urib haydab kelmoqda edilar. Ko'p o'tmay, bu odamlar daryo bo'yiga kelib, qo'llaridagi toshlarni bir yerga uyub qo'yidilar, so'ng kaltak ostida aravadagi toshlarni tushira boshladilar.

— La'nati mo'g'ullar bu toshlarni daryoga tashlatib, ko'tarma yasamoq va orolga kelib, qal'ani olmoq niyatida bo'lsalar kerak, — dedi Temur Malik yonida turgan girdig'umdan kelgan bir yuzboshiga. — Buyuring, qazonlardan tosh otsinlar!

— Begim, nechuk alarga tosh ottiray, mo'g'ul orasida biznikilar bor. Toshning ko'zi yo'q, o'zinikini o'zgradin ajrata bilmas.

— Toshlarga buyuring, o'zinikilarga tegmasun! — deb zaharxanda qildi Temur Malik. — Juda sodda odamsiz-da. O'zimiznikilarga meni achinmaydur, deb o'ylaysizmi? O'zimiznikilarga tosh tegmasun, deb o'ltursak, mo'g'ul orol ostiga kelib, oyog'imizga bolta uradur.

Qal'a burchidan otilgan toshlar daryoga tosh tashiyotgan kishilardan bir nechisini yerparchin qildi. Mo'g'ullar ishlarini to'xtatib, uni kechasi davom ettirdilar. Tun qorong'isida otilgan o'q va toshlar «ko'tarma» qurayotgan mo'g'ullarga va asirlarga ko'p shikast yetkazolmas edi. Bir necha kun ichida «ko'tarma» qo'rg'onga ancha yaqinlashib qoldi.

«Agar ish shu zaylda davom etsa, ikki hafta ichida daryoni tosh bilan to'ldirib, qo'rg'on tagiga yetib keladilar, — deb o'yladi qal'a burchida turgan Temur Malik. — Tezda dushmanning bu ishini barbod qilmoq kerak. — U o'tirib, boshini ikki qo'li orasiga olganicha chuqur o'yga toldi. — Tezda kemalar yasamoq lozim. Bizni faqat kemalar qutqaza biladi!»

Tong otishi bilanoq duradgorlar, kemasozlar ishga tushib ketdilar. Temur Malikning o'zi ham qo'liga bolta olib, ularga ko'maklasha boshladi. Tayyor bo'lgan kemalarga ustunlar o'rnatib, ustini namat bilan yopdilar, atrofini ham namat bilan o'radilar. Namatlarning ichi-tashini sirkaga qorilgan ganch bilan suvadilar, o'q otish uchun tuynukchalar qoldirdilar.

Tong qorong'isida Temur Malik boshliq uch yuz bahodir yigit kemalarga o'tirib, qirg'oqqa yaqinlashdi. O'q-yoylardan mo'g'ul soqchilari ustiga o'q yog'dirib, sohilga chiqib olishdi. Uyquda yotgan mo'g'ul lashkargohiga tuyqusdan bosqin qilib, naridan-beri kiyinib chiqqan cheriklarni qilichdan o'tkaza boshladilar. Mo'g'ullar es-hushlarini yig'ib olgunlaricha bir talay askarlaridan ajraldilar.

Temur Malik uzun qilichini yalang'ochlab, lashkargoh o'rtasidagi ipak chodir tomon yo'l oldi. O'z boshliqlari uchun jon fido qilishga tayyor bo'lgan bir to'da azamat yigit Temur Malikni o'rab, atrofdan tushgan qilich zarblarini daf qilib borardilar. Temur Malik yon tomondagi chodirdan yugurib chiqib, uning yo'lini to'smoqchi bo'lgan barzangidek bir mo'g'ulning yelkasiga qilich solib, ikki nimta qilib tashladi, so'ng baland ovozda:

— Hay, So'ktu no'yon, mard bo'lsang, maydonga chiq! — deya qichqirib, mo'g'ul sarkardasini yakkama-yakka jangga chorladi. Biroq mo'g'ul lashkarboshilari yakkama-yakka jang qilib, o'z mardliklarini ko'rsatishdan ko'ra ko'pchilik bo'lib, uyushqoqlik bilan dushmani bartaraf qilishni afzal ko'rardilar. Shuning uchun So'ktu no'yondan sado chiqmadi. Yon tomondan bostirib kelgan bir to'da mo'g'ul askarlari Temur Malikka ularning sarkardasi bilan qilichbozlik qilishga halal berdi. U jang qila turib sohil tomon chekindi, mo'g'ullarning asosiy kuchlari yetib kelmasdanoq, yigitlari bilan kemalarga o'tirib, shinaklardan o'q yog'dirganicha orol tomon yo'l oldi.

Temur Malik mo'ljallangan ishini bajargan edi. Uning asosiy maqsadi — mo'g'ullarni chalg'itib, daryoga tashlangan toshlarni u yoqdan-bu yoqqa otib tashlash, ko'tarmani buzish bilan mashg'ul bo'lgan yigitlariga ishlash uchun imkoniyat tug'dirib berish edi. Sohildagi qisqa muddatli jang vaqtida ko'tarma buzib tashlandi.

Besh-olti oygacha kurash shu zaylda davom etdi. Mo'g'ullar atrofdan haydab keltirilgan asirlarni urib, daryoga tosh tashlattirar, mudofaachilar esa o'q o'tmas kemalarida kelib, ularning ishlarini buzib ketar edilar. Lekin bu hol uzoq davom etmadi. Saflari siyraklashib borayotgan mudofaachilar oziq-ovqatdan qisilmaganlarida uzoq vaqt qarshilik ko'rsatishlari mumkin edi, biroq daryoga tashlangan qarmoqlarga tasodifan ilinadigan baliqlardan bo'lak yeydigan narsa qolmadi. Ochlik, uzoq vaqt bir yerda turib qolish — jangchilarning ruhi-ni tushirib yubordi.

Temur Malik qal'ani tashlab, chekinishdan bo'lak chora qolmaganini angladi. O'z safdoshlarini atrofiga to'plab, ma'yus, lekin e'tirozga yo'l qo'ymaydigan ohangda gap boshladi:

— Birodarlar, ahli dunyo Rustami doston zamonidan beri sizdek pahlavonlarni ko'rmagan edi. Shul damgacha quloq eshitmagan va ko'z ko'rmagan bahodirligingiz soyasida g'anim bir necha ming askaridin judo bo'ldi. Emdi chekinmoq vaqti yetdi. Men boshda Xorazmdin madad kelur, deb o'ylagan erdim, yanglishibmen. Xorazmshoh butun lashkarini bir yerga to'plab, mo'g'ul ablahni majaqlab tashlash o'rniga, askarlarini tarqatib yubordi. U do'stlar so'ziga emas, pinjiga kirib olgan dushmanlar so'ziga kirib, shul ishni ravo ko'rdi. Ammo biz qurol-yarog'ni tashlamaymiz, safar kemasiga o'ltirib, yog'iy birla jang qila-qila, najot sohiliga erishurmiz...

Ranglari sarg'ayib ketgan yigitlar boshlarini quyi solib, indamay uning gapiga quloq soldilar. «Ajabo, shu go'zal shahrimizni dushman qo'lga topshirib ketaveramizmi?» degan fikr ularning yurak-bag'irlarini ezar edi.

— Ona shahrimizni unutmaymiz, kuch yig'ib kelib dushmanga yana urush solurmiz, g'animga hamla qilish uchun orqaga qaytmoq ayb emas. Bardam bo'ling, yigitlar!

Qora tun qanotlarini keng yoyib, shaharni bosib yotardi. Hammayoq suv sepgandek jimjit. Ahyon-ahyonda nahang baliq suvni shaloplatib yuboradi. Xo'jand yaqinidagi tog' shahar uyqusini qo'riqlab turgan soqchidek qotib turibdi. Mo'g'ullarning lashkargohi ham sukunat ichida. Chekka-chekkaga qo'yilgan qorovullar ham nayzalariga suyanib mudramoqdalar.

Tun og'ib, kunchiqish tomon yorisha boshlaganda, bu jimjitlik to'satdan buzildi. Mo'g'ullar qarorgohida shovqin-suron ko'tarildi. Daryo ustidagi ajoyib bir manzarani ko'rib, Chingiz askarlari bu o'nglarimi yo tushlarimi ekanligini bilmay qolgandilar. Uzoqdan yulduzlarga o'xshab ko'ringan mash'alalar Sirdaryoning oqar tomoniga qarab tez sur'atlar bilan suzib ketmoqda edi. Soqchilar ro'y bergan ahvolni anglagach, shovqin ko'tarib, boshliqlarini bundan xabardor qildilar. Mo'g'ullar lashkargohi cho'p tiqib kavlangan qovog'ari ini kabi guvillay boshladi. Naridan-beri kiyingan askar boshliqlari u yoqdan-bu yoqqa yugurar, dag'al ovozlari bilan buyruq berib, shirin uyquda yotgan sheriklarini oyoqqa turg'izishga urinar, so'kinar, dag'dag'a qilar edilar.

Minglarcha o'q-yoydan otilgan o'qlar usti namat bilan qoplangan kemalarga ta'sir etmasdi. Har ikki sohildagi mo'g'ul askarlari kemalarni ta'qib eta boshlashdi. Kemadagilar esa yulduzlar va mash'allar yorug'ida jangni davom ettirib bordilar. Shinaklardan otilgan o'qlardan dushman tutdek to'kilar edi. Binokent shahrigacha kemalar jiddiy qarshilikka uchramadi.

Xo'janddagi mo'g'ul boshliqlaridan So'ktu Binokentdagi mo'g'ul sarkardalariga choparlar yuborib, kemalarni to'xtatish uchun chora ko'rishni so'ragan edi. Bu yerda mo'g'ullar daryoning u yuzidan-bu yuziga zanjir tashlab to'siq yasadilar. Kemalar zanjirga urilib to'xtab qolganida mo'g'ullar xursand bo'lganlaridan qiyqirishib yuborishdi. Temur Malik ikki qavat sovut va dubulg'a kiyib kema tumshug'iga chiqdi. Uning qo'lida og'ir po'lat bolta yarqirardi. Ikki azamat yigit temir ilmoqlar bilan zanjirni ko'tarib, kema burniga qo'ydi. Temur Malik ikki qo'li bilan ushlagan boltani baland ko'tarib, bor kuchi bilan zanjir ustiga urdi. O'z boshliqlariga umid ko'zi bilan qarab turgan xo'jandliklar yo'g'on zanjirning cho'rt uzilib, shuvullagancha daryoga cho'ka boshlaganini xursandlik bilan tomosha qildilar. Kemalar yana avvalgi sur'at bilan suzib ketdi. So'ktu Sirdaryoning quyi tomonidagi qal'alarni ishg'ol qilish bilan ovora bo'lgan Jo'jiga choparlar yuborib, Temur Malikning oldini to'sishni iltimos qildi. Jo'ji Burgalikkent degan qishloq yonida Sirdaryoga ko'prik soldirib, uning ustiga qazon qurdirdi, merganlarini tizib qo'ydi. Yo'lni ko'zdan kechirib borayotgan Temur Malik dushmanning ko'prik qurganini ko'rib, kemalarni to'xtatdi, qirg'oqda turgan mo'g'ullarni o'qqa tutib, sohilga yaqinlashishni buyurdi. Mo'g'ullar shig'ab otilgan o'qlarga bardosh berolmay orqaga chekindilar. Temur Malikning yigitlari fursatdan foydalanib, otlarni yetaklab tushirishdi va zarur qurol-yarog' va oziq-ovqatlarni qirg'oqqa tashib olishdi-da, so'ng Xorazm tomon yo'l olishdi. Bo'ri galalari kabi kecha-yu kunduz o'zlarini ta'qib etgan yirtqich dushman bilan jang qila-qila, yo'lda qonli izlar qoldirib ketaverishdi. Kun sayin qahramonlarning safi kamayib borardi. Temur Malik yaradorlar minib olgan otlarni oldinga o'tkazib, o'zi mergan yigitlar bilan eng keyinda borar, ta'qib etib kelayotgan dushmanni o'qqa tutib, ularni yaqinlashtirmasdi.

Qizilqum ichiga kirgan sari ta'qib etib kelayotgan dush-

manni soni kamayib borardi. Faqat Temur Malikning boshini olib, boshliqlaridan mukofot olish niyatida bo'lgan eng ashaddiy kallakesarlarga izma-iz kelmoqda edilar. Uchqur otlarga minib olgan Temur Malik va uning do'stlari o'qtin-o'qtin orqalariga qayrilib o'q uzar, yuz-ko'zlari changdan qorayib ketgan, oppoq tishlarini g'ijirlatib kelayotgan qotillarni ketma-ket qulatar edilar.

Nihoyat, Temur Malikning sadog'ida uch o'q qoldi. Bir o'qining uchi siniq edi. Uning orqasidan quvib kelayotgan uch mo'g'ulning biri:

— Otim Uloq no'yon, meni ulug' qonning o'zi taniydir. Barcha ulusning hukmdori Chingizxon nomidan seni taslim bo'lmoqqa da'vat eturman! — deb qichqirdi.

Temur Malik javob o'rniga sadog'idan uchi siniq o'qini olib yoy ustiga qo'ydi-da, Uloq no'yonni mo'ljalga olib otdi. O'q no'yonning o'ng ko'ziga sanchildi. Yonidagi ikki mo'g'ul uning ko'zidan o'qni tortib olish bilan ovora bo'lib turganlarida Temur Malik otini to'xtatib, orqasiga qayrildi.

— Hoy, mo'g'ullar! — deb zaharxanda kuldi u. — Ikkingiz uchun sadog'imda ikki o'q qoldi, ikkingizni ham so'qir qilib qo'yaymi?

Mo'g'ullar uni ta'qib etishga yuraklari betlamay, ortlariga qarab qochishdi. Temur Malik o'zining bir necha yigiti bilan Xorazmga yetib kelgach, jangni davom ettirish uchun u yerda askar to'plab, yana Sirdaryo tomon yurish qildi. Dushmanga bosqin qilib, Yangikent shahrini ozod qildi va mo'g'ullar tomoniga o'tgan shahar hokimini dorga ostirib, o'rniga boshqa bir sadoqatli kishini belgiladi-da, o'zga shaharlarni dushmandan ozod etishga oshiqdi. Biroq Qizilqumda o'zlariga nisbatan bir necha hissa ko'p bo'lgan dushman bilan jang qilib, yengilganlaridan so'ng, botirlar yana chekindilar. Temur Malik mashaqqatli yo'l bosib, Eron tuprog'ida mo'g'ullar bilan jang qilayotgan Jaloliddinga qo'shildi...

Yillar o'tdi, o'z sarkardalariga va viloyat hokimlariga ishonmagan Xorazmshohning xohishiga ko'ra o'zlarini yakka-yakka himoya qilishga majbur bo'lgan O'rta Osiyo shaharlari birin-ketin Chingizxon tomonidan ishg'ol qilindi.

* * *

Oradan o'n besh yil o'tdi. Damashq shahridagi bir karvonsaroyning darvozaxonasida sochlari oqargan, baland bo'yli

bir darvish o'tirardi. U karvonsaroy ichida bo'kirib turgan tuyalarni yo'lga hozirlayotgan kishilarning ovozi-yu, bo'taloqlarning bo'zlashiga quloq solib, allakimni kutardi. Diqqat bilan qaragan kishi uning ustidagi jandasi, boshidagi kulohi gavdasiga mos tushmaganligini payqashi mumkin edi. Qaddi-qomatini tik tutgan o'tkir ko'zli bu baland bo'yli odam darvishdan ko'ra ko'proq askarboshiga o'xshab ketardi.

Oradan bir soat vaqt o'tgach, u o'rta yoshli qora soqol bir kishining saroy tomon kelayotganini ko'rib:

— Marhabo! — dedi o'rnidan turib. — Yanglishmasam, siz Movarounnahrda ketayotgan karvon boshlig'i binni Muslimdursiz?

— Oriy, men o'shal aytgan kishingiz bo'lurman. Xo'sh, xizmat?

— Faqir Sayhun bo'yina sayohat etmoq niyatidadurmen. Imkoni bo'lsa, meni ham hamroh qilib olsangiz, xizmatigingizni qilib ketsam... Safarda foydam tegsa tegadurki, ziyonim tegmaydur. Yo'l xarjim...

— Sizni bul yerda kim taniydu? Kim sizga kafil bo'la olur?

— Meni saroybon Mustafu, bozor oqsoqoli Umarali taniydurlar.

— Yaxshi, surishtirib ko'rurmen, — dedi binni Muslim darvishni sinchiklab ko'zdan kechirarkan. — Yoshingiz qaytgan bo'lsa-da, baquvvat ko'rinursiz. Ot minmoq, qilich urmoqni bilurmisiz?

Darvish bilinar-bilinmas miyig'ida kulib qo'ydi.

— Bu bobda soqchilaringizga saboq bera bilurmen.

Ibn Muslimga uning javobi yoqib tushdi. Yo'llar xavf-xatarli bo'lgani uchun karvonga qurol ishlata biladigan ishonchli kishilar kerak edi.

— Qani yuring, saroybon oldina kirib so'zlashayik...

* * *

Sahar paytida ustiga yuk ortilgan tuyalar saroydan bo'kirishib chiqishdi, eng orqadagi tuyaning bo'yniga osilgan og'ir mis qo'ng'iroq jaranglab yer-u ko'kni boshiga ko'tardi. Bu tuya ustida jandasining ichidan qilich taqib olgan kechagi darvish o'tirardi. Biroq bu safar unga qilichini qindan sug'urishga to'g'ri kelmadi. Karvon yo'li tinch bo'lgani uchun hech qanday hodisa yuz bermadi. Qaroqchilar go'yo karvon soqchilari boshida tajribali bir sarkarda ketayotganini bilgandek edilar. Savdogarlar karvoni suvsiz cho'llar, yashnagan vohalar,

bozorlari obod, serg'alva shaharlarin bosib o'tib, uch oy deganda Samarqandga yetib keldilar.

Baland bo'yi darvish bu yerda karvonboshi va yo'lovchilar bilan xayrlashib Farg'onaga ketayotgan savdogarlarga qo'shilib oldi.

Kechki payt. Xo'jand muazzinlari birin-ketin taqvodornlarni kamoli asrga chorlamoqdalar. Beliga kachkul osgan jandali darvish irg'ay tayog'iga suyanib, qing'ir-qiyshiq ko'chalaridan asta bormoqda. U ahyon-ahyonda to'xtab, egalari tashlab ketgach, xarob holga kelgan hovlilar ro'parasida to'xtar, so'ng yana indamay o'tib ketardi. Nihoyat, u katta darvozali hovli oldida to'xtab, bir lahza ikkilanib turgandan keyin halqani taqillatdi. O'n besh-o'n olti yoshlar chamasidagi bir yigitcha darvozani ochib, darvishning kimligini surishtirdi. Darvish javob o'rniga:

— Kimning o'g'lidursen? — deb so'radi.

— Men ulug' Temur Malikning o'g'lidurmen.

Ko'zidan duv etib yosh oqib ketgan darvish yigitchani quchoqlab, peshonasidan o'pdi, keyin ko'z yoshlarini artib:

— Agar otangni ko'rsang, tanirmi eding? — deb so'radi.

— Otam mo'g'ul bilan jang qilib chekinganida men go'dak ekanmen. Aning o'lik-tirigidin xabarimiz yo'q. Mushfiq onamning vafot etganlariga to'rt-besh yil bo'ldi. — Darvish bu gapini eshitib xo'rsindi-da, «omin» degandek yuzini siypab qo'ydi. — Bul hovlida ilgarigi xizmatkorimiz Odina, aning xotuni va men turamiz.

— Odina tirikmi?

— Ha, menga ota o'rnida qolgan. Mana, o'zlari ham chiqib kelyaptilar.

Ichkaridan soch-soqoli oqargan bir mo'ysafid chiqib keldi.

— Nega hayallading desam, bul kishi bilan so'zlashib turgan ekansan-da, — dedi yigitchaga qarab. So'ngra darvishga yuzlandi:

— Assalomu alaykum, xo'sh, xizmat?

— Nahotki meni tanimasang? Shul qadar qarib-qartayib qoldimmi? — darvish ko'zida yosh bilan Odinani quchoqladi, so'ng so'l qo'lining bir bo'g'ini kesilgan jimjilog'ini ko'rsatib:

— Endi tanidingmi? — deb so'radi.

Odina yig'lab u bilan qayta ko'rishdi, so'ng hang-mang bo'lgan yigitchaga dedi:

— Bul kishi sening otang... Ulug' Temur Malik. Nega ag'rayib turibsen, qo'lidin o'pib, tavof qil, hoy, nodon...

Bir necha yil qarovsiz qolib, keyin shikast-rexti tuzatilgan eski hovlida Temur Malik bir necha kun yotib dam oldi. Eski oshna-og'aynilar bundan xabar topib uni ko'rgani kela boshladilar. Temur Malikning qaytib kelgani butun shaharga ovoza bo'lib ketdi. Lekin mo'g'ullar davrida avvalgidan ham boyib ketgan savdogarlar bu xabarni eshitib qo'rqdilar. Ular, bu Temur Malik emas, u allaqachon o'lib ketgan, bu odam esa ulug' sarkardaning nomini o'ziniki qilib olgan bir firibgar, deb gap tarqata boshladilar. Tabiiy, bu shov-shuvlar mo'g'ul boshliqlarining qulog'iga yetmay qolmas edi.

Bir kuni qurolli soqchilar Temur Malikning hovlisini o'rab olib, uni saroyga olib ketdilar.

Chingizxonning son-sanoqsiz avlodlaridan biri — Qadon o'g'lon taxt ustida o'tirib, qo'liga kishan solingan Temur Malikka qiyiq ko'zlarini suzib, ishonchsizlik bilan:

— Rostdan Temur Malikmisen yoki boshqa odammisen? — deb so'radi. Soch-soqoli oqargan bu darvishnamo kishi Temur Malik ekanligiga uning ishongisi kelmasdi.

Qadon o'g'lonning yonida turgan bir ko'zli Uloq no'yon tutaqib:

— Xuddi o'zi... — deb yubordi. Temur Malik ham o'z dushmanini ko'rib, g'azab bilan:

— Hoy, Uloq, men ham seni bir ko'rishda tanidim. Qizilqumda orqamdan quvib kelayotganingda uchi singan bir o'q bilan o'ng ko'zingni ko'r qilgan men edim-a? — dedi.

Uloq no'yonning sog' ko'zi yo'lbars ko'zidek chaqnaq ketdi. U xonvachcha oldida tiz cho'kib:

— Temur Malik mening yaqin do'stlarim, tuvg'onlarimning qonini to'kkan, menga shikast yetkazgan. Ulug' Chingizxon haqqi, uni menga ber, xunimni olay, — deb yalindi.

— Mayli, olsang ol. Bir emas, o'n Temur Malik bo'lsa ham senga berardim! — Xonvachchaning ko'zlarida istehzoli kulgi ko'rindi.

— Hay, essiz, so'l ko'zingni ham ko'r qilib qo'yganimda bo'lur erkan, — deya piching qildi Temur Malik dushmaniga qarab. So'ng uning oldiga tushib, boshini tik ko'targancha tashqariga chiqib ketdi.

Kachkul (kashkul) — qalandar va darvishlar yoniga osib yuradigan qovoq yoki metall idish.

Sadoq — charm o'qdon.

Sayxun — Sirdaryo.

...sirkaga qorilgan ganch bilan suvadilar — sirka aralash qorilgan gips (ganch) darrov qotib qolmaydi. Usta shoshmasdan unga istagancha shakl bera oladi (*muallif izohi*).



Savol va topshiriqlar

1. Temur Malik to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Yozuvchi Temur Malik jasoratini qanday tasvirlagan?
3. Temur Malik Chingizxonning qaysi o'g'il yoki nevaralariga qarshi kurashgan? Ulardan birining Temur Malikdan qanday alami bor?
4. Nima uchun yozuvchi qahramonning o'limini tasvirlamagan?
5. Yozuvchi asarga darvish obrazini kiritishdan qanday maqsadni ko'zlagan?
6. Temur Malikning o'g'li bilan uchrashishi, sizningcha, tarixiy haqiqatga yaqin keladimi yoki xalq rivoyat (afsona)larining ta'sir-natijasimi?
7. Temur Malik to'g'risida yana qanday asarlar yozilgan?
8. Shunday asarlardan birini topib o'qing.



MAQSUD SHAYXZODA

(1908—1967)



Shayxzoda o'zida ko'p fazilatlarni mujassamlantirgan go'zal inson edi. Uning ma'naviy dunyosi g'oyat boy bo'lib, bu boylikni u saxiylik bilan odamlarga ulashishga hamisha tayyor edi. Mayda odam, bachkana va pastkash shaxsiyat egasi ijodda hech qachon yuksaklikka ko'tarilmaydi. Chinakam san'atkor yoxud olim doimo betakror shaxsiyat egasi bo'lmog'i shart. Shayxzoda o'ziga xos ko'p qirrali shaxsiyat egasi edi.

Ozod SHARAFIDDINOV

Maqsud Shayxzoda — ikki xalqning farzandi.

U Ozarbayjonda tug'ilgan. Yigirma yoshida yashirin tashkilotga a'zo bo'lgan. Bu tashkilot esa o'z oldiga Ozarbayjonning mustaqilligi uchun kurashishni vazifa qilib qo'ygan ekan. Xullas, yosh shoir aksilinqilobiy faoliyatda ayblanib, 1928- yili Toshkentga surgun qilingan. Ammo u surgun muddatini tugatganidan keyin ham ona-yurtiga qaytmay, so'nggi nafasiga qadar O'zbekistonda yashadi. O'zbek tilini mukammal egallab, shunday she'r va dostonlar, pyesa va maqolalar yozdiki, bu asarlar o'zining go'zal, shirali va boy tili bilan ham bizni hamon maftun etib keladi.

Shayxzoda o'ta yuksak madaniyatli inson edi. U faqat muomala, kiyim va yurish madaniyatinigina egallagan inson

bo'lmagan. Balki o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini, umuman, Sharq va G'arb adabiyotini, o'zbek xalqi tarixini puxta bilgan, har tomonlama bilimdon alloma edi. Shuning uchun ham u o'zbek yozuvchilari orasida birinchilardan bo'lib 1944- yildayoq «Jaloliddin Manguberdi», 1960- yilda esa «Mirzo Ulug'bek» pyesalarini yozgan. Uning vafoti arafasida tugallangan «Beruniy» pyesasi esa, afsuski, hozirga qadar to-pilmadi.

Shayxzodaning darslikdan o'rin olgan asari «Iskandar Zulqarnayn» deb ataladi.

Miloddan ilgari IV asrda yashagan Aleksandr Makedonskiy Sharq xalqlari o'rtasida Iskandar nomi bilan mashhur bo'lgan. U o'z davrida ko'plab mamlakatlarni bosib olgan. Ammo ke-yinchalik uning jahongir sifatidagi shuhrati avloddan avlodga o'tib, u haqda xalq ertak va afsonalari yaratilgan. Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy asarlarida esa Iskandarning ideallashtirilgan obrazi yaratilgan.

Iskandar xalq ertak va afsonalarida shoxdor podsho sifati-da tasvirlangan. Buning sababi shundaki, har qanday mushku-lotlarni osonlik bilan hal etuvchi kishi qadimgi xalqlar tasavvurida shoxdor bo'lgan va oddiy kishilardan shu jihati bilan farqlangan. Xalqning «Shoxing bormi?» degan iborasi o'sha davrlardan qolgan. Agar yunon mifologiyasidagi Zevsning va boshqa bir qator ma'budalarning shoxdor bo'lgan-ligini e'tiborga olsak, Iskandarning shoxdorligi uning aybli tomoni emas, balki boshqa oddiy kishilardan ustunligini anglatuvchi belgidir.

Ammo Shayxzoda shoxdor Iskandar obrazidan boshqa maqsadda foydalangan. Shoir asarida tasvirlangan oddiy cho'pon uchun Iskandarning shoxdor bo'lganligi uning — bosqinchi sarkardaning insonlarga xos rahm-shafqatdan mahrumligini ko'rsatuvchi bir alomatdir.

Ushbu o'quv qo'llanmasida mualliflar ulug' shoirning afsona usulida yozilgan tinchlik daraxti haqidagi boshqa bir asarini siz, aziz o'quvchilarning e'tiboriga havola etadilar.

SULH DARAXTI

Erkinlar tuprog'ida,
Qalin do'stlar bog'ida,
Bulutlarni yemirib,
Quyoshga salom berib,
Azamat shoxlari-la
Sinmas butoqlari-la
Fazolarni quchoqlab,
Zulmatlarni pachoqlab,
Qad ko'tarmish bir daraxt.
Qudratning haykaliday,
Tiriklik g'azaliday —
Yashaydi mangu xushbaxt...
Hamisha yashil va yosh,
O'lim o'zi unga yot,
Bahorlar unga yo'ldosh,
O'sgan zamini — hayot.
Mangu umr-havasi,
Bargi so'lmas barglardir,
Yetishtirgan mevasi:
Ishlar, baxtlar, erklardir...
Soyasida kim yursa,
Shavqi bo'lur ziyoda,
Unga tegib shabboda,
Oli'larga yugursa —
Elatlarga, ellarga,
Hattoki band yo'llarga,
Davlatlarning chekidan,
Ko'priklarning tagidan,
Esib, oqib o'tib u,
Ufqqa yo'l tutib u —
Insonlarga umidni,
Nafaslarga havoni,
Mushkullarga kalidni,
Chamanlarga safoni,
Misoli jon bag'ishlar,
Yurtlar uni olqishlar.
Insonlikning baxti deb,
Osoyish daraxti deb,
Inson uni qadrlar,

Vijdon uni xotirlar...
...Ammo qora ilonlar,
Vahshiy, xunrez sirtlonlar,
Chigirtkalar, quzg'unlar,
Motamsevar mal'unlar
Bu daraxtdan dil xasta,
Chunki u har nafasda —
Gullatib hayotlarni,
Tugatar mamotlarni...
Kam bo'lsa o'lim, qiron,
Yirtqichning kuni yomon.
Bu daraxtni quritmoq,
Mevalarin chiritmoq
Istar o'lim arbobi,
Ko'hnalikning qallobi.
Bo'g'iq shamol, o'q, zahar —
Yirtqichlarning fitnasi,
Ammo har kun, har sahar
Sulh daraxtin tanasi
O'sar yana muazzam,
Sermeva, yashil, mahkam.
Ellar uni qo'riqlar
Tiriklik bor bo'lsin deb,
Quyosh, tuproq, ariqlar
Unga berar ziynat-zeb.
Sulh daraxti doim yosh,
O'lim o'zi unga yot.
Bahorlar aziz yo'ldosh,
Ungan zamini hayot,
Mangu umr — havasi,
Bargi — so'lmas barglardir,
Yetishtirgan mevasi:
Ishlar, baxtlar, erklardir.
Erk izlagan yo'lchilar,
O'zga yurtdan elchilar
Bu daraxt butog'idan,
Gulidan, yaprog'idan,
Urug' olib eltdilar,
Yo'lda zahmat chekdilar,

Ammo yurtga yetdilar,
Va u yerga ekdilar,
Toki butun jahonda
Ko'paysin sulh urug'i,
Bildilarki, shu onda —
Budir tarix buyrug'i.

Ko'karib misli o'rmon,
Sulh barglari yashnaydi.
Quloch yozib har tomon,
Haq qudrati yashaydi.
Eshitdimki, ellarda
Ko'k daraxtlar o'sibdi,
Bog'lar o'sha yerlarda
Og'u yelin to'sibdi.

.....
Eshitdimki, har yoqda,
Yaqinda va yiroqda,

Ashxobod, 1950-yil.



Savol va topshiriqlar

1. Ushbu she'r yozilgan o'tgan asrning 50- yillaridagi xalqaro ahvoldan xabaringiz bormi? Nima uchun Shayxzoda tinchlik haqidagi «Sulh daraxti» degan she'rini yozgan? Aytib bering.
2. She'rdagi afsonaviylik ruhi nimadan iborat?
3. Shoir sulh daraxtini qanday ta'rif va tavsif etgan?
4. Ushbu she'rning hozirgi kunda ham ahamiyati bormi?
5. She'rning badiiy xususiyatlari to'g'risida nima deyishingiz mumkin?



CHINGIZ AYTMATOV

(1928- yilda tug'ilgan)



Chingiz Aytmatov zamonaviy qirg'iz adabiyotining yorqin namoyandasi, butun turkiy xalqlarning faxr-iftixoridir. Uning qissa va romanlari jahonning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan.

Odil YOQUBOV

Chingiz Aytmatovning qirg'iz adabiyotidagi eng muhim xizmatlaridan biri shuki, u o'z asarlarida Jamila, Tanaboy, Mo'min chol, Edigey, Nayman ona kabi yorqin inson obrazlari bilan barobar Ona bug'u, Gulsari ismli saman ot, Qora nor otlig tuya, Akbara, Toshchaynar degan bo'rilarning butun jahonga mashhur bo'lib ketgan afsonaviy timsollarini yaratdi.

Odil Yoqubov «Adib va chin inson» sarlavhali xotiramaqolasida O'tror shahrida bo'lib o'tgan shunday voqeani hikoya qiladi:

«Biz muzeyni borib ko'rdik. Keyin shahar markazidagi san'at saroyida uchrashuv bo'ldi, uchrashuvdan keyin tashqariga chiqsak, muzey oldidagi maydonda besh-oltita nor tuya cho'kkalab yotibdi. Shahar hokimi Chingizni katta bir tuyaning oldiga boshlab borib:

— Bu sizning Qora Noringiz, — dedi. — Minib ko'ring, Chingiz og'a.

— Mening Qora Norim bo'lsa, minayin! — Chingiz shunday deb kuldi-da, tuyaga mindi. Maydonda qiyqiriq bo'lib ketdi. Chingiz dastxat kutayotgan yoshlarga qarab:

— Olib kelinglar kitoblaringizni! — deya murojaat qildi. — Qora Norning ustida o'tirib yozib beray dastxatimni...

Qora Norga minib olgan Chingizning bu darajada zavq-shavqqa to'lib ketishi bejiz emasdi. Nazarimda, Qora Nor jahon adabiyotida yaratilgan ... hayvonlar obrazining eng mukammali, deyish mumkin... Chingiz Akbara va Toshchaynar haqida ham g'ururlanib gapiradi».

Aziz o'quvchi, Ch.Aytmatovning «Qiyomat» romanidan olingan quyidagi parchada Akbara bilan Toshchaynar va ularning norasida farzandlari qismatiga oid hayajonli voqea-hodisalar bilan tanishasiz.

ODAM VA BO'RI BOLALARI

(«Qiyomat» romanidan)

Tongga yaqin cho'lga salqin tushdi. Yer yuzida neki qimir-lagan maxluq bor bari yengil nafas oldi. O'tib borayotgan dim, taffot tun bilan sho'r bosgan tala-tuzni o'rtab, oftobning oppoq alangasida yondirib yuboradigan kunduz o'rtasidagi eng rohatijon payt shu edi. Yerga ko'k surmarang shu'lalarini sochib, Mo'yinqum uzra sariq to'lin oy chiqdi. Qayeridan qaramang, bu yerning boshi ham, oxiri ham ko'rinmasdi. To'rt tomon olis-olislargacha qorayib borar va seryulduz osmon bilan qo'shilib ketar edi. Tungi o'lik sukunatga jon kirdi, ilondan bo'lak barcha jonivorlar tong pallasidan bahra olish uchun qimirlab qoldi. Changal-changal bo'lib o'sgan jilg'in butalari taglarida polaponlari chiyillab qushlar uyg'ondi. Tipratikanlar yer iskab yugurgiladi. Tuni bo'yi tinmay chirillagan chirildoqlar yana boshqatdan xurujga kirdi. Uyqudan uyg'ongan sug'urlar ichlaridan boshlarini chiqarib, har tomonga alang-jalang boqishib, saksovu tagiga to'kilgan urug'larni tersakmikin, termasakmikin, deganday uyqusirab o'tirishdi. Kattakon yapaloqqush beshta bo'z uchirmasi bilan birga o'zaro chaq-chaqlashib, chaqirishib, bir-birlaridan ayrilmay dam uchib, dam qo'nishar edi. Boshqa turli-tuman jonivorlar-u maxluqlar oqarib kelayotgan cho'l tongida biri olib biri qo'yib ularga jo'r bo'lishardi...

Ko'kko'z Akbara bilan Toshchaynarning boshlari qovushgan birinchi yoz kunlari edi. Ular endi o'zlarini katta ovlarda chopib charchamas zo'r bo'ri ekanliklarini ko'rsatishgan va Mo'yinqum bo'rilari orasida taniqli edilar. Ikkovining baxtiga — cho'l jonivorlari orasida ham baxtli hamda baxtsizlari bo'lsa kerakkim — tabiat Akbaraga ham, Toshchaynarga ham

choʻl jondorlariga oʻta zarur boʻlgan muhim sifatlarni moʻl-koʻl bergan, ikkovi ham juda sezgir, ovni oldindan yaxshi his qilishar va koʻzlashar, kuchlari tanalariga sigʻmas, chopagʻon va bosagʻon, shiddatkor edilar. Hammasi kelajakda bu ikki boʻri-ning ovi baroridan kelishidan, ularga tiriklikning barcha azoblari-yu rohatlari ham toʻla yor boʻlishidan, qismatlarida neki yozilgan boʻlsa, baridan qochib qutulolmasliklaridan darak berardi. Hozircha Moʻyinqum choʻllarida yolgʻiz hukmron boʻlishiga ularga hech qanday kuch toʻsinqinlik qilolmasdi. Hali odamlar bu choʻllarga koʻpda qadam bosmagan va boʻrilar ham ular bilan sira toʻqnashmagan edilar. Tabiatning ularga ato etgan yana bir inʼomi shunda ediki, boshqa barcha jonivorlar kabi bu yirtqichlar ham ertaga nima boʻladi, deb tashvishlanmay, qoʻrqmay, qaltiramay kun kechirardilar. Odil tabiat azaldan maxluqlarni tiriklikning bu qargʻish tekkan tashvishidan xalos etgan ekan. Garchi tabiatning xuddi mana shu inʼomida jamiyki Moʻyinqum jonivorlari boshiga qora kun, xunibiyron qirgʻin solgan bir kuch ham yashirin edi. Lekin jonivorlarning hech biri buni fahmlamasdi. Bosh-keti yoʻq Moʻyinqum qanchalar cheksiz va hududsiz boʻlib koʻrinmasin, Osiyo qitʼasining xaritasida nimsargʻish tusga boʻyalgan barmoq izicha bir joy ekanligini anglamasdilar. Yildan yilga boqiladigan mol koʻpayyapti, yangi quduqlar qazishib, oʻtloq joylar izlashib, Moʻyinqumni toʻrt tomondan qisib kelishyapti. Kanallar qazilyapti, yoʻllar oʻtyapti. Moʻyinqum atroflarida dunyoda eng yirik gaz quvuri yotqizilib odamlar texnika bilan qattiq qurollanib, mashina, motorlarga oʻtirib, yonlariga suv gʻamlab olib, radio aloqa yordamida har qanday dasht-u sahro ichiga, shu jumladan, Moʻyinqumga shitob bilan kirib boryapti. Lekin bular kelajakda nasllar faxrlanib yurishiga arziydigan kashfiyotlar qiladigan fidokor olimlar emas, har kimning ham qoʻlidan kelaveradigan ishni bajaradigan oddiy kishilar. Chek-intihosi koʻrinmagan, hech qanday balo-qazo yoʻlay olmaydigandek tuyulgan Moʻyinqum sahrosini mana shu joʻngina odamlar toʻrt tarafdin qisib kela boshlashdi. Biroq inson hayotining juda ham odmi va joʻn koʻringan ishlarida yaxshilik bilan yomonlik qoʻshilib ketganligini Moʻyinqum jonivorlari qayerdan bilsinlar. Bu yerda hamma narsa odamlarning oʻzlariga bogʻliq edi — ular inson jamoatchiligi uchun odatiy boʻlib qolgan bu narsalarni nimalarga yoʻnaltirar ekanlar: yaxshilikkami yo yomonlikka, tuzishgami yo buzishga — buni sahro maxluqlari qayoqdan bilsinlar. Odamlar aql-idrok bilan ish yurita boshlagan zamonlardan beri oʻzlarini oʻzlari bilishga urinib kelayotganliklari, oʻz

chigal ishlaridan sira qutulib ketolmayotganliklari va azal-azaldan nima uchun yomonlik doim yaxshilik ustidan g'olib chiqadi degan muammoni, boshlarini qotirib kelayotgan jumboqni yecholmayotganliklarini zabonsiz maxluqlar qayerdan bilsinlar...

Odam bolasining mana shu kabi ishlari, yo'l-yo'riqlari Mo'yinqum jonivorlariga mutlaqo qorong'i edi. Binobarin, bu narsalar ularning sezimlari, tajribalari va umuman, tabiatlarida yo'q edi. Xullas kalom, hozirgi kunlargachayin Osiyoning shu buyuk yarim cho'l, yarim sahro jaziramalarida daraxt bo'lib daraxtmas, cho'p bo'lib cho'pmas, ammo toshday qattiq, metinday mustahkam, temir arqon kabi chiyralgan, qurg'oqchilikka chidamli jing'ilzorlari, qumloq saksovulzorlari, kakra o'tlari va hammasidan ham oy shu'lalarida, kun yorug'ida oltin tusli shaffof o'rmon kabi lovullab yonadigan, ichiga kirgan har qanday zot boshini ko'targan zahoti to'rt tomondan baravar darhol ko'zga tashlanadigan chiy qamishzorlari bo'lgan shu dashtlardagi jonzotlarning yashashiga hech narsa to'sqinlik bermay kelardi.

Yangi bo'ri xonadoni — Toshchaynar bilan Akbaraning qismatlari mana shu yerlarda kechadigan edi. Bu orada maxluqlar hayotida juda muhim bir voqea ham bo'lib o'tgan. Akbara uchta tuqqan edi. Bu unutilmas voqea Mo'yinqumda o'sha ko'klam chog'i jing'il changalzor orasida, keksa saksovl tagidagi o'ngirda ro'y bergan edi. Bu uya bo'ri bolalarini sayrga olib chiqish uchun juda qulay edi. Bo'rivachchalar ancha tikkayib qolishgan, quloqlarini dikkaytirib turishar, lekin birlari bilan o'ynagan, dumalashgan chog'larida quloqlarining shalpayib tushgani bilan ishlari yo'q edi. Ular endi oyoqda ancha mahkam turadigan bo'lib qolgan, har birlari o'zlariga yarasha fe'li-huy orttirmoqda edi. Katta bo'rilar ovga chiqadigan paytlari ulardan qolmay ergashardilar.

Yaqinda bo'rilar bir kecha-kunduz ovda bo'lishdi. Ov kutilmagan falokat bilan tugashiga oz qoldi.

O'shanda Akbara tong qorong'isida bo'rivachchalarni ergashtirgancha Mo'yinqumning ovloq bir tupkasiga yo'l oldi. O'sha yerlarda, bepoyon dashtlarda ayniqsa nimqorong'i soylar, o'ydim-chuqur jarliklarda hushni ajabtovur elitib, boshni aylantiradigan g'alati o't-o'lanlar ko'p o'sib yotardi. Mana shu balandligi bardan uradigan, qorayib yotgan, bo'g'riqqan o'tlar ichida ularning turfa o'tkir chang-hidlarini birpas dimog'ingga tortib kezsang, birdan o'zingni osmonda uchib ketayotgandek,

havoda suzayotgandek yengil va xushkayf sezasan, keyin behol bo'lasan, oyoqlaringdan shirin mador ketadi, ko'zlarini ajib uyqu bosadi. Akbara bu yerlarni bo'rivachchaligidan beri bilar, bang o't gullaydigan kezlar bir kelib ketgan edi. U yo'lda uchragan cho'lning mayda jonivorlarini changalidan o'tkazib, quyuq o'sib yotgan o'tlar orasida aylanib yurishni, ular ustida ag'anab yotish, o'tkir islarni ichiga tortish, so'ng qanot chiqarganday bo'lib uchish va nihoyat xumorlanib uxlab qolishni yaxshi ko'rar edi.

Hozir esa ular Toshchaynar bilan yolg'iz o'zlari emas, orqalaridan oyoqlari beo'xshov va uzun bo'richalar ham ergashib kelishar edi. Bunday safarlar paytida bo'ri bolalari iloji boricha ko'p narsalarni bilib, o'zlariga tegishli mulkatlarni kichiklikdan yaxshilab o'zlashtirib olishlari kerak edi. Urg'ochi bo'ri ergashtirib borayotgan mulk chekkasidagi xushbo'y o'tloqlarga ham shu bo'rilar egalik qiladilar. Undan u yog'i begona makonlar edi, u tomonlarda odamlarga duch kelib qolish hech gap emasdi. O'sha ko'z ilg'amas yoqlardan goho kuz shamollarining uvillashiday parovoz tovushlari quloqqa chalinan, u yoqlar bo'rilarga mutlaqo yot edi. Ular Akbara yetagida o'z mulklarining eng chekka yoqasi tomon ketib borardilar.

Akbaraning orqasidan Toshchaynar lo'killab boryapti. Bo'richalar esa jonlari ichiga sig'maydi, dam sayin sho'xlik qilishadi. O'ynashib oldinga o'tib ketishadi. Lekin Akbara ularning beboshlik qilishlariga izn bermaydi. Hech maxluq uning oldiga tushmasligi kerak.

Boshida saksovluzorlar va cho'l shuvoqlari bosgan qumloq yerlardan borishdi. Kun tobora yuqoriga ko'tarilib, havo odatdagiday ochiq va issiq bo'lishidan darak berdi. Oqshomga tortib bo'ri uyuri cho'lning chekkasiga yetib keldi. Hali kun yorug' edi. O'tlar bu yil baland bo'lib o'sgan, ular ichida yurgan bo'rilarning yollarigina ko'rinardi. Bang o'tning kun bo'yi oftob tig'ida qizib yotgan tuk bosgan shoxchalaridagi ko'zga unchalik tashlanavermaydigan gullari kuchli hid taratardi, ayniqsa, o't qalin o'sgan joylarda hid g'oyatda o'tkir va quyuq edi. Uzoq yo'l bosib kelgan bo'rilar kichikroq bir soy ichida dam olishdi. Tinmag'ur bo'ri bolalari charchoq nimaligini bilmay atrofda o'mbaloq oshishar, yer iskashar, hid olishar, har narsa ularga qiziq ko'rinardi. Bo'rilarning qorinlari to'q, bino-barin, kechasi shu yerning o'zida tunab qolsalar ham bo'lavardardi. Yo'l-yo'lakay bir necha semiz-semiz sug'ur bilan bitta quyon tutib yeyishgan, bir qancha qush uyalarini tintishgan, so'ng yo'lda uchragan jarlikdagi buloqdan to'yib-to'yib suv

ichishgandi. Lekin o'rtada kutilmagan bir voqea yuz berdikim, shundan so'ng bo'rilar bu yerlarni jadallik bilan tark etishga, orqaga, sahro ichkarisidagi uyalariga qaytishga majbur bo'ldilar. Ular tun bo'yi yo'l bosdilar.

Voqea bunday bo'ldi. Kun botib borardi, Akbara bilan Toshchaynar bang o'tning hididan mast xumor holda o't-o'lanlar uzra cho'zilishgan edi. Shu payt yaqin atrofdan quloqlariga odam sasi eshitildi. Odamni boshqalardan burun jar yoqasida o'ynab, quvalashib yurgan bo'ri bolalari ko'rdilar. Ular banogoh paydo bo'lgan ushbu g'alati xilqat odam ekanligini hatto xayollariga ham keltirganlari yo'q. Kichkinagina ishton, yalang oyog'iga keta, boshiga yangiligida oq, hozir esa butunlay yag'irlashib ketgan panama kiygan maxluq yalang'och holda bang o'tlar orasida telba kabi chopib yurardi. U o't qalin o'sgan joylarni tanlab dam u yoqqa, dam bu yoqqa chopardi, bundan maza qilayotganga o'xshardi. Bunaqasini umrlarida birinchi marotaba ko'rib turgan bo'ri bolalari andak cho'chib, andak ajablanib pisib-netib qarab qolishdi. Anavi maxluq esa, xuddi jin tekkandek, nari borib, beri chopib kelishini qo'ymasdi. Bo'ri bolalari qo'rquvdan o'zlarini o'nqlab, yuraklari qizidi. Lo'killab chopib yurgan, badanida tuki yo'q, ikki oyoqli g'aroyib maxluq bilan o'ynagilari keldi. Shu payt qip-yalang'och odamning o'zi ham bo'richalarni ko'rib qoldi. Hayron qoladigan yeri shundaki, bu yerda qashqir bolalari nima qilib yuribdi, deb o'ylamay, hushyor tortmay, bu esi yo'q qo'llarini oldinga cho'zib, bo'ri bolalarini erkalay boshladi.

— Voy, bular nima? — der edi u yuzlaridan oqib tushayotgan terlarni sidirib. — Bo'ri bolalari emasmi? Yo boshim aylanib, ko'zimga shundoq ko'rinyaptimi? Yo'g'-ey, uchalasi ham katta-katta bo'lib qolgan bo'ri bolalari-ku! Voy, mening bo'rivoylarim! Yo'l bo'lsin? Qaydan keldingiz? Qayga bora-siz? Bu yerlarda nima qilib yuribsiz? Meni-ku yomonligim bu yerlarga haydab keldi, sizlar-chi? Bu cho'llarda, qarg'ish tekkan bu bang o'tning ichida nima qilyapsiz? Qani, mahmah, beri kelinglar, qo'rqma, qo'rqma, mah-mah! Voy, tentak bo'rivoylarim-ey!

Esi past bo'ri bolalari odamning erkalatganiga chindan ishonib, quyruqlarini likillatib, bukilib-bukilib bag'irlarini yerga tekkazib quvlashmahoq o'ynash ishtiyoqida yaqinlashib bora boshladilar. Lekin shunda jar ichidan Akbara otilib chiqdi. U vaziyat qanchalar xatarli ekanligini ko'z ochib yumgunchalik vaqt ichida anglab yetdi. Akbara bosiq irillab, cho'l quyoshining qizg'ish shafaqlariga belangan yalang'och odamga tashlandi.

Shu sakraganda uning qornini yorib tashlashi yoki kekirtagini uzib olishi hech gap emasdi. Haligi kishi esa o'qday otilib kelayotgan bo'rini ko'rgan zahoti qo'rquvdan ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi, es-hushini yo'qotib, boshini qo'llari bilan pana qilgancho'kkalab o'tirib qoldi. Shu uni qutqardi. O'qday uchib kelayotgan Akbaraning fikri yashin tezligida o'zgardi. U yalang'och va himoyasiz, bir zarbalik holi yo'q odamning ustidan quyunday o'tib ketdi. Shunda odamning chehrasini, qo'rquvdan qotib qolgan ko'zlarini ko'rdi. Akbara odam tanasining hidlarini sezdi. U yana bir irg'ib o'zini odam ustidan orqaga otdi va bolalari yonida paydo bo'ldi, ularni dumchalaridan og'ritib tishlab, shiddat bilan jar yoqasiga surib haydadi va shunda Toshchaynarning ro'parasidan chiqdi. Toshchaynar odamni ko'rgan, uning bahaybat yollari qo'rqinchli hurpaygan edi. Akbara uni ham nari surib, bir tishlab oldi va orqasiga qayirdi. Shundan so'ng hammalari jar ichiga tushib ketdilar va ko'z ochib yumguncha g'oyib bo'ldilar...

Shundan keyingina boyagi odamning esi joyiga keldi, u o'rnidan dik etib turib qocha boshladi... Orqasiga qaramay, nafas chiqarmay cho'lda ancha yergacha chopib bordi...

Akbara galasining odam bilan to'qnashuvi birinchi marotaba mana shunday bo'lib o'tgan edi... Buning oqibati nima bilan tugashini kim bilibdi, deysiz...

* * *

Mo'yinqumda qirg'in kechga tomon to'xtadi. Quvgan ham, qochgan ham tamomila holdan toydi. Cho'lga xufton kirdi. Ertaga vertolyotlar bazadan moylarini yangilab kelgan so'ng qirg'inni yana davom ettirish kutilardi: ularning chamalaricha, bu yerlarda ish hali uch-to'rt kunga yetib ortardi. Vertolyotlarda o'tkazilgan tekshirishlarga qaraganda, Mo'yinqumning eng qumloq g'arbiy qismida hali hech tegilmagan sayg'oq suruklari son-sanoqsiz edi. Rasmiy tilda ularni o'ljaning hali ochilmagan rezervlari deb atashardi. Binobarin, rezerv mavjud ekan, uni zudlik bilan o'lkaning gullab-yashnashi yo'lida plan oborotiga qo'shish kerak. Mo'yinqum «yurishi»ga xuddi mana shu narsa rasmiy asos bo'lgandi. Lekin ma'lumki, har qanday rasmiy xulosalar ortida, albatta, tarixning harakatini belgilab beradigan u yoki bu hayotiy shart-sharoitlar turadi. Shart-sharoit deganimiz esa, bu avvalo, odamlar, ularning intilishlari va hayajonlari, yaxshilik va yomonliklari, nima bilan tugashini bilib bo'lmaydigan axtarishlari va bosh-keti yo'q ziddiyatlari. Shu ma'noda Mo'yin-

qum fojiasi mustasno bir hodisa emasdi. O'sha kecha o'zi xohlabmi, xohlamaymi, shu vahshiylikni qilgan kishilar cho'lda tunab qolgan edilar.

Bo'ri galasidan Akbara bilan Toshchaynargina arosatdan omon chiqqan, endi tuni bo'yi tentirab qirg'injoylardan uzoq-roqqa ketib borardilar. Qiyomat ko'pgan dala-tuzda qochaverib ko'kraklari, chovlari to sag'irlarigacha loy-balchiqqa botgan bo'rilar zo'r-bazo'r qadam tashlardilar. Tilingan, shilingan, yaralangan oyoqlari tinmay zirillab og'rir, kuyganday achishar, har qo'yilgan qadam misoli bir azob edi. Qani endi, tezroq inimizga yetib olsak, sho'rlik boshimizga tushgan bu og'ir kunni tezroq unutsak, oyog'imizni yozib, ko'zimizni yumsak — bo'rilarning hozir birdan bir istaklari shunday edi.

Lekin bu yerda ham omadlari kelmadi. Inlariga yaqinlashib qolganda ular odamlarning ustidan chiqdilar. Qadrton inlarining shundoq yonginasida kattakon yuk mashinasi qorayib ko'rinar, uning g'ildiraklari jilg'in butalari ichiga yorib kirgan edi. U yerdan odamlarning g'ovur-g'uvuri eshitildi. Bo'rilar birpas jim quloq solib turishdi-da, so'ng indamay ochiq cho'lga qarab yurishdi. Negadir xuddi shu payt tun qorong'iligini yorib mashinaning o'tkir chiroqlari yondi. Garchi ularning shu'lalari narigi tomonga tushgan bo'lsa-da, lekin shuning o'zi ham yetarli edi. Bo'rilar cho'loqlana-cho'loqlana, og'riq azobidan dikonglab bosh oqqan tomonga jo'nadilar. Akbaraning ayniqsa oldingi panjalari achishib og'rirdi... Zada bo'lgan oyoqlariga ozgina orom berish uchun u erimay qolgan qorlar ustidan qadam bosishga urinardi. Bo'ri panjasidan tushgan ezgin gullar qorda alamli, ma'yus sudralib borardi. Bolalari o'ldi. Boshpana yo'li berk. Cho'lda odamlar izg'iyapti...



Savol va topshiriqlar

1. Akbara va Toshchaynar makon tutgan Mo'yinqum sahrosi manzalariga xos eng muhim jihatlarni aniqlang.
2. Mo'yinqumda bo'rilar oromini buzgan hodisalar sababi nimada?
3. Bo'ri bolalarining odam zotiga ilk bor duch kelgan paytdagi holat va xatti-harakatlarini sharhlab bering.
4. Ona va ota bo'rilar bolalarining odam bilan munosabatidan nega vahimaga tushdi? Ular odam zotiga ne sababdan bu qadar keskin hamla qildi?
5. Bo'ridagi shiddat va shafqat tuyg'usi haqida qanday fikrdasiz?
6. Bo'ri bolalarining halokati, Akbara va Toshchaynarning ayanchli holati, qismati sizda qanday taassurot uyg'otadi? Shu xususdagi fikr-mulohazalaringizni insho shaklida yozing.

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN

(1799—1837)



Ulug' rus shoiri Aleksandr Sergeyevich Pushkin yangi rus adabiyoti va zamonaviy rus tilining asoschisi sifatida rus xalqi tomonidan e'zozlanib keladi. Uning adabiy merosida ko'plab lirik she'rlar, dostonlar, sahna asarlari, qissa va hikoyalar bilan birga ertaklar ham muhim o'rinni egallaydi.

A.S.Pushkin 1824—1826- yillarda Mixaylovskoye qishlog'ida yashaganida mahalliy xalq orasida keng tarqalgan ko'plab qo'shiq va ertaklarni yozib olgan va ularni qayta ishlagan. Shoirning «Bir pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak» asari ham shu yerda yozib olingan rus xalq ertaklari asosida maydonga kelgan. Ertak 1830- yilda yozilgan. A.S.Pushkin asar qo'lyozmasiga pop, Balda va boshqa jonvorlar rasmini ham chizgan.

BALIQCCHI VA BALIQ HAQIDA

ERTAK

O'tgan choqda dengiz bo'yida
Chol va kampir umr surgandi;
Yerto'lada — eski uyida
O'ttiz uch yil birga turgandi.
Chol to'r solib ovlarkan baliq,
Kampir esa yigirar urchiq.
Chol dengizga to'r solsa bir gal
Baqa yaproq ilindi yolg'iz.
To'r solganda chol ikkinchi gal

Ilindi-ku dengiz o'landi.
To'r solganda chol uchinchi gal
To'rga tushdi bir kichik baliq,
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq,
Oltin baliq xuddi odamday
Tilga kirib yolvorib qoldi:
«Qo'yib yubor dengizga, bobo,
Katta to'lov to'layman senga,
Ko'ngling neni so'rsa bergayman».
Hayron bo'ldi, qo'rqib ketdi chol:
O'ttiz uch yil baliq ovladi,
Ammo baliq so'zlaganini
Eshitmagan edi umrida.
Chol baliqni qo'yib yubordi,
Shunday dedi unga mehribon:
«Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,
Kerak emas menga to'loving,
Mayli, tushgil moviy dengizga,
Erkin-erkin o'ynab yuraver!»

Chol qaytdi-da kampir yoniga,
Aytdi shundoq qiziq mo'jiza:
«Tutib oldim bugun bir baliq;
Jo'n baliqmas — naq oltin baliq;
Baliq tilga kirib, so'zladi,
Ko'p yalindi qo'yib yubor, deb,
O'z uyiga — moviy dengizga;
Katta to'lov to'layin, dedi,
Ne istasang berayin, dedi;
Men olgani botinolmadim,
Qo'yivordim moviy dengizga».
Cholni qarg'ay boshladi kampir:
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!
Ololmapsan baliqdan to'lov!
Hech bo'lmasa bitta tog'ora —
So'rab olmaysanmi undan sen,
Tog'oramiz teshik-ku, axir!»

Chol jo'nadi moviy dengizga,
Mavj urmoqda dengiz qarasa,
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:

«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim bilan javob berar chol:
«Poshsho baliq, holimga achin,
Xo'b urishdi kampirim meni:
Tinchlik bermas, qariding, demas,
Kerak emish yangi tog'ora,
Tog'oramiz teshilgan, axir».
Oltin baliq aytadi javob:
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,
Borgil, berdim yangi tog'ora».
Chol qaytsaki kampir yoniga,
Tog'oralik bo'lipti kampir.
Lekin urishdi kampir battarroq:
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!
Kir tog'ora so'rab oldingmi?
Kir tog'ora mol bo'larmidi?
Jo'na, tentak, baliqqa borgil,
Ta'zim qil-u, endi uy so'ra».

Chol jo'nadi moviy dengizga
(Moviy dengiz loyqalanardi),
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:
«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim qilib shunday dedi chol:
«Poshsho baliq, holimga achin,
Meni kampir qarg'adi battar,
Tinchlik bermas, qariding, demas,
Jag'i tinmas, uy so'rab nuqul».
Oltin baliq aytadi javob:
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,
Borgil, uy ham bo'ladi nasib!»
Yerto'lasi tomon qaytsa chol,
Yerto'ladan iz ham qolmapti,
Mo'rilar g'ishtdan, oqlangan,
Eman yog'ochidan yasalgan —
Darvozalik bir uy turipti.
Uy yonida mehmonxona bor,
Derazaning yonida esa,
O'tiripti kampir taltayib,
Qarg'amoqda cholni battarroq:
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!

Kelib-kelib uy so'ransan-da!
Jo'na darrov baliq yoniga,
Ta'zim qilgin unga sen tag'in:
Qora dehqon bo'lmayman ortiq.
Men begoyim bo'lish istayman!»

Chol jo'nadi moviy dengizga
(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda).
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:
«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim qilib shunday dedi chol:
«Poshsho baliq, holimga achin,
Kampirni jin urdi battarroq,
Tinchlik bermas, qariding, demas,
Qora dehqon bo'lasmish ortiq,
U begoyim bo'lish istarmish!»
Oltin baliq aytadi javob:
«Qayg'urma, bor, tangri yor bo'lsin!»

Chol qaytadi kampir yoniga,
Nima ko'rar? Baland bir saroy;
Peshayvonda turar kampiri,
Suvsar po'stin uning egnida,
Boshida ham alvon dakana,
Qator-qator inju bo'ynida,
Qo'llarida oltin uzuklar,
Oyog'ida qirmizi etik.
Atrofida oqsoch xotinlar,
Qoq o'rtada kampir turardi,
Sochlaridan sudrab urardi.
Kampiriga so'z qotadi chol:
«Salom, aslzoda, begoyim!
Ko'ngling endi to'ldi shekilli!»
Kampir unga o'shqirdi battar,
Otxonada ishlashga soldi.

O'tdi hafta ketidan hafta,
Kampir tag'in mindi qahriga;
Baliq tomon yo'lladi cholni:
«Tez bor, ta'zim qilgil baliqqa:
Ortiq men begoyim bo'lmayman,

Poshsho xotin bo'lish xohlayman!»
Qo'rqib ketdi chol, shunday dedi:
«Eshak miya yedingmi, kampir?
Yurish-turish nima — bilmaysan,
Poshsholik masxara bo'ldimi!»
Kampir battar mindi qahriga:
Chol yuziga tarsaki urdi:
«Qora dehqon, qanday botinding,
Kim qo'yiпти senga so'z aytmoq,
Menga — menday begoyimga-ya?
Yaxshilikcha jo'nab qol, deyman,
Jo'natgayman bog'lab, bormasang».

Chol dengizga qarab yo'l oldi
(Moviy dengiz qora rang oldi).
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:
«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim qilib so'z aytadi chol:
«Poshsho baliq, holimga achin!
Kampir tag'in boshladi g'avg'o!
Bo'lmas emish ortiq begoyim,
Bo'lur emish erkin malika!..»
Oltin baliq beradi javob:
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin!
Mayli, kampir bo'lur malika!»

Chol qaytdi tez kampir yoniga,
Qarasaki, shohona qasr,
Qasr to'rida ko'rinar kampir,
O'tirardi malika bo'lib,
Xizmatida beklar, amirlar
Asl sharob quyib bermoqda;
Ham malika quymoq yemoqda;
Atrofida talay yasovul,
Elkalarda oyboltalari.
O'rab turar edi bahaybat,
Buni ko'rib qo'rqib ketdi chol
Va so'z aytar yetti bukilib;
«Savlatli malikam, salom alaykum!
Shoyad endi to'lgandir ko'ngling!»
Qayrilib ham boqmadi kampir:

«Tez haydang!» deb buyurdi, xolos.
Sakrab turib beklar, amirlar
Cholni sudrab haydab soldilar.
Yasovullar eshik yonida
Sal bo'lmasa chopayozdilar.
Mazax qilib qoldi olomon:
— Qilig'ingdan topding, nodon chol.
Bundan keyin bo'lg'usi saboq:
O'z ko'rpangga qarab cho'z oyoq!

O'tdi hafta ketidan hafta,
Kampir battar mindi qahriga;
Erini izlatar chopar yuborib,
Cholni topib keldilar axir.
Kampir shunday dedi choliga:
«Jo'na tag'in baliq yoniga,
Ta'zim qilib, o'tingil darrov,
Bo'lmagayman ortiq malika,
Dengiz shohi bo'lish istayman,
Xizmatimda tursin baliq ham,
Baliq bo'lsin menga chopovul!»

Botinolmas so'z aytishga chol,
Bo'la olmas kampir so'zini;
Tag'in bordi moviy dengizga,
Qora quyun ko'rar dengizda:
To'lqinlar o'shqirar g'azabkor,
Ham to'lg'anar, ham uvlar tinmay,
Chol chaqirar baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan:
«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim qilib, unga aytar chol:
«Poshsho baliq, holimga achin,
Jonga tegdi la'nati kampir,
Ortiq bo'lmas emish malika,
Dengiz shohi bo'lish istarmish,
Va dengizda yashash istarmish,
Sen ham borarmishsan xizmatga,
Bo'larmishsan unga chopovul».
Bitta so'z ham demadi baliq,
Suvga urib dumini faqat,
G'oyib bo'ldi dengiz tagiga.

Javob kutib turdi sho'rlik chol
Uzoq qolib dengiz bo'yida.
Qaytdi kampir yoniga axir,
Ko'rsa: tag'in o'sha yerto'la,
Bo'sag'ada o'tirar kampir,
Qarshisida teshik tog'ora.



Savol va topshiriqlar

1. Shoir chol va kampir obrazlari orqali qanday kishilarni tasvir etgan?
2. Shoir ayrim kishilar ruhiyatidagi ochko'zlik va to'yimaslik illatlari ustidan kulish uchun qanday tasvir usuli va vositalarini o'ylab topgan?
3. Sizningcha, chol va kampirga o'xshash kishilar hayotda bo'ladimi? Hozir-chi, hozir ham ular bormi?
4. Ertakning o'zbek tiliga tarjimasi haqida qanday fikrdasiz?
5. Sizningcha, ertak rus tilidan tarjima qilingan asarga ko'proq o'xshaydimi yo o'zbek shoirining asarigami?
6. Ushbu ertak sizda A.S.Pushkinning boshqa ertaklarini ham o'qish istagini uyg'otdimi?
7. Ertak sujeti asosida rasm ishlang.



ALISHER NAVOIY

(1441—1501)



Navoiy uchun ijodiyotdan murod xalqqa, vatanga, kishilikka xizmatdir. U yaratgan barcha musbat obrazlarning yuraklari yuksak insoniy tuyg'ular bilan limmo-lim. Chunki buyuk shoir va mutafakkirning o'z yuragi ayni tuyg'ular bilan yashaydi.

OYBEK

O'tmishdagi donishmand kishilarning ajoyib bir fazilatlari bo'lgan. Ular keksaygan paytlarida boy hayotiy tajribalari asosida pandnoma mazmunidagi asarlarni yozib qoldirganlar. Negaki, keyingi avlodlar taqdiri, bu avlodlarning qanday kishilar bo'lib ulg'ayishi ularga hech qachon befarq bo'lmagan. Shu sababli ular yosh avlodning musulmon dunyosi qonun-qoidalari asosida go'zal xulqli kishilar bo'lib o'sishlari uchun pandnoma asarlarni yaratganlar.

Alisher Navoiy ham keksaygan vaqtida shunday xayrli

ishga qo‘l urib, o‘zining «Mahbub ul-qulub» («Ko‘ngillarning sevgani») degan mashhur asarini yozgan. Asar uch bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda kishilarning ahvoli, fe‘l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati haqida bahs yuritilgan. Ikkinchi bo‘lim yaxshi fe‘llar va yomon xislatlarni tavsif etishga bag‘ishlangan. Uchinchi bo‘limda esa foydali maslahatlar berilgan.

Navoiy bu so‘nggi bo‘limda berilgan maslahatlarni «tan-behlar» deb ataydi. Ular yoshlarga hayotda uchrovchi turli-tuman vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutish madaniyatini o‘rgatadi.

Adabiyot *adab* so‘zidan olingan. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari o‘zlarining badiiy asarlaridagi bosh qahramonlar obrazi bilan inson qanday bo‘lishi lozim, degan savolga javob berganlar. Ayni paytda axloqiy masalalarga bag‘ishlangan asarlar ham yozib, ularda yaxshi fe‘llar va yomon xislatlarni ta’rif va tavsif qilganlar.

Navoiyshunos olimlarning baho berishlaricha, «Mahbub ul-qulub» Sharq adabiyotining shoh namunalaridan bo‘lgan Shayx Sa‘diyning «Guliston», Kaykovusning «Qobusnoma», Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chor maqola» kabi asarlari qatorida turadi.

«MAHBUB UL-QULUB» DAN

Hilm to‘g‘risida

Hilm inson vujudining xushmanzara bog‘idir va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Yumshoq ko‘ngillik hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo‘ladi va insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo‘ladi.

Hilm axloqi odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa, ular qoshida o‘zi shuncha obro‘siz va bachkana tuyuladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa, uning qoshida uyatsiz va e‘tiborsiz bo‘ladi.

Bu davr bog‘ining xas-xashak singari odamlari shamoldek betayin, yengiltak kishilari oldida hilm ahli go‘yo og‘ir tabiatli

va yomon fe'lli, deb kamsitiladi. Ularning o'zlari esa, quyundek tuproqni havoga to'zitadilar va yengiltabiatlilari bilan boshlarini go'yo ko'kka yetkazadilar. Tog' jussasini oyoq osti qilmoq — odatlari; dala-dashtlardagi zarralarni havoga sovurmoq — ularning salobatlari. Bunday odamlar yeldek har eshikdan kirishga or qilmaydi; o'tdek otashdonni qizdirishdan o'zga ishni bilmaydi. Yel — garchi lolaning tojini uchiradi, ammo tog' qoyalari kamariga qanday ta'sir qila oladi? O't tog' etagidagi xas-xashaklarni kuydirishi mumkin, lekin quyosh uchquniga qanday tenglasha oladi?..

Yel, agar ko'kka yetsa ham, baribir yengil va qadrsiz; tog' agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o'tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek cho'g' kabi qizil la'l bor.



Lug'at:



Hilm — muloyim tabiatlik.



Savol va topshiriqlar

1. Hilm deb nimaga aytiladi?
2. Hilmlil kishilar boshqalardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
3. Siz o'zingizni hilmlil inson, deb hisoblaysizmi?
4. Agar o'zingizni muloyim tabiatli kishi, deb hisoblasangiz, shu xislatigiz orqasida o'zingizni ba'zan kamsitilgan, deb hisoblaysizmi? Bu savolga ochiq javob bering.

Tanbihlar¹

* * *

Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas; u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas.

Agar bir ko'ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so'z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so'z — vahshiylarni ulfatga aylantiradi; sehrigar — ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi.

* * *

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz. Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma — kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga

¹ *Tanbih* — tanbeh.

o'xshaydi. Tili yomon odam — xalq ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodonning vahshiylarcha baqir-mog'i — eshakning bemahal hangramog'i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi; ko'ngilga tushishi mumkin bo'lgan yuz g'am — uning so'zi bilan daf' bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki; «nafasning joni bor...»

O'zi xunuk, gapi bema'ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o'xshaydi. Baxt bag'ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam — donishmand oqil; so'zga erk bergan odam — beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi; til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi. Til bilan dil — insondagi eng yaxshi a'zolaridir. Bo'stonda — gulsafsar, gulg'uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam — tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa — tilning ofatidir.

* * *

Til shirinligi — ko'ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa — foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa ko'pchilikka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa harom bo'ladi. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam — halvofurush kabi sevimlidir.

* * *

Har kimningki so'zi — yolg'on, yolg'onligi bilingach, uyatga qolg'on; yolg'onni chindek gapiruvchi so'z ustamoni — kumushga oltin qoplab sotuvchi zargar. Yolg'on-afsonalar bilan uyqu keltiruvchi yolg'onchi — uyquda alahlovchi. Yolg'on gapiruvchi g'aflatdadir; so'zning bir-biridan farqi ko'pdir, ammo yolg'onidan yomonroq turi yo'qdir.

* * *

Yolg'on gapirish bilan o'z vaqtini o'tkazuvchi odam, bu qiligi yomon tuyulish o'rniga, kishilarni aldagani bilan faxrlanadi ham. Yolg'onchi o'z gapiga go'llik bilan quloq soluvchini topsa, ularga yolg'onni chinga o'tkazsa, murodiga yetgan bo'ladi. Yolg'onchi — haq qoshida gunohkor; xalq oldida sharmanda. Bunday nahsning beor yuzi yomonlikka o'girilgan bo'ladi; bunday nahsga botgan odam qutlug' uydani nari bo'lg'ay.

* * *

Kimki, yolg'on so'zni bironva to'nkagay, o'z qora yuzini yog'ga bulaydi. Ozigina yolg'on ham ulug' gunohdir; ozgina zahar ham halok qiluvchidir.

* * *

U yerdan bu yerga gap tashuvchilar elning gunohini o'z bo'yniga oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo'lsa ham ko'ngilsizdir, yolg'on bo'lsa yanada nafratlidir. So'z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigi — do'zax o'tining tutanturug'i bil.

* * *

Yolg'onchi odam — unutuvchi; u andisha va ehtiyotdan chetda turuvchi. Har kimning so'zi chin bo'lmasa, rostgo'ylar ko'ngliga u so'z qabul bo'lmas. Yolg'onchi o'zining yolg'on so'ziga bir-ikki marta ishontiradi, keyin nima qiladi? Yolg'onchiligi ma'lum bo'lgach, u rasvo bo'ladi, uning so'ziga xalq ishonchi yo'qoladi. Ko'ngil xazinasining qulfi — til; u xazinaning kalitini — so'z bil.

* * *

Chin so'z — mo'tabar; yaxshi so'z qisqa — muxtasar. Ko'p so'zlovchi — zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi — aqldan ozgan. Ayb izlovchi — aybli; kishi aybini gapiruvchi — o'ziga yomonlik sog'inuvchi. To'g'rilik bilan qarovchi — pokiza nazarli; kishilarning yaxshi tomonlarini ko'ruvchi — to'g'ri nazarli. Kimning miyasida illat bo'lsa — so'zida mantiq bo'lmaydi. Miyasi sog'lom bo'lsa, gap-so'zi yoqimli va xatosiz bo'ladi. So'zi hisobsiz — o'zi hisobsiz. So'zida parishonlik — o'zida pushaymonlik. Agar so'z go'zallik ziynati bilan bezalmagan bo'lsa — unga chinlik bezagi yetarlidir! Yolg'onchining gapi qanchalik chiroyli bo'lsa, shunchalik qabihdir. Chin so'z qanchalik betakalluf bo'lmasin, so'zlovchi uchun taassuf yo'qdir. Gul libosi yirtiq bo'lsa ham ziyonsiz; sadaf xunuk bo'lsa ham inju uchun nuqsonsiz.

Yolg'on so'z she'rdan boshqa yerda nomaqbul va yolg'onni aytuvchi aqlsizdir.

* * *

Yomon qiliqli odam — badfe'l; achchig'i tez — bir baloga giriftor, bir ofatga muhtalo badbashaadir. Bular qayon borsa — balodan qutilmas; har yerga qochsa ham ofatdan xalos bo'lmas. Yomon qiliq g'olib dushmandir va qahrli yovdir,

yomon qiliqli kishi esa doim unga mag'lub va vujudi undan majruh.

* * *

Ochiq chehrali odam — ikkiyuzlamachilikdek nuqsondan yiroq bo'ladi... Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik; chuchuk so'zidan el-yurtga xurramlik. Odamiylik bilan ko'ngillarga sevimli; insoniylik bilan jonlarga yoqimli. Undan do'st-dushman xotirjam. Bunday kishi umridan baraka topgay.

* * *

Dushman aldoviga uchma; maddoh xushomadini chin dema. Dushmanning g'arazi o'z yomon niyatiga yetmoqdir; maqtovchining maqsadi — xorlik bilan sendan in'om olmoqdir. Agar ikkalasiga iltifot qilmasang va qabul qilishni lozim bilmasang, biri o'z maqsadining ijrosidan to'xtaydi va tadbiri mujmal bo'ladi va ikkinchisining maqtovi hajvga aylanadi.

* * *

Noxush xabarni chin bo'lsa ham do'stingga yetkazma; birovdan ayb ko'rsang yuziga solma. Qo'yaver, o'sha chin xabarni dushman yetkazsin va sen sabr qil, u ayb mojarosini dushmani qilsin.

* * *

Aqlli odam yolg'on gapirmas; ammo, barcha rost gapni aytaverish ham to'g'ri emas. Birovning ko'zi g'ilay — nogirondir; ammo, bunga u aybdor emasdir... Birovni nohaq hijolatga solmoq — o'z nodonligini izhor qilmoq va bir ko'ngilni og'ritmoqdir. Bu kabi kishini xafa qiladigan chin so'zdan ko'ra zarurat yuzasidan — o'rni bilan gapirilgan yolg'on yaxshiroqdir.



Savol va topshiriqlar

1. Navoiy tanbehlarida qanday yaxshi insoniy fazilatlar targ'ib etilgan?
2. «Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz», degan iborani qanday tushunasiz?
3. Navoiy tilga qanday ta'rif bergan?
4. Navoiyning ushbu tanbehlarida qanday xislatlarning insonga husn keltirmasligi alohida qayd etilgan?
5. Navoiy nega *yolg'on* va *yolg'onchi* haqida ko'proq fikr-mulohazalarni bildirgan?
6. Siz o'rtoqlaringizdagi qaysi xususiyatlarni yoqtirasiz-u qaysi xislatlarini yoqtirmaysiz?
7. O'zingizdagi xislatlarni-chi? Bu xislatlarning qaysi biridan qutulishni xohlaringiz? Ochiq aytib bering.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483—1530)



Bobur — dilbar shaxs, Uygʻonish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam boʻlgan, u sanʼatni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi koʻrardi.

Pirimqul QODIROV

Otasi vafotidan soʻng oʻn ikki yoshida taxtga oʻtirgan, toj-taxtni, saltanatni saqlab qolish uchun umr boʻyi betinim kurash olib borgan Bobur hayotda juda koʻp qiyinchiliklarni, jabr-u jafolarni koʻrdi. Oʻzaro ichki nizolar tufayli oʻz yurtini tashlab avval Afgʻoniston, soʻng Hindistonda yashash, oʻzga ellarda saltanatini tiklashga majbur boʻldi, ona yurt sogʻinchi bilan yashadi. Nasriy va sheʼriy asarlarida, jumladan ruboiylarida shoir oʻzining hayot tajribalarini, dildagi armon-oʻkinchilarini gʻoyat haqqoniy, taʼsirchan ifoda etdi.

RUBOIYLAR

To qildi meni firoq aro yod habib,
Mahjur koʻngulni ayladi shod habib.
Gar vasl muyassar oʻlmasa, netay, ey Bobur,
Faryod habib-u oh-u faryod habib!

* * *

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
Sarrishtayi ayshdin ko'ngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!

* * *

Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,
Sabrimiz kam-u g'amimni bisyor aylar.
To dahr durur budur aning rasmikim,
Oyrib kishini azizidin, xor aylar.

* * *

Qish bo'ldi-yu bo'ldi barcha tom-u tosh qor,
Jam'iyati bor kishiga bordur xush qor.
Bu qishda yomon yo'l-u parishon holim,
Yo rab, meni yaxshiliq sori boshqor!

* * *

Ey kim, bori she'r ahlig'a sen xon yanglig'!
She'ring bori she'rlarga sulton yanglig'!
Mazmuni aning xatti savodiy ichra,
Zulmat arosida obi hayvon yanglig'!

* * *

Andin berikim, qasdim uchun turdi firoq,
Yuz dard-u alamni manga yetkurdi firoq.
Meni eshikingizdin, netayin, surdi firoq,
Qil chora, yo'q ersa o'lturdi firoq.

* * *

Har yerda gul bo'lsa — tikon bo'lsa, ne tong?!
Har qaydagi may durdidan bo'lsa, ne tong?!
She'rimda agar hazl, agar jid, kechuring,
Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?!

* * *

Ey yel, borib ahbobqa nomimni degil!
Har kim meni bilsa bu payomimni degil!
Mendin demagil gar unutulg'on bo'lsam,
Har kimki, meni so'rsa, salomimni degil!

* * *

Beqayd men-u xarob-u siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Qobulda iqomat etti Borur dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

* * *

Zinhorki, do'stluqni unutmag'oyson,
Tuqqonlig'din ko'ngulni sovtmag'oyson.
Yotlar bila dushman tarafin, gar, tutsang,
Tuqqonlig'-u do'stluq tama' tutmag'oyson!

* * *

Besabrmen-u besar-u somondurmen,
Bir g'amzadadurmen-u parishondurmen.
Ne dinning ishin qildum-u ne dunyoning,
Yo rab, netay o'z ishimga hayrondurmen.

Lug'at

Ahbob — do'stlar.

Besaru somon — parishon hol, hech kimsasi yo'q.

Dahr — dunyo, davr.

Durdi — quyqa.

Ja'miyat — to'planish.

Jid — tirishish, jiddiy.

Iqomat — turib qolmoq.

Laim — past, nokas.

Mahjur — ayrilib qolgan.

Sarrishta — bahona, sabab.

Siym — aqcha, tanga.

Obi hayvon — tiriklik suvi.

Tuz — to'g'ri.

Firoq — ayrilish.

Habib — sevikli, do'st.



Savol va topshiriqlar


1. Siz yuqorida o'qigan Bobur ruboiylariga xos umumiy xususiyatlar nimalardan iborat?

2. Nega shoir «Yuz oh, Zahriddin Muhammad Bobur» deb nola chekadi?

3. Ko'p xorlik, zorliklar ko'rgan shoir qalbidagi nurli, umidbaxsh tuyg'ular aks etgan satrlarni aniqlang.

4. Shoirning «Ey kim, bori she'r ahlig'a sen xon yanglig'! She'ring bori she'rlarga sulton yanglig'!» deb faxrlanish sababi nimada deb o'ylaysiz?

5. Shoirning «Ne dinning ishin qildim-u ne dunyoning, Yo rab, netay o'z ishimga hayrondurmen» deb yozish sababi nimada deb bilasiz?



MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY

(1850—1903)



Muqimiyning tili ravon, mavzulari kundalik — ayniqsa alamzada kosib bilan ezilgan dehqon ommasining ko'nglidagini topib yozgani uchun she'rlari juda tez ommalashdi... Uning she'rlari xalq orasida juda ko'p tarqalgan.

G'afur G'ULOM

Asl ismi sharifi Muhammad Aminxo'ja bo'lgan mashhur o'zbek shoiri o'ziga Muqimiy degan adabiy taxallusni tanlagan. Muqimiy «muqim» so'zidan olingan bo'lib, bir yerda doimiy turuvchi, tub joyli degan ma'noni anglatadi. Garchi shoir Muqimiy o'zi tanlagan taxallus ma'nosiga amal qilib bir umr tug'ilgan tabarruk maskan — Qo'qon shahrida yashab o'tgan bo'lsa ham, bir necha bor shahar atrofi — vodiylar qishloqlariga, shuningdek Toshkent shahriga sayohatlar qilgan.

Muqimiyning mashhur «Sayohatnoma» asari shoirning Farg'ona vodiysi bo'ylab safarlari taassurotlari asosida yozilgan. Shoir «Sayohatnoma»da o'zi ko'rgan qishloqlar manzarasini, hayot odamlari qiyofasini xuddi oynaga solingandek aniq, o'ta hayotiy ko'rsatadi. «Sayohatnoma» XIX asr ikkinchi yarmi xalq hayotining badiiy ko'zgusi sifatida g'oyat qimmatlidir.

«SAYOHATNOMA» DAN

Qishloq juvoni yig'ilishib,
Issig'da o'ynashgay pishib,
O'tgan tamoshabin tushib,
Seshanba kun bozor ekan...

Mingboshi Eshdavlat akam,
Ammo quruq savlat akam,
Qilsa chiqim gar bir diram,
Uyqu qochib, bedor ekan.

«Yayfan» kabi tolzor kam,
Yo'q soyasida zarra g'am,
Zebo sanam, qoshi qalam
(Jonon)lari bis'yor ekan.

Do'malari ham xo'b bajo,
Volosnoyi uhda buro,
Yurt ishlarini doimo,
Xayriyatini ko'zlor ekan.

— «Nursux» kabi ham yurt yo'q,
Bog'dor-u dehqon qorni to'q,
Masjidlari ham ko'p uluq,
Turfa farah osor ekan.

«Rafqon»ni bozor joyi tang,
Mullolari chaqqon, garang,
Omilari ham mulla rang
Ko'ylak kiyib, dastor ekan.

Gar mevasi bir tup, sotar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Bersa gadoga non agar,
Ming yilda ham dushvor ekan.

Ammo «Raboti» bachchag'ar,
Yo'q hech odamdan asar,
Bir podajoyi gov-u xar,
Chun og'uli tayyor ekan.

Du bora yurdim dashtlab,
Bodom qoniga qarab,
Mirza Umarni so'rag'lab,
Havlisida najjor ekan.

Bo'lg'ay o'shal Burhon omon,
Yaxshi yigitdur begumon,
Xursand qildi nogahon,
Mingboshi Xol sarkor ekan.

Armonki ko'prak yurmadim,
Bir-ikki hafta turmadim.
«Tikka Rabot»ni ko'rmadim,
Pur fayz buzrukvor ekan.

Ma'yus chiqdim «Isfara»,
Dil xasta, majruh-u yara,
Issiqqa kuygan qop-qora,
Olti jihat ko'hsor ekan.

Anhor-u so-yu cho'llari,
O'ynab keladur suvlari,
Shirinki zardolulari,
Qand-u asal bekor ekan.

Shersiz emasdur beshalar,
Bordur saxovat peshalar.
Qilmang yomon andeshalar,
Yaxshilari ham bor ekan.

Qozi juvonmardi nako',
Borib-kelibon chorajo',
Nogah bo'lib dardi gulo',
Sanchiq tutub bemor ekan.

Hoji Zuhur ham O'rdada,
Sarhavzlar, oliy sada,
Borsa agar bir g'amzada,
Jonig'acha esor ekan.

Boyvachchasidur badburush,
To'g'ri so'zi achchig'-turush,
Sil, eski bachcha, choyfurush,
Hofiz Umar, Qahhor ekan.

Bo'ima halovatga kasal,
Olamda yo'q benish asal,
Beshak mukofoti amal,
Dunyo qurulg'on dor ekan.

Alhamdulillah: bexatar
Keldim Muqim aylab safar,
Muztar qolib, ko'rmay zarar,
Haq bandasiga yor ekan.



Lug'at



Afgor — yaralangan.

Aflok kafrator — egri, teskari aylanuvchi osmon.

Besha — to'qay.

Volosnoy — katta amaldor, mingboshi.

Diram — kumush tanga.

Duzdi badburush — shopmo'ylov o'g'ri.

Duma — Davlat yoki shahar dumasi a'zosi, amaldor ma'nosida.

Sarkor — ishboshi.

Tarror — o'g'ri, kissavur.



Savol va topshiriqlar

1. «Sayohatnoma»ning bu qismida tasvirlangan joylar nomini aniqlang, ular ta'rifini esda saqlang.

2. Har bir joyga, o'sha yerlik kishilarga oid eng muhim ijobiy va salbiy ta'rflarni toping va daftaringizga ko'chirib yozing.

3. «Shersiz emasdir beshalar» misrasi bilan boshlanuvchi band ma'nosini aniqlang.

4. «Sayohatnoma» oxiridagi «Dunyo qurulg'on dor ekan» misrasi ma'nosini qanday tushunasiz?

5. «Sayohatnoma»ning o'zingizga ma'qul bandlarini yod oling.



SA'DIY SHEROZIY

(1189—1292)



Sa'diy o'z asarlarida hikmatli xalq maqollaridan juda ko'p foydalangan va, aksincha, uning hikmatli so'zlari, qimmatli fikrlarining bir qismi, ayrim bayt va misralari xalq orasida maqol sifatida tarqalgan.

Sa'diy aforizmi (hikmatli so'zlari) ham ochilmagan bir xazinadir.

Sadriddin AYNIY

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyandalari orasida Shayx Sa'diy Sheroziy alohida o'rinni egallaydi.

Odatda Sa'diy to'g'risida so'z borganda adabiyotshunos olimlar uning: «Oqil kishiga ikki umr kerak. Birida bilim-tajriba yig'sa, ikkinchisida uni ishga soladi», degan ajoyib fikrini keltiradilar. Sa'diyning butun hayoti ana shu hikmatli so'zlarining amaldagi ifodasi bo'lgan.

Sa'diyning otasi Sheroz hokimi Sa'd binni Zanki saroyida xizmat qilgani uchun ilm-ma'rifatning qadriga yetuvchi kishi edi. Shuning uchun u o'g'lining savodli-bilimli bo'lishi bilan jiddiy shug'ullangan. Ammo taqdir unga qisqa umrni ato qilgan ekan, u to'satdan vafot etgan. Shundan keyin Sa'diy ukasi bilan birga saroy tomonidan belgilangan nafaqa hisobiga tirikchilik o'tkaza boshlagan. Otasining orzu-intilishini unutmagan Sa'diy dastlab Bag'dodga borib, «Nizomiya» madrasasi-

da o'sha davrning eng mashhur olimlaridan biri — Abulfaroj Abdurahmon ibni Javziy qo'lida tahsil ko'rgan. So'ngra Osiyo va Janubiy Yevropa mamlakatlari bo'ylab uzoq safarga chiqqan. O'ttiz yil davom etgan safari va musofirchilikdagi hayoti davomida u o'zi aytgan bilim-tajribani yetarli darajada to'plagan.

O'ttiz yil ichida turli-tuman xalqlar orasida yashagan, qaroqchilar bilan to'qnashuvlarda qatnashgan, «salb yurishi» ishtirokchilari tomonidan asir olingan va bir amallab xalos bo'lgan kishining hayot tajribasi, albatta, ko'p bo'ladi. Agar bu hayotiy tajribaning egasi Sa'diy bo'lmaganida, ehtimol, biz uning go'zal samarasini mutlaqo ko'rmagan, jahon adabiyoti esa «Bo'ston» va «Guliston» singari asarlarga ega bo'lmagan bo'lardi. Ammo Oллоh taolo Sa'diyini shunday og'ir sinovlardan bejiz omon olib chiqmagan ekan. U bir asrdan ortiq umr ko'rib, to'plagan bilim-tajribasini qog'ozga oltin qalami bilan tushirgan.

Sa'diyning fikr-xulosasiga ko'ra, yurtning obodonligi, xalqning farovonligi podshoga bog'liq. Podshoning bunday ishlarga qodirligi esa uning odilligi, ilmli-ma'rifatliligi bilan belgilanadi. Agar u o'z atrofiga xushomadgo'y va xudbin kishilarni emas, balki donishmandlarni to'plab, mamlakatni ularga suyanib idora qilsa, el-yurtda tinchlik va obodonlik o'rnatiladi.

Shu bilan birga Sa'diy mamlakatning har bir fuqarosi, ayniqsa, yosh avlodlarning ilmsevar, mehnatsevar, axloq-odobi esa yuksak darajada bo'lishini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti, deb biladi. Uning «Bo'ston» asaridan o'rin olgan rivoyatlar va hikmatli so'zlar xuddi shu narsaga qaratilgan.

Sa'diy asarlarining katta ahamiyatga ega ekanligini yana shu narsadan ham bilsa bo'ladiki, ular uzoq asrlar mobaynida madrasalarda asosiy darslar sifatida o'tilgan.

Sa'diy tug'ilib, vafot etgan Sheroz shahridagi shoirning qabri madaniy Sharqning muqaddas ziyoratgohlaridan biriga aylangan.

«BO'STON» DAN

TAVOZE VA KAMTARLIK XUSUSIDA

Hikoyat

Bulutdan bir qatra tomib nogahon,
Dengizga tushdi-yu bo'ldi parishon.

Hijil bo'lib dedi: «Men kimman, zotan
Bu bor joyda etay men yo'qlikni fan.

Haqirona soldi o'ziga nazar,
Sadaf uni quchib bo'ldi jonparvar.

Falak ishi shunday kelib bu mavrid,
Sadaf ichra bo'ldi shohkor marvarid.

Baland bo'ldi pastlik qilib ixtiyor.
Yo'qliqqa ko'ndi-yu bor bo'ldi u bor.

Kamtarinlik odat aqlli erga,
Mevali shox boshi egilur yerga.

* * *

Mard ersang mardliging qilma ovoza,
Har o'yinchi to'pi topmas darvoza¹.

Qancha artma piyoz po'st ustiga po'st,
O'ylarki pistadek mag'zi bor durus.

Oqillardan hikmat so'z qolur yodgor,
Sa'diydan shu so'zni yod olmoq darkor.

Hikoyat

Sotardi asal bir shirin so'z kishi,
Ko'ngilni ovlardi uning royishi.

Shakarqamichidek beli belbog'dor,
Molini pashshadek talar xaridor.

Uning moli zahar bo'lsa ham tugal,
Talab ketishardi misoli asal.

Bir dag'al ko'z tashlab el g'avg'osiga,
Hasad bilan boqib bol savdosiga,

Ertasiga barvaqt bozorga keldi,
Asal sotmoq bo'lib, har yoqqa yeldi.

¹ Chovgan o'yiniga ishora.

Kattakon qovoqda boshida asal,
Badburush bashara, soʻzlari dagʻal,

«Asal ketdi» deya qildi mashmasha,
Boliga qoʻnmadi hattoki pashsha.

Kechgacha bir pullik qilolmay savdo,
Uyga qaytar zindoniy boʻlgandek tajang.

Xotini ustidan shoʻx soʻzlab kular:
«Badjahl qoʻlida asal ham zahar!»

Yomon xulq doʻzahga sudraydi oson,
Yaxshi xulq behisht-u jannatdan nishon.

Ariqda iliq suv boʻlsa shuni ich,
Dagʻal kishi yaxna sharbatidan kech.

Serzarda kishining manglayi tirish,
Haromdir undaylar nonini yeyish.

Badxulq qiyinlikka uchrar aksari,
Badxulqning doimo baxti teskari.

Boʻlmasa ham mayli mol, dunyo, puling,
Saʻdiy kabi boʻlsin asaldek tiling.



Savol va topshiriqlar

1. Tavoze va kamtarlik nima? Navoiyning tavoze toʻgʻrisidagi soʻzlari yodingizda bormi?
2. Saʻdiy tavoze va kamtarlikni tushuntirish uchun qanday hayotiy misolni keltirgan?
3. Shoir mardlikni qanday talqin etgan?
4. Keltirilgan ikkinchi hikoyatdan shoir kutgan maqsadni aytib bera olasizmi?
5. Ikkinchi hikoyatda kimlar va qanday kishilar toʻgʻrisida soʻz borgan?
6. Shoir qanday kishilar doʻzaxga va qandaylari jannatga ravona boʻlishlari mumkin, deb hisoblaydi?
7. Agar «Boʻston»dan olingan parchalarni yaxshi tushunmagan boʻlsangiz, ota-onangiz yoki oʻqituvchingiz yordamida ular mazmunini chiqarishga harakat qiling.

KAYKOVUS



«Qobusnoma» — Sharq badiiy madaniyatining XI asrga oid yodgorliklaridan biri. Uning muallifi Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashagan Gilon qabilasiga mansub bo'lib, 1021—1022- yilda tug'ilgan.

Kaykovusning otasi Shamsal Maoliy Qobus zamonasidagi barcha ilmlarni o'rgangan hamda san'at va adabiyotga katta e'tibor bergan hukmdor edi. Shunday oilada tug'ilgan Kaykovus ham o'z davrining har tomonlama bilimli va madaniyatli kishisi bo'lib yetishgan. U axloq-odob mavzusidagi, turli toifaga mansub kishilarning huquq va burchlari haqidagi «Qobusnoma» asarini 63 yoshida yozgan va o'g'liga bag'ishlagan.

Fors tilidagi ushbu asar Ogahiy tomonidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan va adabiyotshunos Subutoy Dolimov tomonidan zamonaviy o'zbek tiliga o'girilgan.

«QOBUSNOMA»DAN

Hunarning afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo'lish haqida

Ey farzand, ogoh bo'lkim, hunarsiz kishi hamma vaqt foydasiz bo'lur va hech kimga foydasi tegmaydi, xuddi tanasi bor-u, soyasi yo'q tikanli mug'ilonga o'xshaydi, o'ziga ham, o'zgaga ham foydasi tegmaydi. Agar kishi oliy nasab, asl bo'lsa-yu, hunari bo'lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan mahrum bo'ladi. Agar har kimda nasab gavhari ham hunar bezagi bo'lmasa, undan battarroq bo'ladi. Agar tabiating har

qancha asl bo'lsa ham, unga mag'rur bo'lmagil, chunki tan go'zalligi hunar bezagi bilan ziynatlanmasa, hech narsaga arzi-maydi. Masalan, debdilarkim, ulug'lik aql va bilim bilandir, nasl-nasab bilan emas. Ota-onang qo'yg'an otlariga mag'rur bo'lmagil, bu ot faqat tashqi ko'rinishdan boshqa narsa emas. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo'lgil. Agar o'zingni «Ja'far», «Muhammad», «Ahmad», «ustod» «xo'ja», «Bilimdon» atasang-u, shu otga loyiq bo'lmasang, bu ot emas.

Agar kishi nasl-nasabli bo'lsa-yu, hunar ziynati bo'lmasa, u kishi hech kimning suhbatiga munosib bo'lmaydi. Bu ikki gavharga ega bo'lgan kishini topsang, etagidan ushla, qo'ldan chiqarma, bunday kishi hammaning hojatini chiqaradi.

Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi, chunki... boshqa jonivorlardan odam o'n daraja ortiqdir va bu afzallik odamning badanida bordir: beshi (odam tanasining tashqi tomonida zohir bo'ladi) va beshi ichida yashiringandir. Beshta yashiringan narsalar shular: bir narsani yod qilmoq, hamisha esa saqlamoq, xayol qilish (tahayul), farq qila bilish va nutq; beshtasi odam tanasining tashqi tomonida ko'rinadi: eshituv, ko'ruv, hid bilish, totmoq, sezish. Bular boshqa jonivordlarda ham bor, ammo odamdagidek emas. Shunga ko'ra, odamzod boshqa jonivorlar ustidan hukmronlik qiluvchi podshodir. Shuni bildingmi, demak, yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u so'z yaxshi bo'lsa ham, yomon ko'rinadi. Behuda so'zlama, chunki foydasiz so'z ziyon keltiradi.

Agar (sening so'zlagan) nuqtigandan foydali bir narsaning hidi kelib turmasa, bunday so'zning aytilmagani yaxshi. Bilimdonlar deganlar: «So'z bir maydir, undan bosh og'rig'i (xumor) paydo bo'lur, so'z bosh og'rig'iga darmon ham bo'ladi».

Birov sendan bir narsani so'ramasa, javob bermagil, behuda so'zdan saqlan, biror narsani so'rasalar, to'g'risini aytil.

Sendan talab qilmasa, sen u kishiga pand-nasihat qilmagil, xususan, pand-nasihatni tinglamagan kishiga hech narsa demagil. Begonalar orasida kishiga nasihat qilma, ya'ni begonalar orasidagi nasihat — ta'nadir. Agar bir kishi qing'irlikka odatlangan bo'lsa, uning yoniga bormagil, chunki bunday odam to'g'ri yo'lga kirmaydi, ya'ni egri daraxtni chopib yo'nmaguncha to'g'ri bo'lmaydi.

Muloyim so'zga baxil bo'lmagil, xalq muloyim so'z eshit-

masa, soʻz shaydosi emas, balki mol-dunyo shaydosi boʻlib qoladi. Qattiq soʻz demagil, yaxshi soʻz degil, toki sen ham yaxshi soʻz eshitgaysan. Shoʻr yerga urugʻ sochma — hosil bermaydi, mehnating bekor ketadi, yaʼni bilmagan kishiga yaxshilik qilish shoʻr yerga urugʻ sochish bilan baravardir. Ammo yaxshilikka loyiq boʻlgan kishiga yaxshilikni ayamagil va u odamga ham yaxshilik qilishni oʻrgat. Bu toʻgʻrida shunday deganlar: kimki yaxshilik qilishni bilsa, u yaxshilik qilishni oʻrgatadi.

Ey farzand, yaxshilik qil va qilgan yaxshiligingdan hargiz pushaymon boʻlma, (agar pushaymon boʻlsang), u dunyoda jazo tortasan. Bir kishiga yaxshilik qilsang, u kishi bundan qanchalik xursand boʻlgan boʻlsa, sening koʻnglingga ham undan koʻproq shodlik va xurramlik yetishadi. Bir kishiga yomonlik qilsang, u qanchalik xafa boʻlsa, sen ham undan ortiqroq xafa boʻlasan. Sen bir kishiga yomonlik qilsang, senga ham yomonlik keladi. Demak, bu zamonda yaxshilik va yomonlikning mukofoti, albatta, boʻlur. Mening soʻzimni rad qilma. Odam butun umrida kishilarga yaxshilik yoki yomonlik qilgan boʻlsa, oʻylab ish qilishi lozim, chunki mening soʻzim toʻgʻri chiqadi. Agar mening soʻzimga amal qilishni istasang, hech kishidan yaxshilikni ayama, chunki yaxshilik foyda keltiradi.

Hikoyat. Men shunday eshitganman: Mutavakkil oʻsha vaqtda Bagʻdodda xalifa edi. Uning Fath nomli bir quli bor edi. U qul gʻoyat donishmand va odobli edi. Mutavakkil uni oʻziga farzand qilib oldi va oʻz farzandlaridan ham yaxshi koʻrardi. Bir kun Fath suvda suzishni oʻrganishni istadi va kemachilar kelib Dajla daryosida unga suzishni oʻrgatishdi. Fath yosh bola edi, suzmoqni yaxshi koʻrardi, oʻz-oʻziga dedi: «Men endi suzishni yaxshi oʻrgandim» va shu yoshligidan u suzishni ahd qilib, bir kuni kemachilarga aytmay, yolgʻiz oʻzi Dajla daryosining qirgʻogʻiga keldi va oʻzini suvga tashladi. Suv juda tez oqardi va Fathni oqizib ketdi. Fath suza-suza charchadi va suvning yuzida qalqib oqib borardi, nihoyat daryoning toʻlqini bilan qirgʻoqqa chiqib oldi. Daryoning qirgʻogʻida oʻngirliklar bor edi va bu oʻngirliklarni suv oqimi hosil qilgan edi. Fath mana shu oʻngirlikdan biriga tushib oʻtirdi va «jonimni halokat girdobidan qutqardim...» dedi. Yetti kun chuqurlikda oʻtirdi.

Fath suvga oʻzini tashlagan kuni Mutavakkilga: «Fath suvga tushib gʻarq boʻldi va suvda oqib ketdi, qirgʻoqqa chiqqan-chiqmaganini bilmadik» — deb xabar berdilar.

Mutavakkil kemachilarni chaqirib «Kimki Fathni(ning) o'ligi-
ni yoki tirigini keltirsa, unga ming dinor beraman» — dedi va:
«To Fathni ko'rmaguncha taom yemayman» — deb ont ichdi.
(Bu so'zni eshitib) kemachilar o'zlarini daryoga tashlab suzib,
har tarafga borib Fathni qidirdilar. Yetti kundan so'ng ittifoqo
bir kemachi mana shu o'ngirga borib, Fathni ko'rib shod
bo'ldi va unga dedi: «Sen shu yerda o'tiratur, men qayiq
keltirib seni xalifaning oldiga olib boraman». Kemachi to'g'ri
Mutavakkil xalifaning oldiga kelib dedi: «Ey amir al-
mo'minin, agar men Fathni sening oldingga tirik olib kelsam,
menga nima berasan?» Mutavakkil dedi: «Besh ming dinor
beraman». Kemachi qaytib borib Fathni tirik olib keldi, xalifa
va'da qilgan dinorni berdi va vazirga dedi: — Xazinani qaragil,
unda qanday mol bo'lsa, yarmini kambag'allarga bergil.

Xalifa shundan keyin dedi:

— Fath yetti kundan beri och, taom keltiring.

Fath dedi:

— Yo'q, men to'qman.

Xalifa dedi:

— Dajla suvi bilan to'ygandirsan?

Fath dedi:

— Yetti kun ichida har kun yigirmatacha non bir laganda
suvni(ning) yuzida oqib kelardi. Men chaqqonlik bilan undan
ikki-uch non olib qolib yer edim. Mening tirik qolishimga
sabab shu edi va har nonga Muhammad binni al-Xusayn al-
Askof deb yozib qo'yilgan edi, ya'ni bu nonlarni daryoga tash-
lagan kishi Xusayn kafshdo'zning o'g'li Muhammaddir.

Mutavakkilning farmonicha: «Har kuni Dajla daryosiga
non tashlagan kimdir, amir al-mo'minin uni qadrlaydi va bax-
tiyor qiladi» — deb shaharga jar soldilar. Oxirgi kunlarda bir
kishi kelib «Men edim» — deb o'zini ayon qildi. Xalifa dedi:
«Nima bilan isbotlaysan?»

U dedi:

— Isbotim shuki, har bir nonning betida Muhammad binni
Xusayn al-Askof degan xat bor.

Xalifa dedi:

— Isboting to'g'ri, qay vaqtdan beri daryoga non tash-
laysan?

U dedi:

— Bir yil bo'ldi.

Xalifa so'radi:

— Bundan maqsading nima edi?

U dedi:

— Yaxshilik qilib, daryoga tashla, bir kun senga foydasi tegar degan soʻzni eshitganim uchun, shu ishni qildim. Mening qoʻlimdan bundan boshqa yaxshilik kelmaydi, qudratim yetgani shu non boʻldiki, uni daryoga tashlab, qayerdan menga foyda kelarkan, deb koʻz tutardim.

Xalifa dedi:

— Nimaiki eshitgan boʻlsang, qilibsang va nimaiki qilgan boʻlsang, uning foydasini ham topding.

Xalifa unga koʻp mulk berdi va u boyidi, hurmatga sazovor boʻldi. Uning avlodi Bagʻdodda hali ham bor, al-Qoyibi-amrillohi zamonida men hajga borgan edim. Baytullohni ziyorat qilib, Bagʻdodga keldim va Bagʻdodda oʻsha kishining farzand-zodalarini koʻrdim, Bagʻdodda bu hikoyani qarilardan soʻradim va eshitdim.

Ey farzand, hech vaqt yaxshilik qilishni tark qilma va hamma vaqt xaloyiqqa yaxshilik qil, yaxshilikka teskari ish qilma, boshqa til bilan soʻzlama, boshqa koʻngil bilan oʻylama. Bugʻdoyni koʻrsatib, arpa sotma.



Savol va topshiriqlar

1. «Nasab gavhari» va «hunar bezagi» ifodalarini qanday tushunasiz?
2. Muallif nega hamma narsadan ham hunar va hunarli boʻlishni yuqori qoʻygan?
3. Muallifning fikriga koʻra, odam boshqa jonivorlardan qaysi fazilatlarini bilan farqlanadi?
4. Nega muallif hunarlar orasida «soʻz hunari»ga alohida eʼtibor bergan?
5. Muallif soʻzlovchiga qanday talablarni qoʻygan?
6. Asarda keltirilgan hikoyani tahlil qilib bering.



ABDULLA QODIRIY

(1894—1938)



Abdulla Qodiriy iste'dodli, qalbi butun va o'ziga xos ravishdagi shaxs edi. Sirtidan qaraganda, bosiq, kamgap ko'rinar, chunki u har bir so'zini tarozga solib ko'rar, og'ziga kelgan har bir so'zni aytavermas, sekin va gapi xuddi o'ziga xalal berayotgandek yoqinqiramay gap boshlardi.

OYBEK

Abdulla Qodiriy birinchi navbatda el orasida «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari bilan mashhur. Ulug' adib ayni paytda hikoya, qissa janrlarida, hajviyotda ham ajoyib asarlar yozgan. Ayniqsa, yoshlik yillari yaratgan «Jinlar bazmi», «Uloqda» hikoyalari bu janrning milliy adabiyotimizdagi nodir namunalari sanaladi.

«Uloqda» hikoyasida xalqimizning qadimiy udumlaridan biri — uloq voqeasi qalamga olinadi. Voqea, hodisalar xolis, beg'ubor o'smir tilidan hikoya qilinadi. Hikoya qahramoni Turg'un — endigina mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan, ot

minib el orasiga kirayotgan, hamma narsaga katta qiziqish, hayrat bilan qaraydigan, ammo kattalar turmushi, rasm-rusumlar, ro'y berayotgan hodisalar tagiga — ma'nosiga yetishga qodir bo'lmagan yigitcha.

Yozuvchi turmush hodisalarini ana shu yigitchaning nigohi orqali bamisoli tiniq oynadagidek bor holicha — musbat va manfiy tomonlari, zavq-shavqi, quvonch-u musibati, jamiki ziddiyatlari bilan ko'z oldingizda gavalantirib beradi.

ULOQDA'

(Hikoya)

I

Kecha dadamdan so'rab qo'yganim uchun bugun akam ham «kerak emas, borma» degan jekirishini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim.

Dadam bilan oyim:

— Oyog'ing olti, qo'ling yetti bo'lib qoldiyov! — deb kuli-shib qoldilar.

Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqqamni yalang'ochlab uyoq-buyog'ini qashlab chiqdim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi... Shuning bilan mening ko'nglimga: «Xudo xohlasa kelasi yilga bir uloqlar chopayki, hamma meni: «Turg'un chavandoz», deb atasin degan orzular tushadi.

Ulug' hayitdagi hayitlikka oldirgan mo'g'ul egarcha bilan g'alaticha qilib toychamni egarladim. Tog'amga yalinib-yal-pog'lanib oldirgan o'rus yuganni artib-surtib soldim-da, o'zim chetroqdan turib kam-ko'stini kuzatdim:

— Quyushqoni ham o'rnida, egar ham yaxshi qo'ngan, qorinbog'i ham jips, yugan ham to'ralarnikidek! Lekin umuldirig'ining yo'qligi biroz ko'nglimni g'ash qildi. Anchagina o'ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo'ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto'ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim.

Endi toycham juda ham gijinglab, xuddi to'ralarnikidek bo'lib ketdi. Uyoq-buyog'ini supurgandan keyin ustunga qan-tarib qo'ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulimni, o'rischa shimni, amirkon etikni, baxmal to'ppini kiyish... Ana shundan keyin otga minsak chin to'racha bo'lamiz-da!

¹ Bu hikoya 1915- yilda yozilgan edi. Bolalik davrimning yodgori bo'lgani uchun ortiqcha o'zgartirishlar kiritmadim (A. Q.).

Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiymoqchi bo'lsam, ko'zini ola-kula qilib: «Qaqshag'ir, kir qilasan, to'y-po'yga borganda kiyarsan!» — deb qarq'ay boshlaydi. Ozgina «shayton yig'isi» qilmaguningcha ish o'nglanmaydi. Bu gal ham o'shandog' yig'idan qilib olganimdan keyin, kiyimlarimni kiyib, shohi qiyiqchamni belimga bog'lab oldim. Oyimga bildirmasdan sekingina uyga kirib, dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqib, tashqariga chiqdim.

Xizmatchi go'sht keltirib turgan ekan. Otxonadagi qora qashqani ko'chaga chiqarib turishga buyurib, go'shtni oyimga kirgizib berdim-da, tashqariga qarab chopdim.

Oyim orqamdan:

— Kiyimlaringni kir qilma, toyingni qattiq choptirma, uloqchilar orasiga kirib, biror hodisaga yo'liqma, o'rtoqlaring bilan bir chetda turib tomosha qil! — deb javrab qoldi.

Xizmatchidan otni olib mindim. To'nimning etaklarini yig'ishtirib, qashqachamning choviga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi. Xizmatchining: «Ha, barakalla! Chavandoz!» degan tovushini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, jonivor qashqacham ko'tarib ketayozdi.

II

Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotganimda bir to'da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. Ularning ba'zilari akamning o'rtoqlari edilar, men bilan so'rashdilar. Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men ertalab uloqqa ketganligini aytdim.

— Bizning Mahkamboy uloqqa juda ham ishqiboz-da! — dedi haligi yigit.

— Yo'l bo'lsin, boyvachcha? — deb so'radi mendan yana beri. Men uyalinqiradim:

— Uloqqa! — dedim.

— Barakalla, chavandoz! Barakalla, Turg'un chavandoz! — deyishdi ular. Ayniqsa meni «chavandoz» deb atashlari juda ham kayfimni keltirib, ichimdan: «Otangga rahmat», — deb qo'ydim.

Biz bir durkum otlig boramiz. Jonivor toycham boshqa otlardan qolishmaydi va goho ularning otlaridan o'tib ham ketadi. Toycham o'ta qolsa: Otingiz juda ham yo'rg'a ekan-da, boyvachcha», — deb menga piching otishadilar.

Ha kim har narsadan bahs qiladi, orada menga ham so'z qotib qo'yadilar. Men uyalaman. So'z urinib yana Mahkam akam ustida to'xtaldi:

— Shu choqqacha ko'p uloqchi ko'rdim, lekin Mahkamdek uloqqa serzavqini ko'rmadim! — dedi bittasi.

— Mahkam boyvachchanning ota-bobosi uloqchi bo'lib kelgan-da! — dedi Sobir tegirmonchining o'g'li.

— Axir, o'n ikki yashar ukasini ko'rmaysizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi!

Bu so'zdan mening a'zoyi badanim jimirlashib ketdi va oz qoldiki kulib yuborsam.

— Dadam Mahkamning bobosining uloq chopshini gapiraversa kishi hayron qoladi, — dedi yana bir mo'ylovi shopdek yigit, — yuz, ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg'iz uloqni ajratib chiqar ekan-da!

— U vaqtning odamini uloqning piri desang-chi! — dedi Sobir tegirmonchining o'g'li.

— Oting yaxshi va bilagingda kuch serob bo'lsa, sen ham uloqning piri bo'lasan! — dedi yana biri.

Men bobomning maqtovini eshitib, kekkayib bormoqdaman... Shu paytda orqamizdan ot shatalog'i eshilib, qayrilib qaragan edik, oldiga bir ola echkini o'ngargan, ko'kragi ochiq, yaktakchan, saman otliq bir yigitni ko'rdik. U bizga yetib to'xtadi va hamma bilan ot ustida turib so'rashdi.

— Bu hafta yordamlashasiz-da, karvon! — dedi kulimsirab To'g'on aka.

— Ha, bo'lmasam-chi, sizdek og'aynilarga ko'maklashmasam bo'ladimi! — dedi haligi yigit va to'zumsizlandi: — Qani, ildamroq yuringlar!

Yigit bilan birgalashib ketdik. Biroz borgach, bizning otimizning oyog'i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi. Biz, faqat uning: «Men tezroq boray», — degan so'zini eshitib qoldik.

Endi so'z haligi chavandozning oti to'g'risida boshlandi.

— Valadning oti juda ham chopqir-da, — dedi To'g'on aka, — uloqchi bo'lganingga yarasha shundaqangi oting bo'lsa!

— Xuddi bodirafrafdek' uchadi! — dedi mo'ylovi shopdek yigit.

Shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. Kulgi sababiga tushunmasam-da, men ham ularga qo'shilib kulishdim.

— Bodirafrafmi, bodisarsar? — deb so'radi undan allakim.

¹ Shamoldek demoqchi.

III

Biz, akamga «Do'mburovot» guzarida uhradik. Akamlar samovarchiga palov damlab qo'yish uchun o'zaro pul yig'ib berishgandan keyin, biz yana yo'lga tushdik.

Dalaning ko'chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko'rmagani uchun ikki gaz keladigan bilq-bilq guppon tuproq, yigirma-o'ttiz uloqchi birdaniga yo'l bosib, qaysi otini choptirib, qaysi lo'killatib boradi.

Ko'chani to'zon qoplagan, kishi kishini tanimaslik holga kelgan. Men bo'lsam uyga qaytib borganimda: «Kiyimlaringni pes qilibsana!» — deb oyimning qarq'ishidan qo'rqib boraman.

Talaygina yo'l bosgandan keyin uloq chopiladigan joyga yetdik. O'zi, to'rt tarafi ko'z ilg'amaytirg'on darajada katta va sayhon bir yer ekan. Bu joyga juda ko'p xalq yig'ilgan, bundagi uloqchi otliqlar bilan tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo'q.

Katta sadaqayrag'ochning tagida ikkita bordondek samovarga o'tin qalab qaynatadilar. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to'rt qop bodringni bir-birisiga tirab qo'yib: «Mirza qiron bodiring! Kasir-kusir bodiring!» deb maqtashadilar.

Akamlar sadaning ostiga — samovarchining palosiga otdan qo'ndilar. Kun qizig'ida turish qiyin bo'lgani uchun, men ham toycham bilan sadaqayrag'ochning bir bag'riga borib turdim. Tevarakdagi kishilar bir menga va bir toychamga qaraydilar. Men uyalib toychamning yolini tarayman. Tevaragimdagi kishilar orasida vag'ir-vug'ur gap, to'zumsizlanib uloqning boshlanishini kutadilar. Birisi: «Bugun uloq qizimaydi», — desa, ikkinchisi: «Bekor aytibsana, bugun uloq juda ham qiziydi, chunki Salim bilan Murod chavandozlar kelar emish», — deydi. Yana biri: «Ha, ha! Agar Salim kelsa, uloq juda ham qizir ekan!» — desa, allakim: «Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko'tarmaydi, hayt desa bas!» — deydi. Tag'in birov: «Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko'rinmay qoldi, ana o'shanisiga chavandoz bolasi bas kelolmas edi!» — desa, yana allakim: «O'lma, o'lma! Men ham shuni ko'pdan beri ko'rmayman, girdig'umdan kelgan, yerdan bichib olgandek yigit-a?» «Balli, balli! Otangga rahmat, xuddi o'sha yigit, qancha so'rog'lasam hech kimdan daragini bilolmadim!»

Shu yigitning ustida anchagina janjal bo'lib oldi, biri: «O'lib ketgan», — desa, ikkinchisi: «Tirik!» — deb qichqiradi. Ularga yana birisi qarshi turib: «Ot bosgan, doktorxonada o'lgan!» — deydi, so'firoq bir odam: «Birovga yomon nafas qil-

manglar!» — degan edi, allaqaysi kishi: «O'lsa o'lgandir, bunga nima janjal!» — deb qo'ydi, tag'in birov: «Bekor ham o'ltirib-miz-da!» — deb kuldi. Yana: «Sirasi-sirasi!» Tag'in shovqin-suron, yana: «Ha, ha!» Tag'in: «Yo'q, yo'q»...

Bir kishining: «Ana uloq keldi!» deb yuborishi bilan hamma tip-tinch bo'lib, uloqqa qarab qoldi. Yana bir ozdan keyin: «Ulog'i yosh ekan! Yaxshi chavandozga uchurvoq ham bo'lmaydi!» «Shunisi tuzuk, shunisi!» — degan janjal boshlagan ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o'ynatib kirishi hammaning tovushini o'chirib qo'ydi va sekin-sekin: «Salim chavandoz!» «Murod chavandoz!» degan shivirlashishlar eshilib qoldi.

— Qorasi Salimmi, cho'tiri?

— Salimning bilagi kuchlikka o'xshaydi!

Chavandozlarning birisi ko'k chovkar va ikkinchisi ola otga mingan bahaybat chapani yigitlar edilar. Bular kelgandan keyin xalq chidamsizlanib qoldi:

— Ana endi chin uloq ko'rasan! — deyishadilar.

— Bukun qiyomat ulog'i bo'lar ekan! — deb boshlarini chayqatib qo'yadilar.

— Murodning otini ko'r, xuddi qanoti borga o'xshaydi.

— Ko'k chovkarni aytasanmi, to'ruqnimi?

— Har ikkalasiga ot yetmaydi, ikkovi ham yaxshi zot!

— Qulog'i chimirilgan ot chopqir bo'ladi!

— Quloqda gap yo'q, gap zotda!

— Yo'q, yo'q! Serkishnovda, o'zim sinab ko'rdim!

— Qora ot chopqir bo'ladi, deganlar, qorasi yaxshi, qorasi!

— Dadam rahmatlik ot olganda tuyog'iga diqqat qilar edi, gap tuyoqda.

Bahslashadilar, har kim o'z yonidagi bilan talashadi. Men ham shu to'g'rida o'ylab, ularning aytgan nishonlarini qora qashqamdan qidirib topsam suyunib, topmasam kuyunib tura-man.

Mahallamizdagi o'rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqilar ham otlarini lo'killatib kelib qoldilar. Biz to'rtovimiz otlarimizni qator qo'yib, uyoq-buyoqdan gaplashib turdik. Nurxon dasidan ola yo'rg'ani so'raganda qilgan bahonasini aytib kuladi. Haydar soqov saman otining yo'lda Shokir mishiqining baytaliga qarab kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladi. Kulishamiz. Shokir bo'lsa burnini torta-torta: «Uyalib ketdim, bundan so'g'un biya minmay-man», — deb qizarib-bo'zardi. Otimning umuldirig'iga ularning havaslari kelib, bahosini so'rashdilar, men: «O'n besh

tanga», — deb, kumush qamchini ham ko'rsinlar uchun o'ynagansimon egarning qoshiga «taq-taq» urib qo'yaman. Ular: «Qani, qani, kumushmi?» — deb qamchinni qo'limdan olib ko'radilar. Men sekingina boshimni qimirlatib, o'zimda allani-ma sezinaman. Ularning otlariga, o'zimiriga, kiyimlariga, kiyimimga qarab, o'zimni ulardan allaqancha yuqorida ko'raman. Haydar soqov tutila-tutila... «Kelinglar, bir choptiraylik», — dedi. Nurxon ko'nmasa ham tortib olib ketishdi. Ularning orqasidan Shokir ham baytalini yugurtirdi. Chidab turib bo'lmas ekan, ular orqasidan toychamga bir qamchi berib yuborgan edim, jonivor ikki yamlab bir yutub, o'n odimda ularni yo'lda qoldirib ketdi. Anchagina uzoqlashganimdan so'ng orqamdagilarga qaragan edim, hammaning ko'zida men ekanman. Yana qattiqroq haydadim. Qirning bir chekkasiga borib otimni to'xtatdim, talay vaqtdan keyin ular otlarini lo'killatishib yonimga yetdilar. Bu yerda otlarimizning chopqirligi to'g'risida so'zlashdik. Nurxon, otining chopmasligiga akasining issiq holda suv berganini sabab qilib ko'rsatdi. Haydar soqov bo'lsa Eson ko'knorining o'g'lini so'ka-so'ka:

— Bozorga un uchun borayotganimda bexos tom boshidan guvala tashlab yubordi. Shundan beri qamchi bilan yuz ming ursang ham jonivor qulog'ini chimirib, hurkib tura beradi! — dedi.

Mening qashqacham to'g'risida, Haydar aytadi: «Sening, — deydi, — otingga hech ot bolasi yetmaydi!» — deydi. Nurxon aytadi: «Otdan sening baxting bor ekan, lekin, — deydi, — yem-hashakni o'zing ber, xizmatkorga ishonsang otingni buzib qo'yadi, o'rtoq, men senga bir aytib qo'ydim», — deydi.

Shu yerda uzoqqina so'zlashib turgandan keyin yana otni keyinga qarab qo'ydik. Tag'in ulardan o'zib ketdim. Xalqqa yaqinlashgandan keyin «meni ham tanib qo'ysinlar» deb qashqachamni ust-ustiga qamchilashim bormi, shamol-da, shamol... endi xalq bir o'zimga va bir qora qashqamga tikila boshladi. Men bo'lsam, «meni endi taniysizlar!» deb toyimning yolini qamchi sopi bilan tarab tura berdim.

IV

Tomoshachilar orasida yana ola-g'ovur qo'pti: «Ana, uloqning solig'ini yig'ayotibdilar!», «Uloq hozir boshlanadi!», «Murod chavandoz ham turdi!», «Salim qalpog'ini kiydi!»,

«Ro'zi qassob» uloqni bo'g'izlamoqchi, pichog'ini qayrayapti!», «Boyvachchalar ham qo'zg'alishdilar!», «Salim choponini yechmoqchiga o'xshaydi!», «Hay barkalla, shovvozlar!»

O'rtoqlarim bilan men ham uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. Chavandozlarning qaysisi to'nini yechmoqda, ba'zisi otining ayilini tortmoqda va qaysi birovlar uloqning solig'ini bermoqda edilar. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to'nini menga berib, o'zi o'rtaga ot o'ynatib ketdi.

Uloqchilar birin-sirin o'rtaga g'uj bo'la boshlagan bo'lsalar ham, hanuz uloq o'rtaga kirmagan edi. Hamma tomoshachilar sabrsizlanib: «Shu tobgacha tuya bo'g'izlasa ham bo'lar edi, ulog'i yaxlab qoldimi?» — deyishdilar.

Oradan talay vaqt o'tgandan keyin, bo'g'izlangan ulog'ini oldiga o'ngarib Orif sarkor va uning orqasidan boyagi mashhur chavandozlar qalpoqni chakkaga qiya qo'yib, egarga qiyshiq o'ltirib o'rtaga kirdilar. Tomoshachilar uloqni ko'rganlari on: «Xoh, jonivor, bormisan!» deyishdilar.

Oradan allakim: «Uloqning qoni yaxshi yuvildimi?» — deb so'ragan edi, Orif sarkor:

— Xotirjam! — dedi va uloqni shalq etib yerga tashladi, so'ngra xalqqa yaqinroq kelib: «Og'aynilar! Bola-chaqalarni chetga chiqaringlar, ot oyog'ida qolgudek bo'lmasin, o'zlaring ham ehtiyotroq joyda turinglar, hayvon bilan bo'lgan ish qiyin!» — deb aytdi.

Orif sarkor xalqdan fotiha olib, otini yugurtirib to'daga ketdi. Tomoshachilar to'dadagi o'z yaqinlariga: «Bukun g'ayratlaringni ko'ramiz-da!» — deb baqirishdilar.

Uloq boshlandi...

Birisi oladi, ikkinchisi tortadi. Ikkinchisining yoniga uchinchisi va to'rtinchisi qo'shilib, birdan sakkiz tomonga tortqilashadilar, oraga chetdagi uloqchilar ham siqilishib kirib, yana uloqni buydalashadilar. Juda qiziq... har kim uloqni o'z taqimiga bosish harakatida, lekin uloqning dumidan, oyog'idan, yolidan tortuvchilar juda ham ko'p. To'dadan olib chiqish juda qiyin. Ba'zan uloqni to'dadan olib chiquvchi ham ko'rinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug'urchuqdek yopirilishib o'n-o'n besh qadamda tutib oladilar. Yana tortish boshlanadi.

Bu yoqdagi tomoshachilar: «Taqimga bos, taqimga!», «Otning boshini qo'y, choviga qamchini shig'ab ber!», «Bo'sh kelma, mahkam tut!», «Yuganini bo'shat, qamchingni tishlab ol, yoningga alahsima!», «Olding, olding!», «Berma, chapga burul, chapga!», «Tut, qo'yma!», «Voy to'ymagur, berib yubor-

ding-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisan-da!», «Oting harom qotsin, otmi, eshakmi — bu harom o'lguring?»... deb har xil tovushda baqirishadilar. Uloq yerga tushib ketib qolsa, tomoshabinlardan ba'zisi yugurib borib yerdan uloqni azod ko'tarib oladi, ukasimi, oshnasimi — ishqilib birorta yaqin kishisiga tutqizmoqchi bo'ladi. Lekin boshqa chavandozlar uloqni undan olmoqchi bo'lib ustiga duv yig'iladilar, u bermaslikka tirishadi, boshqalar o'rtaga sanjob qilib siqadilar. Bechora anchadan keyin oqsoqlanib yoki qo'lini silab o'rtadan arang chiqib ketadi.

Otasi bolasini, akasi ukasini tanimaydi, chang-to'zon, terlangan, pishilgan, har kim uloqni taqimiga bosish qayg'usida. Bosh yorilib, ko'z chiqqan bilan, otdan yiqilib qo'li singan bilan parvoyi-falak... Ishqilib, uloqni taqimga bosilsa bo'ldi... Taqimga bosish o'zi juda ham nash'alik-da!

Lekin taqimga bosish har kimga ham muyassar bo'lavermaydi, taqimga ko'proq bosuvchilar boyagi chavandozlar; azoblanib, o'layozib bo'lsa ham uloqni taqimga bosgach, otga qamchi berib ellik-oltmish odim nariga qochib boradilar-da, yana orqadagilar tarafidan o'ralib olinadilar. Yana tortish.

Uloq boshlanganidan biror soat vaqt o'tgan edi. Birdan uloqchilar suv quygandek tinchib, tortish o'rnida to'planishib qoldilar. Biz, otliq-yayov tomoshabinlar ham hammamiz o'rtaga yugurishdik. Men keyinroq borganim uchun otliq-yayov xalq o'rtani sirib olgan edi. Men chekkada qoldim. Har qancha urinsam ham o'rtaga kirishning epi bo'lmaganidan keyin odamlarning og'ziga qarab turdim. Lekin uloqchilar orasidagi hodisa hammaga ham noma'lum edi. Har kimning yuzida taajjub va bir-birisidan: «Nima gap?» — deb so'rashar edi.

Bir necha daqiqadan keyin: «Qimirlatmang, qimirlatmang!» — degan tovush eshitilib, xalq yana taajjubga tushdi.

— Nari bo'linglar, hovv! — deb o'rtadan birov baqirdi.

Xalq bir chetlik bo'lib, yo'l ochdi.

— Nima gap, nima gap?

— Hech narsa emas... Esonboyni ot bosipti!

— Qo'rqinchli emasmi?

— Yo'q, sag'al.

Kishilar bir-biriga qarab: «Falokat-falokat», — deyishdilar. Nari tur-beri tur qilib, besh-olti kishi otga bosiriq bo'lganni o'rtadan olib chiqdilar. Kishilarning ko'magi ostida keltirib, sadaning ostiga yotqizdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi, bittasi o'ziga

kelarmikan, deb o'lgudek bo'lib yotgan Esonboyning yuziga suv sepib ko'rgan edi, qimir etmadi.

— Besh-olti otning tagida qoldi-da, bechora!

— O'nta otning tagida qolsa ham hech gap emas-ku, biroq qaltisroq joyidan bosganga o'xshaydi...

— Umri boqi bo'lsa hech gap emas.

«Bechora bulturgi hayitda menga yarim so'm hayitlik bergan edi. Ilohi yaxshi bo'lsin», deb ko'nglimdan o'tkazdim.

Arava keldi. Esonboy akani aravaga yotqizdilar. Akam uch-to'rtta o'rtoqlari bilan arava yonida Esonboyning kuzatib shaharga jo'nab ketdi.

— Sho'r paxta qilsin, kepak qizdirib bossin, — deb xalq chuvurlashib qoldi.

Ular jo'nagandan keyin uloq yana boshlanib ketdi. Men uloq tugaguncha tomosha qilib turdim. Lekin yaxshiki endi hech kimni ot bosmadi.

* * *

Kecha meni ot qoqqan ekan, o'rnimga kirishim bilan tirrakdek qotib uxlabman. Ertalab oyim: «Tur, tur tezroq, dadang kelsa nah o'ldiradi!» — deb ustimdan ko'rpamni tortib tishladi. Men uyquli ko'zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» — deb so'ragan edim, oyim:

— Esonboyning janozasida! — deb javob berdi.

Mening uyqum o'chdi.



Savol va topshiriqlar

1. Hikoyadagi bosh personaj Turg'un chavandoz tabiatiga xos xususiyatlar ifodasini aniqlang, ularni daftaringizga ko'chirib oling.

2. Ko'pchilik — olomonning uloq voqeasiga munosabati tasvirini kuza-ting. Olomon kayfiyati, gap-so'zlari Sizda qanday fikr uyg'otdi?

3. Uloq jarayoni manzarasining musbat va manfiy jihatlarini nimada deb o'ylaysiz?

4. Uloqda Esonboy degan yigitning halokati, unga odamlarning munosabati tasviri nimani anglatadi?

5. Uloq voqealari asnosida Turg'un ruhiyatidagi jarayonlarni kuzating. Esonboyning o'limi xabarini eshitgan mudroq Turg'un «Mening uyqum o'chdi» deydi. Bu so'zlar Sizningcha, nimani anglatadi?

6. Xalqimiz udumi — uloq voqealari tasvirlangan yana qanday badiiy asarlarni bilasiz?

G'AFUR G'ULOM

(1903—1966)



G'afur G'ulom chindan ham, ulug' zakovat egasi edi. Buning isboti — shoirning jo'shqin va dono she'riyati, buning isboti — G'afur G'ulomning tug'ma tafakkur sohibi ekanligi, buning isboti — yozuvchi G'afur G'ulomning hech bir adibnikiga o'xshamaydigan chinakam milliy, xalqchil prozasi — nasriy asarlaridir.

Abdulla ORIPOV

G'afur G'ulom tarjimai holida otasi G'ulom Mirza Orif o'g'lining kasbi-kori xususida ma'lumot berib: «Kalas atrofida 5—6 tanob yeri bo'lib, unga bug'doy, jo'xori, mosh deganday, don-dun ekar ekan. Qolgan vaqtlarda umrini shahar ichida o'tkazar ekan», — deb yozadi.

Shu tariqa adibning bolaligi Toshkent shahrida, shahar yaqinidagi Kalas atrofi qishloqlarida kechgan. 9 yoshida otasidan yetim qolgan G'afurning bolalik yillari mashaqqatlar ichida kechdi. «Qilmagan xizmatim, tutinmagan ishim qolmadi»; «Men yetim o'sganman, oh, u yetimlik... Voy, bechora jonim, desam arziydi» deya hasrat bilan eslaydi shoir o'sha yillarni.

Bolalik taassurotlari adib shaxsiyatida, hayotida chuqur iz qoldirdi. Uning qator she'rlari, nasriy asarlari, jumladan, mashhur «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi, «Shum bola» qissasi o'sha bolalik xotiralari asosida yozilgan. Bu asarlarga

xos eng muhim xususiyat shuki, mushkul bolalik sarguzashtlari, xalq hayotining ayanchli manzaralari ertaknamo tarzda, xalqona kulgi — yumor, hazil mutoibalarga yo'g'rilgan holda ifoda etiladi. Quyida «Shum bola» qissasidan keltirilgan parchadagi tasvir — Shum bolaning Sariboyni laqillatish voqeasi «Uch yolg'onda qirq yolg'on» ertagini yodga tushiradi.

SHUM BOLA VA SARIBOY

(«Shum bola» qissasidan)

— Boy buva, — dedim, — endi-ku, savdomiz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda hamma aybini aytib sotsa halol bo'lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo'yganim yaxshi.

— Xo'sh, nima aybing bor? Siyg'oqmisan, tutqanoqmisan?

— Yo'q, aybim bu emas, aybim shuki, yoshligimdan odat bo'lib qolgan, har zamon-har zamonda beixtiyor yolg'on gapirib qo'yaman, shunda koyimasangiz bas. Xizmat haqqi mayli, siz aytgancha bo'lsin.

— Obbo bachchag'ar-ey, quv ko'rinasan-a, ha, mayli-mayli. Lekin ko'p yolg'onlamagin!

Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovich qo'yaman, to'kilgan olmalarni terib, qoqi qilaman. Bog' qo'riyman. Ba'zida xo'jayinga pul zarur bo'lib qolsa xom-xatala olmalarni aravaga ortib, Darvoza, Sariog'och atroflardagi bug'doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman. Molga to'g'rab bersa mol yemaydigan olmalarni cho'lda, bug'doy o'rib turgan dehqonlarga bir qadog'ini ikki qadoqdan bug'doyga alishaman.

Sariboy bo'lis haligacha xo'jayinlarimning ichida eng xudo urgan badbaxti, ziqnasi edi.

Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda «innaykeyin» deb so'raydigan odati bor edi. Ana shu «innaykeyin»ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo'rg'onda ko'rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, unga «qandil olma pishibdi», deb aytasangiz, u sizga «innaykeyin», deb savol beradi. Siz albatta: «Shu pishgan olmani terish kerak», deysiz. Yana xudo qarag'agan «innaykeyin», deydi. Xayr, «Sotish kerak», deysiz. Yana «innaykeyin», deb so'rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o'zi tamom. «Innaykeyin» degan savolga hech hojat yo'q. Ana shunaqa o'rinda javob topib bera olmaysiz-da, boydan kaltak yeysiz.

Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontor bilan qimor o'ynab, uning mevazorlari, ichki-tashqi qo'rg'onchasi, butun dov-dastgohining hammasini yutib olibdi. Yusuf kontorning bog'i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bizning xo'jayinga ma'qul tushib qolib, darrov o'sha yerdan bitta do'ndiqqina qirg'iz xotinni olib, bir borgancha o'n-o'n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo'lib qoldi. Olmalar pishib, to'kilib ketayotibdi, xo'jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga yem-xashak yo'q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan «innaykeyin» savolidan hamma qo'rqadi.

Bir kun kechqurun xizmatkorlar bilan o'tirib qanday qilib boyni o'z joyiga chaqirib kelish to'g'risida maslahatlashdik ham kim borishini o'ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toinki «innaykeyin» dardidan keyin boyning o'zini tinkasi quriydigan bo'lsin.

Chek menga chiqdi.

Erta bilan bir otga minib, boyning oldiga qarab yo'l soldim. Yo'l-yo'lakay ming xil xayollarga botib o'ylayman. Qanday qilib «innaykeyin»iga javob topish kerak?

Yetib borib otdan tushdim. Boy shiyponda kalla go'shti bilan nonushta qilib o'tirgan ekan. Salom berib, sekingina poygakka tushib o'tirdim.

— Xo'sh?!

— Shunday o'zim, sizni sog'inib, bir ko'rib kelay deb kelgan edim.

— Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandursan, biror ishing bordur, xo'sh, nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo'ygan shartim esimga tushib qoldi. «Shart qilgan yolg'onni endi gapirmasang, qachon gapirasan», dedim-da, gap boshladim:

— Anavi, haligi, dandon sopli pichog'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so'zdan keyin menga «innaykeyin» savoli yog'ila boshladi.

— Xo'sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro'zg'orda mening pichog'imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

— Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.

— Iy-ya?! — dedi boy. — Tozining terisini mening dandon sopli pichog'imda shilasanlarmi, o'zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

— Shoshib qoldik-da, o‘lib qolgandan keyin, bekor ketmasin, deb terisini shilib oldik.

— Nima qilib o‘ldi?

— Harom o‘lgan otning go‘shidan ko‘p yeb qo‘ygan ekan, bo‘kib o‘ldi.

— Harom o‘lgan ot go‘shiti qayoqda ekan?

— Ha, o‘zimizning to‘riq qashqaning go‘shitini yeb o‘ldida, begona ot emas.

Boy alanglab qoldi.

— Hay-hy, bola, og‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o‘ldi dedingmi? Xo‘sh, to‘riq qashqa nima qilib o‘ldi?

— Xomlik qilib o‘ldi.

— Nimaga xomlik qiladi?

— Hech aravaga qo‘shilmagan ekan, biz uni aravaga qo‘shib, suv tashigan edik, zo‘riqib o‘ldi.

— Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan-bir boqib qo‘ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la‘natilar?

— Ha, o‘t tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, duch kelganini qo‘shib, ishqilib bir chelak bo‘lsa ham suv tashiy beradi-da!

Boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmadi. Og‘zidan olib qo‘ydi-da, baqraygancha menga tikilib:

— O‘zing jinni-pinni bo‘ldingmi? O‘t tushdi deganing nima deganing, qayerga o‘t tushdi, nimaga tushadi?

— Sog‘man, xo‘jayin, o‘t avvalo og‘ilxonaga tushdi. Ot sho‘rliklarning hammasi nobud bo‘lib ketdi-da, xo‘jayin.

— Iy-ya, og‘ilxonada o‘t nima qiladi?

— Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, o‘t ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak.

— Axir omborda o‘t chiqadigan narsa yo‘q-ku? Bug‘doy bor edi, to‘g‘ri, guruch bor edi, to‘g‘ri, yog‘ bor edi, gazmol bor edi, to‘g‘ri, shulardan o‘t chiqadimi?

— Berdisini aytguncha shoshmang, xo‘jayin, omborga qo‘rg‘ondan o‘tibdi. Og‘ilxonaga ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketgan-da.

— Iy-ya, hali qo‘rg‘on ham yondi, degin!

— Qo‘rg‘on ham yondi, ombor ham yondi, og‘ilxona ham yondi, otlar ham o‘ldi, itingiz ham o‘ldi, pichog‘ingiz ham sindi.

— Qo‘rg‘onga qayerdan o‘t ketibdi?

— Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.

— Hoy, o‘zing jinni bo‘lib qolibsan, o‘g‘lim! Axir, mening

dargohimda shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o'zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fanorlar qayoqqa ketibdi, kerosinni bo'lsa bir yilga yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo'yg'an edim. Nimaga sham yoqasanlar!

— Xo'jayin, — deyman, — o'zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshlik o'likning arvofiga sham yoqmay, lampa yoqiladimi? Kelgan arvoq nimaning shu'lasini bilan o'ynashadi. Axir, kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo'yiladi. Kelgan arvoq avval shoxga qo'nib o'tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirpirab turgan shu'lasini bilan o'ynashadi.

Mening entak-tentak so'zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go'yo shu gaplarni eshitgisi kelmaganday, sekin, qo'rqa-pisa so'radi:

— Kim o'ldi?

Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg'ular chiqarib, ho'ngrab yig'lab yubordim:

— Kenjatoy o'g'lingiz Bo'riboyvachcha, terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushib, bir marta «dada», dedi-yu, «g'iyq...» etib jon berdi.

Boy gaplarimning keyingi jumllarini eshitdimi, eshitmadimi — bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yordi-yu, soqolini yulib, dodlab yig'lamoqqa boshladi. Men ham qo'shilishib yig'lar edim.

Bir nafas ayyuhannos solib yig'lagandan keyin men to'xtadim, boy ham to'xtadi. Boyning juda ham o'pkasini uzib yuborganimdan endi uni yupatish uchun o'zimdan bir gap to'qimoqchi edim.

— Xo'jayin, — dedim, — xudo berardan qismasin, xafa bo'lmang, bordi-yu, o'g'lingiz o'lib, uyingizga o't tushgan bo'lsa, otlar o'lgan bo'lsa, it nobud bo'lgan bo'lsa, pichoq singan bo'lsa, hammasining o'rnini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelganman.

Boy hiqillab turib so'radi:

— Xushxabaring qursin, padar la'nat, qanaqa xushxabar?

— O'rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziydigan bitta o'g'ilcha tug'dilar.

— Iy-ya! — dedi boy ko'zlarining shox soqqasi chiqquday, — Adol opang hali erga chiqmagan-ku!

— Biz ham shunisiga hayronmiz-da, xo'jayin. Xudo bera-man desa, erga tegmasa ham berar ekan. Bolani ayting-a, bolani, nabiraginangizni ayting-a, xo'jayin. Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo'yg'anday o'shaning o'zginasi.

Boy ortiq chidab turolmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o'rimidan yeydigan kaltakni nasiya qilib jo'nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin tulpor saman otda barlari osilib ketgan, alpang-talping, bir ko'zi yerda, bir ko'zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab, yig'lab boy kelib qoldi.

«Yana biror falokat yuz berib qolmasin», deb o'zinni chetga oldim. Boyning yig'lab kelishini uy ichlari eshitib, ular ham «bir balo bo'lipti shekilli», deb uydan yig'lab chiqqa boshladilar. Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi.

Yig'i tamom bo'lgandan keyin, bir-birlarini anglashib, surishtira boshladilar. Keyin ma'lum bo'lishiga qaraganda, na ot, na it o'lgan, na qo'rg'onchaga o't tushgan, na pichoq singan. Bo'riboyvachcha bo'lsa so'lakayini oqizib o'zi chiqib qoldi.

O'sha kuni men ko'rinmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chalpak qilib ko'tartirib olib keldi. Avval qurtakka qilib yigirma qamchini bosh-ko'z aralash yedik. So'ngra so'radi:

— Hoy itdan tuqqan, bu qilig'ing nimasi?!

— Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo'jayin, har zamonda bir yolg'on gapiraman, deb.

— Bu o'sha yolg'oningmi?

— Lekin hammasi emas edi.

— Agar hammasi bo'lmasa, butun yolg'on qilsang, men xonavayron bo'lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la'nat seni, qorning oshga to'ymasini, juvonmarg bo'!! Haydang bu kaz-zobni!



Savol va topshiriqlar

1. Sariboy qanaqa odam?
2. Asardagi bu odamning fe'l-atvori, qiliqlari, so'zlash tarzi ifodalangan o'rinlarni aniqlang.
3. Sariboy tabiatiga xos laqmalik asarda qay tariqa namoyon bo'lgan?
4. Shum bolaning Sariboyini o'z yolg'onlariga ishontirishi, bu boradagi topqirligi, so'zga chechanligi nimalarda ko'rinadi?
5. Dandon sopli pichoqning sinib qolishidan boshlangan yolg'onning keyingi tadriji — bosqichlarini aniqlang.
6. Yolg'on so'zlash aslida gunoh. Biroq Shum bolaning yolg'onlari haqidagi fikringiz qanday?
7. Shum bola va Sariboy orasidagi bu qiziq hangomani eslatadigan yana qanaqa asarlarni bilasiz?



OYBEK

(1905—1968)



Oybek tarixiy va zamonaviy romanlar yozishda, oʻtmish va hozirgi zamon odamlarini chizishda bab-baravar mahorat egasi edi. Umrining oxirida, kasalga chalinib qolgan paytda ham uning isteʼdod shami soʻnmadi. U lirik va epik asarlar yaratib, moʻjiza koʻrsatdi.

Mirkarim OSIM

Musa Toshmuhammad oʻgʻli Oybek asosan katta yoshdagi kitobxonlar uchun asar yozgan buyuk shoir va adibdir. Uning «Qutlugʻ qon» va «Navoiy» romanlari oʻzbek adabiyotining, xuddi «Oʻtgan kunlar» romani singari, shoh namunalari hisoblanadi.

Oybekning butun umri mobaynida yozgan asarlari 20 jild-dan iborat. Adibning bu ulkan adabiy merosida bir necha roman va qissalardan tashqari, koʻplab sheʼr va dostonlar, publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar hamda tarjimalar bor.

Oybekning 20 jildlik «Mukammal asarlar toʻplami»ni nashrga tayyorlash jarayonida uning 1930- yili bolalar uchun bir necha hikoya va sheʼrlar yozgani maʼlum boʻldi. Ammo adib oʻzining dastlabki hikoyalaridan qoniqmaganligi uchun ularni oʻz vaqtida eʼlon qilishni lozim, deb topmagan. Lekin bu hikoyalar bilan tanishish Oybekning bolalar ruhiyatini yaxshi bilgan, ular didiga mos, badiiy jihatdan qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyati katta asarlar yarata oladigan yozuvchi boʻlganligini yana bir bor koʻrsatdi.

Adib 1951- yilda ogʻir xastalikka yoʻliqdi. Shundan keyin to umrining oxiriga qadar oʻz qoʻli bilan yozish imkoniyati-

dan mahrum bo'ldi. Shunga qaramay, bir oz o'ziga kelgach, u boshida charx urgan voqealar va kishilar haqida xotini Zarifa Saidnosirovaga aytib turish yo'li bilan talaygina asarlar yaratdi. Shunday asarlardan biri «Bolalik xotiralarim»-dir.

1959- yilda tugallangan quyidagi asarda Oybek bolalik va o'smirlik yillarini eslab, ularni suronli tarixiy davr fonida mahorat bilan ko'rsatgan.

FANORCHI OTA

Tor, qiyshiq ko'chaning o'ksik oqshomini Tursunqul aka-ning churuk darvozasi tepasiga o'tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritardi. Uni har kun kechqurun past bo'yli, burushiq yuzli bir chol kelib, yoqib ketardi. Biz uni «Fanorchi ota», der edik. U juda yuvvosh, indamas kishiydi, kichkina narvonchasini chaqqon qo'yib, allaqanday ustalik bilan chiqar, qo'ltig'idan kir ro'molchasini olib, avaylab fanor oynalarini artardi. Fanorni yoqqach, yerga tushib, obkashdek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo'yib birpasda ko'zdan yo'qolar edi.

Fanor qurilgan vaqtlarda butun mahalla quvonib, unga allaqanday mehr ila qaragan bo'lsalar-da, vaqat bu mehr uzoqqa cho'zilmagandi. Keyincha har kim unga parvosiz bo'la boshladi.

Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi. To'planishib, avvalo bir-birimizning do'ppimizni otishar, fanorga do'ppi kiygizgan o'rtoq merganligi ila kerilardi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi, chunki piston qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do'ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olardi, bizni xafa qilgandek bo'lar edi. Shuning uchun qo'limizga tosh, kesak olib, fanorga hujum qilishni o'rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko'zlarini o'pirib tushirardi. Keyin-keyin Fanorchi ota haftada uch-to'rt marta unga «yangi ko'zoynak» taqib ketishga majbur bo'lardi. U ketdi, darrov biz yangi «ko'z»ini o'yib olardik. Shunday bo'lsa-da, Fanorchi ota «Lom» deb og'iz ochmasdi. Uning bu qiligi bizga sira yoqmas, tutib olish uchun poylasa, hatto birontamizni tutib ursa ekan, der edik. Ammo shu tilaklardan bittasi ham yuzaga chiqmasdi.

Bir kun, namozshom vaqti, ko'chada bolalar ko'p edi. Ichimizda eng ko'p qo'rqmaydigan, eng battol Qosim cho'loq:

«Bolalar!» — dedi. Changga botgan yuzlarimiz yangi bir narsa kutib, uning ko'zlariga tikildik.

— Fanorchi ota keladigan vaqt yaqin. Sindiramiz. Nima qilar ekan? — dedi-da, qo'lga ilinadigan bir narsa qidira boshladi.

Qo'llarimizdan g'izillab uchgan tosh-kesaklar fanorning hamma ko'zlarini teshib o'tgan edi. Uzoqdan Fanorchi otaning bukilgan kichkina qomati yaqinlasha boshladi. Narvoncha yelkadan tushib, ta'zim ila devorga suyandi. Fanorchi ota uning ustiga chiqdi-da, «chirt» etib, gugurtni yoqdi: fanor to'rt tarafdin qulagan uy kabi ajava tusda, yana bir tomonga qiyshayib turar edi. Biz hammamiz kerilib turar edik. Ba'zilar «piq-piq» kulishdi. Chol kasal odamga o'xshab, sekin-sekin pastga tushdi. O'siq qoshlari tagida qisilib yotgan ko'zlari ila hammamizga yalingansimon qaradi-da, mayin bir tovush bilan:

— Tentak bolalarim, bu qanday gap? Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo'ladimi? U yuqorida, sizlar pastda o'ynay beringlar-da.

Bolalar jim bo'lgan edi.

— Sizlar hali yosh, ko'zlaringiz o'tkir. Qorong'i ham, yorug' ham baravar. Xufton bo'lmasdan onalaringizning quchog'ida pish-pish uxlab qolasiz hammangiz. Bizga o'xshash qari-qartanglar uchun chirog' judayam kerak, — dedi.

Bolalarning ko'zi cholda edi.

— Tunov kuni kechasi qattiq yomg'ir yog'ib turgan edi. Bu yoqqa kelsam, ko'cha qop-qorong'u. Fanorning teshik oynasidan shamol kirib o'chirib qo'ygan. Ana u ariqning bo'yiga borganimda bir nima suvni shapillatardi. Yopiray, nima ekan, deb fanorchamni ariqqa tutsam, mendan ham qari bir kishi ariqdan chiqolmay yotgan ekan. Darrov qo'lidan tortdim, bir amallab chetga chiqardim, hamma yog'i loy, jiq-jiq suv.

Bolalardan biri:

— Voy, boyaqish, soqoliam, yuziyam loymi?

— Hamma yog'i loy bo'lgan... Keyin yetaklab uyiga eltib qo'ydim, — dedi chol.

Mening ko'zimga Fanorchi otaning degani shunday ko'rinib kelgandi, Qosim cho'loq:

— Yolg'on-yolg'on! — deb baqirdi.

Bolalar birdan:

— Rost! — deb javob qaytarishdi.

— Kim endi sindirsa, shuni tutib beramiz otamga, — dedi Ahmad.

Fanorchi ota:

— Ha, barakalla, endi sindirmaysizlarmi? — dedi.

— Yo‘q-yo‘q, — javob berdik biz shu zamon.

Kichkina narvonini yana yelkasiga ilib, chol qorong‘ilikka kirib yo‘qoldi.

Shundan beri, haqiqatan, fanorga hech shikast tegmadi. Hozir shu fanorning o‘rnida sim to‘r bilan o‘ralgan tuxumdan kattaroq elektr lampochkasi yonib turadi. Uning uchun na yoquvchi, na gugurt, na moy kerak. Hech bir bola tegajaklik qilib tosh ham otmaydi. Uning yorug‘ida yurganda yoshligimning bir parchasini va Fanorchi otanigina xotirlayman.



Savol va topshiriqlar

1. Hikoyada qaysi davr tasvir etilgan?
2. Nega bolalarda fanorga nisbatan «dushmanlik» uyg‘ondi?
3. Bolalar o‘rtasida shunday zararkunandalik hozir ham bormi?
4. Bolalarning fanorga va Fanorchi otaga bo‘lgan munosabatlarining o‘zgarishiga nima sabab bo‘ldi?
5. Hikoyaning badiiy xususiyatlari haqida nima deya olasiz?
6. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati nimada? So‘zlab bering.

BOLANING KO‘NGLI PODSHO

(«Bolalik xotiralarim» qissasidan)

Ko‘cha bugun jonlangan. Bo‘zchilar tanda yoyib, ipni ko‘k bo‘yoqqa bo‘yaydilar; bir tomoni dag‘al, qilli, g‘o‘laday og‘ir asbobni tanda ustidan yuritib, ipni silliqalaydilar. Bo‘zchilarning ko‘pi qari-qartang odamlar. Sal sho‘xlik qilsang: «G‘ivillama oyoq ostida!» deb jerkishadi ular.

Men ariq labidan bir pacha loy olib, «poq-poq» o‘ynab o‘tirsam, uyidan o‘rtog‘im otilib chiqadi. Ko‘zlari allanechuk besaranjom. Qarasam, qo‘lida bir tilim handalak. Men unga: «Shirinmi?» deb tikilaman. U havasim kelganini biladi shekilli, qo‘lini orqasiga oladi-da, boshini liqillatib, maqtanadi:

— Dadamlar olib keldilar, yana bor. Ah, shirin...

Men loyni otaman. Yugurib Mirahmad otaning uyiga kiraman. Ayollari boqqa ko‘chib ketgani uchun supuriqsiz, qarovsiz qolgan keng hovlida juda baland, beo‘xshov eski paxsa devorli xonaning kichkina, shaloq darchasi oldida bobom o‘rtog‘i bilan gaplashib o‘tiribdi. Men pinjiga tiqilib deyman:

— Buva, handalak...

Chol quloq solgisi kelmaydi, hassasining uchi bilan yerni urib, gapiradi:

— Bilaman, bilaman, Musulmonqulning odami edi u, shaytonga dars berardi...

— Balli, esingizda ekan... — eski do'ppili boshini og'ir chayqab, so'zini davom ettiradi Mirahmad ota: — Ana shu oqpadarga qamti kelib qolsam bo'ladimi! U otda, men yayov. Qo'limda shashpar... O'ziam devday baquvvat, zug'umli yigit edi-da...

Men chollarning suhbatiga beixtiyor berilaman. Dam bobomga, dam uning o'rtog'iga tikilaman. Ular allaqanday xonlar, beklar, qo'rqonlar, urushlar to'g'risida so'zlashadi. Allakimlar qandaydir katta darvozalarni berkitib qo'ygan, kimlardir shaharga suv bermagan, bog'dorlar qaylargadir qochib ketgani uchun bog'larda mevalar pishib, sasib-chirib ketgan... Bu gaplar menga ertakdan ham qiziq tuyuladi. Nihoyat, chollar jim bo'lishadi, go'yo yoshliklarini sog'inganday boshlarini quyi solishadi.

Men bobomning qo'lidan tortaman:

— Handalak...

— Tek tur, huvari. Hali pishgani yo'q... — deydi bobom.

Men yana qistayman. Astoydil qo'lidan tortaman. Mirahmad ota meni aldamoq uchun gavronday hassasini qo'ldan-qo'lga chaqqon olib, xirillagan ovoz bilan qandaydir qiziq ashula aytib beradi. Yo'q, menga kor qilmaydi. Oxiri, bobom o'rtog'iga deydi:

— Nima qilamiz? Bola. Bolaning ko'ngli — poshsho...

Bu gapning ma'nosiga tushunaman. Chunki, men o'z tilagimni unga qabul qildirsam, u har vaqt atrofdagilarga yoki o'z-o'ziga shunday deb qo'yardi.

Bizning uydan tor ko'cha bo'ylab yuz qadamcha yurilsa, tosh terilgan katta ko'chaga — Oq Machit mahallasiga chiqiladi. Bu yerda uchta do'kon bor: biri qassoblik, ikkisi boqqollik. Musa boqqolning do'koni ko'zimga har vaqt quruq ko'rinadi. U faqat sabzi, piyoz, un, kerosin sotadi. Ammo muloyim, shirinso'z, sersoqol keksa Sobir boqqolda esa shoda-shoda osilgan, pashshalardan qoraygan teshikkulcha, otnonlardan, qurtlagan jiyda va turshaklardan tortib, to toshko'mir, quruq beda, makka-yu sanogacha — har narsa topiladi.

Biz shu do'konga boramiz. Sobir boqqol ohangdor mayin ovoz bilan: «Barakalla, azamatcha, buvalari to'ylarini ko'rsin», deb meni erkalab qo'yadi.

Bobom qalashib yotgan handalaklardan bitta kichkinasini oladi-da, hidlab qo'limga tutqizadi, keyin bahosini so'raydi. Boqqol bir nima deydi. Bobom o'siq qoshlarini chimirib, bir qaraydi-da, uzun, keng oq surf ko'ylagining cho'ntagidan bir necha chaqa chiqaradi, har birini ko'zga yaqin tutib, obdan tikilib, boqqolning oldiga tashlaydi. Sobir boqqol boshini chayqaydi.

— Bo'lmaydi, otajon, picha qo'shing, — deydi.

— Bas. Bahosi yaxshi bo'ldi, — deydi bobom jerkib, uya buriladi.

Sobir boqqol orqadan yana astoydil qichqiradi:

— Dadaqo'zi ota, bir nima qo'shmasangiz bo'lmaydi!

Bobom unga qiyo boqmaydi. Tor ko'chaga kirgach, o'z-o'zicha gapirib ketadi: «Insof bilan sot-da! Og'zingga siqqanicha aytaverasanmi!» Keyin mendan ham ranjiydi: «Tentak, sabrni bilmaysan. Bozordan kattasini olib kelardim».

Men handalakni qo'ltiqlaganimcha shamolday yuguraman. Ayvonda do'ppimi, jiyakmi tikib o'tirgan onamdan pichoq so'rayman. Akam ham, bir chekkada nimanidir o'zicha chatib-tikib o'tirgan opam ham sevinishadi. Mana, chol ham asta kirib keladi.

— Qimmatga oldim. Bozorga tushardim-u, lekin qo'ymadi o'g'ling, — deydi u onamga. — Bolaning ko'ngli — poshsho... Omon bo'lsin, orqamda qolsin. Bu tentakni juda yaxshi ko'raman.



Savol va topshiriqlar

1. Hikoyada nechta kishining obrazi tasvirlangan? Ular kimlar va qanday kishilar?
2. Yozuvchining keksa kishilar obrazini yaratishidagi mahorati, sizningcha, nimalarda ko'rinadi?
3. Hikoya kimning tilidan bayon etilmoqda? Uning nomini kim deb atash mumkin?
4. Nega bobo avval handalak olib berishga chog'lanmay, keyin olib berdi?
5. Voqealar tasviridagi go'zallik nimada namoyon bo'lgan?

MIRTEMIR

(1910—1978)



Biz Mirtemirni hamisha mashhur qalamkash salaflar qatorida barhayot, deb bilamiz. U biz uchun G'afur G'ulom, Oybek, Shayxzoda va o'zbek adabiyotining katta aylodiga mansub boshqa san'atkorlar bilan yonma-yon turadi.

Chingiz AYTMATOV

Hali Sovet davlati barpo qilinmagan, binobarin, sovet respublikalari hali tashkil etilmagan paytlarda Chimkent viloyatining shahar va qishloqlarida, shu jumladan, Turkistonda o'zbeklar bilan qozoqlar og'a-ini bo'lib yashashgan.

O'zbek xalqining otashin shoiri Mirtemir ana shu yerda dunyoga kelgan.

Mirtemir «O'z to'g'rimda uch-to'rt og'iz» deb nomlangan tarjimayi holida tug'ilib o'sgan vatani haqida so'z yuritib, bunday so'zlarni yozgan:

«Tug'ilgan joyim Qoratog' etaklari — ko'klam toshqinlaridan lablarini ho'llab oluvchi soylar, qizg'ish qirlar va cheksiz sayhonlar. Onda-sonda uchraydigan muzbuloqlar, toshqinlardan qolgan ko'llar...

Men tug'ilgan qishloqning kunbotarida qadim Turkiston shahri, janubda O'tror, Boybalx xarobalari, undan nari — Sirdaryo...

Qishlog'imizga Qoratog'dan ikki ariq suv kelardi, lekin yer

cheksiz. Shu vajdan suv janjallari, ola-suronlar tez-tez bo'lib turardi. Ekinning turi ko'p: yozlik va kuzlik bug'doy, tariq, no'xat, arpa, paxta... Asosiy meva — qovun. Yopiray, u qovunlar!.. Qovunqoqi, qovunqurti, shinni qilmagan uy kam bo'ladi. Shuning uchun bizning qishloq laqabi — Mo'ndi. Shaharga mo'l-mo'l shinni, qo'lbola sharob mo'ndilarda olib tushilganligidan shu laqab to'qilgani aniq...»

Mirtemir 11 yoshida Iqon deb atalgan ana shu ona-qishlog'ini tark etib, Toshkentga o'qishga kelgan. Uning shundan keyingi hayoti Toshkentda kechgan.

Lekin, bir tomoni, shoirning bolaligi — hayotining oltin fasli Qoratog' etaklarida o'tgani, ikkinchi tomoni, yaqin qarindosh-urug'lari hali ham o'sha joylarda yashayotgani uchun shoir ona yurtiga tez-tez borib turardi. Va har safar Toshkentga qaytganida yo bolalik xotiralari bilan to'yingan, yo qishloq va qishloqdoshlari ta'rif-tavsif etilgan she'rlarni yozib kelgan bo'lardi.

Mirtemirning «Jilg'a bo'yida» to'plamiga kirgan jaji she'rlari ham, so'nggi to'plamlaridan joy olgan bolalik ruhi anqib turgan she'rlari ham Turkistonda, Iqon qishlog'ida yozilib, Toshkentda ularga sayqal berilgan.

Agar siz Mirtemirning bolalar uchun yozgan aksar she'rlarini o'qisangiz, ulardan ona-qishloqning nafasi eshilib, bolalik paytidagi ariqlarning sharqirab oqayotgan, bolalarning esa sho'x-shan o'ynayotgan ovozlari esa yangrab-jaranglab turadi.

Ishonmasangiz, shoirning quyidagi she'rlarini o'qing.

TONG QUSHLARI

Tong qushlari kuylashur, bog'larda shovqun...

Buvijon, imtihonga boraman bugun.

Takrorlayman qoldirmay yorug' dilimda

Biron chigal masala, savol yo tugun...

Muallimlar o'tirar, zal to'lgan bo'lur,

Qancha ko'zlar men sari termulgan bo'lur.

Buvijon, a'lo o'tsam bu sinovdan ham —

Otam dilida g'urur zab ulkan bo'lur!

Vatanim durdonamdir — aziz onamdir!

Oq yo'lga boshlaguvchi maktabxonamdir!

Yoshligim ko'p baxtiyor, bilaman buni,

Yuksalaman, zab zamon — o'z zamonamdir!

Ha, imtihon damlari — zab talabgor dam,
Burro javob beraman, hech bo'lmayman kam...
Ma'rifat tarixida qolur umrbod,
Daftarga naqshi tushgan nom qanday ko'rkam!

Tong qushlari kuylashur, bog'larda shovqun...
Buvijon, imtihonga boraman bugun.
Takrorlayman, qoldirmay yurakkinamda
Biron chigal masala, savol yo tugun...



Savol va topshiriqlar

1. Nega she'rga «Tong qushlari» deb sarlavha qo'yilgan?
2. She'rdagi kim tasvir etilgan: qushlarmi yo lirik qahramonmi?
3. Lirik qahramon qalbida qanday tuyg'u va intilishlar jo'sh urib turibdi? Aytib bering.

HANDALAK

Polizdan handalak hidi anqiydi,
O'qariq bo'yida sahar uyg'onsam.
Atir og'ushida odam balqiydi,
Havo eliksirday, qaniydi qonsam...

Ko'krakka uradi yoqimtoy salqin,
Chechaklar tovlanur — chechaklarda noz.
Hammasi, hammasi ko'ngilga yaqin,
Hammasi dilrabo, suyuk, so'lim, soz...

Handalak uzaman muzdek va yorqin,
Beqasam handalak — chipor handalak.
Qo'limda lovullar go'yoki yolqin,
Quymadek bejirim, ifor handalak.

Ha, aslida quyosh zarrasi bu ham,
Ona tuproq toti, tuproq shirasi.
Yemishlarning tengsiz barrasi bu ham,
Jannatda yo'q o'zi, gapning sirasi!..



Savol va topshiriqlar

1. Handalak qachon pishadi, bilasizmi? She'rda yilning qaysi oyi tasvir etilgan?
2. Shoir handalakni qanday sifatlar bilan ta'riflagan?
3. Shoir ushbu she'r orqali nimani ulug'lagan?
4. She'rni yod oling.

JALA

Qo'qqis jala quyib o'tdi qishloqdan,
To'lqin urgay yashil ko'kat dengizi,
To'lqin urgay chechaklar oq, qirmizi,
Bu darakchi sut, qaymoqdan, pishloqdan...
Qo'qqis jala quyib o'tdi qishloqdan,
Chuchmoma-yu rovoch yesak arziydi,
Qo'ziqorin, lola tersak arziydi,
Tepalardan, soydan, hatto toshloqdan...



Savol va topshiriqlar

1. «To'lqin urgay yashil ko'kat dengizi» degan satrni tavsiflab bering.
2. Nega shoir «jala quyib o'tdi qishloqdan» deyishi bilan «Chuchmoma-yu rovoch yesak arziydi», demoqda?
3. Shoir jalaning xosiyatini nimada ko'rgan?

HALI HAM

... Onam non yopadi bo'g'riqib-bo'rtib,
Dam-badam kuyadi qo'li yengsakda.
Chiviq toycham gijing, yo'rg'alab-yo'rtib,
Hadeb aylanaman shu tevarakda.

Nari ketolmayman o'choq boshidan,
Yuguruk bo'lsa ham toycham nechog'lik.
Mazaliroq ba'zan qiyma oshidan,
Har gal bitta patir menga atog'liq...

Yalpizlik, rayhonlik yo jindak jizza,
So'lqildoq, yumaloq, cho'g'day va qumoq.

Gohi bo'lsam hamki kimdandir izza,
Sinib yotsa hatto kichik arg'umoq.

Menga o'sha patir tegsa bo'ldi, bas
Otlanib, ovloqqa jo'nayman darrov.
Ayiqmi yo qoplon — menga pisandmas,
Patir to'qligida o'ljalik-da, ov.

...Dilda armon qoldi, umrga tatir,
Ne kunlar bor ekan manglayginamda.
Qishloqda yodimga tushdi shu patir,
Hanuz ta'mi borday tanglayginamda.



Savol va topshiriqlar

1. She'rdagi shoirmnig taxminan necha yoshlardagi holati tasvir etilgan?
2. O'sha yoshdagi bola onasini shunday aniq-mayin harakatlari bilan eslashi mumkinmi? Siz shu yoshingizda onangiz qilgan harakatlar va aytgan so'zlarni eslay olasizmi?
3. Shoir ona obrazini qanday usul va vositalar bilan tasvirlagan? She'rni tahlil qiling.

BUVIM CHO'PCHAKLARIDAN

Ola qarg'a

Ola qarg'a yashar emish uch yuz yil,
Qarg'achalik yasholmasmish hatto fil,
Bobolar der: cho'qda emish bir ko'zi,
Quv va sergak. O'qda emish bir ko'zi.
Oshyoni ham tik cho'qqida — tog'damish,
Ne olg'ir qush ololmayin dog'damish,
Ola qarg'a tashlamasmish qo'shog'in,
Ardoqlarmish oshyonida ushog'in.
Qo'shog'iga hech olalik bilmasmish,
Ushog'iga hech dag'allik qilmasmish,
Agar noxos qo'shog'iga tegsa o'q,
Bu ham darhol qilar emish o'zin yo'q.
Vafodormish, ko'ngilchakmish, kuyinchoq,
Shu vajdan ham qanotida yo'l-yo'l oq.
Arzir emish oq qanotlik bo'lsa ham,
To'kis-tugal yaxshi otlik bo'lsa ham...

Qora qarg'a

Qora qarg'a olasidan kam yemas,
«Men sal kamroq yashayman» deb g'am emas.
Tik tog'larda qoraning ham uyasi,
Elga ayon qanotining kuyasi.
U ham qishda tushib kelar dovondan,
Qolib ketmas qarg'a zotlik karvondan,
U ham sergak, cho'qda doim bir ko'zi,
Olazarak, o'qda doim bir ko'zi...
U ham g'oyat sabrlik qush, chapdast qush,
O'rgatolsang — el bo'lg'ulik bor es-hush.
Qadrlamas emish biroq qo'shog'in,
Tashlab ketar emish hatto ushog'in,
Agar noxos qo'shog'iga tegsa o'q,
O'zgasini izlar emish — ko'ngli to'q.
Shu sababdan qora emish yuzi ham,
Yuz ham gapmi — qora emish o'zi ham...

1975



Savol va topshirqlar

1. Ola qarg'a va qora qarg'a degan qushlarni bilasizmi? Ko'rganmisiz?
2. Ola qarg'aning qanday fazilatlari bor?
3. Uning uch yuz yil yashashining sababi nimada?
4. Qora qarg'a-chi? Uning ham yaxshi fazilatlari bormi?
5. Nega xalq uni qora qarg'a deb atagan? Nega shoir uning obrazini yaratishda qora bo'yoqlardan ko'proq foydalangan?
6. Shoirning ushbu she'rni yozishdan maqsadi nima? Tushuntirib bering.

USMON NOSIR

(1912—1944)



Usmon Nosir yosh shoirligida hayotni tark etdi. She'riyat ixlosmandlari tasavvurida u mangu yosh bo'lib qoladi. Uning yosh shoirga xos ehtirosli, sodda, samimiy satrlari xalq qalbida uzoq yillar yashaydi.

Erkin VOHIDOV

Usmon Nosir yigirma besh yoshida, hali shoir sifatida shakllanmay turib qatag'on etilgan. 1937- yil 13- iyulda ustozlari Cho'lpon bilan qariyb bir kunda qamoqqa olingan. Shundan keyin u Zlatoust va Magadan shaharlari hamda Kemerovo viloyatidagi qamoq va lagerlarda qatag'on davrining achchiq tuzini totgan.

Agar taqdir Usmon Nosirga nisbatan rahm-shafqatli, muruvvatli bo'lganida u o'zbek xalqining eng buyuk shoirlari qatoridan o'rin olgan, adabiyotimiz xazinasini shoh asarlar bilan boyitgan bo'lardi.

Ammo hozir ham Usmon Nosirdan qolgan adabiy merosni kichik, deb bo'lmaydi. Uning «Yurak», «Nil va Rim», «Monolog» singari she'rlari, «Naxshon» singari dostonlari, «Demon» (M. Y. Lermontov asari), «Boqchasaroy fontani» (A. S. Pushkin asari) singari tarjimalari — o'lmas asarlardir.

Usmon Nosir, zamondoshlarining aytishlaricha, kun

chiqish paytidagi tabiat manzarasining barcha ranglari va ohanglarini tuyish uchun daryo bo'yida tun bo'yi mijja qoqmay chiqqan.

Uning bir she'rida tasvirlanishicha, ko'lmakka shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir xuddi chuchvaraning qaynab turgan holatini eslatadi.

U boshqa bir asarida bir qizning uzun va qop-qora kipriklarini tasvirlab, ularning qiz ko'kragiga soya tashlab turganini aytgan...

Bunday badiiy detal (tafsil)larni topish uchun shoir nihoyatda kuzatuvchan bo'lishi lozim.

Usmon Nosir yosh bo'lsa ham, nihoyatda kuzatuvchan, ta'sirchan, qofiyasi doim o'qlog'lik shoir edi. U she'rni ko'pincha badiha — birvarakayiga aytish yo'li bilan yozardi. Uning quyida sizning e'tiboringizga havola etilayotgan she'rlari ham ana shunday yo'l bilan yozilganligi shubhasizdir.

* * *

Yurganmisiz birga oy bilan
Oqshom payti ko'm-ko'k o'rmonda?
Maysalarga shabnam qo'nganda,
Shunday yaxshi tinch bo'lar ekan.

Shitir-shitir o'ynar shabboda,
Barglar musiqasi bir shirin...
Navo go'yo tiniq, sof boda
Ko'ngil sezar hayotning sirin.

Men mast bo'lib qoldim bu kecha
Sil o'pkamni ancha yayratdim.
Uxlamasdan to tong otguncha
Dilginamni rosa sayratdim.



Savol va topshiriqlar

1. She'rdagi oqshom paytidagi manzara qanday tafsillar orqali ifodalangan?
2. She'rdagi mujassamlangan oqshom musiqasini eshita oldingizmi?
3. She'rni badiiy jihatdan tahlil qilishga urining.
4. She'rni yod oling.

Hayot hali mening oldimda,
Aqlim o'sar, fikrim yuksalar.
Ammo, ko'rganlarim yodimda,
Hammasi ham butunlay qolar.

O'sha paytda qaysisi kulgu,
Qaysi biri berar hayajon,
Bu fikrimning boisi shulki:
Fikr — bola, bola — o'suvchan!



Savol va topshiriqlar

1. She'ning g'oyaviy mazmunini aytib bering.
2. She'rdan nimaning obrazi yaratilgan?
3. «Fikr — bola, bola — o'suvchan» satrini qanday tushunasiz?

SHE'RIM

Sen yuragimning chashma suvisen,
Sen ko'zlarimning gavhar nurlari.
Sening bahongni kim so'rasa, de:
«Bahom umringning bahosiga teng!»



Savol va topshiriqlar

1. Shoir she'rni nimalarga qiyos qilmoqda?
2. «Bahom umrimning bahosiga teng» misrasi mazmunini tushuntirib bering.
3. She'rdan qanday g'oya ifodalangan?



O'TKIR HOSHIMOV

(1941- yilda tug'ilgan)



O'tkir faqat talantli yozuvchigina emas, ajoyib dilbar inson hamdir.

Men u bilan jumhuriyatimizning hamma viloyatlarini, tumanlarini necha martalab aylanib chiqqanman. Qayerga bormaylik, uni odamlar o'rab oladi, kitoblaridan olgan taassurotlarini to'lib-toshib gapirib beradilar va, albatta, u bilan do'st-qadrdon bo'lib qoladilar...

«Dunyoning ishlari» asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi.

Said AHMAD

DUNYONING ISHLARI

(Qissadan lavhalar)

Alla

Qabriston g'ishtin devor bilana o'ralgan. Darvozaning narigi tomonida — go'rkovning hujrasi. Berigi tomonida — tashqarida uning hovlisi.

Darvozaga yaqin kelishim bilan ichkaridan — hujra tomondan tilovat sadosi eshitildi. Xuddi shu payt hovli tomondan alla ovozi yangrab ketdi:

Allayo, alla, jonim bolam-a, alla...

Kim bo'ldi bu? Go'rkovning kelinimi? Qizimi?.. U hamon sokin tovushda davom etardi:

Uxla, qo'zim, alla-yo, shirin qizim, alla...

Ertalab yomg'ir yog'gan edi. Darvozaning temir panjalarida suv tomchilari yaltiraydi. Ko'lmakda quyosh jilolanadi. Muzdek tutqichdan ushlagancha turib qoldim. Bir tomondan tilovat sadosi, bir tomonda alla. Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas, bir-birini rad etmas, ikkalasi qo'shilib bahor nafasiga to'lgan osmonda qabrison yo'lkasidagi kuchala chiqargan teraklar ustida parvoz qilar edi:

«Rabbano-o-o, rabbano-o—o...» «Allayo, alla»...

Bir xil bo'lib ketdim. Panjarador darvozaga suyanib uzoq turib qoldim.

Onam beshigim ustida alla aytganini eslay olmayman. Esimni taniganimda beshikda yotmaydigan bo'lgan edim. Biroq oyim ukamga alla aytganini eshitganman. Ko'p eshitganman.

Qish kechalari sandalga suqilib tizilishib yotardik. Uy nimqorong'i. Piligi pastlatib qo'yilgan chiroq xira nur sochadi. Shiftda lampa shisha uchidan chiqqan nur doirasi ko'rinadi. Chiroq doim bir joyda turgani uchun shiftning o'sha yeri sarg'ayib qolgan. Hamma yoq jimjit. Shu qadar jimki, dadamning hujrasidagi soatning chiqillayotgani ham eshitiladi. Tashqarida bo'ron guvillaydi. Quruq qorning derazaga chirsillab urilishi eshitilib turadi. Ukamning beshigi g'ichirlaydi. Onam alla aytadi.

Alla bolam, uxlay qola-a, alla,
Quchog'imda orom ol, alla...

Yo'q, bu qo'shiq emas. Oyimning ovozida qandaydir boshqa narsa bor. Mungmi, iltijomi...

Tog'lardagi shunqorim-ey, alla,
Beshikdagi qo'chqorim-ey, alla...

Ukam ovunib qoladi. Oyimning o'zi ham beshikni quchoqlagancha mudrab ketadi. Bir mahal beshik ustidagi qo'li shilq etib yoniga tushdi. Ukam uyg'onadi, beshik yana g'ichirlaydi. Oyim ham cho'chib ko'zini ochadi. Beshikni ohista tebratadi:

Yigitlarni sardori bo‘l, jonim-a,
Yuragimni madori bo‘l, alla...

Yana jimlik cho‘kadi. Soat chiqillaydi, qor derazaga chir-sillab uriladi. Sekin-sekin ko‘zim uyquga ketarkan, qulog‘im ostida yana o‘sha ma‘yus sado eshitiladi.

Oq uy-ola bargaklarda jonim-a,
Yonib turgan chirog‘imsan, alla...

Keyin... katta bo‘lganimda ham qayerda alla eshitsam, negadir yuragim shirin orziqish bilan talpinib ketar, nega bunaqa bo‘layotganini o‘zim bilmas edim. Bir yili uch-to‘rt qalamkashlar olis tog‘ qishlog‘iga bordik. Mashina yurmas edi. Ot minib o‘rganmaganim uchun charchab qoldim. Manzilga yetmasimizdan qorong‘i tushdi. Yaylovdagi qirg‘iz o‘tovida tunab qolishga to‘g‘ri keldi. Qimiz ichdik, sovuq suzma yedik. Keyin birimiz namatga, birimiz po‘stakka yonboshlagancha uxlab qolibmiz. Bir mahal sovuq qotib uyg‘onib ketdim. Atrof jimjit. Faqat olisda it akillaydi. O‘tov keragasidan shom yegan oy mo‘ralaydi. Shu payt qo‘shni o‘tovda chaqaloq yig‘isi, ketidan ayol kishining alla aytayotgani eshitildi. Men uning so‘zlarini aniq bilmasam ham alla aytayotganini his qilib turardim. Negadir yuragim shirin orziqib ketdi. Ayolning ovozi, alla ohangimi, xuddi onamga o‘xshab ketardi. Negadir shu ohang bilan qalbiga orom kirganday bo‘ldi-yu, o‘z-o‘zidan ko‘zlarim yumilib keta boshladi. Go‘yo qirg‘iz ayol bolasiga emas, menga alla aytayotganday... Yaqin orada bunaqa shirin uxlamagan edim.

Oradan uch-to‘rt yil o‘tgach, shunaqa holatni yana bir marta boshimdan kechirdim. Kislovodskka dam olishga borgan edik. To‘rtta o‘zbek yig‘ilsa osh qilish harakatiga tushib qoladi. Sanatoriy yaqinidagi xonadondan qozon topdik. Bu yerning aholisi yoz paytida uyiga dam oluvchilarni ijaraga qo‘yadi. Bu xonadonda ham sibirlik juvon ijarada o‘tirarkan. Sap-sariq sochli, barvasta gavdali, yuzini sepkil bosgan juvon qishloq ayollariga xos soddadillik bilan bizga darrov elakishib ketdi. Kichkintoy o‘g‘ilchasini ko‘tarib goh sabzi archishadi, goh idishlarni yuvadi. O‘zbek palovining ta‘rifini ko‘p eshitsa ham hech yemaganini dilkashlik bilan aytib kuladi.

Birgalashib osh yedik, ko‘k choy ichdik. Keyin sibirlik juvon kichkintoyini ko‘tarib uyga kirib ketdi. Oradan chorak soatcha o‘tgach, ichkaridan uning ovozi keldi:

Ba-yu ba-yushki, bayu, ba-yu-bay...

Qiziq, yuragimda yana o'sha shirin orziqish uyg'ondi. Uning ovozi ham onamnikiga o'xshab ketardi. Do'stlarim gungur-gungur suhbatlashib o'tirishibdi. Men bo'lsam ichkaridan chiqayotgan alla sadosiga quloq solaman. «Ba-yu, bay...»

Bu qanday holat?! Bu qanday sehr? Nima o'zi bu?

Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o'z seviklisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham ona — tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

Bilmadim... Qabrison darvozasi oldida, bir tomonda tilovat, bir tomonda alla yangrayotgan darvoza oldida turib shularni o'yladim-u g'alati bo'lib ketdim.

ILTIFO

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...

Qarang, oyi, tag'in ko'klam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko'm-ko'k maysalarni ko'rib quvonardingiz. Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni ko'zingizga surtib, «omonliq-somonliq» qilardingiz...

Bugun... o'zingizning ustingizdan boychechak o'sib chiqibdi... Yo'q, yo'q, oyijon... Yig'layotganim yo'q. Bilaman, men yig'lasam, siz bezovta bo'lasiz. Hozir... hozir o'tib ketadi. Mana, bo'ldi...

Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi... Esingizdami, siz menga oftob to'g'risida cho'pchak aytib bergan edingiz. O'sha oftob charaqlab yotibdi... Ko'ryapsizmi...

Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men alla-

ning ohangiga mast bo'lib uxlab qolardim. O'sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo'ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yo'q, yo'q, yig'layotganim yo'q. Hozir, hozir o'tib ketadi.

Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazillashib: «Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim» degandingiz. Men: «Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?» degan edim. Xafa bo'lmang, men ham hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman...



Savol va topshiriqlar

1. «Alla» bobidagi «bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla. Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas edi» degan so'zlar ma'nosini ayting.
2. Onaning alla aytish holati haqida so'zlang. Alla tinglaganda Siz qanday holatga tushasiz?
3. O'zbek, qirg'iz, rus ayoli aytgan allalar orasidagi o'xshashlik nimada deb o'ylaysiz?
4. «Ehtimol, dunyoning bu chetida turib...» — deb boshlanuvchi parchani yod oling, uni ma'nosini sharhlang.
5. Yozuvchi «Iltijo» bobida «Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman...» deb yozadi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI

(1900—1944)



Sent-Ekzyuperi o'zini hech qachon professional yozuvchi deb hisoblamagan edi. «Yozishdan avval yashash kerak» — bu so'zlar uning shiori bo'ldi. U hayotga faol munosabatda bo'lgan yozuvchilar... kabi chetdan turib kuzatishdan, voqelikdan uzoq mulohazalar chiqarishdan ko'ra, sodir bo'layotgan voqealarning faol ishtirokchisi bo'lishni ma'qul ko'rardi.

Xurshid DAVRON

Antuan de Sent-Ekzyuperi 1944- yil 31- iyul kuni tong-otarda Amerika Qo'shma Shtatlaridagi harbiy bazadan «Layting-38» samolyotida havoga ko'tarilgan. U Fransiyaning Annesi va Grenobl shaharlari atrofida razvedka ishlarini olib borishi lozim edi. Ammo samolyot mazkur safardan qaytib kelmagan. Uning qachon va qayerda halok bo'lganligi so'nggi kunlargacha sir bo'lib keldi. 2004- yilning bahorida Atlantika okeanining Ispaniya qirg'oqlariga yaqin joyida «Layting—38»ning ayrim parchalari topildi. Demak, samolyot Sardiniyadagi harbiy havo bazasiga qaytishda urib tushirilgan yoki halokatga uchragan ekan.

Sent-Ekzyuperi avvalo uchuvchi edi. U o'z hayotini parvosiz tasavvur etmagan. Biroq u «Kichkina shahzoda», «Tungi parvoz», «Bashar sayyorasi», «Harbiy uchuvchi» singari roman va qissalari bilan bir umrga jahon adabiyoti tarixida qoldi.

U aristokrat (zodagón)lar oilasida tug'ildi. Tonio (otanasini shunday deb chaqirishgan) bolaligida o'ta qiziquvchanligi, bilag'onligi bilan tengqurlaridan ajralib turdi. Lekin u ayni paytda tengqurlari davrasida quvnoq, hazilkash, turli-tuman o'yinlarni o'ylab topishga ustasi farang edi. U yonib turgan olovga qarab soatlab xayol surishni sevgan. Bolalik kezzarida g'amgin va o'ychan she'rlar yozgan, rasm chizgan, skripka chalgan. Xullas, u har tomonlama iste'dodli kishi bo'lib o'sgan.

Sent-Ekzyuperi ulg'ayib, butun hayotining mazmunini uchishda, osmonga ko'tarilishda ko'rdi. Shunda aviatsiya uning xayollari va fikriy olamining yanada kengayishiga yangi yo'llar ochdi, uni dunyoni yuksaklikdan turib ko'rishga, kashf etishga, noyob insoniy fazilatlarini yuzaga chiqarishga o'rgatdi.

Siz «Kichkina shahzoda»ni o'qiganingizda uning ana shu ajoyib fazilatlarini asarda to'la-to'kis namoyon bo'lganiga guvoh bo'lasiz. Uning dunyoni bolalarga xos tiniqlik, musaffolik, bokiralik bilan ko'rganidan hayratga tushasiz. Bu asar hatto katta yoshdagilarni ham bolalikka qaytaradi; bolalik kezzaridagi qiziquvchanlik, beg'uborlik va samimiylik fazilatlariga qayta hayot bag'ishlaydi.

O'ylaymizki, siz, o'quvchilar ham shu asarning darslikdan o'rin olmagan davomini mazza qilib o'qiysiz.

KICHKINA SHAHZODA

(*parcha*)

X

Kichkina shahzodaning sayyorasiga 325, 326, 327, 328, 329 va 330- asteroidlar eng yaqin edi. Shu bois u dastlab ularga tashrif etishga ahd qildi: ham ermak, ham nimadir o'rganadi.

Birinchi asteroidda qirol yashardi. Ipak-shohi liboslarga burkanganicha, u nihoyatda oddiy va ayni paytda ulug'vor taxtda savlat to'kib o'tirardi.

— E, mana, fuqaro ham kelib qoldi! — deb xitob qildi qirol Kichkina shahzodani ko'rishi bilan.

«U meni qayoqdan bilarkin? — deb o'yladi Kichkina shahzoda. — Axir umrida birinchi marta ko'rib turibdi-ku!»

Bilmasdiki, qirollar dunyoga jo'ngina qaraydilar, ular uchun jamiki odam — fuqaro.

— Yaqinroq kel, qani, seni bir yaxshilab ko'rib olay-chi, —

dedi qirol nihoyat kimgadir qirollik qilishi mumkinligidan o'lgudek taltayib.

Kichkina shahzoda o'tirishga joy izlab yon-veriga alangladi, biroq qirolning hashamdor jubbasini butun sayyorani qoplab olgan edi. Tik turaverishga to'g'ri keldi. Benihoya qattiq charchaganidan bir payt asta xomuza tortdi.

— Hukmdorlar huzurida esnash mumkin emas, — dedi qirol. — Men senga esnashni man qilaman.

— Men... to'satdan, bilmay qolib... — dedi Kichkina shahzoda qattiq xijolat tortib. — Men uzoq yo'l yurib keldim, uxlaganim yo'q edi...

— Hay, unday bo'lsa, esnashingga ruxsat beraman, — dedi qirol. — Ko'p yillar bo'ldi o'zimga ham birorta esnagan odamni ko'rmaganimga. Mana, hozir rosa qiziqib qoldim. Demak, qani, esna! Buyrug'im shunday.

— Ammo... uyalyapman endi... boshqa qilolmayman, — deya g'oldiradi Kichkina shahzoda va qip-qizarib ketdi.

— Himm... himm... Unda, unda... senga buyruq shu: goh esna, goh...

Qirol gapini chalkashtirib, hatto birmuncha ranjigandek ham bo'ldi. Chunki qirol uchun eng muhimi — o'ziga so'zsiz itoat qilinishi edi, u itoatsizlik va shakkoklikka toqat etolmasdi, chunki mutlaq hukmdor edi-da. Biroq u g'oyat oqko'ngil edi va shu vajdan faqat oqilona farmoyishlargina berardi.

«Agar men generalimga, dengizdagi oq chorloqqa aylanasan, deb amr etsam-u, general buyrug'imni bajarmasa, — derdi u, — bu uning emas, mening aybim bo'ladi».

— O'tirsam maylimi? — deya bo'shshibgina so'radi Kichkina shahzoda.

— Amr etaman: o'tir! — deb javob berdi qirol va viqor bilan hashamdor jubbasining bir etagini picha yig'ishtirdi.

Lekin Kichkina shahzoda hayron edi: sayyora-ku shunday jimit ekan, qirol kimning ustidan hukmronlik qilarkin?

— A'lo hazratlari, — deb so'z boshladi u, — bir narsani so'rasam maylimi?

— Amr etaman: so'ra! — dedi qirol shosha-pisha.

— A'lo hazratlari... siz kimning, nimaning ustidan hukmronlik qilasisiz?

— Hammasining, — deb javob berdi qirol oddiygina qilib.

— Hammasining?

Qirol kamtarona bir harakat bilan o'z sayyorasiga, shuningdek, tevarakdagi boshqa barcha yulduz va sayyoralarga ham ishora qildi.

— Siz shularning hammasiga hukmdorlik qilasizmi? — deb qayta so‘radi Kichkina shahzoda.

— Ha, — deb javob qaytardi qirol. Zero, u chindan ham qonuniy mutlaq hukmdor bo‘lib, hech qanday to‘siq va cheklanishlarni bilmasdi.

— Yulduzlar ham sizga bo‘ysunadimi? — deb so‘radi Kichkina shahzoda.

— Bo‘lmasam-chi, — dedi qirol. — Yulduzlar bir zumda bo‘ysunadi. Men itoatsizlikka chidab turolmayman.

Kichkina shahzoda benihoya hayratga tushdi. Eh, qaniydi, uning shunday qudrati bo‘lsa edi, quyosh botishini to‘yib-to‘yib tomosha qilardi! Kuniga qirq ikki marta emas, balki yetmish ikki, yuz, hattoki ikki yuz marta g‘urubga termilarkan, kursichasini nari-beri qo‘zg‘atishga ham hojat qolmasdi! Birdaniga u o‘zi tark etgan sayyorasini eslab g‘ussaga cho‘mdi, bir ozdan keyin jur‘at to‘plab:

— Men quyosh botishini tomosha qilmoqchi edim. Bir marhamat qiling, quyosh botsin, deb farmon bering, — dedi.

— Bordi-yu men birorta generalimga kapalak bo‘lib guldand gulga uchib yurishni yoki fojiviy asar yaratishni, yo bo‘lmasa, oq chorloqqa aylanishni buyursam-u, general buni bajarmasa, kim aybdor bo‘ladi — menmi, umi?

— Siz, a‘lo hazratlari, — deya bir lahza ham ikkilanmay javob qildi Kichkina shahzoda.

— Mutlaqo to‘g‘ri, — deb tasdiqladi qirol. — Har kimdan qurbi yetadigan narsani talab qilish kerak. Hokimiyat eng avvalo oqilona bo‘lishi lozim. Agar xalqingga, dengizga tashlashni buyursang, u isyon ko‘tarib inqilob qilib yuborishi mumkin. Shuning uchun ham men so‘zsiz itoatni talab eta olaman, chunki amr-farmonlarimning barchasi oqilonadir.

— Quyosh-chi, quyosh botishi nima bo‘ladi endi? — deb so‘radi Kichkina shahzoda. U to savoliga javob olmaganicha tinchimas edi.

— Quyosh botadi, shoshmaytur. Men bu haqda tegishli buyruq beraman. Ammo oldin qulay vaziyat yetilishini kutib turaman, zero hukmdorlik hikmati ham ana shunda.

— Xo‘sh, qulay vaziyat qachon yetiladi? — deb surishtirdi Kichkina shahzoda.

— Himm... hozir... him... — deya qalin kalendarni titkilay boshladi qirol. — Qulay vaziyat... himm... mana bugun kechqurun soat yettidan qirq minut o‘tganda yetiladi. Amr-farmonimning qanchalik so‘zsiz bajarilishini ko‘rasan ana shunda.

Kichkina shahzoda tag'in esnadi. Afsus, bu yerda g'urubni istagan vaqtingda tomosha qilolmas ekansan!.. Ochig'ini aytganda, u endi zerika boshlagan edi.

— Men boray, — dedi u qirolga. — Boshqa qiladigan ish ham qolmadi.

— Yo'q, ketma! — dedi qirol. U o'ziga fuqaro topib olganidan nihoyatda xursand edi va undan ayrilishni sira-sira istamasdi. — Qol, men seni ministr etib tayinlayman.

— Qanaqa ministr?

— Himm... bor ana, adliya ministri bo'laqol.

— Ammo bu yerda sud qiladigan birorta ham odam yo'q-ku?

— Kim biladi deysan, — deb e'tiroz bildirdi qirol. — Axir men hali butun qirolligimni sinchiklab ko'zdan kechirib chiqmaganman-da. Ko'rib turibsang, ancha qarib qolganman, arava qo'yadigan joyim yo'q, yayov yurishga esa chog'im kelmaydi.

Kichkina shahzoda asta egilib, sayyoraning narigi chekkasiga nazar tashladi.

— Men allaqachon sinchiklab qarab chiqdim! — deb xitob qildi u. — Uyoqda ham hech zog' yo'q.

— Unday bo'lsa, o'zingni o'zing sud qilaqol, — dedi qirol. — Bu dunyodagi eng og'ir ish. O'zingni tergash, sud qilib hukm chiqarish o'zgalarni sud qilishdan ko'ra ming karra qiyinroq. Agar o'zingni to'g'ri sud qila bilsang, demak, chindan ham donishmand odam bo'lib chiqasan.

— O'zimni istagan joyda sud qila olaman, — dedi Kichkina shahzoda. — Buning uchun huzuringizda qolishimga aslo hojat yo'q.

— Himm... himm... — dedi qirol chaynalib. — Nazarimda, sayyoramning allaqaysi yerida bir qari kalamush yashasa kerak. Kechasilari bir balolarni qitirlatib yurganini eshitaman. Mana shu kalamushni sud qilsang ham bo'laveradi. Vaqti-vaqti bilan uni o'limga hukm qilib turasan. Uning hayot-mamoti senga bog'liq bo'ladi. Ammo har safar keyin uni afv etish lozim. Bu qari kalamushni asrab-avaylash kerak, axir o'zi bor-yo'g'i bitta-ya...

— Men birovlarini o'limga hukm qilishni yoqtirmayman, — dedi Kichkina shahzoda. — Umuman, mening ketar vaqtim bo'ldi.

— Yo'q, bo'lmadi, — deb e'tiroz bildirdi qirol.

Kichkina shahzoda yo'lga ravona bo'lmoqchi edi-yu, lekin kekse hukmdorni xafa qilishni istamasdi.

— Agar a'lo hazratlari amr-farmonlarining so'zsiz bajari-

lishini xohlasalar, — dedi u, — u holda, menga hozir oqilona farmoyish berishlari lozim. Masalan, siz menga bir lahza ham hayallamay yo'lga tushishni buyurishingiz mumkin. Sezishimcha, buning uchun nihoyatda qulay shart-sharoit mavjud...

Qirol indamadi. Kichkina shahzoda xiyla kutib turdi-da, asta xo'rsinib, yo'lga tushdi.

— Seni elchi qilib tayinlayman! — deb qichqirdi qirol uning ortidan shosha-pisha. Shu tobda u go'yo umrida gapini birov ikki qilmagandek mamnun va xotirjam ko'rinardi.

«G'alati xalq-da, bu kattalar», deb qo'ydi Kichkina shahzoda o'zicha, yo'lida davom etarkan.

XI

Ikkinchi sayyorada shuhratparast yashardi.

— O, ana, muxlis ham kelib qoldi! — deb xitob qildi u Kichkina shahzodani uzoqdan ko'rishi bilan.

Axir, izzattalab odamlarga hamma ularning muxlisi bo'lib ko'rinaveradi-da.

— Salom, — dedi Kichkina shahzoda. — Shlyapangiz judayam antiqa ekan-a?

— Bu — ta'zim bajo keltirishga, — deb tushuntirdi shuhratparast. — Meni olqishlashgan paytda ta'zim bajo aylashim lozim. Baxtga qarshi, buyoqqa biror kimsa qadam-ranjida qilmayapti.

— E, shundaymi? — deb qo'ydi Kichkina shahzoda, u hech narsani tushunmagan edi.

— Bir chapak chalgin, — dedi shuhratparast unga.

Kichkina shahzoda kaftlarini bir-biriga urib chapak chaldi. Shuhratparast shlyapasini boshidan olib, tavoze bilan ta'zim qildi.

«Qari qirolning yurtidan ko'ra bu yer qiziqroq ekan», deb o'yladi Kichkina shahzoda va tag'in chapak chaldi. Shuhratparast yana shlyapasini boshidan olib ta'zim bajo keltirdi.

Besh minutcha shu taxlitdagi qarsak-ta'zimdan so'ng Kichkina shahzoda bundan ham zerikdi.

— Nima qilsa, shlyapangiz boshingizdan uchib tushadi? — deb so'radi u.

Ammo shuhratparast bu gapni eshitmadi. Izzattalab odamlar maqtovdan boshqa hamma narsaga kar bo'lishadi-da.

— Sen rostdan ham mening chin muxlisim bo‘lasanmi? — deb so‘radi u Kichkina shahzodadan.

— Muxlis bo‘lish degani nima?

— Muxlis bo‘lish degani — bu sayyorada mening eng go‘zal, eng bashang, hammadan boy va hammadan ham aqli ekanimni tan olish demakdir.

— Lekin sayyoringda o‘zingdan boshqa zog‘ ham yo‘q-ku!

— Bari bir. Kel, menga bir yaxshilik qil, yayrab qolay: meni bir maqtagin!

— Maqtashga-ku, maqtayman-a, — dedi Kichkina shahzoda xiyol yelka qisib, — ammo bundan senga nima naf?

Shunday deb shuhratparastni ham asta tark etdi.

«Haqiqatan ham, kattalar juda g‘alati xalq-da», deb o‘yladi yo‘lga tusharkan, soddalik bilan.

XII

Keyingi sayyorada piyonista yashardi. Kichkina shahzoda u yerda ko‘p bo‘lmadi, biroq shu qisqa vaqt ichidayoq yuragi g‘ash tortib chiqdi.

U sayyoriga qadam qo‘yganida, piyonista oldidagi bo‘sh va to‘la shishalar safiga jimgina tikilib o‘tirardi.

— Nima qilyapsan? — deb so‘radi Kichkina shahzoda.

— Ichyapman, — dedi piyonista xo‘mrayib.

— Nega?

— Unutmoqchiman.

— Nimani? — deb so‘radi Kichkina shahzoda piyonistaga rahmi kelib.

— Shu ishimning uyatligini, — dedi piyonista tan olib va boshini quyi soldi.

— Qaysi ishing? — deb so‘radi Kichkina shahzoda, boyaqishga yordam berishni jon-dilidan istab.

— Ichishim uyat! — dedi piyonista va qaytib og‘iz ochmadi.

Anchadan so‘ng Kichkina shahzoda lol-u hayron bo‘lib, tag‘in yo‘lga tushdi.

«Ha, shubhasiz, kattalar juda-juda g‘alati xalq», deb xayolidan kechirdi yo‘lida davom etarkan.

XIII

To‘rtinchi sayyora korchalon odamga qarashli edi. U shu qadar band ediki, Kichkina shahzoda huzuriga kirib kelganida hatto bosh ko‘tarib ham qaramadi.

— Salom, — dedi Kichkina shahzoda. — Papirosingiz o'chib qolibdi.

— Ikkiga uch — besh. Beshga yetti — o'n ikki. O'n ikkiga uch — o'n besh. Salom. O'n beshga yetti — yigirma ikki. Yigirma ikkiga olti — yigirma sakkiz. Gugurt chaqishgayam vaqt yo'q. Yigirma oltiga besh — o'ttiz bir. Uf! Jami, demakim, besh yuz bir million-u olti yuz yigirma ikki ming yetti yuz o'ttiz bitta.

— Nima u — besh yuz bir million?..

— A? E, haliyam shu yerda turibsanmi?.. nimaligini bilmay ham qoldim... Ishim shu qadar ko'pki! Men jiddiy odamman, valaqlab o'tirishga vaqtim yo'q! Ikkiga besh — yetti...

— Nima u — besh yuz million?.. — deb takrorladi Kichkina shahzoda. U biror narsa haqida so'rarkan, to javob olmaganicha tinchimasdi.

Korchalon odam boshini ko'tardi.

— Ellik to'rt yildan buyon shu sayyorada yashayman. Shuncha vaqt mobaynida menga bor-yo'g'i uch marta xalaqit berishdi. Birinchi gal, yigirma ikki yil muqaddam qayoqdandir bir tillaqo'ng'iz uchib kelib qolganida shunday bo'lgan edi. U shunaqangi shovqin solib vizilladiki, men beixtiyor qo'shuvda to'rtta xato qilib qo'ydim. Ikkinchi gal esa o'n bir yil burun birdaniga meni bod tutib qoldi. Hadeb qadalib o'tiravergandan keyin... Meni sayr-tomosha qilib yurishga fursatim yo'q. Men jiddiy odamman. Uchinchi gal... mana endi! Demak, jami bo'lishi kerak edi besh yuz million-u...

— Besh yuz million nima, axir?

Korchalon odam javob bermasa qutulmasligini payqadi.

— Besh yuz million bu, haligi... bor-ku har zamonda osmonda ko'rinib qoladigan?

— Nima ekan u, pashshami?

— E, yo'g'-e, bor-ku kichkina, yaltiroq...

— Arimi?

— Yo'g'-e! Mitti-mitti, tilladek charaqlaydi, istagan tentak unga boqishi bilan xayoli qochib ketadi. Men jiddiy odamman. Xayol surishga aslo vaqtim yo'q.

— Ha, yulduzlarmi?

— E, topding, yulduz.

— Besh yuz million yulduz, degin? Nima qilasan ularni?

— Besh yuz million-u olti yuz yigirma ikki ming yetti yuz o'ttiz bitta. Men jiddiy odamman, aniqlikni yoqtiraman.

— Xo'sh, shuncha yulduzni nima qilasan?

— Nima qilasan, deysanmi?
— Ha.
— Hech narsa qilmayman. Men ularga egalik qilaman,
xolos.

— Yulduzlarga egalik qilasanmi?
— Ha.
— Lekin men yoʻlda bir qirolni koʻrdim, u...
— Qirollar hech kimga egalik qilolmaydi. Ular faqat
hukmronlik qiladi. Bu butunlay boshqa narsa.

— Yulduzlarga egalik qilishning senga nima keragi bor?
— Boy boʻlish uchun-da, nimaga boʻlardi.
— Boy boʻlishning nima keragi bor?
— Boy boʻlish, kimdir yangi yulduzlarni kashf etsa, ularga
ham egalik qilish uchun kerak.

«Buyam xuddi boyagi piyonistaga oʻxshab fikrlayapti»,
deya koʻnglidan oʻtkazdi Kichkina shahzoda va yana soʻroqni
davom ettirdi:

— Yulduzlarga qanday egalik qilish mumkin?
— Yulduzlar kimniki? — deb soʻradi korchalon ensasi
qotib.

— Bilmadim. Hech kimniki.
— Demak, meniki boʻladi. Chunki men buni birinchi
boʻlib oʻylab topdim.

— Shuning oʻzi basmi?
— Albatta-da. Aytaylik, koʻchadan olmos topib olsang-u
egasi boʻlmasa, u seniki boʻladi. Agar miyangga toʻsatdan biron
bir fikr kelib qolsa, darrov unga patent olasan: u endi butkul
seniki. Men yulduzlarga shuning uchun ham egalik qilamanki,
mengacha hech kim ularga egalik qilishni xayoliga ham keltir-
magan edi.

— Toʻgʻri, — dedi Kichkina shahzoda. — Har qalay, ayt-
chi, sen ularni nima qilasan?

— Ular ustidan hukmimni yurgizaman, — dedi korchalon.
— Tinimsiz sanab turaman. Bu judayam qiyin ish. Ammo
men jiddiy odamman.

Biroq Kichkina shahzodaga bu izoh kifoya qilmadi.

— Deylik, mening shohi roʻmolcham boʻlsa, uni boʻynim-
ga oʻrab oʻzim bilan olib ketishim mumkin, — dedi u. —
Mabodo mening bir gulim boʻlsa, uzib olib ketishim mumkin.
Lekin sen yulduzlarni oʻzing bilan birga olib ketolmaysan-ku!

— Toʻgʻri, ammo men ularni bankka qoʻyishim mumkin.
— Qanday qilib?
— Mana bunday qilib: qogʻozga qancha yulduzim borligi-

ni yozib chiqaman-da, keyin shu qog'ozni tortmaga solib qulflab qo'yaman.

— Bo'ldimi shu bilan?

— Shuning o'zi kifoya.

«Qizig'-a! — deb o'yladi Kichkina shahzoda. — Hatto shoirona ham. Ammo unchalik jiddiy ish emas».

Nima jiddiy, nima nojiddiy — buni Kichkina shahzoda kattalar singari emas, o'zicha tushunardi.

— Mening feruza gulim bor, uni har kuni ertalab sug'oraman, — dedi u. — Uchta vulqonim bor, har haftada ularni tozalab turaman. Bittasi so'ngan, uni ham tozalayman, har ehtimolga qarshi. Gulimga ham, vulqonlarimga ham mening ularga egalik qilishimdan naf bor. Yulduzlarga esa sening egaligingdan zig'irdak ham naf yo'q...

Korchalon nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, biroq javob topolmadi. Kichkina shahzoda yo'lga jo'nadi.

«Yo'q, kattalar chindan ham nihoyatda antiqa xalq», deya soddalik bilan ko'nglidan kechirdi u yo'lida davom etarkan.

XIV

Beshinchi sayyora judayam g'aroyib edi. U boshqa sayyoralarning hammasidan kichkina bo'lib, sathiga bor-yo'g'i bitta fonus chiroq bilan charog'bon joylashgan edi. Kichkina shahzoda, bepoyon koinot qa'rida garddek bo'lib ketgan, na birorta uy, na birorta tirik jon bo'lgan bu mitti sayyorada chiroq bilan charog'bonning nima keragi borligiga mutlaqo tushuna olmadi.

«Ehtimol, bu odam ham tentakdir. Ammo u qirol, shuhratparast, piyonista va korchalon singari tentak emas. Uning ishida, har qalay, ma'no bor. U fonusini yoqqan paytda go'yo yana bir yulduz chaqnagandek yoki yana bir gul ochilgandek bo'ladi. Chirog'ini o'chirgan paytda esa, go'yo yulduz so'ngandek yoki gul so'lgandek bo'ladi. Judayam ajoyib mashg'ulot ekan. Bu chinakamiga foydali bo'lsa kerak, chunki go'zal ish».

Sayyoraning ro'parasiga yetib kelgach, u ehtirom bilan charog'bonga ta'zim qildi.

— Salom, — dedi u. — Nega hozir chirog'ingni o'chirдинг?

— Shart shunday, — deb javob berdi charog'bon. — Salom.

— Qanaqa shart?

— Chiroqni kechqurun o'chirishim kerak. Oqshoming xayrli bo'lsin!

U shunday deb chiroqni yana yoqdi.

— Unday bo'lsa, nega tag'in yoqding?

— Shart shunday, — deb takrorladi charog'bon horg'in.

— Tushunmadim, — dedi Kichkina shahzoda tan olib.

— Tushunadigan narsaning o'zi yo'q, — dedi charog'bon. — Shart bo'lgandan keyin bajarish kerak. Salom!

Shunday deb chiroqni o'chirdi-da, qizil katakli ro'molcha bilan peshonasini artib:

— Juda kasbim og'ir, — dedi. — Bir paytlar buning ma'nosi bor edi. Chiroqni kechqurun yoqardim, ertalab o'chirardim. Ixtiyorimda dam olishga bir kun, uxlashga bir kecha qolardi...

— Xo'sh, keyin shart o'zgarib qoldimi?

— Shart o'zgarmadi, — dedi charog'bon. — Hamma balo shunda-da! Mening sayyoram kundan kunga tezroq aylanmoqda, shart esa hamon o'sha eskiligicha qolyapti.

— Endi nima qilasan? — deb so'radi Kichkina shahzoda.

— Nimayam qilardim? Sayyora bir daqiqa ichida to'la aylanib chiqadi, nafas rostdashga bir soniya ham fursatim qolmaydi. Chiroqni har daqiqada yoqib-o'chirishga majburman.

— Ana xolos! Rosa qiziq-ku! Demak, sening sayyorangda kunning uzunligi bor-yo'g'i bir daqiqa ekan-da!

— Nimasi qiziq ekan buning, — dedi charog'bon e'tiroz bildirib. — Mana, hozir ikkalamiz bir oydan buyon gaplashib turibmiz.

— Bir oydan buyon?!

— Ha-da. O'ttiz daqiqa. O'ttiz kun. Oqshoming xayrli bo'lsin!

U shunday deb yana chiroqni yoqdi.

Kichkina shahzoda charog'bonga tikilib qoldi. Ahdiga sodiq bu odam unga hamadan ko'ra ko'proq yoqqan edi. Bir paytlar o'zining quyosh botishini yana bir marta tomosha qilish uchun kursichani nari-beri surib yurganlari yodiga tushib ketdi-yu bu yangi do'stiga yordam bergisi keldi.

— Menga qara, — dedi u charog'bonga, — bir yo'li bor: sen xohlagan paytingda dam olishing mumkin, faqat...

— Mening doim dam olgim keladi, — dedi charog'bon.

Ahdga sodiq qolib ham dangasa bo'lish mumkin-da, axir!

— Sening sayyorang shunchalik kichkinaki, — deb davom etdi Kichkina shahzoda, — uch hatlab uni aylanib chiqishing mumkin. Bilasanmi, shunday tezlik bilan yurishing kerakki,

quyosh hamisha sen tarafda bo'lishi lozim. Qachon dam olging kelsa, ketaverasan, ketaverasan... Shunda kunning uzunligi sen xohlaganicha davom etadi.

— E, buning foydasi kam, — dedi charog'bon. — Men dunyoda hamma narsadan ham uyquni yaxshi ko'raman.

— Unda, ahvoling chatoq, — dedi Kichkina shahzoda achinib.

— Ahvolim chatoq, — deb tasdiqladi charog'bon. — Salom.

Shunday deb tag'in chiroqni o'chirdi.

«Ana odam» — dedi Kichkina shahzoda o'zicha, yo'lida davom etarkan. — Hoynahoy, qirol ham, shuhratparast-u piyonista ham, korchalon ham undan nafratlangan bo'lurdi. Ammo, menimcha, ularning orasida eng rasosi shu. Ehtimol, faqat o'zi haqidagina o'ylamasligi uchun ham u shunaqadir».

Kichkina shahzoda asta xo'rsindi.

«Mana men do'st tutinishim mumkin bo'lgan odam, — deb o'yladi yana. — Lekin uning sayyorasi shu qadar kichkinaki, ikki kishi sig'maydi...»

Bu ajoyib sayyora boshqa bir sabab tufayli ham achinayotganini tan olmoqqa u botinolmadi: bu yerda yigirma to'rt soat mobaynida quyosh botishini bir ming to'rt yuz qirq marta tomosha qilish mumkin edi-da!

XV

Oltinchi sayyora avvalgisidan o'n barobar katta edi. Unda yostiqdek-yostiqdek kitoblar yozadigan chol yashardi.

— Ana buni qarang-a! Sayyoh keldi! — deb xitob qildi u Kichkina shahzodani ko'rib.

Kichkina shahzoda nafas rostlash uchun stol yoniga o'tirdi. Benihoya ko'p yo'l yurib obdan charchagan edi u!

— Qayerdansen? — deb so'radi chol.

— Bu katta kitobingiz nimasi? — deb so'radi Kichkina shahzoda. — Bu yerda nima qilib o'tiribsiz?

— Men geografman, — dedi chol.

— Geograf degani nima?

— Bu degani — daryo-yu dengizlarning, shahar va tog'larining, cho'l-u biyobonlarning qayerda joylashganini biladigan odam.

— E, zo'r ekan! — dedi Kichkina shahzoda. — Chindan ham, mana buni haqiqiy ish desa arziydi!

U shunday deb geografning sayyorasiga nazar tashladi.

U umrida hech qachon bunday katta sayyorani ko'rmagan edi.

— Sayyorangiz judayam chiroyli ekan, — dedi u. — Ayting-chi, okeanlar bormi bu yerda?

— Bunisini bilmadim, — dedi geograf.

— E-e, — dedi Kichkina shahzoda hafsalasi pir bo'lib. — Tog' bormi, tog'?

— Bilmayman, — dedi geograf.

— Shaharlar, daryolar, sahrolar-chi?

— Buniyam bilmayman.

— Axir siz geografsiz-ku!

— Bo'lmasa-chi! — dedi chol viqor bilan. — Gap shunda-da: men sayyoh emas, geografman. Menga sayyohlar juda-juda yetishmaydi. Chunki shaharlar, daryo-yu tog'lar, dengiz-u okeanlarni, cho'l-u biyobonlarni geograflar hisoblab qayd etmaydi. Geograf — bu katta odam, uning sang'ib yurishga vaqti yo'q. U o'z kabinetidan chiqmaydi, ammo sayyohatchilarni qabul qilib ularning hikoyalarini yozib oladi. Agar ularning birortasi qiziqroq voqeani aytib bersa, geograf hujjat to'plab, shu sayyohning bama'ni odammi yoki betayinligini tekshiradi.

— Nima uchun?

— Chunki sayyoh aldab uydirmalarni so'zlagan bo'lsa, jug'rofiya darsliklari chalkashib ketadi-da. Agar u ko'proq ichadigan bo'lsa, tag'in tashvish ortdi, deyaver.

— Nega?

— Negaki, piyonistalarning ko'ziga hamma narsa ikkita bo'lib ko'rinadi. Uning gapiga ishonib, geograf bitta tog'ni ikkita deb yozib qo'yishi mumkin.

— Men bir odamni bilardim... Undan yomon sayyoh chiqardi, — deb qo'ydi Kichkina shahzoda.

— Bo'lsa bordir. Xo'sh, shunday qilib, agar sayyoh bama'ni odam bo'lib chiqsa, keyin uning kashfiyoti tekshiriladi.

— Qanday tekshiriladi? Borib ko'rib kelinadimi?

— E, yo'q. Bu judayam murakkab ish. Shunchaki, sayyohdan kashfiyotini tasdiqlaydigan ashyoviy dalil talab etiladi, xolos. Masalan, agar u ulkan bir tog'ni kashf etgan bo'lsa, undan katta-katta xarsangtoshlarni olib kelib ko'rsatishi kerak. — Geograf birdaniga hayajonga tushdi. — E, aytmoqchi, o'zing ham sayyohsan-ku! Hoyna-hoy, g'oyat uzoqdan kelgandirsan. Menga o'z sayyorang haqida gapirib ber!

Geograf oldidagi qalin daftarini ochdi-da, qalam yo'na

boshladi. Sayyohlarning hikoyalari avval qalamda yozib olindi, kashfiyotini tasdiqlaydigan ashyoviy dalil keltirgachgina, ularning xotiralarini siyoh bilan yozish mumkin.

— Qulog'im senda, — dedi geograf.

— He, mening sayyoramda unchalik qiziq narsa yo'q, — dedi Kichkina shahzoda. — U yerda hamma narsa nihoyatda kichkina. Uchta vulqon bor, ikkitasi uyg'oq, bittasi allaqachon so'ngan. Lekin bilib bo'lmaydi-da.

— Ha, bilib bo'lmaydi, — deb ma'qulladi geograf.

— Keyin, mening bir gulim bor.

— Gullarni hisobga olmaymiz, — dedi geograf.

— Nimaga?! Axir, u judayam chiroyli-ku!

— Chunki, gullar efemer sanaladi.

— «Efemer»ingiz nimasi?

— Jug'rofiya kitoblari — dunyodagi eng qimmatbaho kitoblardir, — deb tushuntirdi chol. — Ular hech qachon eskirmaydi. Zero, tog'ning o'z o'rnidan qo'zg'alishi kamdankam uchraydigan hodisa. Yoki okeanning qurib qolishi... Biz faqat mangu va turg'un narsalar xususidagina yozamiz.

— Biroq, so'ngan vulqon qaytib uyg'onishi mumkin-ku, — deb uning gapini bo'ldi Kichkina shahzoda. — «Efemer» degani nima o'zi?

— Vulqon uyg'oqmi, so'nganmi, buni biz, geograflar uchun ahamiyati yo'q, — dedi geograf. — Muhimi shundaki, u tog'. Tog' esa o'zgaraydi.

— «Efemer» degani nima? — deb tag'in takrorladi Kichkina shahzoda.

— Bu — hademay yo'q bo'ladigan narsa, degani.

— Mening gulim ham hademay yo'q bo'ladimi?

— Albatta.

«Mening feruza gulim, mening yagona quvonchim mangu emas ekan, — deb anduh bilan shivirladi Kichkina shahzoda. — U balo-qazolardan, ofat-u to'fonlardan o'zini qanday asraydi? Bor-yo'g'i to'rttagina tikoni bo'lsa. Men uni tashlab ketdim, huvillagan sayyoramda yolg'iz o'zi qolgan edi-ya!»

Shundagina u tark etilgan guliga behad achinib ketdi, dilini g'ussa chulg'adi. Ammo shu ondayoq jur'atini to'plab:

— Endi men qayoqqa borsam ekan, nima maslahat berasiz? — deb so'radi.

— Yer degan bir sayyora bor, shunga borib ko'r, — deb javob berdi geograf. — Uning nufuzi chakki emas...

Kichkina shahzoda yo'lga tushdi, ammo fikr-u yodi sayyorasida qolgan yolg'izgina gulda edi.

XVI

Shunday qilib, u qadamranjida qilgan yettinchi sayyora Yer edi.

Yer — oddiy sayyoralardan emas! Bunda bir yuz yigirmata qirol (negr qirollari ham shunga kiradi, albatta), yetti ming geograf, to‘qqiz yuz ming korchalon, yetti yarim million piyonista, uch yuz o‘n bir million shuhratparast, xullas, jami ikki milliardga yaqin katta odam mavjud.

Yerning naqadar kattaligi haqida sizga birmuncha tasavvur bermoq uchun shuni aytish bilangina kifoyalanaman: elektr kashf etilguniga qadar olti qit‘ada charog‘bonlarning to‘rt yuz oltmish ikki ming besh yuz o‘n bir kishidan iborat ulkan lashkari tutib turilardi.

Agar chetdan razm solinsa, bu qoyilmaqom bir tomosha bo‘lardi. Bu ulkan lashkarning xatti-harakatlari go‘yo baletdagidek aniq bir qoidaga bo‘ysunardi. «Sahna»ga birinchi bo‘lib Yangi Zelandiya va Avstraliyadagi charog‘bonlar chiqishardi. Ular chiroqlarini yoqib, uxlagani ketishardi. Keyin xitoy charog‘bonlarining navbati kelardi. O‘z «raqsi»ni ado etib ular ham parda ortiga g‘oyib bo‘lishardi. Ulardan so‘ng Rossiya va Hindiston charog‘bonlariga gal tegardi. Keyin esa — Afrika va Yevropa, undan so‘ng Janubiy Amerika va nihoyat, Shimoliy Amerikadagi charog‘bonlarning navbati yetardi. Shu tariqa hech kim hech qachon adashib ketmas, hamma «sahna»ga o‘z vaqtida chiqardi. Ha, bu chindan ham qoyilmaqom tomosha edi!

Faqat, shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo‘lgan charog‘bon bilan uning janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham maza edi, ikkalasi ham ortiqcha tashvish-taraddudsiz yashardi: ular o‘z hunarini yilda ikki martagina ko‘rsatardi, xolos.

XVII

Ba‘zan haddan tashqari suxandonlik qilging kelib qolgan-da ozmi-ko‘pmi mubolag‘a qilasan kishi. Mana, men ham charog‘bonlar haqida so‘zlayturib, haqiqatga birmuncha xilof ish tutdim. Ishqilib, sayyoramizmi yaxshi bilmaydiganlarda u haqda noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘lmasa bas! Aslida odamlar Yer yuzida unchalik ko‘p joyni egallamaydi. Agar unda istiqomat qiladigan ikki milliard odam to‘planib, xuddi mitingdagidek yelkama-elka tursa, ular ortiqcha qiynalib-netmay,

uzunasiga kengligi yigirma mil keladigan maydonga bermalol joylashgan bo'lar edi. Butun insoniyatni Tinch okeandagi tanadekkina orolchaga ham sig'irib yuborish mumkin.

Kattalar, albatta, bu gapingizga ishonmaydilar. Ular o'zlarini juda ko'p joyni egallaydigan chog'laydilar, o'zlarini xuddi baobablardek bahaybat va ulug'vor hisoblaydilar. Siz shunda ularga aniq hisob-kitob qilib chiqishni taklif eting. Bu gap ularga ma'qul bo'ladi, axir ular raqam desa o'lib qolishadi-ku. Siz esa bu bo'lmag'ur arifmetika bilan boshingizni qotirib yotmang. Uning sariq chaqalik ham foydasi yo'q. Bilaman, siz shundoq ham menga ishonasiz.

Alqissa, Kichkina shahzoda Yerga tushgach, atrof-javonibda biror tirik jonni ko'rmay, behad hayron bo'ldi. Hatto, adashib boshqa sayyoraga kelib qoldimmikan, degan xayolga ham bordi. Biroq shu payt oyog'i ostida, qum uzra kulcha bo'lib yotgan allaqanday kulrang narsa qo'zg'alib qo'ydi.



Savol va topshiriqlar

1. Kichkina shahzodaning qayerdan kelib qolganligi, uning qandayligi, sayyorasining esa qanday bo'lganligi yodingizda bormi? Aytib bering.
2. Kichik shahzoda sayyorasiga yaqin asteroidlar — yulduzlar qanday atalgan? Birinchi asteroidda kim yashaydi? U qanday kishi?
3. Ikkinchi asteroidda-chi? Uning fe'l-atvori qanday?
4. Uchinchi va to'rtinchi asteroid-sayyoralarda-chi? Bu sayyoralarning «aholisi» qanday odamlar?
5. Beshinchi-oltinchi sayyorada-chi? Bu sayyoralarda yashovchi kishilardan biri telba-teskari ishlar qiladi, ikkinchisi esa mutaxassis bo'la turib shaharlar, daryolar, sahrolar nimaligini bilmaydi. Yozuvchi bunday kishilar obrazini yaratish bilan nima demoqchi?
6. Yozuvchining ushbu asarni yozishdan maqsadi nima?
7. Asarning qanday xususiyatlari sizga ma'qul bo'ldi? Kichkina shahzoda obrazi sizga yoqdimi? Agar yoqqan bo'lsa, nimasi bilan?
8. Asarni topib, to'la o'qib chiqing.

RAUF PARFI

(1943- yilda tugʻilgan)



Rauf Parfi oʻtgan asrdagi 50-yillarning ikkinchi yarmida oʻzbek sheʼriyatiga oʻziga xos lirik shoir sifatida kirib kelgan. U tabiat manzaralarini tasvirlashga ham, inson ruhiy olamining tasvirini berishga ham usta. U soʻzning maʼno tovlanishlarini va ohangini nozik his etuvchi shoirdir.

Rauf Parfi tarjima bilan shugʻullanib, Bayron, Nozim Hikmat singari mashhur shoirlarning qator asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

* * *

Sohil boʻylab borardi bir chol,
Qoʻlda hassa, shoshib borar ul.
Har kun takror boʻlar ushbu hol,
Gʻudranadi, asabiy nuqul.

Jonga tekkan bu uzun toqat,
Yetaklarmi xayolot majhul?
Gʻudranadi, asabiy, faqat
Daryo sari sudraladi ul.

Qandayin sir bordir buyoqda,
Azim daryo, sen oʻzing aytgil?..

— Huv, yoshligi qolgan qirg‘oqda,
Yoshligini izlab kelar ul...



Savol va topshiriqlar

1. She’rda ifodalangan mazmunni aytib bering.
2. Chol nega har kuni yoshligini izlab, daryo sohiliga keladi? Shoir bu voqeani tasvirlash bilan nima demoqchi?
3. She’rning badiiy go‘zalligi, sizningcha, nimada?

**V****ATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR**

FITRAT

(1886—1938)



Fitrat ijodi o'zbek adabiyoti tarixida butun bir davrni tashkil etadi.

XX asrda maydonga kelgan o'zbek yozuvchilari orasida Fitratdek boshqa qomusiy bilim egasi bo'lmagan. U Sharq va G'arb tarixini, madaniyatini, adabiyotini bilishdan tashqari, zardushtlik, buddizm, islom dini, musiqa va hatto shaxmat tarixidan ham yaxshi xabardor alloma edi. Zamondoshlarning aytishlaricha, u o'simliklar olamini ham juda yaxshi bilgan; Samarqandda Fitrat yashagan davrda undan zo'r holvapaz, undan zo'r qandolatchi bo'lmagan...

Ana shunday serqirra iste'dod sohibi yotib olib ko'plab she'r va dostonlar, roman va dramalar, ilmiy adabiy-tarixiy asarlar yozishi mumkin edi. Ammo u o'z hayotining bosh ma'nosini xalq va vatan ozodligi uchun kurashda ko'rdi. Ijodining ilk davridan boshlab xalqni uyg'otishga, asriy qoloqlikdan chiqishga, ma'rifatli bo'lishga, fan va texnika asri bilan baravar qadam tashlashga chaqirdi. 1917- yil Fevral inqilobidan keyin esa, darslikda aytilganidek, yurt dardi (qayg'usi) bilan yo'g'rilgan bir turkum asarlarni yaratdi.

Fitrat bu asarlarni yig'lab, hayqirib yozgan edi, ziyolilar ham uni yig'lab, hurriyat uchun kurashish haqida qasamyod qilib o'qiganlar. Ammo, afsuski, o'zbek xalqi Fevral inqilobi bergan tarixiy imkoniyatdan foydalana olmadi.

Ma'lum bo'lishicha, Fitrat 1918- yilda yozgan «Yurt qayg'usi» nomli to'rtta she'ridan tashqari, 1920- yilda ham shu nomda yana bir sochmani yozgan ekan. Bu Fitratning «Tengiz» taxallusi bilan yozilgan asari bo'lib, «Buxoro axbori» gazetasining 1920- yil 5- oktabr sonida bosilgan va yaqinda adabiyotshunos Sirojiddin Ahmad tomonidan matbuotda e'lon qilindi. Asarda Buxoro amiri taxtdan ag'darilgandan keyingi tarixiy davr manzaralari tasvirlanadi.

Bu she'rning topilishi Fitratning Turkiston Muxtoriyat hukumati shafqatsiz ravishda tor-mor etilganidan keyin ham erk va hurriyat uchun faol kurash olib borganidan darak beradi.

Fitrat xuddi shu faoliyati uchun — o'z vatanining mustaqilligi yo'lida izchil faoliyat olib borganligi uchun dastlab adabiyot olamidani uzoqlashtirildi, yozgan asarlari nashr etilmadi, 1937- yilda esa «xalq dushmani» sifatida ayblanib olib tashlandi.

Ammo butun hayoti va ijodini mustaqillik uchun kurashga to'la-to'kis bag'ishlagan, «Yurt qayg'usi» singari xalqni ozodlik uchun kurashga da'vat etuvchi she'rlar, nasriy asarlar va dramalar yozgan Fitrat doim xalq xotirasida barhayot qoladi.

YURT QAYG'USI

(Ona bilan o'g'il)

— Ona! Nechungina yig'laysan? Bugun saodatga erishdik, yana qayg'urasanmi? Bugun o'z tilagingga yetishding, ko'z yoshlaringni to'kadirsanmi?

Emdi qayg'urmoq chog'i bitdi, yig'lamoq pallasi yo'q bo'ldi, rohat kunlaring yetishdi, onam!

— Oh... o'g'lum, arslonim! Mustabid hukumat uyimni talatdi: buyuk binolarimni yiqitdi: suyuqli o'g'lonlarimni o'ldurdi.

Tahammul etdim, sabr qildim, kimsaga bir og'iz so'z bu to'g'ridan ochmadim. Negakim, qo'llarinda qilich, o'muz-

larinda to'fang, mani o'ldirmoqqa hozir edilar. Dunyoning mukofot ekanligin bilgan edim.

Bilar edimki, bu zolimlar bir kun qilg'on zulmlarining mukofotini ko'rarlar. Bilardimki, to'kilgan qonlarning har bir tommasidan biror arslon yaratilub bunlarning qonlarini icharlar.

Ko'zlari ko'r, quloqlari kar bo'lib onalarini tonimaydilar, yuragimni teshadirlar, bag'rimni parchalaydilar. O'zlarini tarbiya qilib yetishtirgan onalarini yo'q bo'luviga sabab bo'ldilar.

O'y-lamas o'g'illarim butun bir qutimni yotlarg'a talatib, nomusimni g'ayrilarning oyog'i ostinda oldilar.

Bo'yla onalarig'a dushmanliqlari o'z boshlarig'a yetdi, bukun ko'rub to'rg'on mukofot u qilg'on zulmlarig'a qarshi edi.

Shu davlat, shu g'ururlariga mast bo'lg'on xoinlarning kasofati tegdi. Butun uyimni yondirdilar, yuragimdan alangalar chig'a boshladi, buyuk binolarim yonib bitdi.

Go'zal-go'zal masjidlarim kul bo'ldi. Zolimga qarshi otilgan to'plar manim tom yuragimni teshdi, u mustabidlarga qarshi otilg'on to'fanglar mani xavfga soldi.

Nima qilayin, oh, minglarcha gunohsiz ma'lum o'g'lonlarimni nohaq yerda qonlari to'kildi, qancha onalar bolasiz va necha o'g'lonlar onasiz qoldi.

— Onajonim! Yig'lama, dushmanlar mahv bo'ldi, u mustabid qon ichuvchilar bitirildi. U mustabidlar qo'lindan ochilg'on yaralaringni tuzatmak uchun do'qturlar hozirlanib, zahmlar tuzatildi.

Emdi yig'lama. Saning saodatingni chin ko'nguldan istab yurg'on bolalaring holingni so'rg'ali keldilar. Tur! Yig'lamoq o'rnida bir oz kul.

— Oh, arslon o'g'lonlarim! Emdi chin suyuqli o'g'lonlarimni quchog'inda yotayin. Oh, men sizni bu kunlarim uchun yetishtirgan edim. Manim emkanib tarbiya qilg'on choqlarimni esingizdan chiqarmaysiz.



Tahammul — sabr, chidam

Oʻmuz — yonbosh

Toʻfang — toʻpponcha

Tomma — tomchi

Quti — sandiq, xazina maʼnosida

Zaxm — yara, jarohat



Savol va topshiriqlar

1. Nega oʻgʻil onasiga qarab: «Bugun saodatga erishdik, yana qaygʻurasanmi?» deydi?
2. Ona: «Mustabid hukumat uyimni talatdi», deganda qaysi hukumatni nazarda tutgan?
3. Fitrat ona va oʻgʻil obrazlari orqali kimlarni ifodalagan?
4. Yosh Sovet davlatining Buxoro xalqiga koʻrsatgan zulm-zoʻravonligi asarda qanday oʻz tasvirini topgan?
5. Mazkur sochmaning darslikda berilgan sochmalardan qanday farqi bor? Tarixiy vaziyatning oʻzgargani bu sochmada aks etib turibdimi?

ERKIN VOHIDOV

(1936- yilda tugʻilgan)



«Mana, bir necha oʻn yildirki, biz dilbar bir sheʼriyatning muattar havosidan bahramand boʻlib kelayotirmiz. Bu — Erkin Vohidov sheʼriyatidir. Ona tilimizning ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang shamoyili, gʻoyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uygʻotuvchi tash-behlar, oʻtkir xulosalar — bular bari ulkan shoirimizning qalamiga mansub betakror fazilatlardir. Men Erkin Vohidovni sheʼriyatda oʻziga xos sehr sohibi deb bilaman.

...Men Erkin Vohidovdek ulkan shoir bilan zamondosh boʻlganim uchun faxrlanaman».

Abdulla ORIPOV

Shoir Erkin Vohidovni Vatan, yoshlik, sevgi kuychisi deb atashadi. Uning «Oʻzbekim» qasidasi XX asr oʻzbek sheʼriyatida yaratilgan Vatan haqidagi eng yetuk madhiyalardan biridir. «Yoshlik devoni»dan joy olgan gʻazallarida esa zamonaviy yoshlar qalbidagi sevgi, yoshlik tuygʻulari nihoyatda joʻshqin, nafis, goʻzal bir tarzda ifodasini topgan. «Yoshligim» gʻazalini oʻqib bunga ishonch hosil qilasiz. Shoir «Oʻzbekim» bilan barobar ona Vatan haqida yana koʻplab sheʼrlar bitgan. «Vatandin yaxshi yor boʻlmas» sheʼri shulardan biri.

Ayni paytda Erkin Vohidov bir qator hajviy — yumoristik asarlar muallifidir. Ayniqsa, «Donishqishloq latifalari» el orasida mashhur boʻlib ketgan.

VATANDIN YAXSHI YOR BOʻLMAS

Jahonda men tugʻilgan
Oʻlkadek hech bir diyor boʻlmas,
Bu yangligʻ bogʻ-u gulshan
Ham bu yangligʻ guluzor boʻlmas,
Vatan sevmakdin ortiq
Menga olamda shior boʻlmas.
Vatan ishqida yongan qalb,
Bilingki, asti xor boʻlmas,
Vatan sevgan murodiga
Yetur, hech dilda zor boʻlmas.

Saodatga makondir
Qay chamanga sen qadam qoʻysang,
Oʻzingni baxtli bil yurtda
Yashashning zavqini tuysang,
Chin odamsan, chin oʻgʻlonsan
Yurakdan elni chin suysang,
Vatan sevmoq saodatdir,
Agar naslingga sen kuysang,
Vatanni sevmagan inson
Jahonda baxtiyor boʻlmas.

Toʻyib boqgil bu yurt husnigakim,
Koʻnglingni chogʻ etgin,
Bu elning oʻgʻliman, deb
Qil gʻurur, koʻksingni togʻ etgin.
Vatan har zarra tuprogʻin
Koʻzingga sen qarogʻ etgin,
Bobolar maskan etgan
Bu aziz tuproqni bogʻ etgin,
Yarashgay iftixor etsangki,
Ortiq iftixor boʻlmas.

Zuloli taʼmini topmam
Sira bol-u shakarlarda.
Vatan yodi erur qalbimda
Boʻlsam men safarlarda,

Jamoliga to'yolmasman
Kezib qishloq, shaharlarda,
Qizil gul bargida bulbul
Kabi sayrab saharlarda,
Yana shoir qilur takror,
Vatandin yaxshi yor bo'lmas.



Savol va topshiriqlar

1. Shoirning yoshlik haqidagi dil so'zlari Sizning bu xususdagi fikr-qarashlaringizga mos tushadimi? Nega?
2. Yoshlik haqida yana qanaqa she'rlarni bilasiz?
3. She'rni yod oling.



ABDULLA ORIPOV

(1941- yilda tug'ilgan)



Abdulla Oripovning she'rlarida men fikrning salmoqdorligini, obrazlarning pishiq va yangiligini, ularning kitobxonni zeriktiradigan tor ma'noli qizil so'zlikdan xoli ekanini ko'rdim. Bu shoir so'zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o'z bilishicha, uni o'ziga xos yangi nazar bilan ko'radi.

Qaysin QULIEV

Abdulla Oripov to'g'risida juda ko'p yozilgan. Uni bilmagani, uning she'rlarini o'qimagan biror o'zbek bo'lmasa kerak. Ammo hamma kitobxonlar ham Abdulla Oripovning qayerda tug'ilganini bilmasliklari mumkin.

O'zbek diyorining janub tarafida Qarshi shahri joylashgan bo'lib, shu shaharning g'arb tomonida, shahardan anchagina chekkada Neko'z degan qishloq bor. Abdulla Oripov 1941- yil 21- aprel kuni, navro'z ayyomida ana shu qishloqda dunyoga kelgan.

Neko'zning sharq tarafida uncha baland bo'lmagan, hatto katta tepalik deb atash mumkin bo'lgan ko'hna tog' bor. Uni qishloq ahli Qo'ng'irtov deb ataydi. Abdulla Oripov she'rlarida kuylangan tog' ana shu Qo'ng'irtovdir.

Abdulla Oripov shu yerda tug'ilib, dunyoni tanib, Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga borganida, boshqa hamqishloqlari qatori, shoir bo'lish orzusi

bilan qalam tebrata boshlagan bir yigitcha edi. Oradan ko'p o'tmay, uning dastlabki she'rlari matbuot yuzini ko'rdi. O'qishni tugatganidan so'ng esa birinchi she'rlar kitobi nashr etildi. Abdulla Oripovning «Mitti yulduz» deb atalgan bu dastlabki she'riy to'plami o'zbek she'riyati osmonida yangi bir yulduzchanning tug'ilganidan darak berdi. Ko'p o'tmay, bu yulduzchanning yangi-yangi she'riy kitoblari chiqib, iste'dodi chaman bo'lib ochildi.

Bugun Abdulla Oripov o'nlab she'riy kitoblari bilan har bir o'zbek xonadoniga kirib borgan, «Sohibqiron» she'riy dramasi qator teatrlar sahnasida qo'yilgan atoqli shoirgina emas, balki yirik jamoat arbobi hamdir.

O'ZBEKISTON BAYROG'I

Har qanday lashkarning ham
O'z tug'i, yalovi bor,
Sen qaysi saltanatdan,
Sen qaysi davlatdan kam,
Qo'rg'onlar qatorida
Bir qo'rg'onsan ustivor,
Vallamat, tug'dor yurtim,
Muhtasham respublikam.

O'ylayman, ha, olamda
Nisbiy erur ko'p holat,
Zamona g'alviridan
Har narsa o'taverar.
Tarix uchun va lekin
Kim ham bergay kafolat,
Yakka inson bir yo'lchi:
Kelar-u ketaberar.

Qadim-qadim zamonda
Yunonlik haykaltarosh
Bir san'at yaratibdi,
Maqsadi — bir burda non.
Haykal esa asrlar
Sinoviga bermish dosh,
Bugun uni ko'klarga
Ko'tarar butkul jahon.

Ko'zni kattaroq ochib
Boqsang bu muammoga
Alam qilgulik qadar
Kam yashar inson zoti,
Faqatgina xalq sohib
Bardavom bu dunyoga,
Asragay har kas nomin
Faqat xalqning hayoti.

Sanasang, hodisot mo'l
O'zbekning tarixida.
Har biriga bir noma
Yoki doston bitgulik.
Ne zotlar oqmagan bu
Asrlar arig'ida,
Har biri bitta xalqning
G'ururiga yetgulik.

Bari o'tdi, el qoldi
Qismatga o'yin bo'lib,
Yaktan o'zbek o'z-o'zin
Yumdaladi beto'xtov,
Ulug' bu yurt kiygan to'n
Chok-chokidan so'kilib,
Uch yonga ketdi o'zbek
Qo'lida uchta yalov.

Barchaga ayon erur
Men aytgan ushbu gaplar,
To hanuz asablarni
Ezgilar bu shum o'tmish.
Moziyga o'qtin-o'qtin
Sochsak hamki g'azablar,
Lekin ayting, o'zbekning
Qo'lidan kim ham tutmish?

Bir kuni yovqur shoir
Ya'ni Turdi Farog'iy,
Bo'ltak bo'lgan bu xalqqa
Birlash deb qildi xitob.
Bejavob qola berdi
Uning dardli so'rog'i,

O'sha-o'sha zamin kar,
O'sha-o'sha gung oftob.

Bugun zimdan nazar sol
Sen mana bu bayroqqa,
Mayliga bir daqiqa
Unutgin turfa kekni.
Shu bayroq nomimizni
Elti yiroq-yiroqqa,
Shu bayroq birlashtirdi
Parokanda o'zbekni.

Fursati kelgan ekan
Ta'zim ila aytayin:
Bayroqqa Amir Temur
Ruhi o'zi yor bo'lgan.
O'z haqq-u huquqini
Eta olsa gar tayin,
Bir bayroqni tutgan xalq
Abadiyan bir bo'lgan.

Mustaqil o'lkamizning
Shavkatin ziyod etib,
Ona yurt yalovini
Sarbaland tutsak, ne baxt!
Gullayotgan Vatanda
Do'stlikni murod etib,
Ol bayroqni ushbu kun
Tiz cho'kib o'psak, ne baxt!



Savol va topshiriqlar

1. Mustaqil O'zbekiston bayrog'i qachon qabul qilingan?
2. Shoir O'zbekistonning bayrog'i munosabati bilan o'zbek xalqi va, umuman, jahon tarixining qaysi sahifalariga murojaat etgan? Nima uchun?
3. She'rdagi: «Uch yonga ketdi o'zbek Qo'lida uchta yalov» so'zlarini qanday tushunasiz?
4. Shoirning g'oyaviy maqsadi nima? U o'z she'ri bilan qanday fikr-xulosani ilgari surgan?
5. She'rning birinchi va so'nggi ikki bandini yod oling.



XURSHID DAVRON

(1952- yilda tug'ilgan)



Xurshid Davron tariximizni, adabiyotimizni yaxshi biladi. Men bu gapni uning she'rlarida uchrab turadigan tarixiy ismlar yoki mamlakatimizning mashhur shoir, rassomlarini o'qib aytatganim yo'q.

Uning she'rlarida ichki bir madaniyat, she'r, til madaniyati, keng ko'lamli fikr bor.

ZULFIYA

Xurshid Davron Samarqand viloyatining Samarqand tumani Chordara qishlog'ida tug'ilgan. U o'zining boshqa tengdoshlari singari, o'rta maktabni tugatgach, Toshkentga kelib, Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qishni davom ettirgan. So'ng harbiy xizmat, turli nashriyotlardagi yumushlar va, nihoyat, Toshkent televideniyesining «Yoshlar» kanali...

Shoir hayotining keyingi yillari hozirgi o'zbek yoshlarining, hatto katta yoshdagi kishilarning ham diqqat-e'tiborlarini o'ziga jalb etayotgan «Yoshlar» kanalida kechmoqda. Bu kanalning baland reytingi, birinchi navbatda, uning rahbari Xurshid Davronning mehnati va izlanishlari tufaylidir.

Xurshid Davron o'zbek she'riyatiga o'z qalbining, o'z avlodi qalbining tarjimoni sifatida kirib kelgan.

Shoirning Samarqandda, ne-ne buyuk bobolarimiz yasha-

gan, ne-ne obidalar yaratilgan va hozir ham jahonga shu obidalari bilan mashhur bo'lgan zaminda dunyoga kelganligi uning butun ijodidan «qizil ip» bo'lib o'tadi. U «Samarqand xayoli», «Sohibqiron nabirasi», «Shahidlar shohi» kabi tarixiy qissalar, «Mirzo Ulug'bek», «Boburshoh», «Avrangzeb» singari pyesalar yozgan. Samarqandda Amir Temur va Ulug'bek yubileylari munosabati bilan o'tkazilgan teatrlashtirilgan kechalarning ssenariysi ham Xurshid Davron qalamiga mansub.

Shubhasiz, tarixga shu qadar qiziqqan va tarixiy mavzularda talaygina asarlar yaratgan shoirning Vatan haqida bir emas, yetti rivoyatdan iborat she'riy turkum yozishi tasodifiy emas. Zero, Vatan butun bir xalqning, balki bir necha xalqlarning necha asrdan beri yashab kelayotgan va bundan keyin ham yashaydigan tarixiy maskanidir.

Xurshid Davron Vatan mavzusiga murojaat etganida uning tarixiy maskan sifatidagi obrazini ochishga, uning muqaddasligi ildizlarini ko'rsatishga alohida e'tibor beradi.

Uning «Vatan haqida yetti rivoyat» turkumi ana shu jihati bilan boshqa shoirlarning «vatannoma»laridan keskin farq qiladi.

«VATAN HAQIDA YETTI RIVOYAT»DAN

Vatan tuprog'i

Qo'shni yurtni bosib olgan
Eron shohin ko'ngli chog',
Bazm ila o'tar edi
Har bir lahza, har bir choq.

Ammo tezda qo'shni yurtdan
Ayg'oqchilar qaytishdi
Va podshohga ta'zim bilan
Shu gaplarni aytishdi:

«Qo'shni yurtda bizga qarshi
Pinhon isyon pishmoqda.
Tog'da pisib yurganlar ham
Hozir pastga tushmoqda.

Kecha-kunduz tinim bilmas
Temirchilar bosqoni,

Shoirlari she'r bitar mast:
«Bitsin dushman bosqini!»

Eron shohi o'yg'a botib,
So'ngra sapchib baqirar,
Qadahini chetga otib,
Vazirlarin chaqirar:

— Qani, bunga nima deysiz?
Tezroq chora izlangiz.
Huzurimga har bittangiz
Tongda kelib so'zlangiz.

Tong otadi,
Ahli dovon
Hammasi bo'lar hozir.
To'pdan chiqib, boshin egib
So'z boshlaydi bosh vazir.

So'z boshlaydi:
— Keching, — deya —
Ahli dovon qonidan,
Bor gapni biz eshitarmiz
Qo'shni yurtning xonidan.

— Hoy, la'nati! — baqiradi
Eron shohi o'sha on. —
Ko'nglidagin aytarmidi
Bizga, axir, qo'shni xon?!

— Aytar, — dedi bosh vazir shod,
Milt-milt yonib ko'zlari.
Yangray boshlar o'sha zahot
Hiyla to'la so'zlari:

«Chorasi bor,
Shuni qilsak
Ko'nglin ochar o'sha mard.
Buning uchun qo'shni yurtdan
Tuproq olib kelmoq shart.

Bog'ingizning yarmini shu
Tuproq bilan qoplaylik,

Keyin chorlab qo'shni xonni,
Ulug' shohim, boplaylik —

Hech nimadan bexabardek
Lutf qiling mehmonga,
Uni olib o'ting keyin
O'sha tuproq tomonga.

O'sha oni siz bilursiz
Ko'nglida ne asror bor,
Nimalarni pinhon saqlar
Yuragida ul ayyor!»

Shoh ham ko'ndi...
O'sha kuni
Chopar jo'nab ketadi.
Uch kun o'tmay qo'shni yurtning
Poytaxtiga yetadi.

Eron shohi aldar, deya
Qilmay shubha
Yo gumon,
Hayallamay Eron tomon
O'tlanadi qo'shni xon.

Yetib kelar,
Ta'zim ila
Shoh etagin o'padi,
Mushtdek bo'lib bir chekkaga
U ohista qo'nadi.

Uni ko'rib Eron shohi
Nazar-pisand qilmaydi:
«Bundayin xor bo'lgan odam
Isyon qila olmaydi».

Keyin esa
Vazir so'zin
Eslab, boqqa yo'l olar,
Qo'shni yurtning xoksor xonin
U sekin gapga solar.

Javob berar har so'roqqa
Xon boshini qilib xam.
Qulluq qilar har bir gapda,
Olqishlaydi shohni ham.

Shoh etagin o'par takror,
Xuddi gulni o'pganday...
Ammo birdan
Qaddin tiklar
Bog' yarmiga o'tganda.

Ko'zlariga nur yugurib,
Nur sharori ko'pirar,
Shohga tikka qarab turib
G'azab bilan gapirar:

— Qul bo'lmasman senga, podshoh,
Qul bo'lmaydi xalqim ham.
Bilib qo'ygin,
Bo'lg'in ogoh!
Voz kechmasman haqimdan.

Voz kechmasman ozodlikdan,
Voz kechmasman orimdan.
Voz kechmasman sen toptagan
Bog'imdan,
Mozorimdan.

Seni jangda yengajakman,
Bilib qo'ygin,
Bo'l ogoh!
Senga qarshi chiqajakman,
Qul bo'lmasmiz senga, shoh!»

Uning so'zin tinglab, g'azab
Quchib butun borligin,
Eron shohi tuydi birdan
Qanchalar nochorligin.

Tuyar ekan,
Vujudida
Bosolmasdan titrog'in,

U egilib qo'lga oldi
Qo'shni yurtning tuprog'in.

Angladi, yurt mehri uyg'oq
Dilni yengib bo'lmaydi.
Hatto boshin olsang hamki,
U baribir o'lmaydi.

O'sha kuni izzat-ikrom
Qilib qo'shni xonni u,
Vataniga kuzatarkan
Dilini quchdi qayg'u.

U bilardi,
Erta tongda
Qo'shinini boshlaydi
Va isyonkor qo'shni yurtga
Askarlarin tashlaydi.

U biladi,
Bu savashda
U tor-u mor bo'ladi.
So'nggi jangda ham qo'shni xon,
Ham o'ziyam o'ladi.

Shuni o'ylab vujudini
Quchar armon titrog'i,
Qanday buyuk kuchdir, axir,
Ona-Vatan tuprog'!

1989



Savol va topshiriqlar

1. She'ning g'oyaviy mazmunini aytib bering.
2. Vazir qo'shni xonning yuragidagi dard-u maqsadni bilish uchun nimani o'ylab topdi?
3. Ona-tuproqning kishiga kuch-quvvat berishi masalasi she'rdan qanday badiiy hal etilgan?
4. Ona-tuproqdan kuch-madad olgan yunon qahramonini eshitganmiz? Uning nomi nima?
5. She'ning badiiy go'zalligi nimada?

LOLA GULLI PIYOLA

Agra aro
Kezadi mish-mish:
Saltanatning egasi Bobur
Qirq kundir kim, xasta yotarmish,
Xira tortmish ko'zlarida nur.

Xos tabiblar
Kezarmish mahzun,
Shoh dardiga topolmay chora.
Xotinlarin dardlari fuzun,
Farzandlari emish sadpora.

Na may bazmi,
Na gulob toti
Yoqmasmish shoh ko'nglida chiroq.
Qolgan emish xira surati,
Rangi emish bamisli tufroq.

Zarafshonbog' ichida tanho
Holsiz, tolg'in sayr aylarmish,
«Koshki o'lsamdagi bu darddan
Bo'lsam xalos», — deya aytarmish.

Nima uning ko'nglini qiynar,
Nima buz ar uning xayolin?
Qanday qurt u —
Kemir ar, chaynar,
Quritmoq bo'p hayot niholin?

Horitdimi uni saltanat,
Horitdimi uni yo qalam?
Qaydan kirdi vujudiga dard?
Qaydan bu g'am?
Qaydan bu alam?

...O'sha kunlar donishmand bir chol
Shoni yetib keldi quloqqa:
Ul bengallik ochar emish fol
Boqib turib bir kaft tuproqqa.

Sodiq navkar yo'l oldi shitob,
Ayamasdan na ot, na o'zin.
Yelib ketdi, qayda, deb, Panjob —
Eshitay deb donishmand so'zin.

Donishmand hind qildi bashorat:
«Uni ta'qib aylar piyola,
Piyolaga chekilgan surat:
Etti dona qip-qizil lola».

Yana aytdi: «Shundan shoh lohas,
Shundan shohning dilida faryod.
Ul piyola bo'lmish muqaddas
Shoh yurtining xokidan bunyod».

Sodiq navkar otini burib,
Yarim tunda ortiga qaytdi.
So'ng beklarning qoshiga borib
Bengal cholning so'zini aytdi.

Eng keksa bek birdan egdi bosh,
Ketgandayin belidan mador,
Shivirladi, ko'zlarida yosh:
«O, Turkiston, muqaddas diyor!

Qora quvg'in so'qmoqlarida
Kездik, g'amdan bo'lgancha ado,
Ammo, neki yurtdan esdalik
Ko'zimizga qildik to'tiyo.

Qay yurtlarda sarson yurmadik,
So'nggi umid gullarin tishlab,
Biz adashib ketdik kemadek,
Ona-Vatan qirg'og'in tashlab.

Garchi qilich,
Tig'larimizni
Tashlamadik janggoh, yo'llarda,
Ular sovuq, dillarimizni
Isituvchi taft yo'q ularda.

Orziqtirmas yurt xoki kabi,
Orziqtirmas ular dillarni.

Ular sovuq
Yurt xoki, deya
O'pib bo'lmas, axir, ularni.

On hazratga ul piyolani
Tiramohda bergandim — uni
Olgan edim Samarqand yoqdan
Kelgan karvon mol sotgan kuni».

Beklar sukut qildilar uzoq,
Eshitildi yurakda nola —
Chorlar edi ularni bu choq
Samarqanddan kelgan piyola.

Ammo ular nigohi tushdi
Bo'm-bo'sh turgan yoqtdor taxtga.
U turardi o'xshab kimsasiz
Ko'chalarda adashgan baxtga.

Qaror bitdi
va hamma ko'ndi —
G'amni tuyib xasta vujudda,
Piyolani maydalab ko'mdi
Mo'ysafid bek shahardan chetda.

Bobur qaytdi taxtiga yana —
Garchi dilda g'am ildiz otmish,
Garchi Vatan sog'inchi siyna
Aro xuddi xanjardek botmish.

...Ammo tunlar sodiq beklarning
Uyqusidan yo'qoldi orom,
Boqarlar ufq tomonga bexush,
Ilon kuyga bo'lganidek rom.

Shomda quyosh botayotganda,
Yer ostiga ko'mik piyola
Siniqlari uzra gulxanday
Tovlanadi yettita lola.

1984



Savol va topshiriqlar

1. Shoir Vatan tuyg'usini ifodalash uchun nega Bobur siymosiga murojaat etgan? Bobur kim? Uning taqdiridan xabaringiz bormi?
2. Nega piyolaga besh yoki to'qqiz dona emas, balki yetti dona lolaning surati chizilgan?
3. Piyolalarning sindirilib ko'mib tashlanishida qanday ma'no bor?
4. Shoir qanday topilma-obraz yordamida Vatan obrazini yaratgan?
5. «Vatan haqida yetti rivoyat» turkumini topib o'qib chiqing.

USMON AZIM

1950- yilda tugʻilgan



Usmon Azim — hozirgi oʻzbek sheʼriyatining eng yorqin namoyandalaridan biri. U nafaqat shoir, balki «Jodu» hikoyalari toʻplami, «Kunduzsiz kechalar», «Bir qadam yoʻl», «Alpomishning qaytishi» singari pyesalar, «Sevgi», «Alpomish» kabi kinofilmlar ssenariylarining ham muallifi sifatida mashhur.

Usmon Azim sheʼriyatida falsafiylik va majoziylik, ayniqsa, kuchlidir.

YIGIRMA BESHINCHI YIL

Otlar yelar. Shamol-u shiddat...
Beyoʻllikning yoʻllari uzun.
«Berajakmiz jonni — beminnat! —
Xoʻrlikdagi ona yurt uchun...»

Shamol koʻzdan oqqan yoshlarni
Olib uchar dashtning ichiga.
Yurtsiz qolgan gʻarib boshlarni
Dushman ildi nayza uchiga.

Qizgʻaldoqzor qonli daryosin
Aylanadi otlar shatirlab...

«Bizdan keyin o'zbek bolasi
Ozod yurtni ko'rsin, botirlar...»

O'qlar yangrar. Og'ir vaziyat.
Otlar — yaydoq. Beso'zdir lablar.
Yer yuzida uchar vasiyat —
Manguligin sezmagan gaplar.



Savol va topshiriqlar

1. She'r nima uchun «Yigirma beshinchi yil» deb atalgan? Siz she'rni qanday nomlagan bo'lar edingiz?
2. She'rning g'oyaviy mazmunini aytib bering.
3. She'rning g'oyaviy nafasi, sizningcha, qaysi satrlarda yorqin ifodalangan?

SIROJIDDIN SAYYID

(1958- yilda tugʻilgan)



Oʻzbek shoirlarining yosh avlodi orasida Sirojiddin Sayyidning alohida oʻrni bor.

U 1958- yili Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani-
da joylashgan Kundajuvozi qishlogʻida tugʻilgan. «Orzu» deb
nomlangan birinchi sheʼrlar kitobi 1975- yilda nashr etilgan.
Shundan beri shoir oʻzbek sheʼriyatining turli janrlarida
samarali ijod etib keladi. U barmoq vaznida ham, aruzda
ham baravar mahorat bilan qalam tebratadi. Uning oʻziga
xos isteʼdodiga lirikaning xalqona yoʻllari ham, falsafiy
toʻlqinlari ham, hajviy irmoqlari ham gʻoyat yaqindir.

VATANNI OʻRGANISH

Men Vatanni na kitob, na
Jaridadan oʻrganganman.
Momolarning yuzidagi
Xaritadan oʻrganganman.

Bobolarning tayogʻi-yu
Chorigʻini koʻrgandayman,
Men vatanni soʻrilardan,
Soʻqmoqlardan oʻrganganman.

Kinolarmas, bul Vatanni
Minorlardan o'rgandim men.
Oq lattalar hilpiragan
Chinorlardan o'rgandim men.

Xonaqohlar. Oftobalar.
Ketaverdim. Ketaverdim.
Har tog'ida bir avliyo,
Shul hikmatga yetaverdim.
Vatan. Vatan. Vatan. Vatan.
Nadir manga durri Adan?
Seling meni sel yetgusi,
Eling meni yel yetgusi.

Bu tepalar, qumtepalar
Ostidagi tarix qadar
Sukunating ko'rganda men,
Sukunatni o'rgandim men.

Oqshom yarimoying ko'rib
Kaftlarim yuzga surtaman.
Bir jism-u yuz ming ruhdaman,
Vatan. Vatan. Vatan Vatan.

Bog'ing ko'rib men bog' bo'ldim,
Dog'ing ko'rib o'rtandim men.
Seni Afg'on eldan kelgan
Tobutlardan o'rgandim men.

Pushtalarda qolib ketgan
Ko'nglim ekandirsan, Vatan.
Yolg'iz onam, parishonhol
Singlim ekandirsan, Vatan.

Men ko'ksimda qumday yongan
Yodlarga vido aytaman.
Yomg'irlaringda ketaman,
Vatan. Vatan. Vatan. Vatan.

Qancha g'amga maqbar dilim,
Maqbar ko'rsam qaqrar dilim.
Yong'in bo'lur jon ila tan,
Vatan. Vatan. Vatan. Vatan.

Ketaverdim. Yon-verimdan
Quyoshli har tomonlari
Nurlar sohib o'taverdi
Bu uylarning ayvonlari.

Har kun ko'rib, bilib, senga
Qayta-qayta yetavergum.
Vatan, mangu armon Vatan,
Ayta-ayta ketavergum.



Savol va topshiriqlar

1. She'rdagi: «Momolarning yuzidagi Xaritadan o'rganganman» satrlarini qanday tushunasiz?
2. «Kinolarmas, bul Vatanni Minorlardan o'rganganman» satrlarini-chi?
3. She'ning badiiyat bulog'idan yuzib chiqqan yana qanday go'zal satrlari e'tiboringizni o'ziga tortdi?
4. Ushbu she'ning Vatanga bag'ishlangan boshqa shoirlarning she'rlaridan farqi, sizningcha, nimada?
5. She'ning dastlabki uch-to'rt bandini yod oling.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

(1899—1929)



Hamza Hakimzoda Niyoziy XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Shoir, dramaturg va jamoat arbobi Hamza o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Uning, ayniqsa, 1915—1917 yillarda yozgan «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» turkumidagi she'rlari katta ahamiyatga ega. Shoir bu she'rlari bilan xalq ommasini hurriyat va milliy taraqqiyot uchun kurashga chaqirgan.

Hamzaning «Maysaraning ishi», «Xolisxon» kabi sahna asarlari uzoq yillardan beri o'zbek teatrlari sahnasini bezab keladi.

* * *

Vatan, vatan der edilar, na der erdim bilmay ani,
Endi bilsam Vatan erkon bu tanlaring shirin joni.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi Vatan!

Sensan ekan bizlarga chin tug'mish bir mungliq ano,
Boqq'ung tirik bo'lsak, agar o'lsak quchog'ingda yano.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi Vatan!

Ko'zlarimi ko'r bo'lgan uchun hech tanimas bo'lduk sani,
Og'rindi ko'nglung, yuzaga og'lo' siring chiqsin qani!

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Essiz, essiz, tug'gonlaring ko'z yumub o'q otub sani,
Bog'lab qo'ling yovuzlarga, ne oldilar sotub sani.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

San onai zor ekan-da, achingoning bor ekan-da,
O'lmay laxta qonlar to'kub xor bo'lub yurar ekan-da.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Biluvchilar qo'l tutmadi, bizga sani tonutmadi,
Bilnam nelarga aldanub tangri buyruqin tutmadi.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Bilimsizlar anglashmadi, ohu voying tinglashmadi,
Bilguvchilar burchi ekan o'ng'aylamoq, o'nglashmadi.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Nihon yig'lab qon yutunur, kechmog'lig'ingni o'tunur,
Mundin buyon o'g'lonlaring chandon tonurga tutunur.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

¹ O'g'lo — aslo ma'nosida.

QUDDUS MUHAMMADIY

1907—1997



Quddus Muhammadiy —o‘zbek bolalarining eng sevimli shoirlaridan biri. U bolalar ruhiyatini yaxshi bilgani, bolalar hayoti bilan yaxshi tanish bo‘lgani tufayli ular sevib o‘qishi va yodlashi mumkin bo‘lgan ko‘plab she’rlar va ertaklarni yozgan.

Shoirning siz, aziz o‘quvchilarga tavsiya etilayotgan ertagi, uning boshqa asarlari singari, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

BARKASH NON

To‘lqinjonning sho‘xligi
Haddidan oshib ketdi.
Anhorning to‘lqiniday
Pishqirib toshib ketdi.
O‘ltirib choy ichishga,
O‘yindan qo‘li tegmas.
Ota-ona so‘zini
Nazar-pisandga ilmas.
O‘ynab yurib non yeydi,
Yerga to‘kib uvog‘in.
Qandni choy bilan ichmay,
G‘ajiydi qars-qurs tag‘in.
Tish bilan qand urishib
Og‘zida chaqmoq chaqar.
Achinib chaqma desang,

Senga xo'mrayib boqar.
Bir kun To'lqin ko'chada
O'ynar edi kavshab non,
Yeb tugatmay parchasin
Irg'itdi kesaksimon.
Non burda yerga tushib
Qorishadi tuproqqa.
O'tkinchi bosib yanchar,
O'tsa u yoq-bu yoqqa.
Shunda bir bola deydi
(Kuyib-pishib, achinib):
«To'lqin, nima qilganing!
Nonni kesakdek otib?..»
To'lqin aytar: «Ne bo'пти
Yerga tushsa «parcha non»?
Yeyishga kamirmidi,
Dadamlar bo'lsa omon...»
Demasdanoq bolalar,
Tanqid qildi o'sha payt:
«Dadang axir, o'rtoqjon,
Tekin topmas, o'zing ayt!
Ter to'kib mehnat qilar
Undan so'ng olar maosh.
Agar mehnat qilmasa
Qaydan kelar non-u osh!
Suv sol teshik chelakka,
Ming to'ldir—turarmikin?
Traktorga moy quyma
Motori yurarmikin?».
Bolalar so'zi yoqdi,
Ushoqlarga jon kirdi.
Egamiz qayoqda deb
Hamma ushoq baqirdi.
Bizni ekib o'stirgan,
Oltindek bug'doy qilgan,
O'rib, yanchib, g'aramlab,
Mashinada saralab,
Don, somonga ayirgan.
Qop-qanorni to'ldirib,
Ombor-ombor don uygan.
Tegirmondan o'tkazib,
Upaday oq un qilib,
Oq unlardan ming turli

Shirmoy kulcha, non qilib,
Teshik kulcha, pechenye,
Gijda non, obi nonlar,
Bo'lka-yu, bulochkalar,
Vermishel, makaronlar
Tayyorlagan ustalar,
Hunarmand pazandalar.
O'quvchilar qatnashgan,
Bittalab tergan mashoq.
To'lqinjon bilarmikin!
Non bolasi — non ushoq,
Ayting axir nonmasmi?
Bizning katta onamiz
Jajji bug'doy donmasmi?
Tog'lar ham toshchalardan
Birikib tog' bo'ladi.
Dov-daraxtlar to'dasi
O'rmonzor bog' bo'ladi.
Million tonna paxtalar
Chigitning mevasi-ku!
Ko'z ilg'amas hujayra
Odamning onasi-ku!
Biz, ushoqlar ham shunday,
Aziz non bo'lagimiz.
To'lqin isrof qilmasin.
Suxarijon bo'lamiz
Deyishdi-yu, ushoqlar
Otilib chiqdi yerdan.
Hammalari qo'shilib,
Katta non bo'ldi birdan.
Bunaqa barkash nonni
Hech qachon ko'rmaganman.
Yer, Oydan sag'al kichik,
Men ajabda, xayronman.
Yer yuzini qoplashga
Kelar bu non chamasi.
To'lqin kabi bolalar
Sochgan ushoq barchasi.
Barkash non savlatidan
Bolalar qo'rqib ketdi.
Labiga uchuq toshib,
Qochishib, buqib ketdi.
Qani bu ko'rkam nonni

Burdalab bo'lsang agar,
Yer yuzining bolasi
Yetardi yesa agar.
Afsus, shuncha barkash non
Tuproqda chirib ketsa.
Bu gapning ma'nosini
To'lqinjon uqib yetsa.
Barkash non ham gapirdi,
(Tovushi momaqaldiroq)
Deydi u kuyib fig'on:
«— Afsuski, bizni asl
Odam o'g'li yemasdan
Isrof, nobud bo'lganmiz.
Xalqqa xizmat qilmasdan,
Yerga bevaqt kirganmiz.
To'lqinlar sochmasaydi,
Kuch bo'lardik odamga.
Ko'p quvvat tanamizda
Qoldi chiqmay olamga.
Dedi-yu, charxpalakdek
G'ildirab yurib ketdi.
Ona yerning bag'riga
Guldirab kirib ketdi.
Orqasidan tabiat
Hay-haylab qolgan kabi,
Shamol-quyun chopadi
Kishnab jiyron toy kabi.
Bir zumda bu voqea
Yoyildi hamma yoqqa.
Eshitgan yaqin-yiroq
Kelgan emish ko'rmoqqa.
Necha kun kutibdilar,
U qayta ko'rinmabdi.
Ko'rolmagan bolalar
Eh, armonda qolibdi.
Hanuz o'sha barkash non
To'lqin ko'zi oldida.
Uning oydek savlati
Ketmas, doim yodida.



Yozuvchilar adabiyot to'g'risida 3

HIKMAT DURDONALARI

Maqollar 8

Ibratli hikoyatlar 10

IMOM AL-BUXORIY

Hadislar 15

KONFUTSIY hikmatlari 21

«Hikmat durdonalari» rukniga ilova

PAULO KOELO

Baxt kaliti. *Ozod Sharafiddinov tarjimasi* 24

ERTAKLARNING SEHRLI OLAMI

Podshoh va to'ti («Uch og'a-ini botirlar» ertagidan) 27

Husniyabonu 29

HAMID OLIMJON

Semurg' yoki Parizod va Bunyod 36

SHUKRULLO

Ahillik haqida 51

XANS KRISTIAN ANDERSEN

Chaqqoqtosh. *Mahkam Mahmudov tarjimasi* 54

«Ertaklarning sehrlil olami» rukniga ilova

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV

Himmatli faqir 63

AFSONALAR SADOSI

MIRKARIM OSIM	
Temur Malik	67
MAQSUD SHAYXZODA	
Sulh daraxti	80
CHINGIZ AYTMATOV	
Odam va bo'ri bolalari («Qiyomat» romanidan)	83
<i>«Afsonalar sadosi» rukniga ilova</i>	
ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN	
Baliqchi va baliq haqida ertak. <i>Mirtemir tarjimasi</i>	90
MUMTOZ ADABIYOTGA SAYOHAT	
ALISHER NAVOIY	
«Mahbub ul-qulub»dan	98
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR	
Ruboiylar	103
MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY	
«Sayohatnoma»dan	107
SA'DIY SHEROZIY	
«Bo'ston»dan	111
<i>«Mumtoz adabiyotga sayohat» rukniga ilova</i>	
KAYKOVUS	
«Qobusnoma»dan. <i>Subutoy Dolimov tabdili</i>	114
BOLALIKNING BEG'UBOR OLAMI	
ABDULLA QODIRIY	
Uloqda	120
G'AFUR G'ULOM	
Shum bola va Sariboy («Shum bola» qissasidan)	130
OYBEK	
Fanorchi ota	136
Bolaning ko'ngli podsho	138
MIRTEMIR	
Tong qushlari	142
Handalak	143
Jala	144

Hali ham	144
Buvimning cho'pchaklaridan	145

USMON NOSIR

«Yurganmisiz birga oy bilan...»	148
«Hayot hali mening oldimda...»	149
She'rim	149

O'TKIR HOSHIMOV

Dunyoning ishlari	150
-----------------------------	-----

ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI

Kichkina shahzoda. <i>Xayriddin Sultonov tarjimasi</i>	156
--	-----

«Bolalikning beg'ubor olami» rukniga ilova

RAUF PARFI

«Sohil bo'ylab borardi bir chol...»	171
---	-----

VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

FITRAT

Yurt qayg'usi	174
-------------------------	-----

ERKIN VOHIDOV

Vatandin yaxshi yor bo'lmas	178
---------------------------------------	-----

ABDULLA ORIPOV

O'zbekiston bayrog'i	181
--------------------------------	-----

XURSHID DAVRON

«Vatan haqida yetti rivoyat»dan	185
---	-----

«Vatanni sevmog' iymondandir» rukniga ilova

USMON AZIM

Yigirma beshinchi yil	194
---------------------------------	-----

SIROJIDDIN SAYYID

Vatanni o'rganish	196
-----------------------------	-----

Sinfdan tashqari o'qish uchun

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

«Vatan, vatan der edilar...»	199
--	-----

QUDDUS MUHAMMADIY

Barkash non	201
-----------------------	-----

NAIM KARIMOV, UMARALI NORMATOV

ADABIYOT

5- sinf uchun o'quv qo'llanma

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2004

Muharrir *Zebo Mirzahakimova*
Badiiy muharrir *Muzaffar A'lamov*
Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*
Musahhihlar *Y. Bizaatova, J. Toirova*

Terishga berildi: 09.08.2004. Bosishga ruxsat etildi: 14.09.2004. Bichimi 60x90/16. Tayms garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 13,0. Nashriyot-hisob tobog'i 11,5. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 666. Bahosi 1110 so'm.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi
700083, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41